


Рӯё ёхӯд Ғулистонга сафар

Аҳмад Аъзам

Рӯё ёхӯд Ғулистонга сафар

Аҳмад Аъзам





“Хуллас, Гулистонни кўриш фақат менга насиб бўлган. Хотираларимни авайлаб сақлашим керак эди, лекин сиздан яшира олмайман... мен Гулистонга бориб, эсон-омон қайтиб келганман, шуни албатта айтишим, сиз билишингиз шарт эди, қолган ҳаммаси бўладиган гаплар”.



AHMAD A'ZAM

Ro'yo yoxud G'ulistonga safar

Roman

Mundarija

Boshlama	5
Kirish	10
Sayohatning eng boshi	29
Safarning boshlanishi	36
G'uliston yoki g'uliylarning hayoti	47
Mening g'uliylarga qaraganim, ularning...	57
G'uliylar do'koni	63
Mening ham aqlim bularnikidan kam emas	83
Namunali ichg'u	87
Bir narsalar bo'ladi chog'i	93
G'uliston qomuslari va bahslar	96
Sevgida ham sevgi bor	99
Do'stinga raddiya	106
G'ulistonning asosiy san'ati	113
Muhabbat go'shasi	120
Bolaligim qushlari	122
Xoldor bilan kelishmagan yaqin oshnalarmiz	127
Elektron bo'yoq	133
G'uliston tarixi haqida naqlar	137
Arosat	144
G'uliylarning dohiysi	147
Yana arosat yoki yana muhabbat sahnasi	149
Tabiat baribir yurakka yaqin-da	154
Bir yolg'on o'nlab yolg'onlarni bolalatadi	157
Zanjirning tarixda kelib chiqishi va qoidalari	160
G'ulistonda jazo	167
Bolaligimdagi dunyo	168
Kim edi ular va men kim?	188
Hali ham kimligimni o'ylayman	205
G'ulistondagi jiddiy tadqiqotlar	220
Qudrat yo'q yerdan ham bo'ladi	226
Badiiy asar ham xavfli bo'lar ekan	228
Kutilmaganda shodlanganim	235
Yo o'zimga bir narsa bo'ldimi ekan	244
Vaziyat o'zgarayotgan ekan	251
Bari bir ko'tar-ko'targa uchradim	260
Yana o'sha shubha-gumonlar	270
Shu havoda yana yo'l	274
O'zimizning chuqur-choplar	278
O'lan to'shagim	285

Yettinchi javob: bu qissamizning avvali ham tush,
o'rtasi ham tush, oxiri ham tushdur.

“Yusuf alayhissalom qissasi”

Boshlama

Bu savdoga uchraganimga ko'p bo'ldi. O'n besh yillar, ehtimol undan ham ko'pdir. Shuncha vaqtdan beri tinchim yo'q, na unutib, esimdan chiqarib, xotirjam yashadim, na ko'rgan-bilganlarim asosida u-bu narsa yozib, chiqardim. Yozishni-ku o'sha payti, ya'ni borib kelgan vaqtlarimdayoq boshlagan edim, lekin bunaqa gaplarga ishonadigan odam topilarmikan, aytishga aytib, keyin hammaga kulgi bo'lib yurmasam edi degan istihola bilan to'xtatganman. Keyinlar ham ko'p uringanman, turkum hikoyalar qilmoqchi bo'ldim, ro'mon yozishga chog'landim, tajribam yo'q, qo'lim kelmadi. Keyin vaqt o'tib, o'z ko'zim bilan ko'rganlarimga o'zim ham uncha ishonmay qoldim, yo'q... Yo'q, noto'g'ri gapirdim, ko'rganlarimga o'zim shubhalansam bo'lmas, tub-tubigacha tushunib etganim yo'q, desam to'g'riroq. Lekin endi aytib bermay ham ilojim qolmadi. Shu satrlarni o'qiyotgan bitta sizga emas, hammaga, butun insoniyatga etkazishim kerak. Ha, bu – bir kishi o'zida saqlaydigan siriy gap emas! Oltmishga yetdim, boshqatdan yigit bo'lib qolmayman, qirq beshimda yoza olmagan ro'monga endi ham kuchim yetmasa kerak, bu yog'i sog'liq ham haminqadar. Shuning uchun ham qanaqa asar bo'lib chiqishidan qat'i nazar, qissa deymanmi, ro'monmi yo kuzatuvlarmi, balki safar taassurotlaridir, o'qib chiqsangiz, undagi voqealardan voqif bo'lsangiz kifoya. Ularga ishonish-ishonmasligingiz ham ikkinchi darajali masala. Eng muhimi – shunday bir mamlakatning borligi va mening o'sha yoqqa borib kelganim.

Ha, darvoqe, bir do'stim shu haqda ro'mon yozgan, ko'p nusxada chiqqan, o'qigansiz, lekin uni endi o'qimang, sababini hali ko'p aytaman, gap ham ko'p.

O'zi odatda, asarlarga so'zboshilar, shunday atalishiga qaramay, asar yakuniga yetgach, uni avval yozuvchining yoru do'stlari ko'rib berib, so'ngra kattaroq, masalan, ro'mon bo'lsa, yozuvchilar uyushmasida muhokama etilib, kichikrog'i, deylik, qissa, nashriyotda o'qilib, bosishga loyiq topilgandan so'ng, u-bu izoh, tushuntirish lozim topilsa, keyin yozilar edi. Men esa mazkur so'zboshini endi yozishga chog'langan yo'l xotiralarimga boshlama qilyapman. Yozmoqchi bo'layotganlarimning yaxlit bir syujeti yo'qligini ham aytib qo'yay, chunonchi sizga tanishtiradiganim g'uliyalar ham to'qima badiiy obrazlar emas, balki, tanqidchilar iborasi bilan aytganda, obrazga prototip, ya'ni jonli odamlar. Men bir voqea yoki ishqiy sarguzasht to'qib, ularni bosh yoki ikkinchi darajali qahramonlar sifatida harakatlantira olmayman. Chunki ma'lum toifa odamlardan badiiy obraz yaratish, ularning boshidan kechgan voqealarni qalamga olish uchun, avvalo ularning o'zini, yashayotgan hayot muhitini ham bilish kerak, men esa bir ko'rdim, bular qanaqa odamlar, turish-turmushlari nega bunaqa, deb esim og'ib yurganimda, xudoga shukr, yana o'zimizga qaytib qoldim, demoqchimanki, ko'rganlarimning tubigacha yetishga ulgurmadim. Shuning uchun qanday ko'rgan bo'lsam, shundayicha gapirib, ya'ni yozib berishga majburman. Shubhasiz, ularning hayotida ham badiiy asar qilishga arzigulik turli voqea-hodisalar, ibratli ishqiy savdoyu sarguzashtlar ko'p bo'lsa kerak, talayini eshitdim ham, ammo aytganlariga asoslanib, ko'rganlarimga tayanib, ro'monni-ku qo'yavering, biron hikoya yo qissa yaratish qo'limdan kelmaydi. Balki o'rnimda ustoz adiblarimiz bo'lsa, bir marta ko'rganlarining o'zidanoq katta asarlar chiqarardilar, chunki ularning tajribalari katta, xayolotlari boy, xohlagan voqea yo sarguzashtdan xohlagan janrda asar chiqarib berishlari mumkin. Yozuvchi do'stim ham to'qishga juda usta. Menda bunaqa tajriba yo'q, g'uliyalar hayotini o'rganish, tushunib tadqiq yetish uchun esa yozuvchilik malakasidan boshqa ham ko'p fazilatlar zarur edi: o'zida ideolog, faylasuf, iqtisodchi, sosiolog, etnolog, arxeolog, psixolog, geolog, manbashunos, gidrolog, ma'danshunos, matematik, xullas, hayotda qaysi mutaxassislik uchrasa, hammasini mujassam qilgan, shunda ham jami tahsilini bu yoqda emas, u yoqda, ya'ni G'ulistonda olgan, yana bu ixtisoslarning hammasi

bitta odamda bo'lishi kerak. Chunki u yoqqa shuncha mutaxassisni to'plab, birga yuborishning sira iloji yo'q, hatto bir kishining borishi ham mahol muammo. Shu bugungi kungacha G'ulistonga bitta men borib-qaytganman, oldin o'zimizdagi boshqa mamlakatlardan biron sayyohning yo'li tushganmi, yo'qmi, bu ham noma'lum, borgani bo'lsa-da, qaytmagani aniq, o'sha yerda qolib, g'uliylashib ketgan bo'lsa ehtimol, chunki ularda bunaqa ma'lumotlar mutloq oshkor etilmaydi. Alalxusus, g'uliylarni bu dunyomizga oshkor etish bitta mening chekimga tushib turibdi. Shundan kelib chiqib aytyapmanki, u yoqqa boradigan odam dunyodagi hamma mutaxassislikni egallagan bo'lishi shart. Ayniqsa, jug'rofiyun - geograflik kasbini. Mana, men borib, butun boshli mamlakat, butun boshli bir xalqning hayotini o'z ko'zim bilan ko'rdim, g'uliylarning orasida yashadim, shaharu qishloq, bog'u rog', dalayu cho'llarining hammasini kezmagan bo'lsam-da, oralab o'tdim, tuprog'iga qadam bosdim, havosidan nafas oldim, kunduzi osmonu bulutlarini, kechalari oyu yulduz g'ujjalarini tomosha qildim, lekin kelganimdan so'ng o'zimizning xaritalardan u mamlakatning jug'rofiy o'rnini topolmadim, dunyoning eng mayda aholi mavzelarigacha belgilangan atlaslaridan axtardim, ularda bunaqa mamlakat yo'q! Katta xaritalarning kichik nuqtalarini kattalashtiruvchi zarrabin oynalar bilan tekshirib chiqdim. Tupkaning tagidagi yashil burun orollari degan mamlakatchaning orolchalarigacha bor, lekin G'uliston xaritalarga tushmagan. O'zimizdagi jug'rofiya bilimdonlariga buni aytgan edim, menga ma'noli qarab qo'yidilar, xolos. Yo'q, birodarlar, mening aqlim joyida, ularning bunaqa qarab qo'yishlarida nima borligini ham tushunaman, o'zlari bilmagan narsani so'ragandan keyin xayollariga har narsa kelishi tabiiy. Qancha kutubxonalarda o'tirdim, qomuslarni varaqladim, talay ilmiy kitoblarni titkiladim, badiiy asarlarni o'qidim - g'uliylarning hayotiga tegishli biron ishora topilarmikan deb, topolmadim. Nahotki dunyoda butun boshli bir xalq yashasa, uning butun boshli hayoti, mamlakati, tarixi, ilm-fani, madaniyati, urf-odatlar, e'tiqodi, xullas, jami narsasi but bo'lsa-da, boshqa xalq yoki davlatlar uning borligidan mutlaqo bexabar yursa, deb ko'p o'yladim. Yo'q, g'uliylar bilan bordi-keldi aloqalar o'rnatilishining iloji topilmas, lekin ularning bu jahon sahnida borligini bizning

butun dunyomiz bilishi lozim, yurtlariga borib qolganimda ko'rganlarimni yozishim kerak, deb ahd qildim.

Endi, albatta, katta yozuvchi emas-u, ul-bul narsalar yozgan odam sifatida ayrim sahifalarda, xususan o'z ahvol-ruhiyam, taassurotlarimni yozayotganimda tilim yozuvchilikka ketib qolishi mumkin. U yoqda eng pand bergani ham shu yozuvchilik bo'ldi. Asli bu kori xayr keyingi yillari tirikchilikka tirkak bo'lolmay qolgan edi, G'ulistonda u mutloq teskari ish berdi. Yozuvchi - o'z mamlakatida, o'zi biladigan odamlar va, eng asosiysi, o'zi bilgan hayot ichida yozuvchi, uning xayol-tasavvurga boyligi o'z yurtida ish beradi, ya'ni u asarlariga materialni shu hayotning o'zidan oladi, hatto xayoliy asarlar yaratsa ham, xayoli shu hayotga tayanadi. Lekin men ko'rgan G'uliston shunday mamlakat ediki, uning o'zi xayol, u yerda yozuvchi odamning og'zini ochib tomosha qilishdan boshqa hech ish qo'lidan kelmaydi. Ko'rganlarining ham hammasi savol! Shunga aytyapman-da, yozuvchilik sal havoyiroq deb, agar o'rnimda hamma savollarga javobni biladigan bir qomusiy olim - jomiul-ulum bo'lganda, G'uliston va g'uliyalar hayoti haqida chuqur bir tadqiqot, ya'ni katta bir kitob yaratib, bizdagi odamlarni shunday bir unut mamlakat, shunaqa unut bir xalq borligidan voqif etar edi. Kaminada bunaqa noyob iqtidor yo'q, undan-bundan cho'qilab o'qigan odamman, xolos. Hozir jomiul ulumlarning ham vaqti o'tgan, bitta olim ming dono, ming bilimdon bo'lmasin, butun bir mamlakat, butun boshli bir xalq haqida nimani ham ayta oladi?

Nachora, bor – boricha, yo'q - holicha, ko'rganim ko'p, bilganim oz bo'lsa-da, bir boshdan, baholi qudrat aytaverishga to'g'ri keladi. Yozadiganlarim sizga g'alatiroq tuyulsa yo kuzatishlarim sayoz chiqsa – men tan, bergani ham, bo'lganimiz ham shu.

Yozadiganlarim, hozir shu uzrni so'rayotganimda sezib turibman, parokandaroq, bog'lanishlari sustroq chiqar, G'uliston haqida sizga yaxlit, birbutun tasavvur berolmas, ammo bu mamlakatga bizdan, takror aytaman, mendan boshqa biron inson borgan emas, biz biladigan mamlakatlardan ham biron sayyohning qadami

tegmagan, men ham u yerda ko'p turmadim, aniqrog'i, qancha yashaganim noaniq, shu bois taassurotlarimdan o'zimning ham ko'nglim to'lmasa-da, ularni sizga tortiq qilishni burch deb bilaman. Tortiq ham emas, yashirib yurishga haqqim ham yo'qdek tuyuladi: xotiralarimni e'lon yetishim sizga qiziq bo'lsa, g'uliyalar ham shunga juda muhtojdek. O'qisangiz, qanday ahvolga tushganim va nimaga bunaqa g'alatiroq yozishimning sabablarini o'zingiz ham anglaysiz degan umiddaman. Ha, keyin «G'uliston» atamasini qulog'imiz o'rganib qolgan «Guliston» bilan zinhor adashtirmasangiz, sababi - bular ma'nosi bir-biridan juda yiroq so'zlar, o'qish davomida buni ham bilib borasiz, albatta.

Men yozadigan G'ulistonning yozuvchi do'stim yozgan uydirma mamlakatga hech bir aloqasi yo'q, uning tilingizga tushgan ro'monidagi men ham men emasman; qiziq narsa, lekin u yoqdagi hayot haqida mendan eshitganlarini o'z bilganicha bu yoqdagi hayotga moslab to'qigan, oqibatda noto'g'ri narsa chiqqan. O'zim yozgan bu asar muayyan ma'noda yozuvchi do'stimning yaxshi niyatda, ammo meni mutlaqo boshqacha qilib ko'rsatgan ro'moniga to'g'ridan-to'g'ri raddiya ham. Nima sababdan do'stimning yaxshiligiga oqibat ko'rsatmayapman, buni ham yo'l-yo'lakay aytib o'taman. Yozganlarim, takror uzr so'rayman, mukammal emas, lekin ularni mukammal qilaman deguncha, umr o'tib ketishi mumkin.

Ketdik, bo'lmasa.

Muallif

Kirish

Kechqurunlari bezovtalanaman. Kallamda shovqin turadi. Ayniqsa, el uxlab, hammayoq tinchigandan keyin kuchayadi. Yotolmayman, bosiq g'ovur, allaqanday shivir-shivir, uzuq-yuluq surnay kuyi, juda olisda qizigan bir bozorning g'ala-g'ovuri keladi. Shu yerda yotganim ko'yi yana allaqanday izdihomga aralashib yurgandek bo'laman. Kunduzgi shovqin xuddi toshqin suvdek kallamga kirib, o'tib ketayotganda uning har joy-har joydagi chuqurchoqlarida qolib ketganu endi shu loyqa ko'lmaklar shilpillayotganga o'xshaydi. Kechalari kunduz davom etayotgandek...

Uxlab, uxladimmi, uyg'oqmanmi, bilmayman: ba'zan odamlar shundoq Yonimda gaplashadi, ataylab, men yotganimni bilib, shundoq tepamda shang'illab turadi. G'ovur-g'uvur, g'o'ng'ir-g'o'ng'irning ichida, boshim itirqin, alla-pallaga borib nihoyat uyquga ketaman. Kunduzi lanj, garangsib uyg'onaman, yuragim o'ynab turadi, lekin qulog'imdagi shovqin yo'qoladi. Ertalabki oftobdan qiynalaman, ko'zim achishib yoshlanadi, ichim dirdirab yuraman. Choshgohlarga borib, achchiq choy damlayman, bostirib-bostirib ichaman, chanqovim bosilib, boshim terlaydi, sochim jiq-jiq ho'llanadi, hayotga qaytib odam bo'lgandek bo'laman, dunyo bilan odam qatori tillashaman. Hangomalashishni yaxshi ko'raman, to'ymay qolishdan qo'rqib ko'p gapirib yuboraman. Hayajon bilan, xuddi hamsuhbatlarim eshitmay ketib qoladigandek, ilhomlanib gurung beraman. Asrlarga borib boshim engil aylanayotganini tuyaman. Tamakidan deyman, rost, qancha cheksam, shuncha yoqmay qoladi, ammo shu bemaza ahvoldan qutulish uchun battar chekaman. Birdan toliqaman, yurishga ham, yotishga ham bo'lmay qolaman. Kitob o'qiy olmayman, televizorga qarab yuragim siqiladi, qulog'ini sharaq-shuruq burab kanallarini almashtiraman. Yotishdan yuragim bezillaydi – boshlanadi: yana bosiq g'ovur, g'o'ng'illash, kimlardir past tovushda tinmay shang'illayveradi, odamzodning mayda gapi sira tugamas ekan, deb ezilib yotaman.

Tushlarim ham juda g'alati: kunduzi nimani ko'rsam, kim bilan gaplashsam, nimani tortishgan bo'lsam, hammasi to'ppa-to'g'ri tushimga o'tib ketadi, yana

buning tush ekanini bilib yotaman, bilib tursam-da, tushimda yayrab yurolmayman, kunduzi gapimni o'tkazolmaganlar bilan yana aytishaman, bo'g'ilaman, asabim buzilgandan keyin tushim sekin g'uvillab ayniydi: xotinim, bolalarim borligini bilib yotgan holimda hali uylanmay yurgan yillarimga o'tib qolaman, mashinamga o'tiraman, lekin hayday olmay, qanday yurg'izish kerak, deb qiynalaman, mashinaning o'zi yurib ketadi, men uni boshqarolmayman, chunki oyog'im qimirlamaydi, tepinaman-da, ilkis uyg'onaman, chunki oyog'imga ko'rpa o'ralib qolgan bo'ladi. Ba'zan qiynalib ketsam, tushimdayoq uyg'onib olaman, davomini ko'rish azobini o'zim to'xtataman. Yo'q, tushim to'xtamaydi, lekin ana shu tushimda «Ha! Ha! Qani, ochdik!», deb bir silkinib ko'zimni majburlab ochaman.

Bir tushni tez-tez ko'raman: o'n besh yilcha oldin Jarariqda bir kampirning hovlisida turganman. Bu hovli qizining uyiga devor-darmiyon, kampir qizirikida turar, o'zining hovlisiga, ya'ni biz turgan joyga kamdan-kam o'tar, ijara pulini ham qizirikidan chaqirib olib, berar edik. Kim biladi, kampirning pulga zorligi yo'q, shunchaki hovli huvillamasin, chirog'i yonib tursin der edimi, lekin bir qiz nevarasi bor edi, meni shunaqa yomon ko'rardiki, qo'ng'iroqni bosib, taqillatib, bir amallab darvozani ochdirganimdan keyin boshini chiqarib nima gapligini so'rash o'rniga «Ha-a!» deb shunaqa baqirib bir berardi, xuddi men kampirni o'ldirgani kelganmanu bu megajinning pahlavoni meni fosh qilib qo'ygandek, yuragim yorilib ketay derdi. Kampirning nevarasini keyin ham unda-bunda ko'rib qolsam, mazam qochardi, o'sha qo'rquv hali-hanuz yuragimdan chiqmagan, bo'lmasa, yoshi mendan kichkina, ushoqqina qiz edi, albatta, teshik kulcha yerda yotmas, turmushga chiqib, bir ro'zg'orni tebratib yurgandir, lekin eri sho'rlikka qanday ekan, deb seskanib ketaman.

Ana shu hovli hadeb tushimga kiradi. Ya'ni, boshqa joyga ko'chganimda necha oylikdir ijara pulini bermagan bo'laman-da, shuni tushimda ich-ichimdan ezilib o'ylayveraman, o'ylayveraman, kampirni axtarib borishni niyat qilaman, lekin oradan shuncha yillar o'tgan, Jarariq buzilib, u hovlining o'rniga ham ko'pqavatli

uy tushgan, kampir qizi bilan ko'chib ketgan, qizining uyini topsam, kampirning o'zi bormi yo o'tganmi, eshigini taqillatsam, yana haligi nevara chiqib baqiradi degan xavotir, xullas, u yoqdan o'ylaganda ham, bu yoqdan o'ylaganda ham, chorasi-echimi yo'q ezgin bir xayolda yotaveraman. Qiziq lekin, ijara pulini ba'zan o'z vaqtida bermagandirman, lekin biron marta eb ketganim yo'q, oxirgi marta, ko'chish oldidan, kampir bilan hisob-kitob qilib, duosini olganman, haligi meni yomon ko'radigan nevarasiga biron yomonlik qilmaganman, yomon ham gapirmaganman, u bilan umuman ishim yo'q edi, bilmadim, nega shuncha yil o'tibdiki, xuddi kampirga ijara pulini to'lamay qochib ketgandek tush ko'raman – hayronman; gohida uyg'onib o'ylayman, balki bo'sh hovliga, ikki xonali, poydevori baland, g'ishtin, bahavo yaxshi uyiga nisbatan arzon turgandirman, qarzдорlik hissi shungadir deyman, qiz nevarasining hayotda ham meni buncha yomon ko'rishiga kelsak u meni yaxshi ko'rgan bo'lsa kerak, yaxshi ko'rishini o'zi ham anglamay, ataylab, jon-jahdi bilan yomon ko'raman deb o'ylagan bo'lsa kerak, deyman. Shunisi to'g'riroq chiqar, bo'lmasa nega buncha tanlab, ashaddiy, maxsus, ishtiyoq bilan o'qrayib yomon ko'rgan meni? Har qalay, shu paytgacha o'sha nevara qizning o'zi emas, undan qolgan qo'rquvning tushimga kirishi bejiz emas. Keyin, to'g'risini aytsam, bir marta shunday bo'lgan ham, lekin bu tushimga kirmaydi. Avtobusda bir qiz bilan aytishib qoldim. Odam ko'p emas, lekin o'tirgani joy yo'q, tikka ketayotgan edim, qizni ko'rganim yo'q, u esa birdan menga: «Sen, yigit o'lgur, nega menga qaraysan? Men senga tomoshaqovoqmi?», deb senlab qichqirib yubordi. Dovdiraganimdan: «Qachon qaradim, singlim?», degan edim, «Qarading! Mana, qarayapsan-ku! Qarab turibsana-ku!», deb yana baqirdi. Avtobusdagilar ham angrayib menga qaradi, lekin hech kim gapirmadi, bari bir, juda o'sal bo'ldim, qiz menga g'irt begona, ilgari sira uchratmaganman, avtobusga chiqqanda ham ko'rganim yo'q, birovga o'xshatdimi, balo-qazodek yopishib ketdi. «E, bor-e!» deb yuzimni zo'rg'a burib oldim. «Ha, endi ko'zingni yashirasanmi? He shu ko'zing go'rda chirisin!», deb yana qarg'ashga tushdi. Hammaning ko'zi ikkovimizda, xuddi men uning nozik joyidan hech kimga bildirmay chimchilab olgandek shunday qarg'adiki, bo'ralab so'kdi, desam ham

bo'ladi. Yomon uyaldim. Miq etmadim, indaganimda ham bunga bas kelishim amrimahol edi. O'zimni chetdan qarab turgan boshqa birovning o'rnida tasavvur qilib, bunga o'zim bilmay bir yomonlik qilganman shekilli, bo'lmasa odam bolasini ham shuncha yomon ko'rib qarg'ash mumkinmi, deb ham o'yladim. Yonidan o'tayotganda qo'l-po'lim biron joyiga tegib ketdimikin desam, u orqa eshikdan chiqqan, men oldingi eshikdan. Yaxshi hamki, tushadigan bekatim kelib qoldi. Buni qarangki, u ham birga siljidi, bekatimiz bitta ekan, bizdan boshqa hech kim tushmadi. Avtobus jo'nadi, bekatda ikkovimiz, u menga teskari qarab turibdi-yu, xuddi ketgisi yo'qdek tuyuldi menga. «O'v singlim, juda ko'zim go'rda chirigulik nima yomonlik qildim sizga?», desam, u menga yalt etib qaradi-da, birdan ko'zlari yoshlanib: «Ha, nima qilay sizni yaxshi ko'rsam, erim bo'lsa, u asli sizdan ham yaxshi bo'lsa-da, men esa sizni yaxshi ko'rsam, xo'sh, sizni qarg'amay kimni qarg'ashim kerak, qani, o'zingiz ayting-chi?», desa bo'ladimi? Nima deyman, ko'nglimdagi xo'rlangan g'urur bilan tosh qotib qolaverdim, u esa menga qarab turdi-da, keyin shaxt burilib, o'sha mendan yaxshi erining oldiga ketaverdi. Tim qora ko'zlari o't, qaddi sarviravondek, o'zi ham chaq nab turgan bir alomat juvon ekan. Tilimga «xayr» degan kalom ham kelmadi. Kampirning nevarasi ham muhabbatini shunday izhor qilgandir, lekin u sira tushimga kirmaydi, ijarada turganim, ko'nglimdagi qarzdorlik va o'sha qizdan qo'rquv tuyg'usining o'zini his etib yotaman tush ko'rganimda, uni emas.

Ba'zan esa juda yorqin, juda chiroyli tushlar ko'raman, uyquda ko'tarilib, bahavo kengliklarga chiqib ketganimni bilib yotaman. Qanday yaxshi-ya, tushim uzilmasin, ishqilib, oxirigacha ko'ray deb, yuzimni paryostiqqa qattiqroq bosaman, bilib turib uyg'onmayman, ba'zan hatto uyg'onib ketsam ham, chuqur nafas olib, hozirgina ko'rgan tushimni bir eslayman-da, kelgan joyidan davom ettiraman.

Mana, bittasini aytaymi? Tushimda ko'p izzat-hurmat bilan Qashqadaryoning qaerigadir boribman. Tog' tagidagi bir qishloq, qishloqdagilarning hammasi kulol emish. O'rta - soyliq, bir tomoni bir-biriga matashib, xuddi rasmlarda ko'rganimiz Kavkazdagidek ustma-ust qurilgan uylar, bu tomonidagi toqqa tutash adirning usti

aralash-quralash pastu baland xumdon! Hammaning o'z xumdoni bor, juda ko'p. Meni odamlarning uyi tomondan olib o'tib, qishloqning o'rtasidagi choyxonaga boshladilar. Choyxona daraxtlarning tagida, tutun bosgan, o'choqlardan chiqqan shekilli, keyin bu choyxona birdan klubga aylandi, ko'p odam to'plangan, men bilan uchrashuv bo'lgandek bo'ldi, ishqilib, ko'p kishining izzat-hurmatini sezib yotibman, bu shu tumanning hokimi yoki poytaxtdan borgan amaldorga bildirilgan e'tibor emas, yo'q, juda samimiy, toza, qandaydir juda insoniy, manfaatsiz chuqur bir ehtirom; o'zimga ham sal noqulay, lekin qushdek engilman, dil yayraydi. Rostdan, tushimda shunday ichimdan quvnab yuribman. Bir vaqti yana orqaga qaytib kelayotib qarasam, osmonda oppoq bulut, oppoqmi yo kulrangroqmi, ishqilib, juda tepada, bulutning orasida esa elkasida ketmon, eshagini etaklagan odam uchib yuribdi, ya'ni osmonda bemalol yurib ketyapti eshagini etaklab! Yana qarasam, nariroqda yana bir odam, belidan yuqorisi ko'rinadi, chayqalishiga qaraganda, u ham osmonda kelyapti. Ko'nglim... boya ichdan yayraydi, deganim hech gap bo'lmay qoldi, qanaqadir juda yorug' bo'lib yorishib ketdi. Go'zal tuyg'ularga chulg'anib qoldim. Odamlari osmonda xuddi yerda yuradigandek bemalol yuradigan shunaqa joylar bor, shu joyni ko'rish menga nasib qildi, deb rosa quvonib ketdim. Ko'nglimning bir chekkasida bular qanday qilib osmonda yurar ekan degan jichcha qiziqsinish ham bor, yana nega shu paytgacha bularni gazetlarda yozmaganlar, sayyohlarga ko'rsatmaganlar, biznikilarga go'zallik emas, faqat paxta kerak, deb jinday yanish ham bor-u, lekin o'zim shunga guvoh bo'lganimdan, gazetchilar bundan bexabarligidan xursand kayfiyatdaman. Yonimda bir-ikkita odam bordek edi, ular osmondagilar bilan shunchaki bosh iring'ab salomlashib qo'yidilar, osmondagilarning salomidan menga ham tegdi, shundan bildimki, bular ham istagan payti, yo'lni qisqa qilish uchunmi, yo shoshilib tursalar, to'ppa-to'g'ri osmonga chiqib, borar manziliga o'sha yoqdan yurib ketaveradilar. Balki osmonga chiqib yonboshlab, pastdagi qo'ylarini boqarlar. Shunaqa oddiy, lekin chiroyli bir hayratda tomosha qilib borayotib, osmonda faqat odamlar emas, xumdonning mo'risi, to'g'rirog'i, yarmidan ko'prog'ini ko'rdim. Xumdon – osmonga qurilgan! Allaqanday baland bir zavq

bilan tomosha qildim. Yonimdagilardan: «Sizlarning osmonda bemalol yurishingiz-ku tushunarli, lekin nega xumdonni havoga qurgansiz?» deb so'rashga chog'lanaman, lekin, shundoq ajoyib fazilatlari bor, yana meni mehmon deb izzatlab borayotgan odamlarning hurmatini qilay deb gapirmayman. Lekin ichim qizib ketadi: tog'da yashaydigan odamlar toqqa o'rganib qoladi, gulzorning ichida yashaydigan odam butun dunyoni bir oddiy gulzordek ko'radi, dunyodagi eng suluv, eng husndor, eng ko'rkli qizga uylangan yigit unga oddiy xotinga qaragandek qaraydi, hatto o'zini ham hamma qatori oddiy bir er deb biladi, axir; «Hey, bu go'zallik, bu noyob narsalarning qadriga eting, o'zingizga shunchaki bir odam sifatida qarayotganingiz nimasi, nega o'zingizni oddiy odamlar qatoriga tushirasiz?», deb shodon qichqirgim keladi bularga. «Nega shunaqa chiroyli toqqa xumdon qurib tashlagansiz, axir, bu ko'rinishni ham, havoni ham buzadi-ku!», demoqchi ham bo'laman, lekin zavqimni buzgim kelmaydi, chunki boshqa joyda bunaqasi yo'q. Keyin xumdonning osmonda turishi ham o'zimga kerakdek, hali uyg'onsam hamgaplarimga aytib beraman, degan fikr ham bor tushimda. Keyin tushim sal o'zgarib, bu joy Qashqadaryo emas, Forish tog'idagi bir qishloq bo'lib chiqdi. Bu erga kelganimning sababi ham sayohat emas, asli bu yerdagi odamlar ona tomondan qarindoshlarim bo'lib, shu uzoqlashib ketgan xeshlarimni axtarib kelgan ekanman, menga bo'lgan e'tibor ham shundan ekan. Bir uyga kirib chiqdik, o'rtada bir uyg'ongan bo'lsam kerak, osmon toza, bulut arigan. Qarasam, boya eshak etaklab osmonda yurgan odamning o'rnida tikkalab ketgan baland tog' so'qmog'i, aqba deydimi, shunda hali ham odamlar yuribdi, birovi o'roq, birovi elkasiga arqon tashlab, birovi o'tin yelkalab tushyapti. Shunda bildimki, oldinroq ketmon ko'tarib, eshak yetaklab uchgan odam menga bulutning yorig'idan ko'ringan! Haligi xumdon ham boshqa xumdonlardan eng balandda turgani, pastini ham, tepasini ham bulut bosgani uchun menga osmonda muallaq tuyulgan ekan! Battar zavqim oshdi. Rostdan! Hafsalam pir bo'lgani yo'q, aksincha, shunday favqulodda manzara bo'lib ko'ringaniga! Favquloddaligi shunday ediki, asli qiyalab ko'tarilishi kerak bo'lgan tog' tikkaroq turgan, odamlar ham, xumdon ham menga juda yaqin ko'ringan edi. Keyin tushim yana davom etdimi, esimda yo'q,

lekin ertalab xush kayfiyatda uyg'ondim, uyg'onganimda ham haligi odamlarning ko'rsa – odamning g'ururi toshadigan shunday go'zal ma'voda yashayotganidan, o'sha erga borganimdan ko'nglim hali ham yorishib turgan edi. O'sha kuni ishga ham engil bordim, hamkasblarimga nuqul yaxshi gapirgim kelaverdi, ular ham, katta-kichik hammasi shu kuni menga yaxshi munosabatda bo'ldi, hatto men bilan so'zlashishni o'zlariga ep bilmaganlari ham, jilla qursa, iliq qarab qo'ydilar. Shunda, sen yaxshi – olam yaxshi, deb bekorga aytilmagan. Haligacha shu tushni eslasam, yaxshi ma'noda g'alati bo'lib ketaman: bizda shunday ma'volar borki, u yerlarning qishloqlaridagi odamlarimiz samoda ham xuddi yerdagidek bemalol yurgandek, xumdonlarini balanddagi havoda qurib, sopol laganlarini o'sha xumdonlarda pishirib, keyin shu osmondagi shu xumdonlarida pishirilgan laganlarga suzilgan oshni o'rtaga olib, havoda muallaq yonboshlab, gurung qurib yotgandek, ana shunday osmon odamlari mening olis qarindoshlarim, nuroniy tog'alarim joynamoz oppoq bulutlarning ustida namozlarini ado etayotgandek bo'lib tuyuladi. Shunaqa jannat tushlaridan keyin bu yoqqa qaytib ham ularni ko'rishga intiq bo'lib yuraman.

Shu sog'inch bilan tushimdan uyg'ondimu esimdan chiqib qolmasin deb, kundalikka tushirdim. Vaqti kelib hikoya qilarman, degan edim, ammo keyin shunday tushni qog'ozga isrof qilishga qizg'andim. Bu ham qanotlari yashnoq kapalakni ushlab, unga igna tiqib, devorga sanchib qo'yishga, chiroyli gulni uzib, daftar varaqlari orasiga tiqishga yoki noyob xongulni ovlab tutib, kiyik bechoraning go'shti shirinligi uchun so'yib yuborishga o'xshaydi.

Qizg'anmaganimda ham yoza olmayman, o'zi yozmay qo'yganimga ham ancha bo'lgan, uyga qamalib yuribman. Meni bilganlar ko'chada ko'rishsa: «Ko'rinmay qo'ydingiz? Ja uyga bekinib olib yozyapsiz shekilli?», deyishadi. «Qayoqda!». Yozaman degan o'y ko'p, rejalar bor, lekin chiqmaydi. Yozishga o'tiraman, qog'ozga bir-ikki jumla tushiraman, o'xshamaydi. Bir kuni «Vikinglar» degan kinoga tushdim. Yaxshi kino ekan, ta'sirlanib ko'rdim. Kino tugadi, shiftagi chiroqlar chink-chink etib, avval bir-ikkita, keyin baravariga yondi, doimgidek

bosinqi g'ovur ko'tarildi, o'rindiqlar orasidan yonlab chiqishga borayotganimizda birdaniga qiz bolaning shodon qichqirig'i eshitildi: «Voy, bu kimning sumkasi?». Hamma o'sha yoqqa – tepaga qaradi. Qiz, yigiti yonida bo'lsa ham boyagi qichqirig'idan pastroq, lekin hamon baland ovozda gapirdi: «Qarang! Birov qoldirib ketibdi!». Qiz yigitning ortida edi, sumka esa yigitning oldidagi o'rindiqning burchagida turardi. Yigit sumkani olib, «Hoy, kimniki bu?», dedi. Hamma o'rnidan turgan edi. Oldindagi bir yigit orqasiga o'girilib, sumkaga qaradida, yana oldinga qarab: «He-e, Sano!», deb chaqirdi. Yigitning oldidagi qiz unga qaradi. «Sumkang qolib ketyapti-ku», dedi yigit. Negadir yigitning o'zi dastlab sumkaga qo'l cho'zmadi. «Voy-y! – Sano – Sanobarning tovushida qo'rqinch bor edi. – Obering! Obering!». Yigit sumkani bu yigitdan olib unga uzatdi. Qizning oldida yana ikki dugonasi bor edi, eng oldindagisi talmovsirab o'girilib: «Ha, Sano?», dedi. «Voy! Sumkam qolib ketyapti ekan!», dedi qiz. «Vo-oy! – u qizning talmovsirashi qo'rquvga aylandi. – Voy, Sano-ey!». Qolib ketayotgan sumkani ko'rgan qiz esa tinmay yigitiga bidirlar edi: «Qarasam – sumka yotibdi! Kimniki deb o'yladim! Shunday burchakka tiqilib yotibdi. Birov unutgan deb...» Yigiti esa negadir xijolat bo'lib, hammadan ko'zini olib qochar edi. Uchinchi qiz esa parishon, yuzida achinishmi, taassufmi, ishqilib, shunga o'xshagan ifoda, sumkasini topgan qiz esa negadir uning oldida o'zini gunohkor bilib, «Kinoga esim ketib...», deb nuqul o'zini oqlar, sumkani bag'riga mahkam bosib olgan, «Sano!» deb qo'rqib ketgani esa sumkadan ko'z uzmas edi. Eng birinchi qiz esa goh qizlarga, goh ularning yonidagi yigitga alang-jalang ko'z yugurtirib, o'zining yigitiga boyagi gaplarini qaytarardi: «Shunday burchakda yotibdi-ya! Kinoga kirganda yoniga qo'yganu turayotganda unutgan...» Uch qizning yigiti nihoyat ularning esiga kelmagan gapni aytdi: «Rahmat!». Haligi qiz esa ma'yuslanib: «Shunday qarasam!.. O'rnimdan turgandan keyin birdan ko'zim tushdi», deb yana takrorladi.

Shundan hikoya chiqarmoqchi bo'ldim, har xil ruhiy holatlarni o'yladim:

a) qiz kino ta'sirida o'zi ham kutmagan holda yaxshilik qilib qo'yib, keyin ko'nglining tub-tubida, aytmay, bildirmaygina o'zim olsam bo'lar ekan dedimi; yigiti esa uning ko'nglidagi mayda manfaatni tuyib, undan o'zini uzoqqa olish payiga tushdimi;

b) qiz sumkada qimmatbaho narsa bor deb o'yladimi yoki o'zi qilgan yaxshiligidan o'zi ham xursand bo'lib ketib, buni boshqalar uncha qadrlamagani uchun hadeb qaytaryaptimi, yigiti asli qizni aldab yurgan bo'lib, endi shundoq yaxshi qizning oldida o'zining pastligini sezib qoldimi;

v) «Voy, Sano!» degan qiz sumkadagi narsa yo'qolmaganidan ko'ra, dugonasining parishonligidan xursand, unisi esa ichiqoraligini yashirish payida, hatto yigit ham sumkasini qoldirgan qizga o'zini begona ko'rsatmoqchi, bo'lmasa, uch qizning ichidan yuradigani shu qiz.

Xullas, u yog'ini-bu yog'ini o'yladim, ikki yigitu to'rt qizning har birining o'zicha fikri, o'zicha munosabatlari bor, shunda ham hech birovining ichi tashiga to'g'ri kelmaydi. Oltovi ham juda murakkab ekan. Yaxshi bir hikoya chiqishi mumkin edi, lekin ko'nglim sezib turibdi-yu, bir yakun o'ylasam, unga aks boshqa bir xulosa kelib chiqadigandek tuyulaverdi. Keyin yozganimda ham «Xo'sh, nima bo'пти? Bitta sumka yo'qolganiga shuncha gapmi?» degan savol ko'ndalang chiqaverdi. U paytlari har bir yozgan narsangizning mohiyatida katta ijtimoiy mazmun, ibratli bir saboq bo'lishi shart edi. Men bir hikoyamni pyesaga aylantirgan edim. Unda ikkita aspirant qizning stipendiyasini boshqa bir qiz o'g'irlaydi, Muso degan bir yigit uchta ayolni uyushtirib uni fosh qilishga kirishadi, lekin qo'lidan hech narsa kelmaydi, hammasi eski holicha qoladi, institutdagi hayot ilgarigidek davom etaveradi. Voqea juda qiziq edi, bir-ikkita rejissyor o'qib, sahnaga qo'ysa bo'ladi, original, dedi, vazirlikda bir boshqarma bor ekan, pyesalarni bor yoki yo'q qiladigan, shu erga bersam, u yerdagilar bir ustoz tanqidchimizga oshiribdilar, ustoz tanqidchi: «Muallif tanlab olgan voqea juda arziyas, uning asosida ko'pchilikning diqqat-e'tiborini jalb qiladigan asar yaratish qiyin... Muallif yaxshi niyat bilan qalam olgan-u, lekin niyati ro'yobga

chiqmay qolgan. U tanlagan voqea aytmoqchi bo'lgan g'oyalarni ochishga nochorlik qilgan. Voqea tuturiqsiz bo'lgani uchun personajlar ham juda g'arib, rangsiz, insoniy belgilardan mahrum bo'lib chiqqan... Bularning barchasi pyesani g'oyaviy-badiiy jihatdan bugungi talablarga javob berolmaydi, deb baholashga asos beradi», deb yozibdilar. Taqrizdan angrayib qoldim: ustoz tanqidchi pyesadan ko'ra o'zimning changimni qoqishga bel bog'lagan ko'rinadi. Keyin, bu voqeani to'qiganim yo'q, asli rostdan shunday edi, voqeaning o'zi shunaqa arziyas, odamlar shunaqa bachkana, institutdagi hayotning o'zi tuturiqsiz bo'lsa, menda nima ayb; men shu kichkina hodisadan katta gap, mayda o'g'irlikdan katta o'g'irliklar haqida xulosa chiqarishga tomoshabinning o'zini undamoqchi edim deb, raddiya yozay dedim-u, foydasi yo'q, birinchidan, tanqidchi ustoz odam, uning yuziga oyoq qo'yish odobdan emas, ikkinchidan, bu kishining hukmnomasidan keyin, ming tortishma, bironta teatr pyesani olmaydi, uchinchidan, pyesani yuragimdan chiqarib emas, balki teatrga qo'yilsa, oladigan pulimga qiziqib yozgan edim. Lekin shundan beri ko'rgan-bilgan voqealarimning zamiridan katta ijtimoiy mazmun va ulkan ijobiy ibratlar chiqmasa, ularni hikoya yo qissaga aylantirishni o'ylab ko'radigan bo'ldim. To'g'rirog'i, hali ham o'ylab ko'ryapman, yozmayapman. Tumonat ko'p, juda ajoyib, ba'zan g'aroyib voqealarga duch kelaman, azbaroyi ijtimoiy mazmunsizligi, zamiridan katta xulosalar chiqmagani uchun, yozmayman, do'stlaringa og'zaki aytib beraman. Hammasi eshitgan, ba'zilarini qayta-qayta tinglagan, lekin dumoq chog', kayfiyat baland paytlari: «Haligi, bor-ku, o'shani aytib bering», deb iltimos qiladilar. Ayrim og'zaki hikoyalarimni boshlashdan oldin: «Oldin aytib bermaganmanmi? Aytgan bo'lsam, aytinglar, aytmayin», deb so'rab olaman. «Aytgansiz. Lekin aytavering, aytavering», deb qistaydilar, aytaman, ular xuddi birinchi marta eshitayotgandek berilib tinglaydilar, hatto adashtirgan joylarimni to'g'rilab ham qo'yadilar. Gohida esa ba'zilar: «Yo'q, siz yaxshilab aytolmayapsiz, oldin aytganingiz boshqacha edi, mana, o'zim o'shanday qilib aytib beraman», deb hikoyamni og'zimdan olib qo'yadilar. Shu hikoyalarim bilan hangoma qiziydi. Hikoyalarim har xil, hammasi hayotdan olingan, lekin hammasini ham yozib bo'lmaydi, chunki o'sha paytdagi

talablar darajasida katta ijtimoiy mazmun yo'q, sosial buyurtmaga to'g'ri kelmaydi. Lekin, qiziq, tushunmayman - mazmuni sayozroq, voqeasi ham anchayin, chuqurroq xulosasi bo'lmasa ham, odamlar maza qilib eshitadi. O'zim ham aytishni yaxshi ko'raman. Yo o'zim sayozroqmanmi, deb o'ylab ham qolaman ba'zan.

Keyin o'zi bir xil voqealar bo'ladiki, ularni faqat aytib berish mumkin, yozishga yaramaydi. Mana, bittasi. Bir kuni Otchopar bozoridan chiqib kelayotsam, ko'kragiga qora kuchukchani bosib olgan bir o'ris kampir oldimni to'sib: «Ey, to'xtang, yaxshi odamga o'xshaysiz, yuzingiz shundoq ochiq ekan», dedi. Hozir tilanadi, deb o'yladim. Bozorning ichidagilari ham bezor qilib yubordi o'zi. Kampirning kiyimlari sal abgorroq edi. Kuchugini menga cho'zib: «Shuni oling!», deb iltijo qildi. O'zimni tortib: «E, yo'q, kuchukni boshimga uramanmi?», dedim. Kampir ichadi, shu kuchukni yarimtaning puliga sotmoqchi, deb o'yladim yana. «Mayli, puli kerak emas, shunday oling. Yuzingizdan ko'rinib turibdi: siz hayvonga ozor beradiganlardan emassiz. Yaxshi qo'lga tushsin deyapman-da», deb kampir meni yana maqtadi. Usta kampir ekan, odamni shunday deb eritadi-da dedim, lekin, bari bir, gapi yoqdi, bozordan oyog'imda oyoq yo'q, horib-tolib chiqyapman, ta'sir qildi. «Rahmat! – dedim. - Rahmat, lekin uyda kuchukka qaraydigan odam yo'q. O'g'lim ham, qizim ham liseyda o'qiydi, faqat shanba-yakshanba kuni keladilar». Kampir hayron bo'ldi: «O'zingiz qarang. Axir, bu juda yaxshi kuchuk, bir yaxshi odamga beraman degan niyatda turgan edim, sizni uzoqdan ko'rdimu shu odamga beraman, dedim», dedi. Kuchukning ko'zlari mo'ltillaydi, hayvon tilida meni olib keting, deb kampirga qo'shilib yalinayotgandek. Noqulay ahvolda qoldim, bir tomondan, kampirning gaplaridan ketolmay turibman, u bilan gaplashgim kelyapti, bir tomondan, odamlar qarab o'tyapti, kuchuk quchoqlagan kampir bilan nimani gaplashyapti bu odam, deb aytmaydilar... Olsam ham bo'lardi-yu, lekin qanday olib ketaman, o'g'ri tegmasin deb, mashinasiz kelganman, kiyimim ham kuchuk ko'taradigan emas. Lekin endi kampirni ham xafa qilgim kelmayapti. Kuchuk ham chiroyli, tim qora,

ko'zlari ham to'sdek, terisi tovlanadi, gavadasi uzun, tumshug'i ham cho'zinchoq, hovlida o'ynab yuradi-da, mashinamni minib kelsam, olib ketardim, deb ham o'yladim. Shuni kampirga tushuntirishga urindim. «Bunday qilamiz, shu kuchukni uyingizga borib olaman, albatta boraman», dedim. Bu kampir kuchugini hozir menga o'tkazmagunicha qo'ymaydi, deb o'ylagan edim, yo'q, u birdan ko'ndi: «Yaxshi, - dedi xursand bo'lib. – bilaman, bir so'zlik odamsiz, albatta borasiz. Men Chilonzorning o'n yettinchi mavzeida turaman. Shundoq bolalar bog'chasining yonidagi, yo'lga ko'ndalang tushgan uy, yozib oling, yigirma to'rtu o'n to'qqiz». Yozib oldim. Kampirdan uzoqlashishim bilan boshqa odamga aylandim, «Ol-a, bir kunim shunga qoldimi? Kuchukni deb atay Chilonzorga kelib yuramanmi?», deb o'yladim. Uyga kelib, kechqurun choy ichib o'tirganimizda: «Bozordan chiqayotganimda bir o'ris kampir, meni atay to'xtatib, juda yaxshi odam ekansiz, yuzingizdan ko'rinib turibdi, men yaxshi odamlarni yuzidan taniyman, dedi», deb keliningizga taltaydim. «O'ris kampirlar uchun yaxshi odam bo'lsangiz kerak-da», deb chandib qo'ydi keliningiz. «E, ishonmading-a, tekinga berdi, olmadim. Chiroyli, toza kuchukcha edi», degan edim, birdan qizim: «Voy, dada, nega olmadingiz, shu vaqtgacha hovlimizda kuchuk bo'lmagan», deb afsuslandi. O'g'lim esa singlisiga: «E-e, o'chir! Kim qaraydi unga? Hovlini bir marta ham supurmaysan», dedi. «O'zim qarayman, hovlini ham supuraman», dedi qizim. «Aytishmanglar, - dedi keliningiz. - Qanaqa kuchuk? Dadangning hamishagi gapi-da, bilmaysizlarmi?». «E-e, rostdan. Hozir olib ketolmayman, uyingizga borib olaman, degan edim, adresini berdi. Bechora menga ishonib qoldi», dedim. Shu-shu, qizim har kuni aytadi, o'g'lim: «E-e, olib kelib bering shu qizingizga, boshni qotirvordi-ku», deydi, keliningiz hali kelmagan kuchukka qarashni ikkovining bo'yniga qo'yadi, kampirning «Bir so'zlik odamsiz, bilaman, albatta borasiz», degan gapi mening qulog'imdand ketmaydi. Oxiri o'n besh kuncha o'tib, bordim Chilonzorga. Bog'chaning yonidagi, yo'lga ko'ndalang tushgan o'sha yigirma to'rtinchi uyni topdim. Kampirning eshigi birinchi qavatda ekan, qo'ng'irog'ini bosgan edim, ichkarida birdaniga to'rt-besh it har xil vovullab yubordi. «Hozir!», deb kampir ham tovush berdi. Eshik ochildi, ochildi-da... pastu

baland sakkiz-o'n kuchuk baravar otilib chiqib, Yonimdan bir-biriga urilgancha o'qdek o'tib ketdi, ikkitasi dumalab ham tushdi. O'zimni zo'rg'a chetga olib qoldim, hatto qo'rqishga ham ulgurmadim. Ularning orqasidan «Seri! Seriy! Orqaga!», deb qichqirib kampir chiqdi. Meni ko'rdiyu jilmaydi, «Yuragim bilan sezgan edim kelishingizni, bugun deb o'tirgan edim», dedi. Salom berdim.

«Mana, ko'ryapsiz, mening hayotim - shular», dedi kampir. «Nechta o'zi bular?», deb so'radim. «O'n sakkizta!», dedi faxr bilan kampir. «Uyingiz nechchi xonali?», deb so'radim. «Bir xonali», dedi kampir. Angrayib qoldim, «Qanaqasiga? Bitta xonada shuncha it!», dedim tilim tutilib.

Tashqariga chiqdik, itlarning qaysisi butalarning tagini hidlasa, qaysisi daraxtlar tagida oyog'ini ko'targan, bir-biri bilan ishi yo'q. Haligi qora kuchukcha ham pildirab yuribdi. «Seri!» deb po'pisa qilib qo'ydi kampir katta olasiga. «Shularni deb yashayman-da, - dedi yana kampir ma'yuslanib. – Boshqa kimim bor. Ofitsiantka edim, pensiyadaman, lekin idish-oyoq yuvuvchilikka o'tib oldim. Har kuni chelak-chelak sarqit olib kelaman, talashib-tortishib eydi bular. Shular uchun ishlayapman-da. Rahmat kelganingizga, lekin nega darrov kelmadingiz, bari bir kelar edingiz-ku?». «Ish ko'p edi», dedim. Tezroq ketgim keldi. Itlar u yoq-bu yoqqa ivirsiydi, haligi Seriy degani yonimizga kelib, meni iskalaydi. Atrofda uch-to'rt odam ola qaraydi, turgan gap, itlar ham, kampir ham ularning joniga tekkan, baqirib bermoqchilar, lekin kampirning oldida po'rim kiyingan odam turibdi. Kampir ham mening yonimda o'zini katta odam sezgan. Kuchuklar orasidan menga ko'kish-oq baroq kuchukcha yoqib qoldi, kampirning qarashidan bildimki, u ham shu kuchukni so'rashimni bildi, lekin bermoqchi emas. «Oti nima shu kuchugingizni?», deb so'radim. «Pushok», dedi kampir. «Shuni menga bersangiz?», dedim. «Ladani bilmayapsiz-da. Pushok nima – oddiy kuchuk. Ladani beramiz sizga», dedi kampir hamma kuchuklarining ham nomidan. Men Pushokni bering, dedim, kampir Ladani beraman, dedi, oxiri: «Ladani ham olsangiz, Pushokni qo'shib beraman», dedi. Shunga kelishdik. O'zim ham biron narsa bersammi, deb turgan edim, kampir meni noqulaylikdan qutqarib, irimiga –

«itlarining rizqiga» atigi o'n so'm so'radi. Kuchuklarni uyga olib keldim, birpasda hovliga o'rganib ketishdi. Lekin bir-ikki kun o'tib qaragam, darvozaning oldida mahallaning itlari uymalashadigan bo'lib qopti, Faziraga borayotganda Ladani mashinaga soldim-da, undan uch qishloq beri - Botbotda to'xtab, itni bir hovlining to'g'risiga tashlab ketdim. It bo'lsa ham, sezdi shekilli, mashinadan tushgandan keyin qimirlamadi, ortimdan qarab qolaverdi. Juda ichim achidi, anchagacha o'zimni gunohkor bilib yurdim. Shundan keyin olti-etti oylar o'tdi-yov, bir kuni ichkari uyda qog'oz qoralab o'tirgan edim, qizim hovlidan rangi o'chib kirdi. «Ha?», dedim. «Dada, Pushogimizni so'rab bir kampir keldi, olib ketmasa edi», dedi. «Qizim, xayolingga nimalar kelmaydi-ya», dedim-u, lekin birdan o'sha kampir yodimga tushdi. Mumkin emas, unga qaysi ko'cha, qaysi uyda turishimni aytmaganman-ku, deb o'yladim. «Pushok, deb chaqirgan edi, Pushok yugurib borib suykaldi. Aniq o'sha kampir!», dedi qizim. Hovliga chiqsam, ha, rostdan ham o'sha kampir, u hovliga alanglaydi, Pushokboy esa dumini likillatib, «gostinets» – sovg'ani changitib uryapti. «A, Lada qani?» - kampirning salomlashgandan keyin so'ragani shu bo'ldi. «Uni qishloqqa berib yubordim», dedim, to'g'risini aytishga ko'nglim bo'lmadi. «Yaxshi odamlar oldimi, ishqilib?», deb mung'aydi kampir. «Ha, albatta, qarindoshlarim, o'zlari so'rab qo'ymadi», dedim. Kampir laqqa ishondi: «Rahmat sizga, Ladamni yomon odamlarga bermaganingizga ishonaman!», dedi. Meni hali ham yaxshi odam deb bilganiga sal noqulay bo'ldi. «Menga qarang, hovlimni qanday topib keldingiz? Adres bermagan edim shekilli, otimni ham bilmaysiz», deb so'radim. Kampir ojizona jilmayib: «Topdim-da, eski shaharda turaman, degan edingiz-ku», dedi. «Qanaqasiga?! – deb tong qotdim. – Eski shahar katta-yu, Samarqand darvoza, Chuqur ko'prikn bilmasdingiz-ku?». «Shu, kelaverdim, yuragim qayoqqa boshlasa, shu yoqqa qarab yuraverdim. Ichimdan tuydim-da, mana, topib keldim», dedi kampir.

Qarang, hayhot shaharda, yana hayhotdek eski shaharda turar joyimni ham, otimni ham bilmay, hech kimdan so'rab-surishtirmay, to'ppa-to'g'ri Kattabog' ko'chasidagi hovlinga kirib kelaveribdi. Yuragi sezib! Birovga aytsang, ikki

dunyoda ishonmaydi! Men ishxonada, do'stlar davrasida, ishqilib, ajabtovur voqealar haqida gap ketsa, albatta shuni aytaman, og'zaki hikoyaga yozishdan ham ustaroqman, avvaliga «Yo'g'-e, e-e, qoyil!», deb eshitadilar, keyin bir pas o'ylagandan keyin, «Yo'q, mumkin emas, adresni bilgan, yuragi har qancha sezgir bo'lmasin, Eski shahar juda katta, bilmasa, topishi mutlaqo mumkin emas. Yo obqochyapsiz!» deb turib oladilar. Lekin rost! Aynan shunday bo'lgan.

Pushokboy hali ham bor. Hozir hovliga o'rganib ketgan, eshikka chiqishim bilan oyog'imga tarmashadi, dumini likillatib qarab turadi, keyin hah-hah deb dumalaydi, birdan turib qochib ketadi, yana pildirab keladi, orqa panjasida tik turib, menga termuladi, xullas, dardini bilaman – bir narsa berib qolar degan o'yda umidvor! Kampirning xonasida yashamaganmi, avvallari uy ichiga kiraverib bezor qildi, hovliga chiqarib, eshikni yopib olsak, panjalari bilan taq-taq uradi deng! Shuni Pushokligini bilib tursak ham odamning ko'nglini vahm bosar ekan. Xuddi aqlli bir katta jonivordek! Lekin keyin bu yerda boshqa odamlar turishi, itni hech qachon uyga qo'ymasliklarini bo'yniga oldi, shunga ham hamisha xursand. Mashinamni taniydi, darvozaning ochiq eshigidan pildirab-dumalab otiladi, mashinaning atrofini aylanib chopadi. Bir marta men kelib to'xtadim, shu payti bir «Moskvich» ham o'tib qoldi, darvozadan uchib chiqqan Pushok to'ppa-to'g'ri uning tagiga kirib ketsa deng! «Moskvich» g'iyqillab to'xtadi. O'ldi, deb o'ylagan edim, bir lahzadan keyin kuchukcha bechora shunaqa angillab berdiki, «Moskvich»idan tushgan haydovchi kishining rangi o'chib ketdi. Pushok bo'lsa, shu angillaganicha mashina tagidan chiqib, ichkariga otildi. Uch-to'rt kun oqsab yurdi-da, tuzalib ketdi.

Pushokning o'zbekchasi – Pahmoq, Pahmoqqa ahmoq uyqash. «Hey, Pahmoq - Ahmoq!» desam, negadir jo'shib ketadi. Hovlini girr aylanib, kumush po'stak yer bag'irlab uchayotgandek, xo'b chopadi, keyin yonimga kelib, ikki oyog'ini ko'targancha taqqa qotadi, xuddi mukofot so'ragandek. Men unga yana: «Ey Pahmoq! Ahmoqsan-da, Ahmoq!» deyman, u yana birdan burilib chopishga

tushadi. Qarang, hayvon-da, hayvonning ko'ngli oq, «ahmoq» degan tovushni o'ziga maqtov deb biladi.

Qiziq, qani edi shularni yozsang, lekin bulardan chuqurroq ma'ni topolmay odamni qiynaydilar. Ba'zan ularga kerak katta ma'ni o'ylab topasan-u, shunga mos sarguzasht topolmaysan. Ularga katta voqea, qahramon bo'lsa! Bir kuni o'zim ham avval qahramon bo'ldim, keyin shu qahramonlikdan «tushib qoldim». Ishdan chiqib Shayxontahurdagi bekatda turgan edim, tramvay kelib qoldi, birdan hamma qichqirib yubordi. Bir odam relsni kesib, biz tomonga kelayotganini ko'rgandek edim, shu odamni tramvay guppa bosib ketibdi! Odamlar qichqirib yuborganda ko'rmagan ekanman, keyin qarasam, shundoq ro'paramda, tramvay tagidan ikkita oyog'i chiqib turibdi. Hamma qotib qolgan. Qarab tursam, oyoqning ikkovi ham qimirlayapti! Ilgarigi qo'sh vagonli eski yettinchi tramvay esingizdami, oldi uzun, bir yarim metrcha kelardi, bechorani shundoq ko'ndalang yiqitib, tumshug'i tagiga dumalatib bosib, g'ildiraklariga atigi yarim qarich qolganda to'xtabdi. Sekin palaxsa betondan tushib bordim-da, haligi ikkita oyoqni ushlab, tortdim. Ishqilib, biron joyidan ilinib qolmagan bo'lsin-da, deb o'ylaganim esimda. Bechorani sug'urib oldim, kostyumi boshiga yopilib qolgan ekan, hamma «Hi-iy!» deb yubordi. Qarang-ey, men tamom deb o'ylagan odam, birdan turib o'tirdi, kostyumini shart tushirdi, ko'zi alang-jalang, nima bo'lganiga aqli yetmayapti, faqat burni ezilgan, qontalash ko'karib turibdi. Xudoning asraganini! Bir-ikki odam kelib elkamga qoqib: «Malades!», dedi. Qarang, rostdan-ey, qo'rqib qolmabman, o'zimni yo'qotmay buni tramvay tagidan bamaylixotir tortib olibman! «Qalay, u yer-bu eringiz lat emadimi?», deb qo'llarini ham ushlab ko'rdim, joyida! Turmoqchi bo'lib, qo'lini mendan siltab tortib oldi, lekin turolmadi, g'irt mast ham ekan. Shu vaqti bir kishi: «Mang, sizlarniki», deb qo'limga qog'ozga o'ralgan bir narsa tutdi. Ushlasam, ikki kilo muzlagan go'sht. Buniki ekan, meni sherigi deb o'ylabdi. Men go'shtni uning tizzasiga qo'ydim. Birpasda tumonat to'plandi, muhokama boshlandi. Kimdir melisa chaqirish kerak, dedi. Jingir-jingir qilib bizning tramvay bu tomondan keldi. Agar melisavozlik bo'lsa, kim ko'rdi, kim

guvoh deb, boshni qotiradi, dedim-da, tramvayimga chiqib ketaverdim. Tik turib olganman. Yonimdagi o'rindiqda ikki qiz ovozing boricha gaplashib ketyapti. «Bir urgandayoq tagiga kirib ketdi. Ustidan ikki bo'lak qilib o'tib ketdi, deb o'ylagan edim». «Ikki emas, uch bo'lak qilardi», dedi unisi. «Voy-y!» deb qichqirib yubordim!», dedi bunisi, «Men ham. Tamom, o'ldi, deb o'yladim-da», dedi unisi. Qarasam, hozir bo'lgan voqeani aytishyapti, o'zim esa ularning tepasida turibman, bular meni ko'rmayapti. «Qizlar, nima bo'ldi? Nimani gapiryapsizlar?», deb so'radim. Ikkovi baravar menga qaradi. Hozirgina nima bo'lganini menga «Yo'q, men aytaman», «Yo'q, shoshma, sen uncha aytolmaysan, men aytay», deb talashib-tortishib aytib berdilar. Jo'rttaga «E-e, shunaqami? Rostdanmi?», deb eshityapman. «Shunda oq kostyum-shim kiygan bir kishi shunday bordi-da, tramvay tagidagi odamning oyog'idan tortib chiqarib oldi», dedi bunisi. «Kishi emas, yigit edi, - dedi unisi. – O'ziyam baland bo'yli, kelishgan yigit ekan!». «Juda salobatli ekan-da, ko'zimga kishidek ko'rindi. Lekin yigit bo'lsa ham zo'r kishi ekan! Hamma qo'rqqan-da ham qo'rqmadi. O'lgan bo'lishi... o'lgan odamning oyog'i bo'lishi mumkin edi-ku! To'g'ri borib, qo'li bilan ushladi!», dedi bunisi. «Rosa chiroyli ekan!», dedi unisi hayajon bilan. Shu erga kelganda zavqim toshib chiday olmadim. «Qaranglar-chi, o'sha yigit men emasmi?», dedim. Ikkovi birdan gapdan to'xtab menga qaradi. «Hecham-da!», dedi unisi. «Vey! – deb bunisi burnini jiyirdi. – Basharangizga bir qarang». Men o'zimga bir qarab oldim-da: «Mana, mening kostyumim ham oq», dedim. «U yigitning kostyumi juda qimmat, modniy edi», dedi unisi. «Menga qarang, nimaga begona qizlarning gapiga suqilasiz? Uyalmaisizmi? Biz unaqa qizlardan emasmiz», dedi bunisi. Men kulib yubordim, boshqa gapirmadim. Har qancha isbotlamay, o'sha yigit o'zim ekanligimga ishontira olmas edim. Bu qaqajon qizlarning xayolidagi o'zim shu qadar baland edimki, hozirgi turishim o'sha o'zimning oldida bir pul edi. Lekin, bari bir, xuddi boya tramvay tagidagi odamni tortib olgan odam boshqa, hozir tramvayda ketayotgan o'zim boshqa odamdek, qiziq ahvolga tushdim. O'zimni o'zim shu qizlardan rashk qildim. Ahvolimning betayinligini qarang-da endi, alamim keldi-ey.

Ana shu voqeani yozsam ham bo'ladi-yu, lekin o'zingni qahramon ko'rsatish, garchi seni hamma tanimasa ham, bari bir, o'zingga noqulay. Xo'sh, bir bechorani tramvay urib ketibdi, sen uning oyog'idan ushlab, tramvay tagidan tortib olibsan. Bor-yo'g'i shumi? U tramvay bosganda o'lib, sen uni tiriltirganing yo'q-ku! Shuning nimasi qahramonlik? Lekin boshqa tomoni ham bor, aniq esimda: hali tramvay tagidan ikkita oyoq chiqib turib, sal qimirlaganda, bitta men bordim, avval egilib, shu oyoqlarga qaradim, keyin sekin ushlab tortdim. Sug'urib oldim haligi odamni. Ha, shunday ko'z oldimda turibdi: odam ko'p, lekin atrofim bo'sh edi, xayolimda faqat bu tomondan tramvay kelib qolmasin-da, degan xavotir bor edi, chunki men qarshi tomonning yo'li ustida turgan edim-da. Bu odam turib o'tirib, qo'lini mendan siltab tortib olib, yana olayib qarab qo'ygandan keyin boshqalar o'rab olishdi. Men qilgan ish juda qahramonlik bo'lmasa ham, har qalay, boshqalarning yuragi dov bermagan, ko'ngli botinmagan nimadir o'zgacha bir harakat edi, bari bir.

Bunaqa voqealar davralarda aytib berishga yaxshi, gapni gapga ulaydi, vaqt o'tganini bilmay qolasan. Buni ham ko'p aytib berganman, o'zim ham yaxshi ko'raman, tanish-bilishlarim, ba'zilari ichida meni opqochyapti, deb o'ylasa ham, bari bir, berilib eshitadi.

Lekin boshqa narsani o'ylayman, shunaqa o'zim guvoh bo'lgan voqealarni aytayotganda, o'sha voqeani ko'rganu hozir gapirayotgan o'zimmi yo boshqacha edimmi, deyman, chunki o'sha voqealarda o'zimning ishtirokimni gapirayotganda qandaydir boshqacha, hozir gapirayotganimdan mardroq, qandaydir tozaroq tasvirlayman, shunda odamning o'zi haqidagi fikri o'ziga uncha to'g'ri kelmaydi, men yashayotgan hayot ham ko'rib turganimdan boshqacharoq shekilli degan xayollarga borib, hayotning asli bilan u haqdagi tasavvurlarim o'rtasida adashib yurgandek bo'laman.

G'ulistonga ham shunday qilib borib qoldimmikan deyman. Ha, darvoqe, u hech tushimga kirmaydi, yana bir ko'ray, borib bir qaray-chi, nima o'zgarishlar bo'lgan ekan, xizmatchi qizning taqdiri nima kechdi, bolasi kattarib qolgandir, bilay deb

shu ko'zimni chirt yumib yotaman, uxlaganimda boshqa tushlar keladi, faqat G'uliston emas. Lekin uyg'oqligimda o'ylarimni tinch qo'ymaydi, xotiralarim xayolimga bostirib kirib, misoli qopong'ich it bo'lib talayveradi.

Sayohatning eng boshi

Keliningiz bilan bolalarimni Jizzaxga tashlab kelganimga ancha bo'lgan. Jizzax Toshkentdan issiqroq, lekin bu yerdagiga qaraganda meva-chevaning bozordan olinmasligi, hozirgi sharoitimda yozda ularni biron yoqqa jo'natishga chog'im kelmasligi, keyin, buvasiyu buvisining iliq quchog'i, tog'alarining mehri har qanday dam olishdan yaxshi ekanini o'ylab, qaynotamning chorbog'ida bir yayrab yuringlar, deb olib borib qo'yganman. Kunduzlari ishda ovunaman, kechqurunlari uyda bir o'zim ziq o'tiraman, Pahmoq-Ahmoqdan boshqa ermak yo'q, u ham o'n-o'n besh daqiqa. O'tirib kuchuk bilan gurung qurmaysan-ku.

Zerikaman, o'tirib olib shu zerikishning oxirigacha borishni maqsad qilgandek, zerikaveraman. Xuddi zerikish menga berilgan baland bir martabadek, mas'uliyat bilan zerikaman. Cheki chegarasi yo'q bir mazmunli zerikish. Ko'nglim toriqib ketadi. Odam degan zotning ko'ngli o'zi g'alati, goh unday, goh bunday, nega shundayligini tushunib turgandek bo'lasan-da, aniq tushunmaganingdan qiynalasan. Bir xil kunlari uyqudan ezilib, g'ash turasan, kun bo'yi o'ylaysan, shu nimadan g'ashligingni topolmaysan, battar toriqasan, biron tanishinggami, yaqininggami zahringni sohib yuborasan-da, saldan keyin birdan engil tortib, engil bo'lganingning sababini o'ylab, nima, jinni-pinni emasmanmi, deb ajablanasan. Yo bo'lmasam, kun bo'yi ochilib-sochilib yurasan, hammaga yaxshi gapirasan, keyin birdan, yo'q yerda g'ussaga botib yurganingni, hazil-huzullaring, shod-xurramliging faqat niqob ekanini, o'zingni shunday ko'rsatishga harakat qilganingni anglab qolasan. Mayli edi biron tashvishni o'ylab g'ussaga botsang, lekin g'ussangning o'zi mutloq g'ussaning o'zi, har kuni kelishi tanish, lekin, bari bir, o'zi notanish, tubiga yetolmaysan...

Shunday zerikarli-g'ussali kunlarning birida, shanba edi, dushanbagacha bir o'zim qanday yashayman, dedim-da, oxirgi pulimga borib-kelishga etarli benzin olib, hayyo-huyt, Jizzaxga otlandim. Mashina haydashni yaxshi ko'raman, katta yo'lda kamida bir yuzu o'ttiz-bir yuzu qirq yuraman, ko'zim yo'lda, xayolning sayohatini surib boraveraman. Rostdan, mashinada xayolim erkin sayohat qiladi, kaminaga

ham, mana, yaratganga shukr, shu xayol, shu xayolni surish erkini bergani uchun yana ming shukrlar bo'lsinkim, sayohat nasib etdi, deyman-da, ketaveraman. «No'l to'qqiz» el quvlagani sayin xayolim ham balandlay boradi, shu paytgacha ko'rmaganim makonlarga etaman. Hozir odamlar dunyoning xohlagan burchagiga borib kelayotir. Albatta, cho'ntak yo amallaridagi imkoniyatlariga qarab. Sayohatdan har kim o'zining, yana shu cho'ntagi yo amaliga qarab, ham qiziqishiga yarasha ko'ngliga siqqanini olib kelayotir. Sotgani – jomadon-jomadon mol. Aytaylik, mana Otchopar bozorida xitoylik baqaloq qo'g'irchoq «Vah-ha-ha» deb xanda otyapti. Xitoyga bormaganlar uni xarid qilib, uylarida quvvati tugaguncha kuldiradilar. Sayohatga borganlar yana ko'rganlarini ham olib keladilar. Har kim ta'biga yarasha: kim xorij do'konida necha xil aroq, necha xil kolbasa-pishloq sanagani, kim dengizni ko'rganini, kim erkagu ayol qipyalang'och cho'miladigan orolga borganini gapiradi, bormaganlar eshitib, havasga cho'madi. Men, bir vaqtlar Moskva, Leningrad, Novgorod shaharlariga, Boltiqbo'yi respublikalariga borganimni aytmasa, boshqa joyni, uzoq xorijni esa umuman ko'rmaganman. Uncha qiziqmayman, borolmayman ham, lekin yurtimizni sayohat qilishni, o'zimizdagi bormagan joylarimga borishni yaxshi ko'raman. Termizga shu «no'l to'qqiz»imda besh marta, Buxoroga to'rt marta borganman, Farg'onada qancha bo'lganimni sanaganim yo'q, Samarqand o'z joyim. Faqat Xorazmga mashinamda bormaganman, lekin o'zim u yerda ham, keyin Qoraqalpog'istonda ham ko'p bo'lganman. Odam, ayniqsa yozuvchi odam o'z yurtini besh barmoqdek bilishi kerak, deyman. Hozir ham bor-yo'g'i Jizzaxga ketyapman-u, xayolimda yurtimizning uzoq-uzoq puchmoqlarida sayohatda yurgandekman.

Shu, Jizzax bilan Toshkentning yo'lida bir joy keladi, orqa ham, oldini ham bir xil manzara, ya'ni katta yo'l u yoqqa ham, bu yoqqa ham birdek cho'zilib yotadi, o'rtada o'sha-o'sha beton to'siq, ikki chekkada ham chuqur zovur, zovurlardan nari biri biridan sira farqlanmaydigan ko'tarma semon-ariq. Yo'lning shu joyida hamisha xayolim adashadi: Jizzaxga borayotgan bo'lsam, xuddi Toshkentga kelayotgandek bo'lib qolaman, u yoqdan kelayotgan bo'lsam, xuddi Jizzaxga –

orqaga qaytayotgandek tuyuladi. Beshinchi kursda, Leningradda, Saltikov-Shchedrin kutubxonasiga amaliyotga qatnab yurganimda ham, Nevskiy prospektining bir joyida shunaqa bo'lardi, «Kitob uyi»ga borayotganimda qarasam, oldinga emas, orqaga ketayotgandek tuyular, sal yurganimdan keyin esa «Kitob uyi»i oldimga o'tib qolar edi. Bu yo'lda ham hamisha to'rt-besh daqiqa aqlim adashadi, o'rganib ketganman: «no'l to'qqiz»ning tumshug'i birdan Toshkentga qaraydi-da, sal yurgandan keyin yana Jizzaxga o'nglanadi.

Yo'lda bir o'zim, zog' yo'q, mashinamning oppoq tumshug'i go'yo Toshkentga qaragan, lekin Jizzaxga ketayotganim, mana, hozir oydinlashadi degan tuyg'uda tezlikni tushirmay boryapman. U paytlari chet el mashinalari hali yo'q, tashlandiqlari ham kelmagan, «no'l to'qqiz» - eng uchqur mashina, gazni qancha bossang, shunchaga tortadi, bir yuzu etmish beshgacha haydab ko'rganman, uchgani sayin tumshug'i shuncha bosiladi, tekis yo'l - joni, xudoning o'zi asrasin deb, bir yuzu elliklargacha chiqdim. Ko'p yurgan haydovchi katta tezlikda yo'l belgilariga qaramaydi, ularni ko'rmaydi, lekin xayolining bir chekkasida yozilib boraveradi, agar hammasi o'z o'rnida hamishagidek turgan bo'lsa. Men ham shunday ketayotgan edim, bir vaqti diqqat qilsam, yo'l bo'yida doim qatorlashib turadigan belgilar yo'q; yangi shiorlar bor edi, ularning ham birontasi ko'rinmaydi, asfalt ham oqish, yo'l qora emas, rezina ishqalanishining doimgi yuqumi bilinmaydi, g'ildiraklarning shig'illab-g'uvillab, yo'lning palaxsa beton uloqlariga gurs-gurs urilishi yo'qolgan, mashina yumshoq, mayin bir gilamda ketayotgandek. Sal sekinlatdim, yo'ldek yo'l, bir qarashda yaxshi, tep-tekis. Ammo bu yaqin o'rtada odam o'tmagan, bir enlik chang bosgandek, orqamda bulutdek karvon-karvon to'zon turgandir, deb qarasam, yo'q, faqat engilgina g'ubor yer bag'irlab ergashyapti. Mashinani to'xtatdim, motorni o'chirib, eshikni ochdim. Atrof cheki-chegarasi yo'q, adoqsiz biyobon. Hech qanday xavf ko'rinmasa-da, tushishga oyog'im tortmadi. Yo'lni bosgan narsa changga ham o'xshamaydi, sichqon terisidek mayin yiltiraydi, xuddi tegirmondagi un gardidek. Shundan bildimki, bu gard bir-ikki kunlik yo haftalik emas, balki oylar, ehtimolki, yillar bo'yi shunday

yotibdi. Hech bir iz yo'q, kaft bilan silab chiqqandek sidirg'a tekis, changga hatto qush panjasining izi ham tushmagan. Atrof tim-tirs, osmon artilgan shishadek tovlanadi, shunaqa tozaki, agar uzoqdan qush uchib o'tsa, silkinayotgan qanotlarini ham aniq-taniq chizib qo'ysa bo'ladigandek. Paustovski damidi, «havo jaranglaydi», deb o'qigan edim, bu yer ham shunday. Lekin o'lik, yo'q, allanechuk harakatsiz, qotib qolgan chiroysiz manzara.

Sal turganimdan keyin havoda rostdan ham qandaydir jarang bordek tuyuldi. Quloq solib turdim: avval o'chiq motorda doimgidek juda past chirs-chirs tovushlarni eshitdim, keyin esa havoning elas-elas jarangi qulog'imga keldi. Jarang emas, xuddi oyog'iga shokila-shokila qo'ng'iroqchalar taqqan hind qizi raqsga tushayotgandek, faqat juda olisda, ingichka qo'ng'iroq tovushi. Menga shunaqa tuyulyapti, bitta yo'ldan kelyapman, hech qayoqqa burilganim yo'q, Jizzax to'g'rida-ku, adashishim mumkin emas, ko'zimga ko'rinyapti deb, yana mashinani o't oldirdim. Osmon, yo'l, cheki-chegarasi yo'q biyobon ko'rinib turgani bilan, bu yer bo'shliqdek, havo boyagidek jaranglayotgani bilan, baribir, hayot yo'qdek, «no'l to'qqiz» engilgina, siz shunga e'tibor bering-da, men buni bekorga aytmayapman, jonivor havoda bir guvillab, silkinmay, bir tekisda, xuddi o'zi yurib ketayotgandek harakatda edi. Ha, havoda haqiqatan ham jarang bor, lekin bu yerdan, hali ularning orasiga kirmay turib, shuncha uzoqdan qanday eshitding deng? Ana shunisiga o'zim ham hayronman, qulog'imning o'n chaqirimdan ham olisroq joydan odamga taqilgan zanjirning jiringlaganini ilg'ab olganiga, bir tomoni, aqlim lol bo'lsa, boshqa tomondan, hozir ham qo'rqib ketaman. Eshitishda bunaqa sezgirlik tinchlikda yashaydigan odamga emas, doim xavf-xatar ichida ov qiladigan hayvonga xos-da, axir. Hayvon, bu ham o'ljani poylashi, ham o'zi tuzoqqa tushib qolmaslik ehtiyotini qilishi kerak. Yo kim biladi deysiz, favqulodda holatlarda odamda ham favqulodda qobiliyatlar paydo bo'lib qoladimi, ishqilib, qulog'imga pashshaning g'ingiga o'xshab elas-elas kirib turgan pastgina jiring-jiringga boshda bir e'tibor qildim-u, keyin qo'l siltadim. Ahvolim hozir eshtilgan bir tushuniksiz tovushni o'ylaydigan emas edi o'zi.

Ha, darvoqe, yozuvchi do'stimning ro'monida bu gaplar yo'q, u to'g'ridan-to'g'ri G'uliston poytaxtiga borib, mehmonxonaga joylashganimdan boshlab ketavergan. Unga qanday yo'l bosganim, yo'lda nimalar bo'lgani, keyin qayerda turganimni ham batafsil aytganim yo'q-da.

Yana yo'lga qaytsak, shu zaylda ancha yurdim, keyin oldinda bir qurilish ko'rindi, Toshkent – Jizzax yo'li, ko'p yurganman, menga yod bo'lib ketgan, aniq bilaman, bu yerda bunaqa imorat yo'q edi. Yaqinlashganda qarasam, «DAN» manzili, yangi shekilli, dedim. Shu hayronlik ichida esimda qolibdi – bino boshqacharoq bo'yalgan edi. Ichkarisidan bir «dan»chi chopib chiqdi, mashinamga qaradiyu angrayib qotdi, men ham tezlikda o'tib ketibman, sal keyin eslasam, kiyimi g'alati, ko'k emas, sarg'ish-qizil, oftobda bir narsa elkasidan osilib, oyog'igacha tushib yilt-yilt qildi, nimaligini uncha ko'rolmay qoldim. Orqaga qaradim, u o'ziga kelib, rasiyasiga yopishdi. Jarimaga pulim yo'q-ku deb, yuragim shig' etdi, meni xabar qilyapti! Lekin o'zi to'xtatmadi-ku! Balki «dan»chi emasdir. Endigisi ushlasa ushlar, hujjatlarim joyida-yu, lekin bari bir xavotirga tushdim. Nimadir g'alati edi, yo'l o'zgardi, mashinalar yurgani bilinib qoldi, juda tepada bir katta qush shitob bilan olisladi, yo'l chekkasida bir yumronqoziq ibodatda turganida o'tib ketdim. Unda-bunda hayot asari ko'rindi, odami yo'q o'lanzorlar chiqdi, bug'doyzorning hosili o'rib olingan, dumini silkitib ikkita ot yuribdi, huv uzoqda yashil dala, polizga o'xshaydi, yana nariroq borsam, o't orasida uyum-uyum uvada – changda unniqib ketgan oq qo'ylar shunaqa ko'rinyapti ekan, cho'poni juda ham bahaybat tuyayungan, xuddi chosh qilib jun ortilgan aravaning tepasida o'tirgandek. Shunaqa tuyalar hali bor ekan-da, deyman. Odamni ko'rganimga ko'nglim sal joyiga tushdi-yu, lekin g'ashligim tarqalmadi.

Birinchi ko'zim tushganda uncha e'tibor qilmagan ekanman, hadeb unda-bunda uchrayverganidan keyin qarasam, olma ko'p ekan. Dalalarning chekkasida, ichida yo yolg'iz, yo to'p bo'lib o'sib yotibdi, boshini yeb bitgan, yetilib qolgan mevalari oftobda tovlanadi. Xuddi o'zimizdagi tutga o'xshab hamma yerga tarqalgan.

Olmafurushlarning makoni shekilli, qaytishda kelingizda pul bo'lsa, biron chelak olib ketamiz, bolalarim karsillatib yeb yuradi, deb ko'nglimga tugib ham qo'ydim.

Yana «DAN» manzili uchradi, boyagidaqa bo'yalgan, unda ham boyagi kiyimdagi posbon, oq-yashil tayog'ini o'ynatib, elkasidan oyog'igacha yiltirab yo'lga chiqdi-yu, mashinamni to'xtatmadi. Bu ham shosha-pisha rasiyasiga yopishdi. Shundan bildimki, yo'l keta-ketguncha «DAN» nazoratida, bugun bular reyda o'tkazayotganga o'xshaydi. Faqat to'xtatib jarima solsa yo qo'lga so'rasa, cho'ntak kasal, kitob o'qimayman deb turib olsa, albatta yozadi, deb ko'nglim g'ashlandi.

Bir qishloqqa kirib bordim, odamlar yurgan ekan, mashinadan qaraganda g'alatiroq ko'rindi, bularning kiyimida ham uzun-uzun bir narsa yilt-yilt qiladi, arqonmi desam, uncha o'xshamaydi. Mashinamga hayron bo'lib qaraydilar-da, ichida o'tirgan o'zimga ko'zlari tushgani zahoti xuddi ko'rmayotgandek befarq bo'lib qoladilar. Nima balo, bularning qishlog'iga begona odam kelmaganmi, deyman. Keyingi qishloqda esa haligi kiyimdagi posbonlar ko'chadagilarni uy-uyiga haydab kiritayotganini ko'rdim. Undan keyingi qishloqning ko'chalarida odam yo'q, faqat har ellik-yuz metrda posbonlar qator, yo'lga orqa o'girib turardi. Qachon shuncha kiyimni almashtirib ulguribdilar, deb hayronman.

Lekin bu erlarda ham haligi manzara: hamma yoqda olma, unda-bunda tol, terak ham bor, lekin olma juda ko'p, keyin xuddi shunaqa yo'l bo'ylarida xurmo ham olmaga aralash ekilgan, shig'il, chaqaloqning mushtiday ko'm-ko'k mevasi ko'pligidan, pishmagan bo'lsa ham, shoxlari halitdan osilib yerga tekkan. Hammasi sal boshqacha tuyuldi-yu, lekin birpasda ko'zim o'rgandi. Hozir ko'nglimga bog'dorchilik sig'mayotgan edi.

Esimda yo'q, ishqilib, ancha yurdim, bir «DAN» maskanida to'xtatdilar. Sayohatim shumi, musibatimmi yo ularga bir musibat bo'ldimmi, ishqilib, shu yerdan boshlandi. Keyin sayohat sarguzashtu riyozati bisyor bo'lsa, u, meningcha, sayohat emas, safar deyiladi. G'ulistonga qidirib kelmadim, kelgandan keyin

qiynalgan joylarim, ayniqsa ko'ngil siqintilarim bor, shunga bermalol safar desam bo'ladi.

Safarning boshlanishi

Boyadan beri yalt-yult, yilt-yilt etib, ko'zimga urilib, xayolimga ham kirib qolgan narsa – zanjir, ko'kan ekan. Meni to'xtatgan posbonlaru harbiylar zanjir taqqan, hammasi bo'ynidagi zanjir bo'yintasmadan ikki qo'lining bilagigacha, yana shu bo'yintasmadan belidagi zanjir belboqqa, undan ikki to'pig'igacha yana zanjir bilan bog'langan edi.

Odam shu paytgacha sira ko'rmagan, umuman bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa yo voqeani o'z ko'zi bilan ko'rib tursa, juda g'alati ahvolga tushadi. Mana, deylik, bu yoqda, kuppa-kunduz kuni Toshkentning avtolar gavjum ko'chasida shuncha odam boshqarayotgan mashinaning orasida bittasini maymun haydab ketayotganini ko'rib qolsangiz, ko'zimga shunday ko'rinyapti deb, o'zingizdan xavotir olasiz, qo'rquv bosadi sizni. Agar yoningizda boshqa odamlar bo'lsa, «E-e! Qaranglar! Maymun mashina haydayapti! O'zi haydab ketyapti-ey!», deb beixtiyor qichqirib yuborasiz, negaki yolg'izlikdagi qo'rquvning o'zi qo'rqinchli, sizga sherik kerak. Boshqalar ham buni ko'rib, xavotirga tushsa, qo'rqsa, qichqirib yuborsa, demak, maymun rostdan ham mashina haydab ketyapti, ko'zingizga shunday ko'rinmayapti, demak, sizga hech narsa bo'lmagan, aqldan ozmagansiz, shuning o'zi sizga katta madad. Keyin, sheriklikdagi qo'rquv qo'rqinchli emas, odam faqat yolg'iz qolganda, yolg'izlikdan qo'rqadi, ko'plashgandagi qo'rquv – botirlarning hayronligi, xolos. Odam ko'pchilikning ichida bir o'zi qo'rqmaydi, ko'pchilik bilan birgalashib qo'rqish notanish, noma'lum bir narsaga yoki mubham bir xavfga shunchaki qiziqsinishga o'xshab ketadi. Ko'pning ichida turganda maymunning mashina haydab ketayotganini ko'rib qolsangiz, chalahayron bo'lasiz-da, darrov g'ayrioddiy hodisani oddiylashtirib olasiz, masalan, «Oddiy maymun emas bu, o'rgatilgan, ha, sirkdan qochgan», deb sabab topasiz. Bir o'zingiz kimsasiz katta ko'chada maymun mashina haydab ketayotganini ko'rganda albatta qo'rqasiz, aqldan ozyapman, degan xayolga ham borasiz-da, shu zahoti aqlingiz joyidaligini ko'rsatadigan sabablar izlaysiz, ularni topasiz-da, keyin, bo'lishi mumkin, sirkda haydasa, nega ko'chada hayday olmaydi, haydashni o'rgangan ekan, mana,

haydayapti, deysiz. Yana shunisi borki, odam nogahonda aqli yetgan hodisadan qo'rqadi, agar aql bu hodisaga izoh topa olmay qolsa, qo'rquv ham to'xtaydi, aql esa g'ayrioddiy hodisani o'zi o'rgangan andazalar bilan o'lchab, uni oddiy mantiqqa moslashtirishga, shu bilan qo'rquv tuyg'usini himoyalashga o'tadi: qoyil, zap o'rganib olibdi, xuddi odamdek haydab ketyapti-ya, deydi odam.

Albatta, qo'rquvning shakli-shamoyili ko'p. Birovga: «Og'ayni, tun ham kunduz, faqat quyoshi yo'q», deb ming tushuntiring, u bari bir, qorong'i tundan qo'rqaveradi, bir umr qo'rqadi. Biz bilan bir barzangi yigit ishlar edi, yurish-turishi vahima, hamkasbimiz uylanganda, to'yda shu gavdasi bilan o'yinga tushib, hammani qo'rqitdi, shundan keyin uning Boqi oti Boqizavr bo'lib ketdi. Endi, qarang, shu gavda, boshi shiftga tegadigan bo'y bilan qorong'idan juda qo'rqar, kechasi tashqari chiqmoqchi bo'lsa, albatta yonidagi hamxonasini uyg'otib, birga boraylik, deb yalinar ekan. Agar o'zi kechasi odamning oldidan tuyqusdan chiqib qolsa, qo'rqmagan odamning ham yuragiga vahima solar edi. Qo'rquv degan narsa gavgada qaramas ekan-da.

Yana bir odamni bilaman, kechqurundan boshlab, anuv kulbacha joyga boradigan bo'lsa, avval bormaslikning chorasini xo'p izlaydi, zahar tang qilavergandan keyin, noiloj, ariqning pastidagi katta hovlisining hamma chiroqlarini charaqlatib yoqib, charog'on yo'lakdan salobat bilan ko'krak kerib, tomog'ini qahrli qirib, yo'lga tushadi. Qorong'ida nogahonda hamla qilishi mumkin bo'lgan ro'dapomi, yana nima balolarni hurkitishga mo'ljallangan bu harakat shu atrofda boshqashilarmi yo bekinmachoq o'ynab yuradigan shumg'iya bolakaylarni o'ziga chorlaydi. Amaki kulbachaga kirib, eshigini tambalab olishi bilan... tomchaga to'p-to'p kesak tushib boshlaydi-ku. Amaki ichkaridan mardona na'ra tortadi: «Kim bu hazillashayotgan? Quloqsiz, beodob! Hozir qulog'ini kesaman! O'zidan kattaga ham shunday qiladimi, a?» Qishloqda nima ko'p, kesak, to'p-to'p to'xtamaydi, na'ra bo'kirishga aylanadi, «Bilib turibman, sen Eshmatning bolasi Toshmatsan, kun chiqsin, bo'yningni uzib olaman, qarab tur!» Bu yoqdan albatta sado berilmaydi, piqir-piqir kulgi kulbagacha etmaydi. Sal o'tmay mardona bo'kirish pasayib, g'uldirashga,

g'uldirash esa oshkora yalinishga aylanadi. Bolalarga emas. Amaki zorlanib xotinini chaqiradi: «Shapo! Shapojon, bu yoqqa qara! Bu balodan o'zing qutqar. O'ldirib qo'yadi meni! E-e, buning bostirib kelishini qara! O'lib qolaman!» Shafolat xola ichkaridan: «Hay, qirchiningda qirilgur, shu katta odamdan boshqa odam qurib ketdimi sizlarga», deb qarg'anib chiqadi-da, ustidan bekitib olgan erini asoratdan xalos qilib, ergashtirib keladi. «E tavba, shuncha chiroq yorug', muncha yuragingiz yorilmasa?», deydi. Rostakamiga o'takasi yorilgan amaki: «Tomning ustidan gup-gup bostirib kelgandan keyin yurak qoladimi? Ichida o'zing bo'lmading-da», deb o'zini oqlaydi. «Ming marta aytaman, - deydi sho'rlik xotini. – Uzoqqa borib yurmang, mayli, shu atrofda ishingizni qilavering deb». Endi xotinining himoyasida o'zini ancha bosib, dadillanib olgan amaki shovqin soladi: «E-e, meni nima deb o'ylayapsan? Qorong'ida qo'rqqanim bilan, xudoga shukr, hali oyoqdan qolganim yo'q». Bu-ku mayli, qorong'ida kim kesak otgani ko'rinmaydi, insu jins ham hazillashishi mumkin, lekin kun botgandan keyin tanish odam chaqirib kelib, amaki ovozi tanib tursa ham: «Shapo, Shapojon, o'zing qara, birov chaqiryapti», deb yana zorlanadi.

Nima deysiz endi?

Yana birovlar bor, ilondan qo'rqadi, buralib yotgan chilvirgami, sigirning yerda sudralib ketayotgan arqonigami, xullas, cho'zilib harakatlanayotgan nimaigaki ko'zi tushsa bas, vahima bosadi. Bir kursdoshimiz bo'lardi, harbiy xizmatni o'tagan, uylangan, farzandi bor, bizdan to'rt-besh yosh katta, oti Ali aka, «Alaka!» deb qisqartirib aytamiz. Paxtaga chiqamiz, uning fartug'i to'lay deganda men: «Ho', Alaka!», deyman, u: «Ha!», deydi. Hamma kursdosh terimdan to'xtab, tez-tez qaytariladigan tomoshaga muntazir qarab turadi. «Mana, qarab turing!» deyman-da, bitta baquvvat g'o'zapoyani tomir-pomiri bilan sug'urib, baland ko'taraman, «Nima bu?», deyman, «G'o'zapoya! Qo'rqmayman!», deydi. «Qo'rqmaysiz-a», deb g'o'zapoyani shu turishida Ali akaga ko'rsatib sidirib tashlayman-da, uchidan tutib aylantirib boraveraman, Ali aka: «Bari bir qo'rqitilmaysan!», deb joyida iljayib turaveradi. Yaqinlashganim sayin iljayishi

yig'lamsirashga aylanadi, ko'zi ola-kula bo'laveradi, oxiri yoniga borib ulgurmasimdan fartug'ini quchoqlab, urra qochadi, ikki yonidan paxta to'kiladi. Bizga shu kerak. Men undan: «Alaka, jiddiy, nega g'o'zapoyaning g'o'zapoyaligini ko'rib turib, qo'rqib qochasiz? Tomirlari ham osilib turadi-ku!», deb so'rayman. «Ko'rib turaman, g'o'zapoya-ku, g'o'zapoya-ku, qo'rqmayman deb turaveraman-da, tuyiqsindan tag'in ilon bo'lib chiqsa-ya, degan xayol keladi, bilib tursam ham, o'zimni to'xtatolmayman», deydi. Qarang, qo'rquvga sabab yo'q, lekin ko'rib-bilib turib ham qo'rqaveradi yo qo'rquvga o'rganib, moslashib, hatto qo'rquvni yaxshi ham ko'rib qolgan, qo'rquvsiz yashay olmaydi, undan ayrilgisi kelmaydi. «Bu yurak bilan harbiyda qanday xizmat qilgansiz?» leb so'raganimda, «Men qismdan ko'p chiqmaganman, harbiy mashqlarga tyagachda borar edik, bu palakat yaqin yo'lay olmas edi», degan.

Momaqalldiroqdan qo'rqadiganlar bor. Gumburlasa bo'ldi, ko'rpaning tagiga kirib ketadi. Bu ham mayli, aridan, chumolidan qo'rqadiganlarga nima deysiz? Itdan qo'rqadiganlar bor, kattasidan ham, kichigidan ham, bor-yo'g'i telpakday keladiganidan ham, hursa bo'ldi, hatto bir chaqirim narida bezarar yotganidan ham yuragi yorilaveradi. Ayollarning ko'pi sichqondan qo'rqadi, sichqon bechora-ku odamni sezgani zahoti tiraqaylab jo'naydi, bari bir, sichqonning o'zidan qo'rqib qochganini tushunib tursa ham, zaifa zotining yuragi qinidan chiqib ketadi.

Bir bosh buxgalterni bilaman, shuning nimadan qo'rqishini o'ylab ham topolmaysiz, - telefondan! Ichki, shahar, mobil telefonidan chaqiring, bari bir, hech qachon go'shakni olmaydi, bosh buxgalter, albatta sizga kerak, ovora bo'lib uchinchi qavatga chiqsangiz, ketma-ket jiringlagan apparatlarga mazasi qochib qarab o'tirgan bo'ladi. Go'shakni ko'tarmay gap eshitgan, keyin jiringlasa yana gap eshitaman deb ko'tarmagan, bu cheksiz davom etaverganidan keyin yuragining mazasi qochgan, yuragining mazasi qochgandan keyin xuruj qilmasin deb, yana jiringlagan apparatga qarab o'tirsa ham, go'shakni ko'tarmagan, xullas, o'ziga surunkali dard orttirgan, ishi shunaqa, tinmay telefondan izlaydilar, u esa o'zini yo'qlikka solib o'tiradi, borligini bildirishdan qo'rqib, kasali kuchayib ketaveradi.

Hatto xotini telefon qilsa ham o'ynashim emasmikan deb vahimaga tushadi, shu holiga yana o'ynash tutganiga o'lasiz, o'ynashi sim qoqsa, xotinim bo'lib chiqsaya, deb o'takasi yorilaveradi, umuman qo'rquv domidan chiqolmaydi.

Demak, hamma qo'rquvning tagida qanaqadir tushuncha bor, aql ishlab turadi, shu aql keyin taskin ham beradi. Lekin odam g'ayrioddiy hodisalarni ko'rganda boshqacha ahvolga tushadi: u o'ylamay, ajablanmay qo'yadi, chunki ming o'ylagani-ajablangani bilan aql chegarasidan nariyoqqa o'ta olmaydi, hodisa qanday bo'lsa, shundayligicha ko'rishga o'zini majbur qiladi.

Men ham shu holatlarning hammasiga birvarakay o'xshab ketadigan bir ahvolga tushdim. Avvaliga, boya aytganimdek, hayron bo'ldim, hayronligim ham bir tiyrak, sachrab turadigan taassurot emas, balki qanaqadir karaxtroq, donolikka o'xshab ketadigan g'aroyib bir loqaydlik edi, nega bunaqa o'zinga o'xshamayapman degan bir tahlika ham bor edi ko'nglimda: bu ham xuddi hukmi o'qilgan odamning endi hammasi befoyda degan bir xulosaga kelganidek. Yana deng, bu joyga xuddi so'ramay kelib qolganman-u, lekin nega so'rashim kerak, ruxsatni qayerdan ham olardim, axir, to'g'ri yo'ldan kelyapman-ku, to'g'ri yo'limdan bularning o'zi chiqib qoldi-ku, degan o'jarlik ham bor, xullas, hamma tuyg'u-taassurotlarim aralash-quralash, lekin tagida nimadandir xavotirli bir qo'rquv simillab turar edi – bu shuncha zanjir taqqanning ichida yolg'iz o'zim zanjir taqmagan edim.

Mashinamni to'xtatdilar, aniqrog'i, bu ahvolda boshqa yurib bo'lmasligidan, xuddi yo'l so'rayotgandek, beixtiyor o'zim to'xtadim. Ular ham meni xuddi shu joyda kutib turgan ekan, lekin e'tiborsizroq qarshi oldilar. Ularga hurmat bilan mashinadan tushdim. Mashinamning eshigini ular yopdilar, shu paytda ular bilan ko'rishayotgan edim, eshikning ohista shirq yetishidan yuragim shuvillab qo'ydi: siz o'z uyingiz eshigini ochib chiqsangiz-u, orqangizdan eshigingizni sizga kelgan odamlar qulflasa, ko'nglingizdan nima kechadi, menda ham shunday bo'ldi, nimagadir, endi mashinamning menga yopib qo'yilganini angladim. Odatim bo'yicha, hech birining yuziga tik qaramay, jamoatga salom berib, keyin hammasi

bilan bir-bir qo'l olishdim. Bo'ladi-ku: bir uzoq tanishingiznikiga, masalan, to'yga yo ma'rakaga, ishqilib, lozimatga borasiz, borgan paytingizda mezbonning o'zi bo'lmaydi, eshik oldida kutayotganlarning hammasi sizga notanish, lekin ular sizni taniydi, nafaqat taniydi, balki ularga shu odam kelsa, albatta shunaqa kutib olasizlar, o'zini qanday tutishni uning o'zi biladi, deb tayinlangan bo'ladi, siz ham shuni bilib turgan holda tanimagan odamlaringiz bilan, majburiyat yuzasidan xuddi ularni yaxshi taniydigandek ishtiyoq bilan ko'rishasiz, ular ham shunday, salomni mensimaydigan eng g'o'dayganlari ham eshik oldida mezbon bo'lib turgani bois qo'lingizni og'rinmay oladi. Lekin bular bilan ko'rishayotganda men bilan ko'rishgilari kelmayotgandek, qo'limga qo'l berayotganda ko'zlarida allaqanday sarosima qalqqanini payqagandek bo'ldim. Xuddi menga qo'l bergilari kelmayotgandek tuyuldi. Iljayib hurmat ko'rsatishlarida ham, yuzlari ochiq bo'lsa-da, qandaydir qat'iy qoida, hatto men ham bo'ysunishim kerak bo'lgan bir talab bor edi. Yana g'alati, nokamtarlig-u, lekin g'anim tomonga asir tushgan sarkardaga o'xshatdim o'zimni. Ular hamma gapimga, hamma istagimga labbay deb turibdilar, men esa ayni shularning o'zlari belgilagan chegaradan tashqari chiqolmasligimni bilib, o'sha istagim yo gapimni aytmayman, aytmasligim kerak. Masalan, «Og'aynilar, men sizlar o'ylagandek, katta odam emasman, bor-yo'g'i, faqat bir-ikkita jo'rasi qatorga qo'shadigan qalamkashman, xolos. Adashibmi, adashmaymi, bu erga kelib qoldim, iltimos, qaytishga yo'l ko'rsatinglar!», deb kamtarona so'ragim kelyapti, ammo, bilib turibman, so'rash kerak emas, bilib turib so'ramayapman. Lekin, bari bir, xayolim hali o'rtada ovora-sarson, zo'r berib o'ylayapman. Faqat qimirlaganlarida zanjirlarining jiring-jiring qilishiga sal alahsiyapman, zanjir shiqirlashi kerak-ku, nega jiringlayapti, degan savol chalg'itibroq turibdi.

Avvalboshda hammasi zanjir taqib olganiga bugun bularning biron hayiti shekilli, deb o'yladim. Lekin shu o'zim bilgan Mirzacho'l, bu yerlarda bunaqa marosimi bor qavm yo'q: boyagidan beri yurgan bo'lsam, o'n besh-yigirma chaqirimcha yurdim-da, agar ham Qozog'istonga o'tib ketmagan bo'lsam. Lekin Qozog'istonda

ham o'zimiznikilar, bitta mazhabdamiz. Keyin o'zi jug'rofiy ma'noda biron yoqqa o'tib ketishim mumkin emas, xaritani juda besh qo'lday bilmasam-da, bari bir, viloyat va tumanlarimizning qanday joylashganini ko'z oldimga keltira olaman, yaqin-o'rtada biron bayram yoki hayitida zanjir taqadigan odamlar yashamasligi aniq. Yurgan yo'lim chamasicha, hali Oq oltin tumani hududidan chiqib ketmaganman, lekin Oq oltinda bunaqa joy yo'q, joy emas, bularning muomalasi, o'zini tutishi, yana hammasining zanjir taqib olgani bu erning butun boshli mamlakatning bir o'lkasi ekanini ko'rsatib turibdi, binobarin, uning bitta tuman hududiga sig'ishiga aql bovar qilmaydi. Keyin bularning menga ehtirom ko'rsatishida begonaligimni urg'ulaydigan bir ta'kid bor ediki, bu ham bu erning boshqa yurt, mening ham kutilmagan, yana bo'lakcha mehmon ekanimni ko'rsatardi. Shunda ko'nglimga chin xavotir oraladi, qanaqadir mutlaqo boshqa joyga kelib qoldim, bu joyni ham, hozir o'zim ko'rib turgan odamlarni ham ko'rmaganman, eshitmaganman, umuman shunaqa joy va shunaqa odamlar borligini bilmaganman, bular menga shunchaki begona emas, balki bizga umuman teskari, yot, qanaqadir o'zga bir zotlar, bizga o'xshagan odam emasga o'xshaydi, deb o'yladim.

Meni bo'ynidan oyog'igacha taqilgan yalt-yult zanjirlarini jingirlatib posbonlaru harbiylar o'rab olib, darrov limuzinga o'xshaydigan, oynalari kulrang, ichkarisi ko'rinmaydigan, uzun bir mashinaga chiqardilar. «No'l to'qqiz»im nima bo'ladi deb o'ylagan edim, o'sha zahotiyoq so'ramay tushundim: katta yukmoshinga ortib, o'rab qo'ydilarmi, demak, orqamdan olib boradilar. Amaldori ham, haydovchisi ham, qo'riqlab turgan kattayu kichik askarlari ham, xullas, hammasi zanjirga chulg'angan. Kiyimlari, sirtdan qarasangiz, biznikiga o'xshab ketadi-yu, lekin tugmasi ko'p. Avvaliga zanjiriga esim og'ib, diqqat qilmagan ekanman, buncha tugma nimaga kerak bo'lar ekan, deb razm solsam, qo'ltiqlari tagidan to'piqqacha, bo'yindan ikki qo'lning bilaklarigacha ikki qator tugma, yana zehn qo'ysam, bularning zanjiri bo'yinda ham, bilakda ham zanjirtasma bilan yechilmaydigan qilib kavsharlangan, lekin kiyim yechilishi, almashtirilishi kerak-ku, ko'p tugma

shunga ekan, ya'ni kiyim ikki bo'lak po'stloqdek yechiladi, kiyilganda shu ikki bo'lak zanjirning tagidan tugmalanadi. Aks holda, bo'yindan, ikki qo'lu oyoqdan chiqmaydi, kiyilmaydi ham. Tasavvur qilyapsizmi, to'g'ri, ko'rmagan odamning buni tasavvurga keltirishi qiyin. Shuning uchun yo'lda uchraganlarning kiyimiga ko'zim tushganda ham yilt-yilt qilgan nimaligini aqlimga keltirolmagan edim, hatto posbonlarni yaqindan ko'rganda ham, bularning ko'chalik libosi shunaqa ekan, degan xayolga boribman. To'g'ri-da, bizda ham harbiy zobitlarning bayramlik liboslarida shunaqa aksel bantmi, epoletmi degan narsalar, elkasidan osilib turadigan qanaqadir o'rmalari bor-ku, shunaqa bir narsadir-da, debman.

Oldinda chirog'ini palpillatib bir mashina, orqamizdan uch mashina ergashib, karvon bo'lib jo'nadik. Ikki yonimda bittadan fuqaro kiyimidagi odam, lekin hatti-harakatlari shaxdamligidan bildimki, maxfiylar, juda bo'lmasa, harbiy tayyorgarlikdan o'tgan. Hibsga olindim desam, boya aytganimdek, e'tibor joyida, mo'tabar mehmonman desam, meni yo'lda uchraganlarga ko'rsatgilari yo'q, lekin men ularni ko'rib boryapman, demak, buni ham G'ulistonda ancha yashaganimdan keyin angladim, meni bu yerdagilarga emas, menga bu yerdagilarni ko'rishga imkoniyat tug'dirganlar. Ko'zim tushgan kim bo'lmasin, hammasi zanjirga solingan. Mashinada ketyapmiz, yengilgina jiring-jiring, ko'nikmaganimdan quloqqa g'alati, nega hammalarning zanjir taqqansizlar, deb so'rashga noqulay.

Shu joylarni diqqat bilan o'qing-da, albatta, mendan boshqa odam bunaqa gaplarni ayta olmaydi, siz uchun atay batafsil yozyapman, tasavvuringiz to'liq bo'lsin, haligi yozuvchi do'stimning bo'yamalariga ishonib yurmang deb.

Yo'lning o'rtasidagi beton to'siq - bahaybat zanjir shaklida, to ufqqacha tortilgan, yo'l chekkasidagi shiorlar, plakatlarni umrimda birinchi bor ko'ryapman. «Zanjir – tartib amaliyotidir» degan shiorni ko'rib, avvaliga angraydim, keyin, ayniqsa, «Insonning aql-zakovati uni zanjirni kashf yetishga olib keldi», «Yovvoyi tabiat – zanjirsiz, madaniy jamiyat – zanjir bilan!» degan shiorlarni o'qiganimdan keyin, angrayishim qiziqishga aylandi. «Kuylar kuyi – zanjir jarangi» degan shiorga umuman qoyil bo'ldim. Bir joyda orqada qolib ketgan mashinalarni kutib

sekinladik, juda bahaybat plakat bor ekan: muskullari o'ynab ketgan baquvvat, lekin zanjirlangan chiroyli yigit nim jilmayib, olis-olislarga boqib turibdi, pastda esa zanjiri yo'q mayda odamlar tiraqaylab har yonga qochyapti. Unda «Tartib ramzi - g'ul, erkinlik – o'z mayliga qul», deb yozilgan edi, rosti, bu falsafadan tong qotdim.

Indamay ketyapman, xavotirli bo'lsa ham qiziq, men ham ularga qiziqman shekilli, chap tomonimda o'tirgani, zanjiriga alahsib e'tibor bermabman, bir qoshi oq, burnining yonida katta xoli bor ekan, kimsiz degan edi, ismi sharifimni aytdim, keyin qayerdانسiz degan savoliga asli samarqandlik, lekin toshkentlik bo'lib ketganimni uqtirgan edim, umuman tushunmadi. Nega tushunmaganini o'zim ham tushunmabman, keyin O'zbekistondanman, uning poytaxti – Toshkent, o'sha shaharda turaman, asli Samarqand degan viloyatda tug'ilganman, hozir Jizaxga ketyapman, deb aytgan edim, u, aqli bir narsaga yetgandek «A-a», dedi, ikki Yonimdagilari ko'z urishtirib oldi. «Nima, bilmaysizlarmi?», dedim. To'rtovi ham birdan bosh chayqagan edi, bo'yinlaridagi zanjirlari betartib jiringlab ketdi. «Yo'q, bilmaymiz», dedi xoldori. Nega bilmasliklarini sekin taxminlab borayotgan edim. «Bu er qae?», dedim. Xoldori: «G'uliston», degan edi, qulog'imga «Guliston» bo'lib kiribdi, «Gulistonda yashab turib, O'zbekistonni bilmaysizlarmi, aqlga sig'maydi», degan edim, xoldori «Yaxshi eshitmadingiz, «Guliston» emas, «G'uliston», dedi. «E-e, shoshmang!», dedimu o'zim birdan tushungandek bo'ldim: «g'ul» – «zanjir» degani, hozir bu so'zni biz ishlatmaymiz, arxaik, lekin g'azallarda ko'p uchratganman, aniq esimda. «Ha-a, G'uliston, ya'ni Zanjiriston, shuning uchun zanjir taqar ekansizlar-da», dedim. Bu gapga xoldori: «Shunday, lekin uncha to'g'ri emas, biz g'ulistonlik bo'lganimiz uchun zanjir taqqanimiz yo'q, aksincha, zanjir taqqanimiz uchun ham mamlakatimizning nomi G'uliston!», dedi. «Tushundim», dedim, chunki endi bundan boshqalarini ham tushunayotgan edim. Lekin oldinda o'tirgani: «Bosh olib ketyapsizmi?», deb so'ragan edi, yana tushunmadim. «Kimning boshini?», deb so'radim. «Zanjiringiz qani bo'lmasa? To'g'ri g'uliy zanjirsiz yurmaydi-ku», dedi u. Gapi savoldan ko'ra so'roqqa

o'xshab ketayotgani uchun: «Bizda to'g'ri ham, o'g'ri ham zanjirlanmaydi. Umuman inson zoti zanjirga solinmaydi, agar ham qopog'on itlarni aytmasa», deb uni shart kesdim. To'rtovi ham bir-biriga qarab qo'yib, tund qoldilar. Men bularning ham elkasida bittadan kallasi bor-ku, bu nima deganim, ko'ngillariga kelmaydimi, deb sal noqulay bo'ldim. Lekin bular hali mening kimligim, qayerdanligimni uncha bilmaganlaridanmi yo nima bo'lmasin, meni ko'nglimni og'ritmay manzilga etkazish haqida qat'iy ko'rsatma olganlarmi, gapim botganini uncha bildirmadilar. Xoldori sovuqqon iljayib, yana gapga tutdi. «Bizda itga zanjir taqilmaydi. Chunki u it, g'uliy emas! Faqat g'uliygina aziz zanjirga loyiq. Fuliy - ulug'vor», dedi. Men tilimni yutib, ichimda tong qotib qoldim, o'ylarimning ham chalkashi chiqib ketdi. Xoldori «ey sodda odam!» degandek kuldi, zanjirlari kulgisiga hamohang jingirlab ketdi. «Uning ulug'ligi ham zanjirbandligida, keyin, bizda g'uliyilar uchun qamoq yo'q, faqat qopog'on it, yirtqich hayvonlar ihota etiladi, bu ham hayvonot bog'ida», dedi. «Jinoyatchilar-chi? Ularni qamamaysizlarmi?», dedim. «Ularning qamog'i o'zi bilan», dedi xoldori. «Qanaqa o'zi bilan?», deb hayron bo'lgan edim, oldinda o'tirgani biz tomonga o'girildi-da, «Hamma narsaning mavrudi bor, hali ko'p narsani bilib olasiz», dedi.

Shu gaplashish paytida beixtiyor boshqa bir narsaga e'tibor berdim: bularning zanjirlari gaplariga hamohang jingirlar, keyin, o'zimcha shunday taxmin qildimki, bular men bilmasligim kerak bo'lgan gaplarini zanjirlarini jingirlatish bilan bir-birlariga ishora qilayotgan edilar. Yana zehn solsam, zanjirni faqat bugun uchun, biron bayramga atab taqmaganlar, balki umuman echmaganlar, u jismlarining bir a'zosi, kundalik lozim kiyimdek bir ko'nikmaga aylangan, shu qadar ko'nikib ketganlarki, usiz yurmaydilar, yurmaganlar ham, yurishni tasavvurlariga ham keltirmaydilar. Shunda xayolimga bir fikr keldi-da: «Sizlar kimsizlar?», deb so'radim. Xoldori menga ajabsinib qaradi-da: «G'uliyimiz!», dedi. «Men qanaqa xalqsiz, millatingizning ismi nima deb so'rayapman. Masalan, biz o'zbekimiz, sizlar-chi?», dedim. «A-a, - dedi xoldori. – Aytyapman-ku, g'uliyarmiz, g'uliyot». Boyadan beri shuni takrorlayotgan ekan-da.

Shu payti kelayotganimdan beri bularning ko'nglimni nojoy qilib kelayotgan yana bir fe'li miyamga lop etib urildi: uchrashibmiz, ko'rishibmiz, mashinada shuncha gaplashibmiz, birortasi ko'zinga to'g'ri qaramabdi, menga savolini berganda ham ko'rmay, javobimni eshitganda ham mening gapimni emas, xuddi radioni tinglayotganday yo boshqa yoqqa, yo bir-biriga ko'z tikib kelayotgan edilar. Juda g'alati bo'ldim, o'zi biron kishi hadeb ko'zingga tikilib olsa ham noqulay, bir tanishim bor, ko'rishib-gaplashib qolganda odamning ko'ziga ko'zini lo'q qilib, to'ppa-to'g'ri qadab turaveradi, juda o'ng'aysizlanaman, xuddi u tergovchiyu men bir aybdordek, tezroq xayr-xo'shga o'taman. Lekin gurunglashgan odaming senga umuman qaramasa, bu ham juda yomon bepisandlikdek tuyulib, o'zingni qandaydir yerga urilgandek his qilar ekansan. Ammo, nachora, boshqa mamlakat, g'uliyimiz deyapti, boshqacha bir xalq, yot-begonalarni ko'rganda shunday qilish bularga odatdir, o'zlariga shu odat yaxshidir, axir, bizning dunyoda ham ma'qullaganda bosh silkimay, aksincha sarak-sarak qiladigan, jahli chiqqanda ko'zlari qisilish o'rniga katta-katta ochilib ketadigan xalqlar ham bor, o'zimizda ham chapak chalish qadimlarda aza-kulfatni bildirgan bo'lsa, hozir olqish alomati-ku, deb tishimni tishimga bosib, o'zinga bazo'r taskin berdim. Yorilib ketay deb boryapman lekin! Hali boshimga nimalar tushishini bilmayman-u, hamma yog'im, butun vujudim nima bo'lar ekan deb g'uj bir kutish. Qo'rqqanimdan foyda yo'qligini bilib turib, yuragimda sal-pal vahima bo'lsa-da, uncha qo'rqmayapman lekin.

G'uliston yoki g'uliylarning hayoti

Baland-baland oshyonali payvast imoratlari uzoqdan ko'rinib turgan shaharga yetib bordik. Shahar, bizning shaharlarga o'xshab, avval javonibdagi olмали hovlilardan, darvozalarining oldidagi chavra to'siqlari, gulzoru ishqomlari, ulashgan bir qavatli, boloxonali uylardan, keyin ikki oshyonali imoratlardan boshlandi, oshyonalari ko'tarilishi barobarida ko'chalarida g'uliy odami qalinlashib, avtolari gavjumlashib bordi. Ha, shahar tashidan bizning shaharlardan farq qilmaydi, uylarning ayvonlarida osib qo'yilgan kirlaridan tortib, ko'chalarning tepasida bulutdek turib qolgan ko'kimtir tutun g'uborigacha ko'z o'rganib qolgan manzara, tramvay, trolleybus, avtobuslari bizdagidek tirband, daraxtlari daraxt, faqat olmasi bisyor, osmoni shu osmon, gullari o'sha-o'sha ko'z o'rgangan gunogun ranglar, lekin hamma katta-kichik shaharlarga xos turli-tuman shiorlar, suratlar, plakatlar, e'lonlar, afishalar, chaqiriqlar, xullaski, inson zotining o'qish-yozishni o'rganganidan keyin yaralgan neki bo'lsa, hammasi boshqa, umuman bu yerdagilar ham qoshu ko'zi bizni aynan takrorlagani bilan, bari, yettidan yetmish yasharigacha hamma-hammasi zanjir osgan, chorrahalarida mashinaning zich yopilgan oynalaridan silqib kirgan shildir-shildir jiring tovushi ham bu erning mutloq bir boshqa makon, yashash qonunlari ham biznikiga mutloq o'xshamasligini urg'ulab turar, ko'zimga ko'rinish berayotgan narsalarning barchasini aqlimga sig'dirolmay, mashina ichida o'zim ham ishtirok etayotgan xayoliy kinoni berilib tomosha qilib borayotgan edim. Lekin shaharning insonga taalluq manzarasi qancha g'ayritabiiy tuyulmasin, meni harqancha hayratga solmasin, bari bir, bu yerdagi turmush, menga notabiiy, o'zlari uchun esa juda tabiiy tarzda kechayotgan, zanjirini, zanjirlangan bahaybat haykallarini, chaqirig'u chorlovlarining mazmunini aytmasa, hamma yerdagiga o'xshagan bir turmush edi. Ko'chalarda mashinalar zang chalib, bir-biridan yo'l so'rar, quvlashib yurar, sumka, portfel, xalta ko'targan erkaklar, bolalar aravachasini surgan ayollar xuddi bizdagidek, ko'chalarni betartib kesib o'tar, hammasi o'z tashvish-quvonchlari bilan shaharni hayotga to'ldirib borar, men ham endi shularning ichida oqib ketayotgan edim.

Ancha yurdik, chamamda shaharning markazini kesib o'tdik, ko'kimtir devor bo'ylab borib zang berdik, chiroyli zanjirgulchin temir darvoza yonboshga surildi. Ikki tomoni olmazor keng xiyobonga kirdik. Odam bir begona joyga borsa, ungacha ko'rmagan narsalariga e'tibor qiladi shekilli, yo'lakning ikki chetidagi chavra to'siq zanjir shaklida shunaqa chiroyli qaychilangan ediki, beixtiyor: «Qoyil! Bog'bonning qo'li gul ekan», deb yubordim. Xoldori ochilibroq jilmaydida: «Hali shoshmang, bunaqa narsalarni ko'p ko'rasiz. Hammasi oldinda!», dedi. Bir baland imorat oldida mashinadan tushdik. Rahbarlar hordiq chiqaradigan ma'vo shekilli, hammayoq orasta, zinapoyalariga cho'g'dek gilam to'shalgan. Umuman, bizning ilgarigi obkom dachalariga o'xshab ketadi. Faqat farqi, nimaga e'tibor qilmay, gilamning gullarimi, zinapoya tutqichlarimi, devordagi ganchning naqshlarimi, ishqilib, hammasida u yoki bu shaklda zanjir ramzi bor. Oynavand eshikni bir qiz ochdi, bejirim zanjir taqqan, qimirlaganda kumush qo'ng'iroqdek jiringlaydi, peshbandida ham zanjir rasmi bosilgan, lekin chiroyli, matoga chizilgan bo'lsa-da, boyagi kumush jarang shulardan ham kelayotganga o'xshaydi.

Shu, eshik ochilish asnosida bir qiziq ish ro'y berdi, qizdagi zanjirning kumush jarangiga meni olib kelganlarning zanjiri ham, xuddi kamertondek, hamohang jiringladi. Bu hamohanglik ko'p davom etmadi, lekin menga shunday tuyuldi, bularning hammasining zanjiri o'zaro kelishib, bir kuyga jo'rlik qilayotgandek, har holda, tuyg'ularim meni aldamagan ekan, keyin, bu yerda ancha turganimdan keyin bildimki, bular zanjir tilida gaplashib olgan ekan: «Salom!», «Salom! Yaxshi keldingizmi?», «Mehmonning joyi tayyormi», «Tayyor», «Qani, boshlang o'sha xonaga!» - buni sizga hali tushuntirib berarman. Bu yerda shu ahvol, qiz zanjiri bor uchun menga sal mumsikroq ko'rindi-yu, lekin juda suluv, qaragan ko'zlar bahra olishi uchun yaratilgan edi, bular bilan qarab gaplashdi, menga kelganda, nigohi yonboshimdan o'tib ketdi. Bir ko'rishda sezdim: menga qaramagani bilan alohida e'tibor bor edi, buni faqat yuragim bilan emas, butun vujudim bilan tuydim. Bo'ladi-ku sizda ham, ba'zi ayollarni hali o'zi bilan gaplashmay turib ham, juda

yaqin bo'lib qolganini tuyiqsindan his etasiz. Qiz shu yerda oqsoch yo xizmatchi, ammo o'z qadrini yaxshi biladigan suluv edi, hali gaplashamiz, gap ko'p...

Meni uchinchi qavatga boshlab chiqdilar. Bir o'ymakor, ya'ni zanjir naqshi kesib solingan eshikni ochdilarki, sizni charchatmaslik uchun qayerda zanjir rasmi yo shaklini ko'rsam hammasini aytavermay, bari bir, sanab ham adog'iga yetolmayman, xullas, G'ulistonning nomiga yarasha, hamma yoqda g'ul asari bor, ha, haligi eshikdan ichkari kirdik. Juda muhtasham, mehmonning o'z mehmonlarini kutishi uchun bir xona, dam olishiga xona, bu yoqda haligi yana kerak bo'ladigan bo'lmalar. Divan, yumshoqkursilar, dasturxon yasog'li kattakon maso, burchakda televizor, derazalarga og'ir pardalar osilgan, yarqiragan parket polning o'rtasida juda chiroyli gilam to'shalgan. Parket, aytmamam bo'lmaydi, yerga to'shalgan zanjir shaklida juda chiroyli terilgan, lokida gard yo'q. Ustida yurganda oyog'ingizga o'ralib erkanayotgandek.

“Mana, bahuzur dam oling, keyin gaplashib olamiz”, dedi xoldor g'uliy. Bor pulimga benzin olib, yonimda chaqa ham qolmaganini aytib o'tirmadim, har qalay, begona odamlarga g'arib-g'urabo ko'rinib nima ham kerak. “Uzr, yo'lga shoshilib chiqqan edim, bu yerda yotib-turishning hisob-kitobi qanday bo'ladi?”, dedim, xolos, puli bor odamdek, iloji boricha beparvolik bilan. Pulim bo'lganda ham bu yerda o'tmasligi hali xayolda yo'q. Xoldor deraza pardalariga qarab, «Hech narsaning tashvishini qilmang, mehmonimizsiz, o'zimizga o'tganingizdan keyin bir gap bo'lar. Hozir dam oling, kelgan joyingiz bilan tanishing», deb sirli iljayib qo'ydi. “Avval shahringizni bir aylansammikan?”, deb so'radim. Ular bir-birlariga qarab oldilar, xoldorining yuziga sal parda tushdi, “Ixtiyoringiz, lekin maslahat bermaymiz. Keyin boshqa gap”, dedi. Keldim-ku, yana qayoqqa o'taman, keyini nima, bu gaplarni, albatta anglamadim, ko'nglimga bir taxminlar keldi-yu, mayli, keyin bo'lsa, keyin-da, deb qo'l siltab, bitta o'zimga shuncha tashvish, yana xizmatchi qiz ham tayinlangan, nimasiga buncha xavotir qilaman deb o'zimga taskin berdim. “Mana, kassetalar, yurtimiz, o'zimiz to'g'rimizdagi hamma ma'lumotlar shularda bor, bemalol ko'raverasiz. Pastki oshyonda kutubxona, u

ham ixtiyoringizda. Yana nima kerak bo'lsa, manavi tugmani bosasiz, qizimiz xizimatingizda», dedi xoldori xuddi men ko'rmayotgandek avval televizorga, keyin eshik kesakisiga yangi o'rnatilgan o'sha tugmaga imo qilib.

Do'kayrog'i shekilli, faqat xoldori gapiradi, bu ikkovi uning nima deyishini nazorat qilib yo o'zlarining zanjir tilida o'rgatib turadimi, deb o'yladim. Chunki men so'raganimda, hali xoldori javobga og'iz juftlamay, bularining zanjirlari sado beradi, hatto qizniki ham ularga ingichka-nozik jo'r bo'ladi. Bularning zanjir bilan bir to'xtamga kelib olishi, xoldorining har bir gapini ma'qullab turishini, albatta, keyin bildim, lekin o'sha vaqtdayoq nimaga buncha g'alati jiring-jiring deb, e'tibor qilgan edim.

Hozirdan «bildimki», «sezdimki» deb yozyapman, siz bu odam hamma narsani oldindan payqar ekan yo o'zini shunday oshirib yuboryapti, deb o'ylamang tag'in, shunchaki, vaqtida ko'rganlarimga keyin aqlimga yetgani aralashyapti. Voqealarni ular o'tgandan keyin ta'riflasangiz, albatta o'sha vaqtdagi narsalarga keyin o'ylaganlaringiz ham qo'shilib ketadi-da. Hali bu voqealarga aloqasi yo'q narsalar ham hikoyamga kirib qolgan, ular yo meni, yo ularni tushunish uchun kerak, lekin hozir gapdan alahsimay, keyin aytaman.

Ha-ya, dasturxondagi boshqa nozu ne'matlar o'rtasida katta chinni lagan to'la olma ham turgan edi. Boshqacha ertaki navlaridan shekilli, oltinday sap-sariq tovlanib meni ye, meni ye, deb turibdi. Odamni nimaga buncha o'ziga tortishini hali bilganimcha yo'q lekin.

Nihoyat meni yolg'iz qo'yib chiqib ketishdi. Yaxshi bo'ldi, shu uch-to'rt soat ichida ko'rganlarimni o'bdon o'ylab olishim kerak edi. Lekin yolg'iz qolishim bilan xayollarimning itligi tutib, fikrlarimni talay boshladi. Boshqa bir mamlakatga, begonalarning hayotiga kelib qolganim aniq, lekin bu yog'i nima bo'ladi? «O'zimizniki bo'lganingizdan keyin», deyapti, bu nimani anglatadi? Nima, endi, tamom, shu yerda qolasan, biznikisan, degenimi? «O'zimizga o'tganingizdan keyin» degani shudir-da. Axir, u yoqda oilam bor, dadam

Toshkentdan kelib bizni olib ketadi, deb bemalol o'ynab yurgan o'g'lim bilan qizim, mashinani tez haydashimdan yo'limga xavotirda ko'z tikkan kelingiz bor, menga suyanadigan, kerak payti suyaydigan ukalarim, opa-singillarim, akalarim, qaynota-qaynog'alarim, xeshu qarindosh, qo'yingki, bir dunyo yaqinlarimning ichida yashayman; niholni-ku, boshqa tuproqqa ko'chirib o'tqazsa bo'lar, lekin men bo'y cho'zib qotgan daraxtman, ildizlarim chuqur ketgan, qanday sug'urilaman, qurib qolaman-ku, faqat o'z tuprog'imda, o'z yaqinlarimning ichida tirikman, bu ahvolga solishga nima haqlari bor? Bir burda non tashvishida ko'cha kezib, qiynalib yashab yurganimni eshitib kelgan bir tanishim: «Yurasizmi bu ahvolda, chiqarib yuboraylik. Har xil jamg'armalar bor, ta'minlab qo'yadigan», deganda, «U yoqda ammayu xolam bo'lmasa, biron xeshim yo'q joyda til bilmay qanday yashayman? Yo'q, tirikligim shu yerda, chet elga chiqib ketsam, tik yurib o'laman u yoqda», degan edim. Rost-da, ja qoyillatmagan bo'lsam-da, yozuvchiman, men yozadigan hayot, odamlar shu yerda, u yoqqa ketib nimani ko'rib, qanday yozamanu yozganimni kim o'qiydi? Men ularning, ular mening tilimni tushunmasa. Shunchaki yebketarga kim pul beradi, aravasiga o'tirg'izgandan keyin qo'shig'ini ham aytiradi-da. «Yo'q, shu tuproqda borman, u yoqda yo'qman», dedim. «Boshingizga bir ish tushib qolsa-chi?», dedi tanishim. «Nima ko'rgulik kelsa, peshonamdan», deb javob qildim. Bu yerda, hali odam yo odam emasligini ham bilmayapman, hammasi o'zini g'uliy deydigan g'uliyot ichida o'sha suhbat esimga tushib, yurtimning qamog'i ham ko'zimga aziz ko'rinib ketdi. Xudoga shukr, qamalib ko'rmaganman-u, lekin, har holda, mahbus bo'lsa ham o'zingga o'xshagan odamlar orasida, panjarali tuynugidan o'zingning osmoning ko'rinadi, chaqqan xomishagi ham begona emas-da endi. Keyin oyda-yilda erkinlikdan mujda ham kelib tursa kerak. Siz o'z yurtimdan, odamlardan tamomila, mutloq uzilib qolayotganimni tasavvur qilyapsizmi hech? Ichimda bularni yanib turibman-u, lekin bu yoqqa meni hech kim majburlab sudrab kelgani yo'q, o'zim keldim, bu bechoralarga bir ortiqcha tashvish bo'lsam kerak, deb shaytonga hay ham beraman.

O'zi sal vahimachi odamman, ko'nglinga bir xavotir kelsa, shuni xayolimda kattalashtirib, oxiri seskanib, istig'for aytib yuraman, yana bu sovuq o'ylardan tishlarimgacha takirlab ketyapti. Shu ahvolda ancha o'tirib, keyin ko'p o'rtanma, ey ko'ngil, deb o'zimga dalda bergan bo'ldim. Bandasining boshiga nima kunlar tushmaydi, baxti qochsa, qavmu qarindosh, yoru jo'raning ichida ham yolg'iz, peshanasida bo'lsa, kimsasiz cho'lu biyobonda ham birodarlarining himoyasida yuradi, hammasi yaratganning inoyatidan, uning dargohi ham, karami ham keng, shu yerga o'tkazib yubordimi, lozim ko'rsa, qaytarib ham olib chiqadi, peshonada shuni ko'rish ham bor ekan, boshqa ne iloj, o'zimni xudoga topshiray-da, hozir bir qovg'anib olay, egam bir yo'l ko'rsatar, dedim. Shu payti ukamning «Aka, nazardagi odamsiz, vaqti-vaqti bilan o'zingizga dam solib turing, yomonliklardan asraydi», deb tayinlaganlari esimga tushdi. Ilgarilari bunaqa gaplarga beparvoroq edim, lekin hozir ayni najot bo'lib ko'rindi. «Fotiha» bilan «Ixlos» surasini o'qib, keyin boshqa bilganlarimni qo'shib o'zimcha qiroat qildim-da, birpas sukutda o'tirdim. Shu ham g'alati tuyuldi, nimagadir bu yer, umuman shu atrof qiroatning o'rni emas, o'qishim meni o'rab turgan hamma narsaga, hatto havoga ham begonaga o'xshadi. Tugmani bosgan edim, shu zahotiyiq eshik ochilib, boyagi qiz, qaddidan mayin kumush sochilib kirdi. Choy so'radim. «Qanaqa bo'lsin? Ko'kmi, qorami?», degan edi, birdan ko'nglim ilidi, zanjir taqsa-da, choylari biznikidek ekan-ku! «Qora! Pamil», dedim. «Yana nima? Ovqatdan?», deb so'radi. «Farqi yo'q», dedim-u, keyin: «Sizlarda nimaning go'shti iste'mol qilinadi?», deb so'radim. «Mol, qo'y go'shti, tovuq, nimani buyurasiz?», dedi qiz. Ancha xotirjam tortdim. Har qalay, kaltakesak yo ilon emas ekanlar-ku. «Mayli, bilganingiz», dedim. Qiz yana jilmaydi, yana xonaga kumush sochildi. Chiqib ketayotganda ham, patnis ko'tarib kirganda ham xona kumush tangaga to'lib qolgandek. Menga qarab gaplashsa, asakasi ketarmikan, a? So'ray dedimu tag'in boshqa xayolga bormasin, deb o'yladim. Ha-ya, aytgandek, boyagilar, ya'ni erkaklari g'uliy bo'lsa, buni endi g'uliy deyimiz-da.

Tamaddiga o'tirgan paytimda qiz chinnidagi olmadan bittasini olib, karsillatib tishladi-da, borib televizorni qo'ydi: keng, niliy osmon sathida unda-bunda hali ko'rganim o'rkachli tuyadek suzib yurgan bulutlar ko'rindi, mayin kuy boshlandi. Chiroyli bir g'uliya qiz, albatta bo'ynida zanjiri bilan, paydo bo'ldi-da, to'ppa-to'g'ri menga murojaat qilib: «Assalomu alaykum, hurmatli mehmon!», dedi. Hech bo'lmasa shu menga qarayapti-ku, dedim ichimda. Yonimdagi qiz: «Siz uchun maxsus dastur», dedi. Ekrandagi qiz: «Yurtimizga xush kelibsiz! Mamlakatimiz – G'uliston, o'zimiz esa g'uliyotmiz. Butun olamda G'ulistonimizga teng keladigan o'lka yo'q, biz g'uliyalar o'z vatanimiz bilan behad faxrlanamiz», dedi. Keyin musiqa o'zgarib, G'ulistonning ko'rinishlari bilan tantanavor qo'shiq boshlandi:

«Qoyil senga, yuksal, ey G'uliston, ota makon,

G'ullaring biz bilan, hamisha, har on,

Zanjiring baxsh etar buyuk intizom,

Tartibni kuylaymiz har yonda, har tong...»

Qo'shiq matni bizning o'zi yozib, o'zi aytadigan haminqadar qo'shiqchilarimiznikidek saktaroq ekan-u, lekin mazmuni hayratga soldi. Butun boshli bir zanjirlangan mafkura-ku bu! Zanjiriga qarab bularni ibtidoiyoqmikan deb turgan edim, fikrim o'zgardi, yo'q, kishanbandligini aytmasa, shakli shamoyili bizga o'xshaydigan ongli mavjudot, faqat ixtiyorlarini zanjirga topshirib, unga topinib yashaydilar; zanjir bularni bog'lab turadigan intizom rishtasi, g'ulga chulg'angan jamiyat yuksak tartib namunasi ekan. Tepamda turgan manavi g'uliyaning zanjiri ham qo'shiqqa hamohang, sal dalda bersam o'zi ham o'yinga tushib ketadigan. «Bunaqa paytlari tinch turolmaymiz, buni jo'r kuylatamiz», dedi u zanjirini ibo bilan o'ynab.

Ektranda esa zanjiri yo'q odamlar yo'q yerdan tushib qolgan bir bo'lak xom go'shtni talashib, tishlarini irjaytirgancha olishib ketdi. Keyin ularning boshi ustida yalt-yult qilib bir zanjir jaranglab chiqqan edi, hammasi taqqa to'xtab, unga tikilib

qoldi. Yuzlaridagi tirish-burishlar tekislanib, mayin tabassumga aylandi, zanjirning jarangi tartibli bir kuy bo'ldi. Pastdagilar esa bir-biriga asta qo'l berib, bu kuyga jo'rovoz ashula boshladi. Qizdan haligi xos go'sht qayoqqa ketganini so'ramoqchi bo'ldim-u, lekin o'zimni sodda ko'rsatgim kelmadi. Yana manzara o'zgardi, osmonda yaraq-yaraq nurlanayotgan zanjir, pastda esa ko'zni quvontiradigan olmazorlar, xurmo qatorlari, ekinzorlar, bo'liq bug'doy poyalar, sal o'tib orasta qishloqlar, ulkan shaharlar ko'rindi-da, birdan shod-xurram, baxtiyor g'uliyalarga to'lib, hamma-hamma jingir-jingir silkinib, g'ulga sallamno aytishga tushdi, shu bilan hayot ham xuddi yuksalib ketgandek bo'ldi. Ming-million odamning birvarakayiga kuylaganini shu paytgacha sira eshitmaganimdan sochimning tagigacha jimirlab ketdi. Axir, odamni qamoqda ellik yil chiritsang ham, uning hurlikka intilishi o'lmaydi, o'zi asli jinoyatchi ham erkinlikning qadrini bilsin deb undan mahrum etiladi. Bular esa yoppasiga, olomon bo'lib tutqunlikka talpinyapti, yana qo'shiq aytib ham boryapti:

«Senga topinaman, sen bilan borman,

Ey, buyuk intizom, mahkumlik shaxdi,

Senda g'uliyeligim, senda a'molim!

Muazzam bir tartib, sendadir baxtim!»

G'uliyaya xizmatchiga qarasam, xuddi oshig'i bilan ilk bor qovushayotgandek bir hayajonda. Ko'zlarida yosh, lekin olma yeyishni ham to'xtatmagan. Yo'q, artistlik qilayotgani yo'q, chindan to'lqinlanib ketgan. Keyin bildim, tumonat bo'lib aytadigan qo'shiqlari «g'uliyaya» deb atalib, shunday g'uliyalar yangraganda birontasi berilmay turolmas, bu ham ularning o'ziga xos, yo'q, o'ziga xos emas, haqiqiy munajotlari ekan. Hali vaqti kelib e'tiqodlarini tushuntirganda aytib berarman, ammo hozir ekranda kishanlarini titrab-qaqshab, shavqlanib o'payotgan olomonga qarab, butun boshli bir mamlakat xalqini tamom qamrab olgan mahkumlik tuyg'ularining jozibasi oldida o'zim ham lol o'tirgan edim. Bir tasavvur qiling: biz hurlikni qanchalar sevamiz, ozodlik uchun tariximizda qancha

boshlarimizni tikdik; hatto sal bo'g'iqlik xonada uzoqroq o'tirib qolsak ham, tashqariga – erkinlikka ko'chib nafas olaylig-ey, deb yuboramiz, qishdan oftobshuvoqqa chiqib, qalin kiyimlarimizni echganimizga, xudoga shukr, ey, yayraydigan ko'klam kunlari ham kelar ekan-ku, e-e, bormisan ozodlik, deb entikib ketamiz, uylarimizni katta-katta qurishga intilamiz, azbaroyi bemalolroq yashash uchun, oyoqlarimizning chigilini yozaylik deganimizda ham erk ma'nosi bor; mana, yo uzoq umr kishanda yashaysan, yo o'limga ko'nasan, desa, hech ikkilanmay, keyingisini tanlaymiz! Bizning ozodlikka talpinishimiz shu qadar kuchli, hayotligimiz bilan bab-baravar, o'zi insonligimiz ham shu! Bizga boshqacha mumkin ham emas! Lekin hozir bu yerda, ko'z oldimda bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa bo'lyapti, ko'z o'ngimda kechayotgan voqelikni ko'rib turibman! Albatta, bu televizor ekrani, men uchun ataylab tuzilgan dastur, lekin uydirma emas, bor gap, o'zim ham televideniya ishlaganman, bilaman, Toshkentdan chiqqanimdan beri o'tgan vaqt ichida bunaqa ko'rsatuv yo kinoni to'qib-yasash, har qancha ustalar to'planmasin, hech kimning qo'lidan kelmaydi. Har qandayiga teskari tuyulmasin, nechog'li g'ayritabiiy ko'rinmasin, bularning bori hayoti shu va bu hayot bir kundagina kechayotgani yo'q, balki uzoq tarixga ega, shu ketishida kelajakka ham qarab borayotir!

G'uliy qiz yana choy damlab keldi, choyni qaytarayotib: «Boya o'zingizga o'zingiz ohang bilan nima dedingiz?» deb so'rab qoldi. U hayron edi, hech narsani anglamagan, tushunmagan, shundan bildimki, bu qizning xudosi yo'q, faqat u emas, hamma g'uliyalar umuman xudoni bilmaydi, tanimaydi. Juda rahmim keldi: bechoralar, zanjirbandligi etmagandek, yana osiy ham ekan. Lekin hayratda ham tong qotdim: bular meni eshitib turar ekan! Halitdan! Boya tugmani bosishim bilan eshik ochilishidan sezib, bu darajada bildirib qo'ymasa kerak degan edim. Lekin qizning bu savoli hamma narsani oydin qildi qo'ydi. «Qiroatim yo'q, o'zim bilgancha o'qidim-da», dedim-u, uncha izoh bermadim. qiz barmoq tishlab turib qoldi. Uning nimani o'qiganimni o'ylab qolishiga qarab, xona butunicha eshitadigan moslamalar bilan jihozlangani, ehtimolki, mitti kameralar ham

o'rnatilganini taxminladim. Meni faqat bu qizning o'zi emas, balki katta bir xizmat eshitayotganiga ham birdan aqlim yetdi. Shu fikrga kelishim bilan o'zim ham shir yalang'ochga o'xshab qoldim, hamma yog'im ularga ko'rinib turadi, yegan-ichganim ham, yotgan turganim ham, bular uchun hatto miyamda nima o'ylaganim ham ko'rinadi, deb o'yladim, xonaning devorlari bo'lgani bilan, o'zi shaffof, ichidagi hamma narsa qarab turganlarga oshkordek tuyuldi-da, bu yerda daqiqa ham qolgim kelmadi. Televizor ko'rib o'tiray desam, ko'rib o'tirganimni bular ko'rib o'tirsa, ko'nglimga sig'adimi. Birdan erkinlikka muhtoj bo'lib qoldim, menga havo kerak, mayli, g'uliylar orasiga bo'lsa ham, chiqay, bu yerda tars yorilib ketaman dedim. Ha, darvoqe, o'shandagi sezgirligimga o'zim hozir ham qoyil qolaman, nimadir tajribam ham bor edi shekilli-da.

«Singlim, bir joyda o'tirolmaydigan odamman, oyoqning chigilini bir yozib kelay», dedim-da, tashqariga otlandim. «Shu turishingizdami?» deb so'radi qiz. «Ha, nima qipti? Issiq kunda galstuk taqish shart emasdir», dedim. «Nima qilasiz chiqib, undan ko'ra, mana, olma eb, choy ichib, televizor ko'rib dam oling», dedi qiz. U olmaning qanday yaxshi ekanini ko'rsatib, chinnidan yana bittasini olib karsillatib tishladi-da, derazaga qarab ishvalandi. Uning ishvasidan bildimki, olma shirin ekan. Yuragim bir zirq etsa ham, hozir olmaxo'rlikning payti emas dedim-da, eshikka yo'l oldim. Shu asnoda g'uliya tomonidan bir harakat sodir bo'ldi: u tomonidan o'taman desam ham, bu tomonidan o'taman desam ham xuddi erkalik qilayotgandek yo'limni to'saverdi, avvaliga sal dovdirroqmi, deb o'yladim, haliginday derazaga nim kulib tikilib, oldimdan chiqaveradi, xuddi bilmay qolgandek. Bir kamim oqsoch qiz bilan o'yin qilish edimi, dedim-da, aylanishni kattaroq olib, eshikka yetib oldim. Ho' keyin, ko'chaga chiqib, g'uliylarga aralashib ancha yurganimdan keyin qiz bu erkaligi bilan nima demoqchi bo'lganini tushunib etdim. Shuni so'z bilan aytib qo'ysa ham bo'lar edi, ammo, mayli, o'z ko'zi bilan ko'rsin dedimi g'olib.

Mening g'uliyilarga qaraganim, ularning...

Oromgohmi, mehmonxonami, ishqilib, uning oldidagi xiyobonda ham, bog'da ham hech kim ko'rinmadi. Atrofga qaradim. Yo'lka – yo'lka, daraxtlari hamsoya, chimzorning maysasi ham bizlarnikidan farq qilmaydi, qushlarning o'sha chug'uri, qattiq g'iyqillagan bir tovush keldi, darrov tanidim, Xorazmda bir kecha uch-to'rt marta shu tovushdan uyg'onib, nima balo, mov mushuk ham shunaqa tovush beradimi, deb hayron bo'lgan edim, ertalab turganda ko'rsam, hovlidagi katakda o'ntacha tovuş, o'zi chiroyli bo'lgani bilan shunaqa xunuk nag'masi bor ekan, bularnikining ham farqi yo'q, shu lo'lilibos murg', yana dumini yelpug'ichdan ham katta yoyib, makiyoniga kekkayib maqtanyapti.

Ko'ragimni to'ldirib nafas oldim, havosi toza, biznikidan ham sal totliroq tuyuldi. Oftob charaqlaydi, yozning oqishroq-ko'k osmoni, xuddi uning shishasini birov tirnog'i bilan ohista chertayotgandek elas-elas jarangi bor. Tabiat hamma yerda ham bir tabiat shekilli, bu begona joyda emas, xuddi o'zimizning istirohat bog'larimizdan birida, tovusi bor uchun, masalan, Xorazmdagi o'sha mehmonxona xiyobonida yurgandek bo'lyapman.

Darvoza ochiq ekan, tashqariga chiqdim. Uzun ketgan ko'chaning ikki tomoni bir-biriga matashgan uylar, uylarning oldida xuddi biznikidek chang o'tirgan ishqom, ensizgina tomorqacha, issiqdan qovjirayozgan gulzorlar, ikki-uch olma, bir-ikkita xurmo. Hammasi har xil yo panjara, yo chavra bilan o'rab olingan, o'rtadagi eski asfalt kulrang-oqish tusda, doim mashina yurgan joylaridagi rezina yuqi qorayibroq ko'rinadi. O'tib borayotganimda yonboshdagi darvoza ochilib, bir qiz chiqdi, atlasining ustidagi zanjirlari oftobda yaltillab ketdi. Yuragim zirqillab berdi: yo qizlari rostdan ham chiroyli, yo ko'nglimdagi shayton bosh ko'taryapti, begona joyda andisha nima kerak deb. «Kechirasiz, shaharning markaziga shu yo'l to'g'ri boradimi?», deb so'ragan edim, atlas tagidagi sambittol qomatini salgina egib, injilib yerga qaradi-da, indamay ichkariga qayrildi. Juda uyatchan ekan, balki yangi kelinchakmi, dedim. Ketaverdim, sal yurganimdan keyin bir darvoza oldidagi o'rindiqda uch-to'rt yoshli qizaloq qo'g'irchog'ini o'ynab o'tirgan ekan,

menga hayron tikilib qoldi. O'zining ham, qo'g'irchog'ining ham bejirim zanjirchalari bor. «Ha, qizim!» deb, yana bir shirin gap aytmoqchi edim, ko'zlari katta-katta ochilib ketib, qo'g'irchog'ini bag'riga mahkam bosdi. Begona odamman, shaytonlab yurmasin tag'in deb, boshqa gapirmay o'tib ketdim. Darsi tugaganmi, ikki qiz, uch yigitcha to'g'ri ro'paramda paydo bo'ldi, yigitlarining zanjiri qalinroq, qizlariniki sal ingichka, zaifona, o'z xayollari bilan, o'zaro gaplashib, menga mutlaqo parvo qilmay, hamohang jingir-jingir o'tib ketdilar. Yo'limda yana bir otaxon uchradi, qo'lini orqaga qilgancha, to'g'riga tikilib kelayotgan edi, zanjiri ham o'ziga o'xshagan eski, balki ota-bobosidan qolgan qadimiyydir, yurganida salobat bilan jingirlaydi, salom bergan edim eshitmadi, meni ham ko'rmadi, qulog'i og'ir, ko'zlari ham xira tortgan shekilli, bo'lmasa, shunday nuroniy kishi, salomga alik olardi, deb o'yladim, lekin sal g'alati ahvolga tushdim. Begonani shuncha izzat qilib, salom bersang-da, u yoshi ulug' mardi kalon pinagini buzmasa, ko'ngling og'riydi albatta. Yana yurganimdan keyin go'sht do'koni ko'rindi, oldiga bordim. qon sachragan oq fartuq ustidagi zanjirlari, moy yuqi qo'li bilan ushlayverganigami, yaltillab ketgan jikkakkina qassob yigit, bir qo'lida olma, bir qo'lidagi katta pichoq bilan osilgan go'shtlarga uymalashgan arilarni haydab turgan ekan, «Savdoga baraka! Go'sht necha pul?» deb so'ragan edim, parvo ham qilmadi, qulog'i tom bitgan bo'lsa ham, ko'zi ochiq-ku, deb oriyatim qo'zidi, «O', uka, seni odam deb birov gap so'rayapti!», dedim. U bo'lsa javob o'rniga chala iljayib, bu yerda o'zidan boshqa hech kim yo'qdek, katta pichog'i bilan go'shtga qo'ngan arilarni shapillatib o'ldirishga tushdi-da, yana olmasini tishladi. «Nachora, suymaganga suykalma. Boyagilari ham bir navi ekan, qaramasa ham, har qalay gaplashdi-ku», deb o'yladim, bulari menga gapirmasa, men ham birontasiga gapirmayman dedim. Lekin uzib oldim, «Yo ari o'ldirish kerak, yo olma yeyish. Yuvish ham esdan chiqmasin», dedim. Shunda ham indamadi. O'zim ham qiziq, go'shtini olmasam, narxini so'rash nima kerak edi dedim-da, ketaverdim.

Ancha yurdim, tramvay izlari, trolleybus simlari, avtobus bekatlari uchrayverdi, chipta narxini bilmayman, cho'ntak ham ham haliginday deb, biron ulovga chiqmadim. G'uliylarning asta-sekin qalinlashib, imoratlarning balandlab, ma'muriy binolarning ko'payib borayotganiga qaraganda, mo'ljalni to'g'ri olibman, markazga shu ko'cha olib chiqar ekan, katta, keng bir maydonga yaqin borib, olomon ichiga, yeru ko'kka taralayotgan zanjir jarangiga kirdim. Biron g'uliy menga qaramayapti, hatto ko'z qirini ham tashlagani yo'q, noxosdan to'qnash kelganlari ham nigohi bilan meni teshib o'tib, orqamdagi bir narsaga tikilayotgandek. Xuddi ko'rinmas odamga o'xshab qoldim, lekin birontasi menga urilib ham ketmayapti, qayoqqa qarab burilmay yo yurmay, oldim o'z-o'zidan ochilyapti, ya'ni g'uliylar o'zlarini ikki tomonga olib, meni o'tkazib yuborishyapti.

Sayr qilib yurganlar bizdagidek erkin, birovi u yoqqa, birovi bu yoqqa yurgan yo bir xillari to'xtab turgan izdihom emas, hammasi bir tartibda: jiring-jiring, jingir-jingir qilib, hu do'nglik ustidagi baland haykalning chap tomonidan chiqib, aylanib, o'ng tomonidan tushib kelyapti. Avval ular guruh-guruh yurayotgandek ko'rindi, keyin diqqat qilsam, guruhlar shunchaki to'da emas, hammasi cho'zinchoq shaklda, o'rtasi bo'sh. Birdan aqlim yetdi - halqa! Bular haykal poyiga halqa-halqa zanjirga saflanib chiqib, haykalni katta halqa yasab aylanib, yana boshlangan joyiga tushyapti. Bu yerda esa kutib turganlar o'z navbatida guruhlarga uyushyapti. Erinmay sanadim, guruhda eniga ham, bo'yiga ham sakkiztadan g'uliy bor ekan. Bular uchun sakkiz qandaydir muqaddas son shekilli, deb o'yladim-u, shu zahoti buning izohini ham topdim: «8» sonining shakli bir halqa ikkinchisiga kiyishib, zanjirning ibtidosi bo'lishi-ku! Mana, ko'z oldingizga keltiring: bitta sifr - «0» bitta, lekin u halqa, agar halqa «0»ni ikkinchi halqa «0»ga kiydirilsa, zanjirning ibtido «8» shakli chiqmaydimi? Unda, bular haykalni shunchaki ziyorat qilmayapti, balki zikr tushyapti! Faqat uncha anglamadimki, kimning yo nimaning sharafiga: yoshi o'tinqiragan g'uliyning tunch haykaligami yoki uni chulg'agan silliq-yo'g'on tunch zanjirlarigami? Balki ikkalasi ham bir ramzdir. Chunki butun haykalning qo'l qovushtirib, boshini xiyol egib, nim iljayib

turishi o'zini o'rab olgan zanjirga, g'ullikka tobeligini ifodalamaydimi? Ziyoratchilarning ham hammasi unga monand nim iljaygan. Boyagi jikkak qassob ham chala iljaygan, yo'ldagilarning chehrasida ham tabassum soyasi bor edi, endi eslasam, xizmatchi qizning kulinchlarida ham, meni G'uliston chegarasida kutib olib, olib kelganlarning yuzida ham xuddi shu bir xil iljayish nusxalari qotib qolgan edi. Iljayish go'yo bularning hammasi uchun fabrikadagi bitta qolipda tayyorlab chiqarilganga o'xshaydi. Haykalning iljayishiga diqqat qilib qarasam, maydondagi hammanikini jamlab, bitta iljayish qilgandek, juda qat'iy, hukmfarmo, men shunday qilib ko'rsatyapmanmi, demak, barchang shunday nim kulib yurasan deyayotgandek. Haqiqatan ham, g'uliylar bilan ular ziyorat etayotgan haykalning o'rtasida odamni hayratga soladigan birlik menga yaqqol edi.

Menga bu yangilik bo'ldi, juda qiziqdim, nimaligini bilmasam ham, menga gapirmasliklari esimda yo'q, so'ramoqchi bo'lib, beixtiyor ularga qarab yurdim. Albatta, ular mendan battar uzoqlashdilar. Odamning tabiati qiziq, nimaiki mumkin bo'lmasa, shuni qilgisi keladi, bularning mendan o'zlarini olib qochayotganlariga, bir qatorlariga qo'shilib, haykalni aylanib tushsammi, gapirmasalar, mayli, gapirmaptilar-da, deb o'yladim. Bunaqa sukut ziyoratni ko'rganman, universitetning oxirgi kursida, yetmishinchi yili Leningradga borayotib, Moskvada bir kun to'xtaganmiz, hamma hamma bilan, men esa bir Ochil aka degan kursdoshimning «E-e, qo'y, shuncha yo'ldan kelib, Lenin bovongni ko'ramizmi, bari bir, odamning o'ligi-da, undan ko'ra, shaharni tomosha qilaylik», deb oyoq tiraganiga qaramay, sahar-mardonda movzaleyga sudraganman. Samarqandda issiq edi, Moskvada esa qor, izg'irini teshib yuboray deydi, uch soat navbatda turib, nihoyat gungurt marmar movzaley eshigiga yetdik, bolaligimdan ikkita qo'riqchi qilt etmay qotib, hatto kiprigini ham qoqmay turishini eshitganman, endi qaysi biriga zehn solib qarashga shoshaman, kiprigini qoqqan-qoqmaganini bilmadim-u, lekin ularning ko'zi xuddi shishadan yasab, to'ppa-to'g'riga qaratib qo'yilgandek ekan, misoli bo'yab, tikka qotirilgan o'likka duch kelgandek yuragim shuvillab ketdi, navbatda turganda uni-buni gaplashib

turgan edik, zinadan tushayotganda bir mening emas, hammaning tili tanglayiga yopishib qolgandek sukunat, qatorning ichida sekin yurib borib qarasam, shisha qalpoqning tagida bo'yi bir-quloch kelar-kelmas qoramayizdek kichkina odamcha yotibdi, kaltagina soqoli ham bor, bolaligimdan beri «Moskvaga borib, movzaleyga kirib, Leninni ko'rganimni hammaga aytib bersam», deb yurgan odam, birdan hafsalam pir bo'ldi va Leninning shu kichkina o'ligidan emas, yo'q, xuddi hozir shu yerda yo tashqariga chiqishim bilan «Mana bu yigitcha ichida Leninga shak keltirdi», deb qamab qo'yishadigandek vahima bosdi, tezroq bu lahmdan qutulгим keldi. Qizil maydonga chiqishimiz bilan Ochil akaga: «Bir burdayu!», dedim. Ochil aka: «Ha, endi, ellik-oltmish yildan beri qurib-kichraygan-da», dedi. «Yo'g'-e, asli o'zi kichkina odam bo'lgan bo'lsa kerak, qurib, terisi tortilgani bilan suyak kaltarmaydi-ku! Bu badhaybat haykallarning hammasi quruq savlat ekan-da», dedim. Ochil aka: «E-e, qo'y, og'rimagan boshni og'ritma. Shunaqa gaplarni sekinroq gapir», dedi. Hafsalam pir bo'lib, ichimda bir shayton kulgiga o'xshagan bir narsa g'ivirlagandek bo'ldi. Ochil akaning yoshi bizdan kattaroq, Leninni harbiy xizmatni o'tab qaytayotganda ko'rgan ekan, menga esa bu etlmay yotgan orzu edi. Shu ziyoratga odamlar bilan birga kirgan bo'lsam-da, lekin ichimda ularga tamomila yot bo'lib qolganimdan qo'rqdim ham. Bu yerdagi ziyoratchilarni ko'rganda ham shu yotlikni chuqurroq angladim. Avval bir ko'nglim, ziyoratchilar halqasiga qo'shilay, dedim, lekin boshqa ko'nglim, qo'y, bu ziyoratni muqaddas bilsalar, yot bir odam aralashganidan bir kor-hol chiqmasin, Tallindagi pravoslav cherkoviga bosh kiyimimni echmay tomoshaga kirib, menga hurmati shu deb o'ylabban-da, u yerdagilarning zimdan olayib boqib, bittasi qulog'imning tagida tahdid bilan shivirlaganidagi ahvolim ham yetadi, dedim-da, shaharning boshqa joylarini ko'rishga chog'landim. Lekin ketolmay uzoq tomosha qildim: jingir-jingir, jiring-jiring, jangir-jungir: guruhlarning keti uzilmaydi, zanjir halqalarining oxiri ham, boshi ham yo'q - tinmay joyida aylanib yotgan juda bahaybat bir halqa! Hammani o'z tabaasiga aylantirayotgan ulkan bir g'uliy musiqa! Hamma shu davrada, hammasi bir xil intizomli to'lqinlanishda. Men

hammasini ko'rib turibman, lekin hech kim meni ko'rmayapti, faqat men bir o'zim, tumonatning o'rtasida atrofim halqa bo'shliq, yolg'iz o'zim...

G'uliylar do'koni

Maydonning shundoq biqinida to'rt qavatli juda katta do'kon bor ekan, g'ug'iyalar gala-gala kirib chiqib turibdi, shu yoqqa qarab yurdim. Biz hozir «supermarket» deymiz-ku, shunaqa. Xaridor gavjum, sotuvchilari boadab, lekin mollari uncha qalashmagan tim bozorga o'xshash bir joy, faqat juda shovqin: hamma yog'i, hatto shifti ham oynavand, odamlarning gapi ham, zanjirlarining jingirlashi ham shu oynalardan aralash-quralash aks-sado bilan ko'payib, quloqqa bostirib kiradi.

Azaldan do'kon aylanishni yaxshi ko'raman, hali mashina olmagan, ishdan piyoda qaytadigan kezlarimda yo'l-yo'lakay, pulim bor-yo'g'iga qaramay, uchragan do'konlarni kezib, shu bilan dam olib, boshim tiniqlashib uyga kelar, keyin odamlarning nima olishi, nimaga navbatga turishiga qarab, o'zim ham binoyidek mol tanlashga o'rganib ketgan edim. Qani, bularning do'konlari qanaqa, narx-navosi qanday, nima qimmatu nima arzon deb, bir boshdan tomosha qilishga tushdim. Peshtaxtalarning bezaklari, javonlarning naqshlari, xullas, hamma-hamma joydagi zanjirga ko'zim o'rganib, endi qarasam ham e'tibor qilmay qo'ydim. Esingizdami, bir vaqtlar Toshkentning binolari tepasi xuddi qizilga bo'yalganga o'xshar, odimda shior, qadamda kapesesga sharaflar, ularni ko'rib ko'rmas edik, ko'zimiz tushganining ham birortasi diqqatimizni jalb qilmas edi. Bu yerda ham endi juda boshqacha chiroyli bezaklari bo'lmasa, boshqalariga alaxsimadim; odam keraksiz narsalarga ham juda o'rganar ekan.

Menga ham boyagidek hech kim qarayotgani yo'q, hammasi chetlab o'tyapti, peshtaxta yoniga borsam, sotuvchilar boyagidek tayyor nim jilmaygancha, sekin bir yonga surilib, boshqa yoqqa tikiladi. Bari bir, savdoga pulim yo'q, bor bo'lganda ham bularga o'tmaydi. Ana, yozib qo'yibdi: «Boshmoq - 56 g'» «Ko'ylak - 12.28 g'» «Bolalar velosipedi - 27.80 g'», «Sochiq - 8.45 g'». «g'» si nima ekan, so'm yo rubl-publ emas, deb o'ylab topolmadim, lekin borib keyin bildim: bularning puli ham «g'uliy» deyilib, qisqartmasi shu ekan. Yaqin o'rtada almashmagan, chunki narxlari, chamalasam, bizning o'n besh yil oldingi narxlarga to'g'ri keladi, faqat ichkilik uch barobarcha arzon, lekin birday tip-tiniq

shishalarda qator terilgan. Ha, ichkilik deb o'ylagan edim, adashmabman. Darvoqe, yorliqlardagi nomlari ham zo'r: «Xushnud», «Xushhol», «Shavq», «Quvonch»... «Xumor» degani ham bor ekan, bu endi kechagi boshog'riqdan keyin ertalabga zo'r ketsa kerak deb chamaladim. Eng ko'p oluvchini shu bo'lmada ko'rdim, boshqa peshtaxtalarning oldi gavjum emas.

«Erkaklar poyafzali» degan bo'lmaning peshtaxtasida bir-biridan uncha farqlanmaydigan boshmoqlar qator-qator terilgan ekan, bittasini qo'limga olgan edim, sotuvchi g'uliy juvon nari ketdi, boshmoqni buklab, tirnab ko'rdim, qo'polroq tikilgan-u, pishiq, lekin ko'ni asl. Juvonning men bilan ham, qo'limdagi boshmoq bilan ham mutloq ishi yo'qligiga hozir indamay boshmoqni ko'tarib ketaversam, nima qilar ekan, hoy, pulini to'lamaysizmi, deb tovush berar, axir, deb qo'ltig'imga qisdim, unga bir qarab qo'yib, uch-to'rt qadam uzoqlashdim hamki, parvoyiga kelmadi. Tag'in peshtaxtasidagi biron tugmani bosib, qo'riqchilarni chaqirmasin, deb boshmoqni sekin joyiga qaytardim. Narigi, sertugma ich kiyimlar bo'lmasi oldida turib, shu yoqqa sekin qo'z qirimni tashlagan edim, bularning meni ko'rmayotgani yolg'on ekani bilinib qoldi: sotuvchi juvon shunchasining qatoridan ayni men ushlagan boshmoqni oldi-da, pastga, bildimki, supurindi qutiga tashladi, uning yoniga bir erkak g'uliy borib, qo'lidagi daftardan bir narsani o'chirdi. Nima balo, meni bir yuqumli kasal bilyaptilarmi, deb o'yladim. Lekin borib, hoy, nega bunaqa qilyapsizlar, deb aytish befoyda, ular, bari bir, meni ko'rmaslikka oladi, gapimni ham eshitmaydi. Yomon bo'ldim! G'ulistonda paydo bo'lganimdan beri birinchi marta qattiq ezilishim edi. Lekin dodimni kimga aytaman, shu ko'zi ochiq ko'rlargami, qulog'i men uchun tom bitgan garanglargami? Osmon uzoq, yer qattiq, yo'q, bu joyning osmoni ham, yeri ham yaqinu yumshoq bo'lganda-da meniki emas, karami yo'q!

Ha, shu yerda ichkiyimlarga alahsib qoldim. Aytdim-ku, sertugma ekan. Eng pastki deymizmi, qaldirg'ochnusxasimi, cholvorimi, xullas, hammasining bir yoni qator-qator tugma. Ayniqsa ayollarniki, bitta ipchaga ilinadigan rohatibadan, lekin bir tomoni nozik ilgak yoki ninachining kallasidek jivir-jivir tugma qadalgan o'zi

ikki enli ham kelmaydi, qaerga kiyilishini ham aniqlash qiyin, lekin bunda ham tugma jonivordan ikkitasi bor. Aytishga til bormaydi-yu, qanaqasini aytayotganimni bilib turibsiz, albatta.

Hech bir g'uliy menga qaramagani uchun ayollar bo'lmasini ham xo'p tomosha qildim. Rosa g'alati-ey, bunaqa kiyimligi ham yo'q kiyimlarni bemalol ko'rsangiz, odamning sharmi ham ketib qolar ekan, o'zim ham asli tabiatan sal buzuqroqman shekilli, deb o'ylab qoldim. Boshqa bo'lmalarni kezishga zo'rg'a o'tdim. Bu yog'ida endi maqsadsiz yurish to'ydirib yubordi. Buguncha yetar, qayta qolay, orqaga burilsam, boyagi eshikning tepasida otning kallasidek «Tushish yo'q!» degan yozuv, zanjirband qo'l tepaga ishora qilib turibdi. Bu yoqdan ko'tarilib, u yoqdan tushilsa kerak deb, zinadan tepaga yugurdim. Tasir-tusirimga oldinda chiqayotgan g'uliyalar jon holatda o'zlarini chetga oldilar, bittasi hatto yiqilib tushdi. Jangir-jungir tovushi kuchaydi, orqamda ham tars-turs bo'lib qoldi, qarasam, bir silliq kiyingan yigit ham yugurib chiqyapti. To'xtadim, u ham to'xtadi, bir zum kalovlanib, keyin haligi yiqilgan g'uliyning qo'ltig'idan olib turg'izib qo'ydi. Bari zanjir taqqani, hech biri menga qaramagani uchun maydondagilar ham, bu yerdagilar ham, hammasi ko'zimga bir xil, bir tus iljaygan qiyofada ko'rinayotgan edi, lekin shu yigitning yuzi esimda qoldi, u qay bir soniyada yalt etib menga qarab qo'ygandek edi.

To'rtinchi qavatga chiqdim, tushadigan joyni tezroq topish uchun, to'g'ri kesib borayotgan edim, juda chiroyli bezatilgan, alohida bo'lmaga ko'zim tushdi. Bu yer aroq bo'lmasidan ham gavjum, lekin navbatda zanjir taqqan g'uliyalarning zanjirsiz bolakaylarning qo'lidan ushlab yo ko'tarib turganini ko'rib, to'xtab qoldim. Bolakaylar bir-bir yarim, ikki, ba'zilar uch yoshda, shu yerning o'zida onasidan tashqari, otasi, aka-opalari to'dalashib turibdi, xullas, xaridga oila bo'lib kelganlar. Bo'lmaning tepasida «Zanjiring muborak, pahlavon toychoq, Orzuingga etding, shirin qizaloq!» deb ikki qator she'r ham chiroyli qilib yozilgan. Bo'lmadagi mol to'lig'icha zanjir! Bular o'z bolalariga zanjir olishga kelgan! Yaqinroq bordim, bir erkak g'uliy ichkariroqda, past kursida o'tirib qo'lidagi tizim

zanjirchani jingirlatdi, bu yoqdan bir bolakay qoqilmay, turtinmay adl bordi, erkak zanjir tizimini yechib, mo''jazgina bo'yinturuq tasmani bolaning bo'yniga kiygizdi-da, qo'lidagi yaltiroq ombir bilan qirs etkizib qotirdi, bolakay baralla yig'lab yuborgan edi, bu yoqdagilar shodon chapak chalib yubordilar, onasi quvonchdan yoshlarini oqizib, zanjirini sho'x shildiratib, otaning bo'ynidan quchoqlab oldi. Haligi erkak xodim, bolakay uvvos solib onasiga talpinganiga qaramay, uni mahkam quchoqlaganicha qah-qah urib, bilaklari, oyoqlariga ham xuddi boyagi tarzda kishan solib qotirdi. Bola baqirib, zanjirlarini betartib jiringlatib, bu yoqqa onasiga qarab chopdi. Onasi bilan otasi baxtiyor qiyqirib, talashgancha uni boshlariga ko'tardilar, ikki opasi, bir akasi bor ekan, shildir-shildir sakrab o'yinga tushib ketdilar. Bo'lmaning bu tomonida bir qiz qo'lidagi yumshoq jazbar bilan boshqa bolaning bo'yni, bilagi, to'pig'ining andazasini o'lchayotgan, o'zimizning «fexedeyo» bo'limlarida ishlaydigan ishbilgich ayollarga o'xshaydigan bir xotin esa onaning qo'lidagi qog'ozlarni o'z daftariga rasmiylashtirayotgan edi. Boyagi bolakayning yig'isidan yurak oldirgan bu bola erkak xodim zanjir tizimchasini jingirlatganda bormadi, unga qaragancha to'rsayib turaverdi. Onasi unga: «Bor, bor, amaki senga ham zanjir beradi», dedi. Bola «Boymiyman!» deb oyoq tirab oldi. Erkak xodim uning onasiga qattiq tikilib qaradi-da: «Yaxshi yurib ketganmi o'zi?», deb so'radi. Bolaning onasi bu savoldan bo'zarib ketdi, «Ha, yuradi, chopqillab yuradi!», dedi, ota ham uning gapini shosha-pisha: «Tinmaydi uyda, rosa chopadi!» deb quvvatladi. «Qani, o'rtani ochinglar-chi! – dedi erkak xodim o'rnidan turib. – Menga kelmasa, sizga ergashadi, bolani qo'yib, o'zingiz hu anavi gazlama bo'lmasigacha boring-chi», dedi. Ona yugurgilab nari ketgan edi, bola pildirab ergashdi. «Ha, tuzuk, bo'ladi! Opkeling!», dedi erkak xodim endi jilmayib. Onasi uni qo'lidan etaklab borayotganda bola, fe'llikkina ekan, yig'lamadi. Erkak xodimning tizzasiga o'tirganda menga qarab oldi, bo'yin tasmani qotirayotganda ham, qo'l-oyog'iga kishan taqilayotganda ham mendan ko'zini uzmay, miq etmay turaverdi. Hatto zanjirchalari taqilib, ota-onasi, katta ikki akasi qiyqirib, boshqalar chapak chalganda ham bolakay menga bot-bot tikildi. Shuncha izdihomning ichida menga

ko'z tikkan faqat shu bolakay edi! Bola nigohida u nima demoqchi bo'ldi, «Ozod odamsiz-ku, qarang, bular meni nima qildi?», deb so'rayaptimi yoki: «Manavi odamga qaranglar, zanjiri yo'q ekan», deb aytmoqchimikan, bilmadim, lekin unga qarab ko'zimni qisib qo'ygan edim, kichikkina jilmaydi, jilmayishi bolalarcha beg'ubor, katta g'uliylarga sira o'xshamas edi. «Ha, puchuq», deb qo'ydim ichimda.

Shu payti yana bir qizaloq zanjirga qarab alpang-talpang borayotgan edi, chalishib yiqildi. Uning onasi bir halokat bo'lgandek, chinqirib yubordi. Erkak xodim unga qarab turib bosh chayqadi-da, «Hali bir-ikki oy bor», dedi. Onasi jikkakkina, sal narsaga pov etadigan xotin ekan, titrab-qaqshab ketdi-da, zum o'tmay yalinishga tushib: «Ikki oy kutamizmi? Uyda chopqillab yurar edi, bu yerda cho'chib qoldi-da», dedi. Erkak xodim izg'iriy kulib: «Shunday qutlug' narsadan ham cho'chiydimi?», degan edi, onasi borib qizaloqni yuzi-betiga shapatilay ketdi: «He o'l, sharmanda qilding! Yurishning o'rniga bo'kib ovqat eysan, mechkay!» Qizaloq kaltakka o'rganib qolgan shekilli, shartta boshini quchoqlab oldi. Boshqalar hay-haylab, onasini chekkaga tortishdi. Boshqa hech kimi yo'qmi yo ota jonivor qizining shunday imtihonda yiqilganiga chidamay quyonni surdimi, ishqilib, ayol bechora bolasini siltab-siltab etaklagancha o'zi ketdi. «Qanaqa o'qimagan xotin-a! O'zini eplolmaydigan bolaga zanjir, a? Avval bolangni o'rgat! Qani, kimning navbati?», dedi erkak xodim. Lekin qolgan ota-onalar ancha xavotirga tushgan, hammasi navbat o'zlaridan boshqa ota-onaga o'tishini istab qolgan, ammo tirish iljayib turgan edilar. Shu vaqti zanjirlar ham sado bermay qo'ydi.

Siz bular zanjirga shuncha sig'inca, bolani zanjirga solish uchun do'konga olib kelib, taqdirib ketaverishadimi, deb hayron bo'lmang. Men ham avvaliga shunday deb o'ylagan edim. Yo'q, bolakaylarga zanjirning supermarketda taqilishiga sabab, birinchidan, g'uliy uni zuryodi uchun o'z yonidan to'lab oladi. Bunda ular bir hikmat ko'radilar: g'uliy o'zidagi bir narsa evaziga erkini topshiradi, ya'ni mehnatdan topgan puliga tartib sotib oladi. Ikkinchidan esa, bola haqiqiy g'uliy

farzandi marosimigacha zanjir bilan yashashga o'rganadi. Aniqroq aytganda, u zanjir bilan bir vujudga aylanadi. O'n sakkiz yoshida aqli ham, gavdasi ham zanjirga loyiq ko'rilgandan so'ng u yangi kishan bilan birga g'uliylik hujjatiga ham erishadi, ya'ni biznikiga o'xshagan pasportbashara narsa oladi. Men ham buni keyinroq, kutubxonaga tanda qo'yganda bildim. Hozir o'sha kungi kezishimni davom ettiray.

Siz bu joylarni tushirib qoldirmang, chunki g'uliyot psixologiyasini bilishda juda muhim, yozuvchi do'stim esa o'zi ko'rmagani uchun bunaqa gaplarni xayoliga ham keltira olmagan, demak, yozishga ham urinib ko'rmagan.

Ha, men toriqib, tushish yo'lini axtarib ketdim. Hamma yoqda zanjir jiringlayotgan edi, endi bunga qulog'im ancha o'rgangan, kishanband yurganlarga ham ko'zim ko'nikayotgan, lekin yolg'izlik hissi og'ir yuklanib bosayotgan edi, shuning uchun ham bog'hovlini qo'msab qoldim. Har qalay, u yerda qaramasa ham gapimga javob qiladigan qiz bor.

Pastga tushganimdan keyin bir muddat qaysi yo'ldan qaytishga boshim qotib, do'konning bu tomonidan chiqqanimga mo'ljal ololmay turdim. Birovdan so'rash befoyda, javob albatta yo'q, keyin nima deb so'rashni ham bilmayman, chiqayotganda bog'hovlining otini ham bilib olmabman. Do'konni aylanib o'tgan edim, boyagi maydon ko'rindi. O'sha erga borsam, qaysi yo'ldan kelganimni eslayman, deb o'yladim. O'zi xotira ham sal kemptik, ba'zan uyda bir narsa uchun hovliga chiqsam, nimaga chiqqanimni unutib qo'yaman, keyin qaytib uyga kirib, o'sha o'ylagan joyimga borib o'tirsam, o'ylaganim lop etib esimga keladi. Shu odatimni bilib, o'zimga kelib olishga urindim.

O'sha-o'sha zikr, halqa aylanib turibdi, uzoqdan qaradim, maydonga har tarafdan katta ko'chalar kelib tutashgan. O'zim chiqqan ko'chani topaman deb ancha aylandim, kelayotganimda ko'p shiorlarni o'qigan edim, endi hammasi aralashib ketgandek. «Olam tartibi - qalbing in'ikosi», degan bir shior turgan edi, lekin uni hozir o'qidimmi yo hali ko'chada kelayotganimda ko'rdimmi, bilolmayman. Yo

manavi, «Ko'ngling jahon muvozanati saroyidir, g'uliy!» degan shiorni qaysi tomonida turib ko'rgan edim? «G'ulga sharaflar!» deb yozilgani hamma yerda bor, keyin zanjirband g'uliylar aks yetgan so'zsiz, chaqiriqsiz shiorlar ham anchagina, bularga qarab mo'ljal olaman deb, umuman adashib qolish ham mumkin. Yana deng, hamma yoqdan boyagi haykalga o'xshagan nusxaning turli o'lchamdagi, lekin hukmfarmo iljayib qarashi bir xil portretlari «Adashmay, aytganimni qil», degandek tikiladi. O'zim ham razm solib ko'rsam, jonliga o'xshaydi: yuzida bilinar-bilinmas harakat, sezilmay o'zgaradigan qat'iy ifodalar bor. Albatta, bunga komp yuter aralashgan, xuddi tirikdek dastur qilingan. Shuni bilganimdan keyin sal vahimaga ham tushdim; bulardan hali ko'p narsani kutsa bo'ladi.

Oftob balqib yonboshlayapti, bog'hovlidan boshqa borar joyim yo'q, birovni tanimasam, birontasi gapimga javob bermasa, notanish shahar, qaerga boshimni suqaman? Umuman begona, yana aks yurt! Tag'in mashinaga o'rgangan odam, ulovsiz qolganimni aytmaysizmi, havo unaqa sovuq emas, adashsam, mashina ichida ham yotaverar edim, endi esa ko'chadaman.

Tentirab yurib, bir istirohat bog'iga kirib bordim. Quyuq soya. Juftlar muhabbatning zo'ridan bir-birining pinjiga kirib ketgan, boshqa birovleri, yangi bo'lsa kerak, uyalganidan oralari ochiq, sayr qilib yuribdilar. Boshqa bir yigit qizini shunday mahkam quchoqlab olganki, mushtiparning beli sinay deb qayrilgan, «Yana ham qattiqroq ushla, qochib ketmasin», deb aytay dedim-u, endi bularga odob o'rgatishim yetmay turuvdi deb indamadim. Zanjirga solingan bo'lsa-da, oshiq yurak, bir narsa deb ko'nglimni qora qilmasin. O'zi shusiz ham parishonroq ahvoldaman. Qulog'imning ichida ham zanjirning mayin jiringlashi butkul uyalab olgan, bularning o'z ixtiyorlari bilan asoratda yurishlarini ko'rib turib ishonib-ishonmayman. Lekin ko'zim ancha o'rganib qoldi.

Nariroqdagi to'niq ko'kka bo'yalib, rangi unniqib qolgan o'rindiqlarning ko'pida bittadan, ikkitadan juftlar, birovi bir-biridan ko'z uzmay, termilishsa, birovlarining og'zi o'pishdan bo'shamaydi; ikki tomonga qarab arazlashib o'tirganlari ham bor. Hammasi o'zimizning oshiq-ma'shuqlarga o'xshaydi-yu, lekin ko'zimga qandaydir

mustar ko'rinib ko'nglimni ezadi; xuddi sevgi-muhabbatlari tufayli zanjirband qilinganga o'xshaydilar.

O'zim nima sarson bo'lib yuribman-u, yana bu yerdagi oshiq-ma'shuqlarni tomosha qilishimni qarang. Odamning hamma narsani bilgisi, tumshug'ini suqqisi keladi. Ayniqsa nosinashta joyda.

Jahongashta bo'lmasam-da, yurtgashta odamman, bunaqa ahvolga ko'p tushganman. Bir marta Turkistonga, Yassaviy bobomiz ziyoratiga borganimda, hozir qozoq «DAN»chilari yomon, qadamda to'xtatadi, o't o'chirgichingdan, doriqutinggacha so'raydi, yo'q bo'lsa, “tasta” – ber, deydi, deb rosa qo'rqitishgan edi, borguncha yurak taka-puka, lekin birontasi to'xtatmadi, qaytayotgan edim, cho'l, kimsasiz, bargi siyrak, butaga o'xshagan bir narsa bilan qaraman degan daraxtdan boshqa zot ko'rinmaydi, bir yuzu qirqlarda uchirib kelayotsam, «antiradar» chiyillab qoldi, odamsiz bu joylarda «DAN»chilar nima qiladi, biron radiosignal bordir-da deb, «no'l to'qqiz»ni sekinlatmadim. Qaramanning panasidan lop etib pogon qozoq jo'ramiz chiqib, ola tayog'ini o'qtaldi. «O'y-bayov, lashinqush bo'p ketding-g'o'y! “Anav «shiguli»g'a bar, kapitanimiz ishida, dakumitingni shunga berasin», dedi. Urdu xudo, «lochinqush»da faqat so'm-kupon, qozoqning tengesi yo'q, «tasta»siga nima beraman, degan xavotirda qaramanning ilma-teshik soyasida turgan «jiguli»ga borsam, orqa o'rindig'ida dum-dumaloq kapitan bovrimiz yonbosh yotibdi. Salom berib, hujjatlarni uzatsam, alik ham olmay, tumsayib, hujjatlarimni varaqladi-da, «Muncha ushirasan, bu er senga Taskentmi?», deb mashinaning qutichasiga tashlab, yana yonboshladi. Xuddi bularning eriga behurmatlik qilgandek, noqulay bo'lib, bir pas gapirmay turdim. Kapitan menga qaramay, «Ha, ketaver, ne diysin?», dedi. «Endi, og'ayni, o'zimizning bovurlarning yo'li deb, haddimizdan oshibmiz-da. Keyin odam yo'q joyda «DAN» nima qiladi, deb o'ylabman, lekin juda hushyor ekansizlar», deb, yana bir nimalarni gapirgan edim, kapitan yonboshlagan joyida menga qarab qo'ydi-da: «Toshkentda ne is qilasan?», dedi. «Yozuvchiman, meni O'ljas bilan Muxtor yaxshi taniydi, jo'ram bo'ladi ular», degan edim, uning do'ng peshanasida

tirish paydo bo'ldi, bildimki, shoir jo'ralarimni bilmaydi yo bilmaslikka oldi, yo mendaqa so'zamollarni ko'p ko'rgan, gapim ta'sir qilmadi, lekin sizlab: «Ne yerdan kelyapsiz?», deb so'radi. «Turkistondan», dedim. «Turkistonga nega boringiz?», dedi. «Ahmad Yassaviyning ziyoratiga. Ko'pdan beri niyat qilib yurgan edim», dedim. Kapitan yonboshlagan joyidan qaddini rostladi-da, «Tastang!», deb menga qo'lini uzatdi. «Endi, og'ayni, cho'ntakda faqat so'm-kupon, teng ham, dollar ham yo'q, nimani tashlayman?», dedim. Kaptan menga yalt etib qaradi-da: «Qo'lni tastang deyaipman», deb dumaloq yuzidagi tirishlari yoyilib ketdi, keyin hujjatlarimni uzatdi. «Kazrat Yaseviyga kelgan azamattan pul olamanma!», dedi yana. Rahmat aytdim, u mashinadan chiqib, yana qo'limni qattiq siqib, «Kazretimiz bitta-g'o'y! Bizda «satti sapar», sizda «oq jo'l», yaxshi boring», deb xayrlashdi. Qarang, boshqa-boshqa davlat bo'lib ketganimiz bilan hazratimiz bitta-da, darrov ko'ngil topishdik, begonalik yo'q.

Lekin hozir yurti ham, piri ham g'irt begona, teskari joyda o'zim kuyib, o'zim yonib yuribman, bularning, zikriga qaraganda, hazrati ham zanjir, shunga ahvolimni bir tasavvur qiling? Dushmaningga ham sog'inmaysan odam!

Yetmish oltinchi yili, ko'klammi, kuzmi, esimda yo'q, ishqilib, salqin edi, biologiya praktikasidan qolib ketgan bir tanish qizni olib borib qo'yaman deb, oqshom tog'da qolib ketganmiz. Avval avtobusda, keyin yo'lmoshinda yurdik, haydovchi «Sizlar so'ragan G'azalkentning tog'i shu yer bo'lsa kerak, bu yog'iga yengilmoshin yurmaydi», deb bizni bir toshning orasiga tushirib ketdi. Boradigan manzilimizni na men bilaman, na qiz bir tasavvurga ega, nuqul: «Gora Gazalkent», deydi, so'ray desak, odam ko'rinmaydi, qaytay desak, endi ulov yo'q, shom tushib kelyapti, noiloj, qizning ryukzagi elkamda, ko'nglimda har xil o'y-xavotir, oldinga yuraverdik. Umrimda birinchi marta kechqurun, hamma uyiga kirgan paytda ko'chada, yana begona bir joyda qolishim, o'zim-ku, mayli, yigit odamman, sovgotsam ham yurib tong ottirarman, lekin bu ovloq joyda qizni nima qilaman, har qalay, erta-bir kun birovning xasmi deyman, yana ko'nglimda allambalo o'ylar ham bor. Qorong'u tunda qiz bilan qolish ham yaxshi-yu, lekin qiz hech narsani

o'ylamayotganga o'xshaydi, qo'rqmaydi ham, faqat qoshini chimiradi. Sal havliqyapman, lekin boshim juda qotgan. Ipning oqu qorasining farqi yo'qolayotganda avval to'rt-besh sigir, keyin bo'yi sigirdan ham pastroq, yerga botgan pachoq uy ko'rindi, yaqin borsak, uvoqqina bir kelinchak sigir sog'yapti ekan. Qizga yur desam, unamadi, o'zim bordim oldiga, salomalaykum, biz Toshkentdan, ahvolimiz shunaqa-shunaqa deb tushuntirsam, bechora, tortinganidan boshi tizzaga olgan chelagiga kirib ketay deyapti. Gapirib bo'lganimdan keyin indamay chelagini ko'tarib uyiga kirib ketdi-da, zum o'tmay qo'lini artib qaytib chiqdi. Yerga qaragancha, «E-e, shapalak ushlab yurgan bolalarimi, aytishgan edi, ular tog'ning u yog'ida, endi borolmaysizlar, katta moshin ham o'tmaydi, faqat ertalab xashak tashiydiganlari boradi», dedi. «E-e, unda nima qilamiz?», dedim. «Esa, biznikida yotib qolasizlar ertaminnangacha», dedi. «Uylaring bitta ekan, sig'amizmi?», dedim. «Boshqa uy yo'q, bu o'rtada hech kim turmaydi. Bir o'zimman, kuyovingiz bugun keladimi, yo'qmi hali», dedi. E, xullasi kalom, shu yerda yotib qolishdan boshqa iloj ham yo'q, rozi bo'ldim, lekin qizi tushmagur, «Toshkentga qaytaylik, bular meni nima deb o'ylaydi?», deb turib oldi. Bilib turibman, uyning ahvolini ko'rib, kirgisi kelmayapti. «O'ylagani bilan nima ishing bor? Toshning ustida o'tirib tong ottirmaymiz-ku», dedim. Bir amallab ko'ndirdim. Uyga kirdik, kelin ovqatga unnab ketdi. Undan bilsak, qizning amaliyoti tog'ning orqasida, o'n besh kilometrcha balandda ekan. Biz teskari tomoniga kelibmiz, Maydontolmi, Kumushkondanmi, ishqilib, yo'li u yoqdan ekan. Qorong'i tushganda eri kelib qoldi, bizni ko'rib quvonib ketdi, baliq olib kelgan ekan, uni ham qovurtirdi. Xijolatimni aytgan edim, «E-e, qo'ysangiz-chi, tog'u toshning orasida mehmonga zor yashaymiz o'zi, uyimizni tor demasangiz bo'ldi, lekin ko'nglimiz keng», dedi. Alla-pallagacha to'rtovlon hangomalashib o'tirdik. Kelinchakning eri: «Bizning xotin uyatchan-da, bo'lmasa, «verxovniy sovet»ga deputat. «E-e, qo'yinglar, bechora menga gapirishga ham qo'rqadi-yu», desam, raykombuving o'zi sog'uvchidan ham bo'lishi kerak, deb turib oldi. Mana, deputatning eri bo'lib yuribmiz», deb kelin bechorani jinday ermak qildi. Ertalab

deputatning eri xashakka ketayotgan tanishini to'xtatib, bizni mashinaga chiqarib yubordi.

O'sha tor uyda ko'ngli keng deputatning eri esimga tushib, «Bizning odamlarimiz qanchalar ochiqko'ngil, naqadar mehmondo'st. Endi bularni qara», deb ko'nglim bir xil bo'lib turgan edim, birov elkamga sekingina urilib ketgandek bo'ldi, orqamga qarasam, haligi do'kondagi silliq kiyingan yigit, menga bir soniya to'g'ri tikildi-da, ko'zi bilan ana u yoqqa degandek ishora qildi. U menga boshqa qaramadi, lekin, atrofdagilarning hammasi bir bo'lib unga qaragandek tuyuldi. Yigit boshini egib, qo'llari bilan yuzini to'sib shitob bilan uzoqlashdi, bir to'p odam kelayotgan edi, shundan to'rt kishi ajralib chiqib, iljaygancha uning orqasidan ketdi. Iljayishgan bo'lsa-da, ko'nglim bir sovuq narsalarni sezgandek tuyuldi lekin. Nima bo'lganda ham, u menga kelgan yo'limni ko'rsatgandek edi, ko'zi bilan imo qilgan tomonga qarab yurdim.

Ko'chaning boshini topganimdan keyin, bu yog'i oson kechdi-yu, lekin bog'hovliga bir chaqirimlarcha qolganda xuddi uydagi Pahmoq -Ahmog'imga o'xshagan bir po'stak kuchuk ilakishib olib, kayfiyatimni buzdi. Bir darvozaning oldida jimgina turgan edi, ko'rdiyu akillab menga yugurdi, yaqinimga kelishga yuragi betlamay, nariroqda to'xtab olib akillayverdi. Bir yer tepingan edim, g'irra orqaga qochdiyu yurishim bilan yana ergashdi. Telpakday bo'lsa ham g'irt ablah ekan, to mehmonxonagacha orqamdan qolmadi, huraverib erinib ketganidan, ora-sira «vak-vak» deb tin olib, keyin yana boshlaydi. Xuddi butun atrofga «Ana, qaranglar, zanjirsiz odam ketyapti, sizlar ham unga akillanglar», deb joriya qilayotgandek. Kim biladi, zanjirsiz odamni ko'rmaganmi yo shunaqalarga hurishga o'rgatilganmi, ishqilib, g'uliylar orasida shuncha ezilganim yetmagandek, endi bularning kuchugi ham dashnom bersa, deb ko'nglim battar g'ashlandi.

Bog'hovliga yetganimda, kelishimni ichkarida poylab turganlar shekilli, darvozasi o'z-o'zidan ikki yonboshga surildi, xiyobonga kirganimda dimog'imga olma isi urilib, sal yengil tortdim. Bu yerdagi dovu daraxt menga e'tibor ko'rsatmagani bilan, har qalay, zanjirsiz yurishimga ham befarq edi. Imorat eshigi oldida

xizmatchi g'uliy qarab turgan ekan, jilmayib peshvoz chiqdi. Menga emas, boqqa tabassum qilib. «Siz boravering, men choy damlayman. Ha-ya, agar kiyim almashtirsangiz, tayyorlab qo'yibman», dedi. O'zini yaqin olib aytganiga ko'nglim bir g'alati bo'ldi. Kim o'zini yaqin olib kiyimlaringizni taxlab qo'yishi ma'lum-ku sizga ham. Xonamga kirsam, to'shak ustiga yangi ichkiyimlar, ko'ylak-shim tashlangan. Avval qiziqib tomosha qildim. Zo'r, maykaning chap tomoni butun, o'ng tomoni bilan ikki yelkasi eshiq, bejirim tugma qadalgan, tushundim: chap tomondan qo'ltiqqa qisiladi-da, tugmalanadi, chunki o'ng qo'l bilan tugmalash qulayroq, shimning bichig'i sal boshqacha, ikki yonboshi bo'lak-bo'lak, lekin choti butun, butingizga olib, avval belning ikki tomonidagi katta tugmalarni ilintirib, keyin ikki yonboshdagi kichikroq tugmalarni o'tkazib chiqib, oxiri lozim joydagi shirillog'ini tortsangiz, quyib qo'ygandek bo'ladi, pochasi ham tugmalanib, oyoqdagi zanjirtasmaning ichiga kiradi; ko'ylakning sal dahmazasi ko'proq, uning ham o'ng biqini butun, lekin ustidan tugma qadalgan, boshqa hamma joyi ochiq, uni ham oldin ikki yelkasidagi tugmalariga ildirib, keyin, xohlang, bo'yindan ikki yengining ustidagi tugmalarini o'tkazing, xohlang, avval ikki biqinni tugmalab, keyin yenglarga o'ting; ha, yengi ham bilakdagi zanjirtasma tagiga tiqiladi. Hammasi xuddi qo'ldan, beldan, oyoqdan ham sirib bog'langan ish kiyimi – kombinezonga o'xshaydi. Boya do'konda ko'rganlarimni endi tushundim. Bo'yindagi zanjir bo'yincha bilan oyoqdagi ikki tushov zanjir bitta bo'lgani uchun, kiyimni bo'yindan o'tkazolmaysiz, shimga oyog'ingizni tiqolmaysiz, chunki zanjir umuman yechilmaydi, keyin u kiyimning ustida turishi kerak. Asli tasavvur qilishingizga oson bo'lishi uchun zanjir taqqan yalang'och g'uliyini ham, kiyimlarning bichig'ini ham chizib ko'rsatish kerak edi, lekin rasmchilikdan keyinroq tug'ilganman. Balki, homiy topilib, kitob bosilsa, birorta rassom og'aynilardan iltimos qilib ko'rarman. Yo'q deyishmas, keyin ularga hech qiyini yo'q, chunki g'uliy liboslari xotiramda mixlanib qolgan, u-bu jihatlari yodimdan ko'tarilgan bo'lsa, hozirlari G'uliston tushimga kirmasa ham, xotiralari, aytdim-ku, tirik, xuddi ko'z o'ngimda kechayotgandek jonlanadi, darrov eslayman. Faqat... ko'rmagan odam, ko'rganday chizib bera olarmikan, degan istihola bor. Ha,

darvoqe, yozuvchi do'stimning ro'monida g'uliyarning zanjir taqishi ikki gapning birida uqtirilavergani bilan kiyimlarining bunaqa o'ziga xosliklari borasida gap ham yo'q. Xuddi bizga o'xshagan odamlar zanjir taqib yuradigandek yozilaveradi. Ko'rmaganni eshitgan yengaman deydi, degani shu. Siz ham-chi, ul-bul yozish niyatingiz bo'lsa, duch kelganga, hatto do'stingiz bo'lsa ham gapiravermang, o'zingiz yozing. Maslahat-da. Og'zingizdagini ilib ketishadi, kuyib qolaverasiz.

Endi bu kiyimlarni juda batafsil aytayotganimning sababi – siz ham ko'rmagansiz, bilgan-ko'rgan narsangizni o'zingizga hikoya qilib berishimning sira qizig'i ham yo'q. Agar ham, qani, bu yozuvchi bir narsani biladimi, yo'qmi o'zi, deb qiziqmasangiz. Bizda shusiz ham hamma bilgan narsani yozuvchi odam ko'p. Ishq-muhabbat mavzusini oling, hamma biladi, boshidan o'tgan, o'zi ham shu savdoning mevasi, lekin qo'lga qalam olgan odam borki, shuni yozadi, odamlar ham shuni talashib o'qiydi. Aslini, tubini surishtirsaniz, yangi narsa yo'q, hammasi o'sha, o'shaning o'zi, lekin qayta-qayta yaxshi ko'raverishadi, qayta-qayta yozaverishadi, qayta-qayta o'qilaveradi ham. Ha, G'ulistonda bo'lganimni, aytdim-ku, sir tutib keldim, aytganim bilan ham ko'plar ishonmay, yozadigan xayoliy asarini og'zaki mashq qilib olyapti, deb o'ylaydi, sal-pal ishongani... nimagadir o'zini yaqin olib, sherik bo'lgisi keladi, yozuvchi do'stinga o'xshab. O'shanda, bir marta “yarimta” ustida kalla qizib gaplashib o'tirib, ham uning yosh bo'lsa-da ikki ro'mon yozdim, muncha qissa chiqardim deb g'ururlanganiga, e-e, men ko'rgan narsalarni sen hayotda ham ko'rmysan deb, G'ulistonni hech kimga aytnaslik sharti bilan o'zim gullab qo'yganman, lekin qoyil bo'ling, og'zinga mahkamman degan odamning qo'li yugurik ekan, olti oy o'tmay shu siz o'qigan ro'moni chiqib tursa! Yana vijdoni ham yo'q emas, «Falon Falonchining g'oyalari asosida» deb, ismi sharifimni ham yozib qo'yibdi. Qahramon ham men. Lekin... lekin hafsalamni o'ldirdi. Ammo yaxshigina saboq ham oldim, agar yana shunaqa safarga boradigan bo'lsam, hech kimga aytmayman, yaxshi chiqadimi, chiqmaydimi, o'zim yozaman, og'zaki ham gapirib bermayman. Aytaymi, u nima deb yozganini. Mana, eshiting-da: bir sayohatchi yigit sarguzasht axtarib, boshqa

olamga o'tib qoladi va u yerda bir sohibjamolga oshiq bo'ladi, u qiz ham ma'shuqalikka tayyor turgan ekan, darrov bunga ham ko'ngil beradi, uning o'ziga esa o'z navbatida yana bir nechta yigit oshiq, pinhona olishuv, musobaqalar, kunchilik, qorabotirlik, xullas, muhabbat mojarolari. Tasvirlar ham zo'r: so'lim tabiat, soy bo'yi, musaffo havo, g'ir-g'ir shabada, izhori dil, entikib o'pishishlar... hatto suvga sochini solgan majnuntol ham bor; oshiqlar visolga erishganda uning shoxida mayna ham to'lib-toshib sayraydi, u ham ko'zini lo'q qilib, bularning bir-birining qo'yniga kirib, quchoqlashishini poylab yuradigandek. Do'stimning tasvirlari o'ziga zo'r tuyulsa kerak, ammo menga mutlaqo yoqmadi. Maynasi ham bir kichkina parrandaligiga qaramay, g'irt axloqsiz. O'zi men shu murg'ni juda yomon ko'raman, yuzsiz, bez-bet kazzob, boshqa qushlarning inini g'orat qiladi, polaponini o'g'irleydi, umuman rasvo qush, qush ham emas, qanaqadir bir olaqanot shallaqi, badnafs kasofat! Keyin, G'ulistonda uni ko'rganim yo'q, ko'rsam ham ko'rmaganlikka olgandirman. Bizga ham bu bexosiyat shung'iya elliginchi yillarning oxirida Hindistondan kelib qolgan shekilli, G'ulistonga borgan-bormaganini o'z ko'zim bilan ko'rmagandek keyin, aniq bir narsa deya olmayman. Qulog'imga chalindi, shunga yarasha gapimni ham o'zlariga aytdim, lekin bu boshqa masala. Lekin yozuvchi oshnamiz ro'moniga uni nima uchun kiritgan, menga qorong'i, ammo yozgan voqealari ham to'qilgan. O'zi ko'rmaganni ko'rganday qilib yozgandan keyin, asli tagi ham yolg'on-u, lekin shu yolg'oni ham o'zini oqlamagan. Mana, o'ylab ko'ring, qahramoni o'sha o'zga olamdagi qizni sevib, qiz ham unga oshiq bo'lib qolgan ekan-da, endi bu yoqqa ya'ni yurtimizga qaytib kelgandan keyin, o'sha qizni unutolmay, vijdoni qiynoqda, yana uni sog'inar emish. Ha, bu yoqda avval xotini qolgan, endi kelgandan keyin u yoqda xiyonat qilganini bo'yniga ololmay, ya'ni xotiniga ayta olmay, ikki karra azobda qovrilar ham emish. O'ylamay desa, bu yoqda har mayna sayraganda esiga tusharmish, bizda mayna ko'p-ku juda, shundan juda diqqat emish. Chag'ir-chug'ur qilsa bo'ldi, sevgi-muhabbat azoblari qo'zg'alar ekan. Bari bo'lmag'ur gap! Bu yoqda qiynalgan vijdon u yoqda qayoqqa ketgan edi? To'g'ri odamning bir joyda vijdonli bo'lib, boshqa joyda vijdonsiz bo'lishi g'alati-yu. Yo sayohatga

chiqayotganda vijdonini bu yoqdagi xotiniga omonatga qoldirib ketgan edimi? Yo seni birov yur deb majburladimi? Shunchaki bir qiz bilan vaqtichog'lik qilishni bizga sevgi deb pesh qilyapsan, bizga o'tmaydi, a, og'ayni, o'zimiz ko'rib kelganmiz-ku!

Xullas, meni ijobiy qahramon qilib ko'rsatsa ham, ro'moni ta'bimga mutloq o'tirmadi. O'zimizdagi hayot haqidagi sayoz tasavvurini G'uliston to'g'risidagi uydirmaga yopishtirgan. Boshdan-oyoq cho'pchak. Cho'pchak bo'lganda ham keraksiz. O'zingiz o'ylab ko'ring-da, shundan shu yoqqa, o'zga bir olamga borib qolsa-da, hammani qo'y, echkini so'y, deb, bir qizning orqasidan halloslab yursa. E inson, pulining sassig'iga chidolmay yotgan millioner-milliarderlar yonidan xarjlab ham ko'rolmaydigan joyni ko'rish senga nasib qilibdi-ku, shuni yozmaysanmi? U yoqdagilar qanday yotib-turadi, xayolida nima o'y bor, dunyoni qanday tushunadi, bizdan nimalari bilan farqlanadi – ayt shularni! A, qizlar o'zimizda ham bor, ishqiy sarguzashtlar bu yoqda ham achib yotibdi! Bitta yallachi xotinning nechta erga tegib chiqqani, boshqasining necha marta shu yallachi xotinni xotinlikka olgani tilimizda doston, yetadi bizga. A, sen, axir, o'sha ko'rmagan-bilmagan dunyoga boribsan, shuni aytib ber bizga. Ishq-muhabbatingni boshimizga uramizmi, ibodan qaltirab ketgan qizni bo'liq maysaning ustiga tortishni o'zimiz ham bilsak. Tavba, odam qaysi dunyoga tushmasin, asli qanday bo'lsa, shundayligicha o'zgarmay qolaverar ekan-a. Shu yozuvchi do'stimning xotinlar to'g'risida ko'p gapirishini yomon ko'raman, hatto ayni borada o'zining nuqsi yo'q emasmi, degan shubhaga boraman, chunki og'zi tinmaydi: odamning tilidan o'zi intilib erisholmaydigan narsa tushmaydi-da. Yozgan narsalariga ham shu urib ketgan. Bo'lmasa, boshqa olamga boradi-yu, ko'ziga shundan bo'lak narsa ko'rinmaydimi? Xotini bilmasa, yurib ketaveradimi? G'irt axloqsizlik bu! Yozgani ham shu zinogarlikni oqlash. O'quvchini go'l deb o'ylaydi-da. Boshqa olam ekan, u yoqda bor, bu yoqda yo'q narsalarni yozish kerak-da, to'g'ri emasmi? Menda bularning hammasi bo'lgan, lekin mutlaqo bunday emas. Hali aytib beraman.

Ha, uzr, g'uliylarning menga atay qo'ygan kiyimlarini gapirayotgan edim, juda chalg'iganim ham yo'q lekin, chunki siz bunaqa kiyimlarni ko'rmagansiz, o'zim ham o'sha yerda ko'rdim. Matosi o'zimiznikidan, shimi sun'iy tola aralash movut, ko'ylak yupqa-nozik batistmi, nima deydi, xullas, bejirim materialdan, ipi ham boshqacha emas shekilli, lekin tikilishi, bichimi sirtidan biznikiga o'xshagani bilan tamomila o'zgacha.

Avvaliga bir-bir qo'limga olib, xo'b tomosha qildim, katta tugmayu kichkina tugmalarigacha sanab ko'rdim. Bularda tugma ishlab chiqarish sanoati juda ham katta shekilli, juda ko'p ketar ekan. Ancha tomosha qilib, qiziqishim bosilgandan keyin esa bu kiyimlar menga ekani esimga kelib, ko'nglim nojoy bo'ldi. Ha, meni kiysin deb bergan-da bular. Hammasi ichkiyimdan boshlanmasa edi! Bugun maykasini kiysam, ertaga karavot ustida zanjir ham yaltillab yotishi hech gap emas. Ha, albatta. Zanjir - siz u menga zanjir, tutqunlik belgisi, qullik ramzi, lekin bular, g'uliylar uchun, kim biladi, qanaqa mo'tabar narsa bo'lsa? Balki zanjir bermasak, ko'ngli qoladi, deb o'ylarlar meni? Ehtimol, bo'ynimga zanjir solish ularning menga ko'rsatayotgan zo'r ehtiromidir? Bilib bo'ladimi! Menga zanjirband odamning kiyimini beribdilar deyapman-u, lekin bularda boshqacha kiyim ham yo'q, qayoqdan ham bo'lsin, hammasi shunaqa kiyinsa. Keyin bildim, hatto jazoga mustahiq bo'lib, hamma huquqlardan mahrum etilganlari ham abgor, lekin xuddi shunaqa kiyimlarni kiyib yuradi. Albatta, zanjirsiz. Boshqa andazadagi kiyimni bilmaydilar-da, axir.

Hammayoqda: bog'da, ko'chada, imoratlarda, kiyimlarda, yo'lu yo'laklarda, xullas, ko'zim tushgan bari narsada zanjir gulini ko'raverib ko'nikib qolgan bo'lsam ham, to'shakka yopilgan moviyrang ro'yjada ham ko'ndalangiga tushirilgan shu shaklni ko'rib, seskanib ketdim. Ro'yjani ko'tarib, xushkiga qarasam ham, shu ahvol: xuddi osmon asoratga solingandek, och niliy kenglik yuziga halqa-xalqa bejirim zanjirchalar solingan. Yotganimda ustimdan ham, ostimdan ham zanjir chulg'ab olsa, matoga tushirilgan gul bo'lsa hamki, bari bir, ramziy ma'noda tutqun bo'laman-da.

Bu o'y boshqa o'ylarni ergashtirib kelib, fikrimni butunlay bo'tab yubordi. Aqlimda nimadir o'zgarishlar bo'ldi, qanaqadir umidlarim sindimi, ishqilib, hadyami, xayriyami, yoki shunchakiga berilganmi, bu kiyimlar juda achchiq haqiqatga ro'para qilib qo'ydi: men tilini tushunib turgan bo'lsam-da, dili ettiyot begona odamlar orasiga tushib qolgan, hozir bog'hovlida yo shahar ko'chalarida bemalol yurganim, xohlaganimcha sayr qilganim bilan qandaydir, nima deb tushuntirsam, bir erkin bandi edim, go'yo erkim o'zimda-yu, ammo xuddi shu erk ortiqcha, menga kerak emas, hatto zararli bir dahmaza edi. Ha, shu erkinlik boshimni ko'p aziyatga solishini aniq bilib qoldim. Menga bularning azim shahrida, keyin bildim, mamlakatining poytaxtida joy yo'q edi. Shu bog'hovli ham hozircha ekanini angladim. Shuning uchun endi biron zarurat bo'lmasa, bu yerdan tashqari chiqmaslikka qaror qildim. Birov tanimasa, bilmasa, xudo ko'rsatmasin, ko'chada biron kor-hol bo'lsa, holing qanday deguvchi yo'q, bular zanjirsiz odamga parvo ham qilmaydi, o'lib ketaverishim hech gap emas. Adashib bir mamlakatga o'tib ketsang-da, hech bir ish qilmay, kimsa bilmay, trolleybusmi bosib yo tramvay turtib tasodifan o'lib ketsang, alam qiladi-da. Keyin, aytib bo'ladimi, balki menga boshqa dunyo vakili deb qarab, bu dunyoga begona biron xastalikni olib kelgan, deb chora ko'rishlari ham mumkin-ku. Qutulishning oson yo'li avtohalokatmi, shunga o'xshagan narsa-da. Yo'q, och qornim, tinch qulog'im. Hayhotdek bog'hovli, choy ichganimdan keyin g'uliy qiz ko'rsatdi – katta kutubxona, televizor, video, bir javon kasseta, yana xizmatimda bu suluv, zanjirini jingirlatib chopqillab yuribdi, menga shaharining nima keragi bor? Tumonat zanjirbandning ichida bitta zanjir taqmagan, yomon ko'rinish gazagimga nima dori? Siz ming yaxshi odam bo'lmang, yaxshiligingiz yaxshi odamlar orasida bilinadi, hammasi yomonlarning orasiga tushing – yo bir esipast, yo kaltafahm laqmaga chiqasiz. Bemalol yomonlik qilib yurishlariga xalal berasiz-da. Ya'ni yomonlikdan tiyilsalar, sizdan ko'rishadi. Shuning uchun tinch o'tiray dedim.

Yana qarang-ey, o'zi bir narsani o'ylaydigan ahvolda emasman, lekin bularning tashvishini tortib yotibman, xayolimda katta bir savol: bitta shaharida shuncha

odam, yana qancha shahru qishlog'i bor, necha milyon g'uliy yashaydi, hammasi ikki-uch yoshidan zanjir taqsa, tasavvur qiling, nechchi ming tonna temir ketadi? Qancha ruda qazib olish, qayta ishlash, metall qilib eritish, quyish, pardozlash, xullas, butun boshli bir industriya! Nimaga kerak? G'uliy zanjirga solish uchun! Zarilmi shu? Ana masala! Ey, bor, arshingni qil, sendan osh-non so'rayaptimi, deydigan odam yo'q. Xayolimning bir chekkasida o'zimcha kuyinib yotibman: butun boshli bir og'ir sanoat behudaga ishlab yotibdi ekan deb. Endi so'rasangiz, bu yoqda o'zimizda yo'qmi? Bu tanku qiruvchi uchoq, avtomatu to'p, atomu vodorod bombalarini ishlab chiqarmasa, yashab bo'lmaydimi? Qaysi mamlakatning harbiylaridan so'rasangiz, bostirib kiradigan dushmandan himoya qilish uchun, deydi, bostirib borishimiz uchun, demaydi. Hammasi himoyalangani, bosib oladigan dushman kim, bilmaysiz. Boshqa mamlakatning hududiga ham o'zining xavfsizligini ta'minlash uchun kiradi. Mayli, bu boshqa gap-u, lekin ana shu yo'q dushmanga qarshi tayyorlanishga qancha kuch, qancha mablag', qancha mehnat ketishini o'zingiz, ha, yaxshi bilasiz. Ha, endi bu juda sodda savollar-u, lekin doim odamni o'ylantiradi-da.

G'ulistonniki nima, boshqalarga aniq bir zarari yo'q, o'zicha zanjir ishlab chiqib, xalqini zanjirband qilib yotar, xalqi shundan xursand ekan. O'zi umuman xalq bir tuzumdan rozi bo'lsa yo o'zini rozidek ko'rsatsa, teskarisini isbotlashga ming urining, befoyda. Mana, men buni ko'rib qaytdim, hozir o'tib ketgandan keyin, o'tirib olib o'ylaganim sayin juda ko'p narsa oydinlashyapti. Men, bunday qaraganda, hu keyin jahannamning og'zidan eson-omon qaytibman. Bitta zanjirsiz odam tumonat zanjirbandning nafratini oralab sog'-omon etib kelibman. Ana shu bitta nafratning o'ziyoq meni o'ldirib yuborishi mumkin edi, Lekin begonaligim, bularning nafratining nimaligini tushunmaganim menga panoh bo'ldi. Xuddi tilini bilmaganim uchun haqorat qilgani ham kalamga etib kelmagandek. Mening akam yoshligida, hali harbiyga borib kelmagan paytlari bo'lsa kerak, brigada shiyponi tomini hashar suvoq qilib turishganda, yo'ldan bir o'ris o'tib qolib, bularga «Bog v pomosh'» desa, o'rischani bilmaganlar, loyga botganimiz uchun mayna qilyapti

deb o'ylab, «Cho baltaesh, falon-behmadon» deb so'kib bergan ekanlar. Meniki teskarisi, bular meni ovoz chiqarib so'kmay, haqoratlayapti, men tushunib tursam ham tushunmaslikka olyapman. Tushunganimda bildirganda ham nima qilishimni bilmayman, chunki meni eshitadigan odam yo arzimni tinglaydigan idora yo'q. Tamom yolg'izman, osmondagi oy ham yolg'iz, lekin uning atrofida, mayda bo'lsa ham, yulduzlar bor, quyosh ham tanho, lekin uning o'zi nur sochadi, olam-jahonni yoritadi, eng asosiysi, osmon o'ziniki, begona emas, men esa... e-e, nimasini aytasiz, yolg'izdan ham o'tib ketgan yolg'iz, hech kimi yo'q duppa-dumaloq etimdan ham beshbattarman.

Bilasiz, ko'pning munosabati juda ko'p narsani belgilaydi. Maqtasa, shu maqtovg'a arzimasingizni bilib tursangiz ham shishib ketasiz, yomonlasa – ming kuchli odam bo'lmang, ruhingiz cho'kadi – ko'pning ta'siri shunaqa. Men o'ttiz yettinchi yillari otuvga hukm qilinganlarni xalq orasida muhokama bo'lib, ommaviy qoralaganlarini o'qib, ularga yo'q yerdagi aybni taqab, yolg'ondaqa sud qilib, hayotdan mahrum etib, yana odamlarga nafratlantirishning nima keragi bor, deb hayron bo'lar edim. Endi tushunsam, haqiqiy, tamomila o'ldirish shu – ko'pchilikning qarsagi bilan qilingani, endi bu dunyoda qo'llab turadigan hech narsa qolmagani uchun bechora qatag'on qurbonlari miltiqning mili qarshisida ham partiyaga, Stalinga qasam aytib, ko'kraklarini o'qqa tutib bergan ekanlar. Men shunaqa javobi ma'lum savollarni bilib turib ham o'ylayveraman. Kutilmagan vaziyatga tushgan har xil odam o'zini har xil tutadi. Men avvalboshda hovliqaman, shoshaman, o'zimcha bir nima harakatlar qilib ko'raman, lekin vaziyat oydinlashavermasa, bosilib, qani, bu yog'i necha puldan tushar ekan, deb kutishga o'taman. Shunisi yaxshi, ko'pincha kutganim yaxshi bo'lib chiqadi. Bu yerda ham ko'p ko'kayingni kesma deb, o'zinga sabr tiladim. Yurib izlashga yo o'tirib o'ylashga maslahatchi ham, maslahat ham, chora ham yo'q, shu bog'hovli, bog'hovlida yashash uchun hamma narsa, hatto xizmatchi qizgacha borligiga shukr edi. Bu ham xudoning bir inoyati, men bechoraga bir g'amxo'rliqi, yaxshilikka bir umid edi.

O'ylab o'tirib, bir narsaga e'tibor qilib qoldim: eng pastki ichkiyim juda bejirim taxlangan, qiz bola qo'lining alohida mehri shundoq ko'rinib turar edi, ko'nglimga o'shanda bir o'ylar kelib qoldi, bu ham bejizga emas ekan.

Mening ham aqlim bularnikidan kam emas

Sal o'tmay xonamga o'sha bir qoshi oq xoldor g'uliy kirib keldi, salobatli bosh iring'aganiga men ham kallamni qimirlatib qo'ydim. «Qalay?», dedi u, men: «Bir navi», dedim, boshqa nima ham deyman. Yurtini maqtaymi, men bunaqasini ko'rmagan edim, maftunman, deb aytaymi yo xalqing menga qaramadi, odam o'rnida ko'rmadi, deb shikoyat qilaymi? Hech ham-da! Keyin, nima foyda? Bitta meni deb xalqini o'zgartirish buning qo'lidan ham kelmaydi. Lekin uning o'zidan ko'p kerakli gap chiqib qoldi. «Poyafzal bo'lmasida bitta boshmoqni ushlab ko'rib, qo'ltig'ingizga ham qisib, nega yana qaytarib joyiga qo'ydingiz? Olaversangiz mayli edi», dedi. Vang' bo'lib qoldim. Ana, kuzatib yurgan ekan bular demadimmi! YAna: «Yoqmadimi?», deydi. «Yaxshi ham odam qo'yganimiz, bo'lmasa, sizni yo'qotib qo'yar edik. Bechora eng namunali xodimlarimizdan edi», deb gapining yarmida to'xtab qolgan edi, men «Nimaga - edi?» deb so'radim, u javob qilmadi, ammo men tushundim, o'sha xodim haligi menga yo'lni imo qilgan yigitmi, demak, unga bir narsa bo'lgan, odamlarning orasidan boshqa to'rt g'uliy ajralib chiqib, orqasidan ketgani bejiz emas ekan. Keyinroq buni aniq ham bildim, ammo bu ham alohida mavzu, hali o'zingiz tushunib olasiz. «Yaxshi bo'lmadi, buni boshda ham maslahat bermagan edik, lekin bundan ham yomon bo'luvi mumkin edi, bo'lmadimi, shunisi yaxshi», dedi xoldor. Bu endi mening shaharga chiqqanim haqida. Bundan ham yomon nima bo'lishi mumkin edi, buni siz ham tasavvur qila olsangiz kerak. Bilib tursam ham: «Kimga yomon bo'luvi mumkin edi?», deb so'radim. U savolimga to'g'ri javob bermadi, «O'zingizni soddalikka solmang, - dedi. – Ayovli mehmon ekaningizni bilib olib, chegaradan chiqyapsiz. Minba'd bunday qadam bosmang». Juda hayron bo'ldim. «Bilmayman, rostdan, - deb azmoyish oldim. - Qayerda chegaradan chiqibman? Tinch borib, tinch keldim-ku. Yo boshmoqni ushlab ko'rganimni aytyapsizmi?» Xoldor g'uliy istehzo bilan derazaga qaradi. «Boshmoq emas, u-ku bir narsa, - dedi. – Voyaga etmagan bola bilan ko'z urishtirdingiz! Hali u begunoh murg'ak edi-ku». Ana endi ichimda angrayishimni ko'rsangiz! Ham angraydim, ham aqlim ishlab qoldi. Hammasi ham mayli-yu, endi u bolakayga nima bo'lar ekan? Shu kichkina holida, o'zi hech

narsani tushunmay shunday katta mahkamaning ro'yxatiga tushib o'tirsa! Ha, xoldorning bir-ikki savolidanoq angladim - juda jiddiy mahkama, hali butun kuchini bilganim yo'g'-u, lekin bu vazifashunosning orqasida juda katta kuch borligini tasavvur qilib turibman. Bolakay, kim biladi... Yo'q, buni ham bilmasam-da, ko'nglim bilan yomon narsani sezib turibman. Xoldorning mahkamasi bilan hazillashib bo'lmaydi. Muning bir qoshi bekorga oq emas, yana yanog'ida, burnining yonida olxo'ridek xoli ham bor. Eshak ishi bilan, to'ng'iz tishi bilan, bular hazilni ko'tarmaydi. Hali buni o'zingiz ham bilib olasiz. Lekin mening shaharni bezarar sayr qilishim shuncha zarar keltiradigan bo'lsa, chiqmaganim ma'qul. Rostdan ham avval o'tirib, g'uliy larni, ularning hayotini shu yerdagi televizoru kassetalardan, kitoblardan o'rganib olishim kerak. Ha, shunday qilaman! «Bir iltimosim bor, o'rtamizda qolsin», dedim. «Qulog'im sizda», dedi g'uliy. «Shu bola bilan ko'z urishtirganimni, mayli, mening shaxsiy ishimda tursin, lekin uning tarjimai holidan o'chirtirsangiz». G'uliy sakrab ketayozdi. «Nima? Meni nimaga boshlayapsiz? Juda g'alati ekansiz-ku!», dedi. «E-e, nimaga boshlabman? – dedim. – Bolaning o'tmishida qora dog' bo'lib turmasin, xolos». G'uliy bir narsalarni o'ylab derazaga qat'iy tikilib qoldi. «Anoyi emassiz. Bir kundayoq ko'p narsani tushunib olyapsiz. Lekin iloji yo'q narsani qildirishga urinyapsiz. Axir, vaqtni orqaga qaytarib, tarixni o'zgartirib bo'lmaydi-ku», dedi. «Vaqtni qaytaring, demayapman. Tarix – juda katta, bu voqea esa juda arziyas. Bor-yo'g'i murg'ak bir bolakayning menga nazar tashlaganini tashlaganini hisobdan chiqarsangiz, deyapman, xolos», deb tushuntirishga urindim. «Nima, bu bolakay katta bo'lmaydimi?» deb so'radi g'uliy. «Men ham uni bezarar katta bo'lsin, deyapman-da», dedim. «Shu bola katta bo'ladimi, axir, yo boshqasimi?», dedi xoldor. «Albatta, shu bolani aytyapman», dedim. «Xo'p, siz bilan ko'z urishtirgan ham shu bolami, axir? - dedi u. – Ertaga shu bola voyaga etsa, sizga qaragan ko'zi o'ziniki bo'lib turaveradimi, axir?» «Do'stim, bola-ku u hali, qaradi – nima, qaramadi – nima, shuni yozib qo'yadiganlarga bir og'iz aytsangiz, G'uliston - guliston, ularda ham yurak bor-ku», dedim bor umidimni to'plab. «Uning kelajagi hozir boshlanadi! – dedi xoldor keskin qilib. – Sizga qaragan shu

bola, shu ko'zlar, kelajakda boshqa bo'lib qolmaydi. Qaraganini kelajak uchun muhrlab qo'yishimiz shart. Bu mavzuga boshqa qaytmaymiz». «Do'stim», deb yana iltimosga kirishgan edim, u gapimni shart kesdi: «Meni do'stim, demang, - dedi, - Hali do'st bo'lganimizcha yo'q». «E-e, mayli, - deb qo'l siltadim. – Sizlarda nima deyilishini bilmayman, janobmi, sermi? Nima bo'lganda ham o'shalarga aytsangiz, kompyutyerdan o'chirib qo'ya qolishsin. Mening jaddimga bolaning kelajagi kuyib ketmasin, o'rtoq», dedim. Yana o'rtoq deb yuboribman. Lekin bunga xoldor hech narsa demadi, ro'yjadagi zanjir shakliga tikilib turdi-da, «Ziyrakligingiz yaxshi, - dedi. – Xuddi G'ulistonimizda tug'ilib katta bo'lgandek, hamma narsani bilib turibsiz. Yo ilgari ham kelib yashaganmisiz? Yoki u yoqda ham shunaqa mahkamalarda, a?...». «E-e, xudo asrasin», deb yuboribman. «Xudo? – deb hayron bo'ldi u. – Kim u?». «Kim emas, biru bor, yakkayu yagona, buyuk akbar, olam sarvari...» deb ta'riflashga tushdim-u, birdan to'xtab qoldim. Chunki u bilan vajlashish befoyda, bari bir uqmaydi.

Ha, ana shunda ko'p narsani anglab, ezilishim boshlandi. Begonaligimni shunchalar chuqur his etdimki, o'lib, do'zaxdan ham battar joyga tushganday bo'ldim. Har holda, do'zax o'tida kuyib, dodlasang, dodingni yoningdagi boshqa do'zaxiylar tushunadi-ku. Do'zaxiylarga do'zaxning ham qadrdonligi bor. Bu yerda... umuman boshim qotdi. Keyin-chi, o'lim botirdan ham qo'rqadi, degan gapni men ham bilaman, lekin, ko'rib turibsiz, bu yerda kimga ham botirlanaman?

Yaxshi ham shu payti g'uliya qiz choy damlab kirib, xoldor boshlig'iga nim ta'zim qildi-da, bizni yana xoli qoldirib chiqib ketdi. Qiz, tabiiyki, menga qaramadi, zanjiri bilan mayin sado berdi, xoldorning zanjiri ham ma'qullagandek sekin jingirlab qo'ydi. Xoldor o'rtoq choyni qaytarib, avval o'ziga, keyin menga ham quyib, piyolani uzatdi. Rahmat aytib, oldim. Oddiy bir suhbat, oddiy choyxo'rlik, choynak bitta, uning oldida bo'lgandan keyin, suzish ham undan. E'tibor beradigan tomoni yo'q. Lekin... xuddi shu suhbatning g'uliyga qanchalar og'ir tushishini men u paytlari xayolimga ham keltirmagan edim. To shu doim choy damlab keladigan qiz bilan o'rtamizda haligidaqa qalin bir munosabat paydo

bo'lmaguncha. Ha, yana, ana shu munosabat ham qizning boshiga ayriliq musibatini solganini siz xayolingizga keltira olmaysiz. Bular menga bog'liq ham, ayni paytda imkonimdan tashqaridagi ko'rguliklar. Navbati bilan o'qiyverasiz, sizdan faqat sabr. Hozir suhbatimizning davomini eshiting-da.

To ko'chaga chiqib, qaytib kelguningacha bo'lgan narsalarning birontasi xoldor g'uliyning nazaridan chetda qolmabdi. «Sizga qassob bilan gaplashish nimaga kerak edi?», deb so'radi, masalan. «Bilmayman, - dedim. – Yo'l so'radim shekilli». Rostdan ham, nimaga shu qassob bilan gaplashdim, keyin eslasam, go'sht necha pulligini so'rabman, sho'rva osyapmanmi yo osh damlamoqchi edimmi, ishqilib, sira keragi yo'q edi. Qiziq, ba'zida birovlar bilan gaplashasan-u, lekin nima uchun gaplashganingni o'ylab ham ko'rmaysan. Lekin, qassob beodob ekan, mayli, ko'zimga qaramasin, gapimga og'zi bilan javob bermasin, lekin, begonaligim betimga yozilgan, pichog'i bilan «hu, manavi taraf» deb yo'l ko'rsatib qo'ysa ham bo'lar edi-ku. Ammo... bular qayerdan turib kuzatgan ekan? Atrofga qaraganimda, qassobdan boshqa hech kim yo'q edi-ku. «Qassoblaring molfahm ekan lekin», demoqchi edim, lekin «Bir qizcha o'ynab yurgan edi, u ham daftaringizga tushdimi?» deb kesatdim. Xoldor o'zini hayronlikka soldi: «Qanaqa qizcha? Atlas ko'ylaklimi?». «Keling, dim-dim o'ynamaylik, - dedim. – Atlas ko'ylagini bilasiz-u, qaysi qizcha ekanini bilmaysizmi?» «Unda daftarga tushmaganini siz ham bilishingiz kerak, - deb istehzo qildi u derazaga qarab. – U sizga anglamay qarab qo'ydi, bu ham atigi soniya. Shubhadan xolis g'uliyacha u. Kelajagiga dog' tushmaydi.»

Endi, suhbatimizdagi har bir gapni aytib berib, sharhlab o'tirishim shart emasdir, o'zingiz ham anglab turibsiz shekilli. «Biz o'ylaganchalik sodda emassiz», dedi g'uliy. Shunaqa gapni ko'p qaytardi, bu bilan kinoya qilyaptimi yo tan beryaptimi, bilolmadim, chunki odamning ko'ziga qaramagandan keyin, gapining tagida nima bor, anglash qiyin, lekin, baribir, sal taskin topdim, har holda senga sodda deb qaramay, shunga yarasha muomala qilsa, yaxshi-da.

Namunali ichg'u

Qizgina chiroyli patnisda likopchalarga did bilan terilgan gazak, hali men do'konda ko'rganimdek chiroyli shishada ichgulik keltirdi. Ikkita, shishami, billurmi, farqiga bormadim, ishqilib, zanjircha shaklida tilla belbog'cha hal berilgan juda tiniq qadah ham bor edi. Xoldor shishaning og'zini burab ochib, qadahlarga quydi. Bilasizmi, quyganini ko'ryapman, mayin qul-qul tovushi ham keldi, oqib tushishida derazadan tushgan nur ham jilo berdi, lekin ichimlikning o'zini ko'rmadim, qadahlar bo'm-bo'shligicha qolgandek, shunaqa ham tiniq ekan. «Nima bu?», deb so'radim xoldordan. «Ichg'u», - dedi u savolimga ajablanmay. «Ichg'u? - darrov anglab so'radim: - Darajasi nechchi?» «Ellik bir, - dedi g'uliy. – Bizda ichg'uning darajasi bir xil, hammasi bir darajada. Mana, quyg'u ko'rsatib turadi».

Demak, kuchliroq bo'lsa ham, bari bir, aroq ekan, dedim-da, juda charchaganim, bugungi taassurotlardan qo'zigan asabga dam berish uchun ko'tarib yubordim. Darvoqe, xoldor urishtirmadi, buni xayoliga ham keltirgani yo'q. Ichg'usini ichib yubordim-u, odatdagidek, sal aftimni burishtiraman desam, burnim jiyrildi-yu, labim burishmadi, hech narsa yo'q, to'g'rirog'i, ta'm sezmadim, tiniqligidan ichdimmi, yo boshimni orqaga tashlab, ichimga bo'sh qadahdagi havoni bo'shatdimmi, bilmay qoldim. Gazak qilishga ham hojat yo'q edi. Xoldorga hayron qaradim, u esa pinagini buzmay, qadahlarni ikkinchi bor to'ldirdi. Bular kayf uchun shunaqa toza suv ichadi shekilli deb, yana urishtirmay ichib yubordim. Keyin!.. Bilasizmi, birdan ichimga shodlik qamalib qolib, toshib chiqa boshlasa deng. Ha, bir olam quvonchga chulg'anib ketsam! Dunyo tamomila boshqacha ko'rinib, hatto xoldor g'uliy qimirlaganda zanjirining sekin-sekin shiqirlashi ham yoqimli eshitilib qolsa! Ichg'usi shunaqa zo'r, asl toza ekanki, ichganda bilinmay, kuchini keyin ko'rsatar ekan. E, barakalla, devordim ichimda. Hech tortinmay, shishani qo'limga olib, yorlig'ini o'qidim: ichg'usining ismi jismiga mos - «Quvonch», boya do'konda ko'rganim. Bu palakatning ham shunaqa tozasi bo'lar ekan.

Keyin xoldor menga tushuntirdi. Mayli, shuni ham sizga aytib beray. Balki buning badiiy asarga aloqasi yo'qdir, lekin hammaga tegishli joyi bor, chunki, bizda, yomon illat, juda ko'p odam ichadi, yotib ichmasa ham, menga o'xshab, do'stlar bilan o'tirganda, tug'ilish kunlari, to'ylarda tortib ketaveradi. Lekin biz nimani ichamiz, nimaga ichamiz – o'ylab ko'radigan vaqt keldi. Shuning uchun ham g'uliylarning ichg'usiga to'xtalib o'tishni mulohaza uchun juda kerak, deb hisoblayman.

Xoldor g'uliyning aytishicha, buni o'zim ham do'konlarida ko'rdim, ichg'u ularda bizdagiga o'xshab juda bermalol ekan. Turi uncha ko'p emas-u, lekin istagancha bor. Faqat bizdagidek achchiq va qimmat emas. Arzonligining ham sabablari bor, buni hali aytaman. Ichganda tez ta'sir qiladi, bilmadim, nima qo'shadilar, lekin xursandchilik beradi, ichgan odam bir-ikki piyola bilan tayyor bo'ladi, albatta, ruju qo'yganlar bundan mustasno, ular tamom uchib qoladi. Ichg'u bilan hordiq chiqarish, umuman maishat, oddiy odamlarining ovqati kam bo'lsa ham, bizdagiga qaraganda ko'p marta arzon tushadi.

Keyin, yana bir ibratli tomoni, bu yerda hech kim ichg'uni to'g'ri kelgan narsada ichib ketavermaydi. Bizga qadahmi, piyolami, farqi yo'q, alyumin krujka, konserva idishiga yo bodringning ichini o'yib ham solib, ichaveramiz. G'uliylarda aslo bunday emas, ularning maxsus qadahi bor, hozir xoldor aytgandek, «quyg'u» deyдилar, «qayg'u» bilan adashtirmang, o'rislarning «stopka» degan mayda stakanchasining xuddi o'zi, yuz grammni roppa-rosa choraklarga bo'lgan to'rtta mayda tilla zanjir shaklida hal berilgan belbog'chalari bor. quyg'u davlat zovutlarida ishlab chiqiladi va uning shakli, sifati, sig'imi qat'iy nazoratda. Gap shundaki, quyg'u shishaga-da, billurga-da o'xshaydigan, lekin juda mustahkam, sinmaydigan allaqanday tiniq materialdan tayyorlanib, nafaqat quyilgan ichg'u miqdorini, balki quvvatini bir darajaning choragigacha aniq ko'rsatadi. Deylik, masalan, aroqning quvvati ellik bir daraja emas, elligu yuzdan etmish besh daraja bo'lsa, quyg'uda loyqa tus olar ekan. G'uliylar do'kondan ichg'u olsa, bizga o'xshab, tozami, yo'qmi deb aroq shishasini siltab yo tagini kaftiga ishqab ovora

bo'lib yurmaydi, quyg'uga qo'yganlari zahoti uning rangi shundoq sifatini ko'rsatib qo'ya qoladi. Quyg'u, birinchidan, aroqning sifatini doimiy nazoratda tutish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, qo'lbola ichimlik tayyorlab sotishni tamomila yo'qqa chiqaradi. Ha-ya, G'ulistonda bizdagidek qo'lbola aroq savdosidan boyishga ehtiyoj, talab ham yo'q. Chunki davlatning barcha sir-sinoatlar bilan yuqori sifatli tayyorlangan ichg'u shunchalar bermalol va arzonki, qo'lbola tayyorlashning xarajati daromadidan katta tushadi. Keyin, deylik, biron uddaburon g'uliy xarajatini kamaytirish yo'lini topib, qo'lbola ichg'u qildi ham deylik. Lekin uni o'zi ham, boshqa g'uliy ham icha olmaydi. Chunki ichg'uni quyg'uda ichish shu qadar mustahkam ko'nikma, shunchalar kuchli odatga aylanganki, hatto jonu jonzot ko'zidan pana ovloqda yolg'iz o'zi qolsayu ichmasa, ichmagani uchun boshiga o'lim jazosi tushsa ham, g'uliy quyg'udan boshqa narsaga quyilgan suyuqlikni og'ziga olmaydi. qo'lbola ichg'uni quyg'uga quyganingiz zahoti quyg'u xiralashib, bedana to'rqovog'idagi yil bo'yi yuvilmagan suvdondek kirlanib qoladiki, uni hech bir g'uliyga majburan ham ichirib bo'lmaydi. Bu ham g'uliyga zanjirini echishdek bir gap. Hatto kimsasiz, ovloq tog'u toshda yakka o'zi echki boqadigan cho'poni ham yonida ichg'u bo'lib, quyg'usi yo'q yoki yo'qotib qo'ygan bo'lsa, bari bir, o'zi yasagan yog'och cho'mich yo boshqa idishda icholmay, tashna yuraverar ekan.

Xullas, G'ulistonda ichg'u ishlab chiqarish va umuman ichkilik savdosi hamda iste'moli sodda, bekamu ko'st ishlab, yana o'zini o'zi nazorat qiladigan ajoyib tabiiy bir mexanizmga aylantirilganki, faqat qoyil qolish mumkin. Buni ayniqsa keyingi yillari soni tobora ko'payib, sifati borgan sari tushib ketayotgan turli mast qiluvchi ichimliklarni ichib, bog'ini surishtirishga tili g'uldirab qoladiganlarning aqli yetmas, lekin «kompetentniy» soha mutaxassislari mening hayratim boisini juda tushunadilar. Masalan, alkohol ichimlik savdosidan davlatga qancha tushum kelishini hamma ham bilavermaydi. Men ham uncha bilmayman. Lekin juda salmoqli! Daromadning fildek qismi ichkilikdan. Aroq ishlab chiqarishning o'zi juda katta soha. Ming-ming odamlar ishlaydi, ming-ming gektarlardan olinadigan

arpayu bug'doy, olmayu uzum hosillari uni tayyorlashga ketadi, ming-ming moshinlar ming-ming do'konlarga uni tashib turadi, milyon-milyon odamlar yuzminglab restorani oshxonalarda, to'y-marosimlarda, hatto yolg'iz ham sabab-besabab shu zahri qotilni iste'mol qilib yotadi, daromadi, sog'lig'i, ba'zan esa oilasidan ayriladi. Nimaga hech kim bu kori bexayrga chek qo'ymaydi, degan bir sodda savol tug'iladi. To'g'rimi? To'g'ri. Ammo sira buning iloji yo'q. Bunday urinishlar ko'p bo'lgan. chor Rossiyasi tarixida, SSSR paytida. Eng oxirgisi, esingizda bo'lsa, Ligachyov nomi bilan bog'liq. qancha aroq-sharob zavodlari yopildi, qanchadan-qancha tokzorlar kavlab tashlandi, olmozorlar kesildi, do'konlarda davlat arog'i yo'qoldi. Natija nima bo'ldi? Ta'qiqqa, aholidan uskunalar yig'ib olinganiga qaramay, qo'lbola aroq tayyorlash avjga mindi, etil emas, metil spirtidan qilingan aroq ichib, hatto bir joyda butun bir shaharning qirilishiga bir bahya qoldi. Odamlar alkogolga, umuman mast qiladigan narsaga shunchalar ruju qo'yganlarki, aqlga sig'maydigan ishlarni ham qiladilar. Buni qarang, benzinning sassig'ini iskab ham odam mast bo'lar ekan. Bir krujka pivo olib, ustiga suvarak o'ldiradigan dorini pish etkizib purkab, keyin ichsangiz, kun bo'yi bangixayolda kayf qilib yurar ekansiz. Vey, etikmoyni bilasiz-a, harbiyda «gutalin» deyishadi, shuni qalinroq bo'lgan bo'lagiga surtib, bir muddatdan keyin ustini kesib olib tashlab, qolgan ivig'ini esa, shundan ham mast bo'lar ekan. Joni azizini o'ylamay, odam bolasi kayf uchun hayvon ham qilolmaydigan ishni qiladi-ya, astag'firulloh! Hey, padari qusur, ajalingdan besh kun burun o'lib ketyapsan-ku, deysiz, u bo'lsa sizga qarab hirlinglaydi! Mast-da, baxtiyor, tekin kayf topganidan og'zi qulog'ida...

Xullas, davlatning aroq ishlab chiqarishni to'xtatish, ichkilikbozlikka chek qo'yishiga qo'lbola aroq tayyorlash, qo'lbola kayf ixtirochiligi monelik qiladi. To'g'rirog'i, keyingilarini nazorat ostida tutishning iloji yo'q. G'ulistonliklar esa ishning ayniqsa bu jihatini qoyillatganlar, ya'ni qo'lbola ichg'u tayyorlashni ildiz-pildizi bilan quritib yuborganlar.

Men ancha vaqt g'uliyarning bu kordonliklariga besh ketib yurdim. Shu birinchi kuni xoldor g'uliy bilan ikki quyg'u ichdim, keyin ham charchagan paytlarim, mehmonxonada bir o'zim, baniyati shifo deb otib yurdim ham. Ammo... berilmadim, o'zimni tutib oldim, sababi shu birinchi ikki quyg'u ham kayfimni oshirdi, ham ko'zimni ochdi. Ichg'uning o'zi emas, ichg'u tufayli g'uliy o'rtoq bilan bo'lgan suhbat. Uning olxo'ri xoli yiltirab qolganiga qarab, kayfi oshdi deb aytish mumkin-u, lekin gaplarining hammasi tagdor, ma'nili, kosa tagidagi nimkosalari bisyor edi, shunga qaraganda hushi o'zida, menga ko'p narsalarni ichg'u bahonasida etkazmoqchi bo'ldi, etkazdi ham. Yo menga o'zicha g'uliychilik qildi, ya'ni g'uliygarchilik, yo shu yo'l bilan, ya'ni ko'p narsani shama bilan anglatib, o'zlariga og'ishdan boshqa yo'l yo'qligini sezdirmoqqa urindi. Nima bo'lganda ham, g'uliylikiga, anuvnaqa mahkamada ishlashiga qaramay, yaxshi zot ekan. Yaxshiligi – shu ikki quyg'u ichimligi bilan menga G'uliston mafkurasining mohiyatini ochdi; umuman, raiyatini, ya'ni g'uliyotni muayyan bir bosim ostida tutib turadigan tizimlar uchun ichkilikni yaypatib-ko'llatish xos xususiyat, g'uliyarning ham bu siyosatdan bebahra emasligini boshdan bilib qo'yishim meni ancha hushyor torttirdi. Keyin boshqa bu yerliklardan, xizmatchi qiz istisno, bunday ochiq g'uliyini uchratmadim hisobi.

Endi uning yanada ochiq maqsadga o'tishi qoldi shekilli. Lekin xoldor: «Sizga dam. qiz sizga yana choy damlab, bosh uchingizga qo'yib qo'yadi, kechasi chanqasangiz», dedi.

«Kechasi... yolg'iz yotaverasizmi?» deb so'radi g'uliya qiz choy keltirgandan keyin. «Ha, - dedim ishongim kelmay. – Kap-katta odam». «Bir o'zingiz qo'rqmang deyapman-da», dedi u yana shom qorayib kelayotgan derazaga xushhol termilib.

Bir gaplar boshlanadi shekilli. Uxlagani yotgan edim, ichimga bir bezovtalik qamalib, yuragim shoshib, allamahalgacha ko'z yumgani qo'ymadi. O'ylab yotdim. Bu yog'i nima bo'lar ekan endi? Nima bo'lmasin, imonimni basalomat asrashim lozim deyapman-u, imonimning o'zi nurab borayotgandek.

Yaqinlaringdan uzoqda, ularning senga ko'zi tushib turmagandan keyin shu ekan-
da.

Bir narsalar bo'ladi chog'i

Ertalab choyni kutib, xayol surib o'tirgan edim, g'uliy qiz o'sha patnisda nahorlik olib kirib, stolga qo'ydi-da, yurak yutib, to'satdan: «Juda ham og'ir bo'lsa kerak?» deb so'rab qoldi. «Ha, juda u darajada emas-u, lekin kalavamning uchini yo'qotib turibman», dedim. «O'zingizni qanday eplab yurasiz? Juda beboshvoq bo'lib qolgansiz-ku», dedi qiz. U ahvolimni desam, zanjirsiz yurishimni so'rayotgan ekan. «Aksincha-ku, - dedim, - juda bemalolman. Men sizlarga noqulay bo'lsa kerak, deb o'ylayman.» «Yo'q, - dedi qiz. – zanjirsiz qolishdan zanjirning o'zi asrasin! Men hatto tushimda ham... voy, uzr, hech kimga aytmang, iltimos qilaman!» Qizning rangi o'chib, nihoyatda qo'rqib ketdi. «Bu bilmasin», deb, otini aytmay, ko'rsatgich barmog'i bilan qoshini siladi. Bilib turgandirsiz, haligi xoldorning bir qoshi oqligiga ishora qildi. «Yaxshi g'uliy ekan-ku u, keyin, nima, tushingizni ham tekshiradilarmi?», deb so'radim. «Yaxshi g'uliy yaxshi g'uliy bo'lgani uchun ham sidqidildan, halol ishlaydi, hech bir narsani yashirib qolmaydi. Tushda zanjirsiz yurish ham g'uliyning asli ichida g'uliylikka sodiq emasligiga dalolat deb qaraladi. Men unaqa tush ko'rmayman. Misol uchun deb, og'zimdan chiqib ketdi. Siz eshitmadingiz, men aytmadim, o'tinib so'rayman», deb yolvordi qiz. Shu yalinayotgan paytda ko'zimga qarab qo'yib, battar sarosimaga tushdi. «Voy, men tamom bo'ldim, endi tozalash sabog'iga tushaman», deb yig'lab yubordi. Sabog'i nimaligini bilmadim-u, «Jon singlim, qo'rqmang, aytishning qizig'i ham, keragi ham yo'q menga», deb ko'nglini tinchitishga urindim. Ko'zyoshlarini artib, sochini silab qo'ygim keldi-yu juda, lekin boshqa xayolga bormasin deb, o'zimni zo'rg'a ushladim. Choy ham sovib qoldi. Lekin shu bahona bu zanjirband qiz bilan o'rtamizda bir narsalar battar kuchaydi. Ko'nglimni quvontirgani - qizning atrofga qo'rqa-pisa alanglab, ehtiyotini qilib bo'lsa-da, men bilan bir-ikki marta ko'z urishtirgani bo'ldi. O, siz juda oddiy narsalarning qadriga etmaysiz-da, bir odamning, yana qiz bolaning sizga suyanib, ishonch bilan ko'z urishtirishi... yo'q, mening ahvolimga tushmagandan keyin, shu ahvolning naqadar farahbaxsh ekanini ham bilolmaysiz.

Endi men sizga qizning o'zini ta'riflay. Hu oldinroq aytgan edim, chiroyli qiz. Yuz bichimi bejirim, qoshlari ham ingichka tizilgan, qaldirg'ochning qanotiday, gapirganda uchaman deydi, ayniqsa, burunchasining ingichka sayqali haligi mumtoz ellin andzasiga mos tushadi, dashtlik, sahroyiroq odamlar bunday qizlarni albatta tog'likka taqaydilar, haqiqatan ham tog'u toshlarda dingillab chopib yuradigan ohuga o'xshaydi, tikilib qarasangiz, undan ham go'zalroq. Peshana, qosh, burun, iyak, ya'ni saqoqqa tangrining o'zi tarashlab, jilo bergan. Qaddi-qomatining adl surxdek chiroyliligi o'tirganda ham qaragan odamning yuragini entiktirib yuboradi. Ha, bu yerda xizmatkorlik ishi, bo'yniyu oyoq-qo'llariga bog'langan zanjir, yana doimiy, betinim xavotir, hamma-hammasi birgalashib ham yo'qota olmagan, ikki qoshining o'rtasidagi, tabiiymi, yo keyin yasalganmi, moshdek ko'kish xolining tagidan ham shu o'lmas chiroy mo'ralab turadi. Yana bu hurkak, o't chaqnagan nigohlar! Odam bu qizga qaragan sari suluvlikning yangi-yangi qirralarini topaveradi. Yana yonida o'tirganda bir eridan ushlab turmasangiz, sakrab qochib ketadigandek tuyulaveradi-da, odamning qo'li o'z-o'zidan unga intiladi. Qo'l o'ziga, ya'ni egasiga bo'ysunmay, qiz bolaning sochigami, yuzigami tegingisi kelaversa, juda g'alati ahvolga tushar ekansiz. Menga nima bo'lyapti o'zi, deyman.

Lekin ko'nglimga yomon bir qutqu xavotir ham in qurib oldi: men tufayli bu qiz musibatga uchramasa! Shundan qo'rqdim. Yana qo'rqinchli joyi shunda ediki, shunday-shunday qildim, deb xoldor g'uliyning mahkamasiga qizning o'zi borib iqrar ham bo'luvi mumkin edi. Ha, bularda to'g'riso'zlik, halollik og'ishmaydigan bir mustahkam burch! Hamma narsa kuzatilgandan boshqa ilojlari ham qolmaydi-da.

Bu qizga qanday yordam bersam ekan degan tashvish o'y-xayolimni chulg'ab olib, televizor ko'rganimda ham, kutubxonada o'tirganimda ham kallamni tark etmadi. Ustiga-ustak, qiz qaerga kirsam, o'sha erga choy ko'tarib kiradi; choyi ham biram mazali! O'zi choyni yaxshi ko'raman-u, lekin hech bunaqasini ichmagandekman, uning qo'li shunaqa shirin. Men to'g'ri ko'ngilda aytyapman. Siz boshqa xayolga

bormang yana. Aytdim-ku, bu yerda meni ishqiy sarguzashtlar, muhabbat savdosi emas, biznikiga o'xshamagan hayot qiziqtiradi. Hali bilmayman, o'zimning boshimga nimalar tushadi. Balki qizning menga ko'rsatayotgan mehribonligida ham bir narsa bordir, bu hurkak nigohlar, bu totli choylar bejizga emasdir deb, bo'shashayotgan imonimni mahkam ushlab qolishga urinyapman. Bir kunim endi zanjirband qiz bilan gap-so'zga qolish edi. Qizga qo'limni tegizgim kelyapti, deganda ham xayolimdagi gapni aytdim, asli teginanim ham yo'q, bu bir yashirin yovvoyi istak edi, xolos. Va, albatta, taskin bergim keldi, bu ham uning o'zi ovutishimni juda-juda istab turgani uchun. Shuni o'ylab turib, endi unga juda tikilib qaramaslikka qaror qildim. Bechorani bo'lmaydigan narsaga umidlantirib nima kerak dedim. Albatta, siz o'ylashingiz mumkin, yosh odam, dam olish uyida, xizmatida bir suluv qiz amriga muntazir, nima desa, muhayyo qilib turibdi, nahotki, a.. balki, a... To'g'ri, har narsa bo'lishi mumkin. Sizni tushunib turibman, lekin, aytdim-ku, nima qizig'i bor, buni hamma biladi. Demoqchimanki, kerakli narsalardan gaplashaylik. Eng asosiysi - qizning menga bir-ikki marta qaragani... balki xizmat qilish uchun maxsus qo'yilgani uchun menga qarashga, ko'z urishtirishga ham istisno tariqasida, alohida ruxsat berilgandir, lekin shunday rasmiy ko'rsatma bilan qaraganda ham, nigohlari juda chuqur ma'noli, tub-tubida teran bir mehr nurlanib, odamning yuragini orziqtirib yuborar edi. Faqat shu zanjiri... qanday aytsam, rahmimni keltiradimi yo g'ashimga tegadimi, ishqilib, nimadir o'rtada bir to'siq bo'lib turib olgan edi-da. Yozuvchi do'stim yozganidek oddiy hirs emas bu, hech kim ko'rmagan-bilmagan yurish, hali ko'rasiz, siz uchun ham qiziq, chunki aminman, g'uliy, yana xizmatchi qizga duch kelmagansiz, u bilan sevishib ham ko'rmagansiz. Zanjirli qizga sira moyil bo'lmaganman, qanaqa ekan deb, shu ham odamni o'ziga tortib ketyapti lekin.

G'uliston qomuslari va bahslar

Menga eng kerakli kitob - «G'ulistonning katta qomusi» bor ekan. O'zi ham bir yuzu yigirma bir jild, hali tugamagan ham. Bu so'nggi nashr, lekin, keyin bildim, oxirgisi emas, jildlar ham sanoqqa etmagan, qayta nashr esa adoqsiz bir jarayon.

Men o'qigan qomusda G'ulistonning jug'rofiy joylashuvi, hududi, globusda tikkasiga va eniga ketadigan meridian bilan parallellari, aholisi soni haqidagi ma'lumotlar yo'q hisobi, boridan ham bir narsani anglash qiyin, chunki aniq raqamlar emas, qanaqadir manbalarga ishoralar bor, o'sha manbalarni topsangiz ham, ularda ulardan ham oldingi manbalarga ishoralar chiqadi. Ularni ming titkilaganingiz bilan, G'uliston degan mamlakat mavjud, unda g'uliyar yashaydi, degan lo'nda ma'lumotdan nariyoqqa o'tolmaysiz. Masalan, bir jildda G'uliston aholisi haqida falon manbaning falon sahifasidan bilib olishingiz mumkin, deyilgan bo'lsa, qiziqib, o'sha manbani topsangiz, unda ham o'z navbatida yana bitta yoki bir nechta manbaga suyanish kerakligi aytiladi-da, ularning o'rtasidagi ixtiloflar va farqlar haqida bahs ketadi, bunda ham nimada ixtilof, nima nimadan nimasi bilan farq qiladi, buni bilish uchun ham yana bir nechta jildni varaqlab ko'rishga to'g'ri keladi. Eng oxirgi manbani topdim deb o'ylab, o'qiy boshlasangiz, unda o'zidan oldingi tadqiqot bilan ham, keyin o'tkaziladigan ilmiy izlanishlarning yo'nalishlari bilan ham keskin bahs ketgan bo'ladi. Oxiri charchaysiz-da, ha-e, shu ekan-da, bildim – nima, bilmadim – nima deb, qo'l siltaysiz. Balki shunisi ham ma'quldir, ko'p ma'lumot olganingiz bilan shoxingiz chiqib qolmaydi, undan ko'ra aniq ish qilish kerak. Har holda, qomusni tuzgan g'uliy olimlarining fikri shunday. Ular bahsga nihoyatda usta. Mantiq ilmini suv qilib ichib yuborganlar. Masalan, osmonga bulut chiqib, yomg'ir yoqqani ilmiy mubohasa ob'ektiga aylanadigan bo'lsa, shunday jiddiy tus oladiki, yoqangizni ushlaysiz. Eng avvalo, osmonga bulut chiqqanmi yo chiqmaganmi, shuni bahslashish kerak. Bulutmidi yo bulut emasmi, yomg'ir yoqqan bo'lsa, albatta - bulut, lekin buni asoslab berish lozim, bulut ekan, demak, osmonni to'sadi, osmonni to'ssa, osmonning o'zi bormidi yoki yo'q, ya'ni kechasimi yo kunduzi,

kechasi chiqqan bulut bilan kunduzi chiqqan bulut bir-biridan tamomila farq qiladi, ularning tusi ham boshqacha, demak, kechasi yo kunduzi chiqqan bulutdan yomg'ir yoqqan deylik, unda qanaqa bulutdan qanaqa yomg'ir yog'di? Yomg'irlikka yomg'ir, lekin qanaqa edi, haqiqatan ham yog'yaptimi yoki tasavvur qilyapmizmi? Bitta yomg'ir yog'ishi haqida shuncha mantiq, bahs-tortishuvlar. O'qiyverib, kallangiz achib ketadi-da, e-e, yomg'iringni ham xudo ko'tarsin! – deb oxirgi jildni otib, ikkinchi o'qimaganim bo'lsin, endi tinch yashayman degan xulosaga kelasiz. Ana shu qilganingiz to'g'ri bo'ladi, bo'lmasa, o'qiyapmanmi, yo'qmi, yo menga shunday tuyulyaptimi, unda nima uchun, nimaga... deb o'z-o'zingiz bilan bahsga kirishib ketasiz-da, keyin, bandasining rahmini o'zi yesin, aqldan ozishingiz ham hech gap emas. Bu gaplarni bekorga aytmayapman, ularning bahs bilan yashashini hali ko'rasiz.

Lekin men bechora G'uliston haqida kam narsa bilganim uchun, ko'proq bilay degan umid bilan ko'p narsani o'qidim. O'qiganim qomus jildlarida g'uliyot falsafasi, e'tiqodi, urf-odatlari, yashash tarzi borasidagi ma'lumotlar juda bisyor, lekin bular ham bevosita ularning o'zi haqida emas, balki tartibi to'g'risida ekan. Shu ma'noda jildlarni tartibot qomuslari deb atash to'g'riroq. Chunki hamma masala, u ashyomi, falsafiy tushunchami, yoki odatmi, farqi yo'q, hammasining o'zidan ko'ra, qanday tartibda amalga oshirilishi yoki qaysi tartib tufayli yuzaga kelishi tadqiq etiladi va hamma-hammasi olib borib, zanjirga bog'lanadi. Ha, shunday. Bizda ham, esingizdami, ilgarilari hammasini partiyaga bog'lar edik. To'y qilsak, ikki yoshning boshi qovushsa ham, albatta, buni partiyaning g'amxo'rligidan deb, kapeesesga sharaflar o'qib, dohiyga rahmatlar aytar edik. Xuddi bolalarimiz ham marhum dohiyning karami va mehribonligidan dunyoga kelgandek. Bularda ham, nima bo'lmasin, zanjir tufayli, zanjirning tartiboti bergan imkoniyat sababli deb yozilar ekan. Mana, zanjirband bo'lgani uchun to'y qilgan, u zanjirband bo'lgani uchun to'yiga boshqa zanjirbandlar kelgan, ha, yoshlar ham g'uliy bo'lganlari uchungina sevishib, bir yostiqa bosh qo'yganlar. To'g'ri lekin, boshqacha bo'lishi ham mumkin emas, zanjirsiz G'ulistonda to'y qilolmaydi,

zanjirband bo'lmasa, ma'rakasiga hech kim kelmaydi ham, umuman birov uni sevmaydi, u ham birovni sevolmaydi. Zanjirsiz bu mutloq mumkin bo'lmagan narsa.

Sevgida ham sevgi bor

Kutubxonaning juda yaxshi jihatlari bor. O'qiysiz, charchasangiz, atrofda boshqa o'qib o'tirganlarni tomosha qilasiz. Ba'zan chiroyli qizlar kirib qoladi, ularni ko'rasiz. Nihoyatda yoqimtoy manzara: o'zi chiroyli qiz bo'lsa-da, yana chiroyli ish qilib o'tirsa, ya'ni kitob o'qisa. Qog'ozga xushhol termilib o'tiradigan qizlarga juda havas bilan tikilaman. Ba'zilar qarab o'tirganimni bilib, yanada xushholroq tusga kiradi, bu ham bir shirin; ba'zilar bor, kitobini shartta yopib, o'qrayib qaraydi, ana shu o'qrayishi bilan «Ol ko'zingni! Bo'lmasa, sharmanda qilaman lekin!» demoqchi bo'ladi, boshqa xayolga borgan bo'lsa-da, bu ham zavqli, ham kitob o'qiysan, ham dam olasan.

Lekin bu kutubxonada bir o'zimman, kitobu derazadan boshqa qaraydigan narsa yo'q, xizmatchi g'uliy ham bir marta, nari borsa, ikki marta choy olib kirib beradi. Uni tez-tez ko'ray deb hadeb choynakni bo'shatavermaysan-ku, nima deb o'ylaydi. Lekin choy to'la choynak oldimda tursa-da, uning yana choy damlab kirishiga ko'z tikadigan bo'lib qoldim. Xullas, o'zimni majburlab, mudrab-mudrab o'qiyman. Kassetalarni ham ko'p tomosha qilib, zerikib ketdim, voqealar, ma'lumotlar har xilu mohiyati bitta – o'sha g'uliyot mafkurasi. Boshqa, biz bekitib ko'radigan haligidaqa filmlaridan yo'qmikan deb, shu axtardim, chiqmadi. Siz boshqa xayolga bormang, o'zi ham axloqiy buzuvchi ekan deb, yo'q, qiziqishim g'irt ilmiy, hattoki tibbiy-ruhiy yo'nalishda: bular zanjirini yechib qo'yadimi, yo'qmi, yecholmasligi aniq, chunki bo'yni bilan oyoq-qo'lga kavsharlab qotirilgan, lekin zanjiri bilan qanday qovushar ekan, temir-ku, odamning badaniga sovuq tegib, haroratini, ya'ni istagini o'ldirib qo'ymaydimi degan savol miyamga kirib qolib, sira tinchlik bermayotgan edi. Javobini bilaman, bunaqa payti, ko'ngil ketganda, temir cholvorga qulflangan bo'lsa ham, odam yo'lini topadi, lekin shu yo'lni qanday topgani bari bir qiziq-da. Yana takror aytaman, bu qiziqishim - g'irt ilmiy, tibbiy-ruhiy va hatto etnografik yo'nalish bo'yicha. Men-ku, azaldan shunaqaman, hamma narsani tadqiq qilib, tajribada ko'rishim kerak, lekin siz ham, qani, nimasi qiziq ekan, deb qiziqib turibsiz-ku, to'g'rimi?

Bir marta shuni qaysi manbadan topib o'qisam, yo qaysi kassetada sal bo'lsa ham, ishora chiqib qolsa, deb o'ylab zinadan chiqib kelayotgan edim, lop etib chiroq o'chib qoldi. Shu payti yo sal o'tdimi, bilmay qoldim, birov meni qattiq quchoqlab oldi, qaynoq nafasi yuzimga urilganidan, hali gapirmasidanoq tanidim – birov emas, xizmatchi g'uliya. Sim-siyoh qorong'i-yu, lekin ko'nglim charaqlab ketdi, ana shu ko'ngil yorug'ligida o'zimga yopishib olgani uchun qizning bor go'zalligini, butun qaddi-qomatidagi chiroyini his qilib, sezib turibman. Entikib ketdim. Yo'q, hirs ma'nosida emas. Yana shunaqa xayolga boryapsiz-a? O'zi nafasim tiqilib, hansirab qolganman. Bo'ynim qirs etib sinib ketay deydi. Tavba, qiz bola ham shunaqa kuchli bo'ladimi, astag'firulloh, nozik qo'llari bo'ynimga temir changakdek osilsa-ya! Yuzini yuzimga bosib, shivirladi, shivirlamadi, qulog'imni noz bilan suyib erkalatdi. Eh, so'z topolmayapman, gungurt qorong'ida shunaqa suluvning bag'rimga yopishgani shunchalar hayajonli bo'ldiki!.. Siz yana o'ylagandirsiz, yaxshi ko'rganidan chiday olmay, oxiri «Sevaman!» deb entikkan, «Meni bir yoqlarga olib keting!» deb dilini izhor qilgan deb. Yo'-o'q. Siz ko'rgan kinolarda, o'qigan kitoblaringizda shunday, unga ham biz yozuvchilar, masalan, o'zim ham aybdor. Sizni qiziqtirish uchun har baloni yozaveramiz.

Mana, do'stim mening g'oyalarim asosida yozgan o'sha ro'monida ham shunaqa ustomonlik, ya'ni muhabbat tasviri deb, hirsli yo'lni tanlagan. Unda aynan shunday qiz yerga ibo bilan boqib, «Sizni sevib qoldim», deydi-da, keyin bog' oralab qochib ketadi. Topdingiz, o'zimizning kinodagidek, uni quvlashi kerak, ha, quvlaydi ham, yetay deydi, qiz ishva qilib qochadi, qo'lidan ushlay deydi, qiz noz bilan o'zini tortadi, ikkalasi bog'da rosa quvlashmachoq o'ynaydi, oxiri qahramonimiz ushlab oladi-da, hu boshda ham ushlab olsa bo'lardi, lekin cho'zgani zavqli-da, xullas, qizning g'unchadek ochilgan lablariga labini bosadi. Ana sizga muhabbat! Bog'ni aytmaysizmi, o'rikzor emish, bahorda qiyg'os gullagan, daraxtlar gulga burkangan, ko'm-ko'k maysalarning ustiga ham oppoq gulbarglardan gilam to'shalgan, tuf-ey, yana mayna sayragan; majnuntolda ham mayna, o'rik shoxida ham mayna, shu qushdan nima baraka topgan ekan,

bilmaysan. Yana bu o'rikzor, chaqirim-chaqirim cho'zilgan, qiz bilan yigit mashinada shuncha yursa ham oxiriga yetolmas emish. Yozuvchi bu tasvirni sevgining nihoyasizligini urg'ulayman deb kiritgan-u, lekin men darrov tagini bilib oldim. Avval, barakalla, ancha ta'sirli manzara o'ylabdi deb turgan edim, lekin o'rikzorning chaqirim-chaqirim cho'zilib ketganini o'qishim bilan misi chiqdi: bu o'rikzorlar G'ulistonniki emas, o'zimizning Namanganniki! Aybdor o'zim, ha, buni ham men aytib berganman. Bir marta, ko'klamda Namanganga borgan edim. O'rik ayni gullagan payt. Rulda, yo'l bo'yi o'rik gullaganini tomosha qilib ketdim. Odamlarning hovlisida, tomorqasida bittadan, yo to'rtta-beshtadan to'p bo'lib gullab yotgan o'rik odamga boshqacha kayfiyat beradi. Ayniqsa ko'm-ko'k dala yo o't bosgan tepaning ustida gullagan yolg'iz o'rik xuddi oppoq kelinlik libosiga o'ralib, yana boshiga fatasini ham tashlab olgan farishta qiz oyog'i yerga tegar-tegmas uchib kelayotgandek, odamning ichi hovliqib ketadi. Dovonda, tog'dagi o'riklar hali gullamagan, lekin dovon oshib tushib, sal yurgandan keyin Pop hududiga kirganda, hayratdan hayqirib yuboray dedim. Mashinada bir o'zim, tovushimni hech kim eshitmaydi, keyin hayqirdim ham. Nima deganim esimda yo'q, lekin hayajonda rosa tovush berdim, yo'q, ashula aytmadim, shunchaki, yovvoyi, tizginsiz na'ra tortaverdim, o'rikzor ham tugamadi, bir-biriga ulanib ketaverdi, haligi farishta kelinlar to Namangan shahriga etib borgunimgacha tizilishgan, galalashib o'ynagan, «no'l to'qqiz»ni quvlagan! Tomog'im bo'g'ilib qoldi. Yurtimizda shunday go'zal manzaralarni ko'p ko'rganman-u, lekin ko'klamda Namanganning o'rikzorlari shunaqa zo'r bo'lishini, yana shunaqa bir-biriga ulanib, bu qadar cho'zilib yotishini bilmagan ekanman. Qaytishda bir o'zim kelgim kelmay, xayolimda bir qizni ham o'tirg'izib olgan edim. Uni ham shu go'zallikka oshno qilay desam, havo quyayotgan, osmon qop-qora bulut, o'riklar ham chiroyini yomg'ir tumaniga burkab olgan, lekin, bari bir, bu ham chiroyli edi, ammo qiz junjikkanidan atrof bilan ishi bo'lmadi. «Yaxshi ham mashinangiz ichi issiqqina», dedi. Bu yo'llardan ko'p o'tganidan o'rikzorlar unga o'rganish bo'lib qolgan ekan-da. «Qarang, juda chiroyli, a?», desam, «Ha, - dedi o'rikzorga emas, menga qarab. – Oftob chiqqanda ko'rsangiz edi, yashnab ketadi». «Hozir ham

yaxshi», dedim hafsalam o'lib. Qiz shashtimni pasaytirib qo'yganini sezdimi, ikki qo'li bilan o'ng qo'limni ushlab, boshini yelkamga qo'ydi. «Hay-hay, ruldaman», dedim... Bulutli osmon, yomg'ir, dala-tuzlarning ustiga xuddi namxush harir parda tortilgandek, yog'in tagida oq ko'ylaklari ivib, ibo bilan egilib turgan kelinchaklar safi va shuvillab uchib borayotgan issiqina «no'l to'qqiz» ichida o'zing, yelkangga esa bir qiz boshini qo'ygan, mashinaning peshana oynasidan boshqalari terlagani uchun xuddi faqat oldigina ochiq chimildiqda o'tirib ketayotgandek... qayerda shunday bemalol, ko'ngilxotirjam yurasan, yana nimani xohlasang, shuni o'ylaysan, orzu qilasan – albatta, o'z vataningda-da.

Qaytishimda shunaqa bir shirin xayol surganman, unga o'zimning ham ishongim kelib yozuvchi do'stimga aytib bergan edim. Lekin aniq Namangan, deganman. Namanganga borganimning G'ulistonga hech ham aloqasi yo'q. U bo'lsa, shu manzarani G'ulistonga yopishtiribdi, qiz bilan yigitga quvlashmashoq o'ynatibdi, ularni o'pishtiribdi, o'rik shoxida maynani sayratibdi. Tupuklasa ham yopishmagan. Gullagan o'rikning shoxida mayna nima qiladi? U shu vaqti odamlarning hovlisida yo dalada bir buzg'unchilik qilib yurgan bo'ladi. O'rikzorga u faqat o'rik pishganda cho'qilagini boradi, bu ablah manfaatsiz yurmaydi. Adashib borgan bo'lsa ham, oshiq bilan ma'shuqaning muhabbatiga madhu sano o'qib sayramagan, hali o'rik pishmabdi-ku, nimaga keldim deb qaqshagan. Keyin, aytdim-ku, borishda bir o'zim edim, kelishda xayolimda bir qiz ham bor edi, lekin yomg'ir yog'ib turgani uchun mashinani to'xtatib, chiqib, o'rikzorda quvlashmashoq o'ynashni o'ylashga vaqt ham, xohish ham yo'q, kechirasiz-u, qizlarni quvlamasak ham, dilini tushunadigan ayyomdamiz.

Ko'ryapsizmi, yozuvchi do'stim jiddiy masalalarni ana shunaqa qilib bachkanalashtirib yuborgan. To'g'ri, chiroq o'chganini unga aytmaganman, aytish ham nomardlik, lekin uni ro'monda yigit bilan qizning o'rikzorda quvlashmashoq o'ynab, shuni tasvirlaganda ishqiy savdodan nari o'tolmagani, bu yigit yana men bo'lganim ensamni qotiradi. Xizmatchi qiz bo'ynimga gapimni boshqalar eshitmasin deb osilgan, unaqa ma'noda emas. Yo'q, yolg'on bo'lmasin, shu ma'no

ham bor edi, qiz bola bekordan bekorga quchoqlamaydi, yurak sirini to'g'ri kelgan yigitga shivirlayvermaydi, ammo buning zamirida boshqa gap ekan-da. Qiz qulog'ingga nima deb pichirladi, deb so'rang. «Rostdan tush ko'rdim, - dedi u hayajonda, men ham quchoqlab olganim uchun, og'ushimda titradi. – Tushimda zanjirsiz yurgan ekanman». Ana, eshitdingizmi, naqadar dahshat! Bular uchun zanjirning nima ekanini shuncha gapirdim, endi tushundingizmi qizning nimaga qaltirab ketganini? A? U bechoraga haqiqatan ham vahima-da.

Nima taskin berishni bilmay, sochlarini siladim, qorong'ida ko'rinmasa ham labini topdim. Xullas, qo'limdan kelguncha, bor kuchim bilan mushtiparning ko'nglini olishga, tinchitishga harakat qildim. U esa battar qaltirab, «Siz bilan... siz bilan yurgan ekanman, qo'l ushlab», dedi. «Mayli, mayli, men yoningdaman», dedim. «Juda qo'rqib ketyapman, juda ham!» dedi. Men ham qo'rqib ketdim, agar buning tushini bilishsa, tushida qo'limdan ushlab olgani ham yashirin qolmaydi, keyin... u mening emas, men uning tushiga kirganman, kirganimdan bexabar edim, deb o'zingizni oqlab oling-chi! Lekin buni qizga aytmadim, mardlik qildim, gapirmay, mahkamroq og'ushladim; u meni quchoqlagan, men uni, bag'ri bilan bag'rim bitta bo'lib ketganidan zanjiri ham shiqirlamaydi, atrof esa sim-siyoh, go'yo butun dunyo tubga cho'kib ketgandek. Yo'q, go'yo ikkalamizning ichimizga qamalib olib, g'ulu solayotgandek. «Hozir hamma gapimni aytib olay, - qizning shivirlashi past, mendan boshqa hech bir jonzot eshitmaydigan xirgoyi ashulaga aylandi. – Zanjir taqmagan ekanman, lekin bemalol yuribman. Siz qo'limdan, yo'q, men sizning qo'lingizdan ushlab olgan ekanman. Uchgim kelayotgan emish. Tez-tez aytib olay, chiroq yonsa, aytib bo'lmaydi. Shunaqa yengilman, qo'lim, oyoqlarim erkin, yugurgim keladi, qo'llarimni silkitsam, xuddi qanotga aylanadigandek... Hamma narsadan voz kechgim keldi lekin...»

Shu payti yarq etib chiroq yonsa! Uning quchog'imdan uchib chiqib, o'zini yonboshga otganini bilmay ham qoldim. Faqat menga hurkak, yot bir nigoh bilan qarab qo'yganini ko'rib ulgurdim, xolos. Nima bo'ldiyu nima qo'ydi, aqlim etmadi, mening ham quchoqlaganimga yuragi qinidan chiqib ketdimi yo chiroqdan

cho'chidimi, ishqilib, juda kutilmagan ish bo'ldi. Xuddi meni achomlab, bo'ynimga osilgan qiz boshqadek, misoli hozirgina tushdan ko'zimni ochgandek turaverdim.

Pastga qaytib tushib, hovliga chiqdim, chunki endi xonaga sig'mas, televizor ko'rishga ham mutloq xohishim yo'q edi.

Hech kim bo'lmasa, bu zanjirbandlarni ko'rmasang, dovu daraxt qadrdon, ko'lankalari qandaydir mehribon, yulduz bilan bitta osmon esa bir himoyachi soyabon edi. Avvaldan yozning osmoniga tikilishni yaxshi ko'raman, eng birinchi Temir qoziq – Banotunna'ash, Dubbi akbarni topaman, shu nomlarni yaxshi ko'rganimdan tez-tez takrorlab ham yurar edim; Etti qaroqchi ham deyishadi, bu ham odamni sarguzashtga tortib ketadi, yulduzlar xaritasida u Katta ayiq turkumi deb atalgan, ovqat suzadigan cho'michga o'xshaydi; keyin undan chiziq tortib Temir qoziq, Oltin qoziq ham deyiladi, uni mo'ljal olib, Kichik ayiq turkumini topaman, u sut sotishda ishlatiladigan litrlik cho'mich, dumi - cho'michning dastasi, keyin Ajdahoni, keyin qo'shpalla tarozi - Mezonni belgilayman. Bu yerda, bilmadim, boyagi hayajonda hali ham ko'zim tinishi o'tmaganmi yo begona joyda turganim uchunmi, yulduz burjlari nigohimga tutqich bermadi, hammasi o'zgarib ketgandek edi. Avvaliga qo'rqdim, boshqa sayyoraga tushib qolgan emasmanmi deb. Keyin, mashinada kelganimni eslab, taskin ham topdim. To'g'ri-da, «no'l to'qqiz» havoda, yana kosmik tezlikda uchmaydi-ku. Ha-ey, burji aniq bo'lmasa bo'lmas, yulduzlarning o'zi bor-ku, xuddi meni ham tanigandek charaqlab turibdi-yu, deb qo'l siltadim. Shu vaqti bitta yulduz uchib, shu gaping to'g'ri degandek ham bo'ldi. Ancha yengil tortdim. Ha, ana shunda keliningiz esimga tushdi. Uncha aniq xayolimga keltira olmadim, juda uzoqda tuyuldi, shunga boyagi qiz bilan quchoqlashganimni o'zim yaxshi emas, deb o'yladim-u, lekin vijdonimning o'zi jichchagina bezovtalandi, xolos. To'g'ri-da, tashabbus mendan chiqqani yo'q, qizning o'zi intilib turibdi, keliningiz esa, aytyapman-ku, rostdan ham juda uzoqda, xuddi hali unga uylanmagandekman ham. O'zi yo'qning ko'zi yo'q, degani ham shu bo'lsa kerak. Lekin men ahloqi buzuvchilardan emasman, buni ham bilib qo'ying.

Shu, zanjirband bo'lgani uchun bu bilan yurish gunohmi, yo'qmi, uncha bilolmay ham turibman, balki muhabbat ham emas, shunchaki chuqur bir rahmdir. Keyin, e'tiqodi tamomila boshqa bo'lgani uchun g'uliy qiz bilan dildorlik qilish gunoh emasdek ham tuyuladi. Xotinga ham undan bir umr qo'rqib yashayman deb uylanmaysan-ku.

Do'stinga raddiya

Men shu raddiyani, ya'ni noroziligimni alohida aytmam ko'nglim joyiga tushmaydi. Chunki do'stimning ro'moni katta tirajda bosilgan, yana eshitdimki, hozirgi kunda qiziqib o'qilayotgan emish, bu satrlarni o'qiyotgan siz ham uni o'qigansiz, albatta. Men ommaviy mashhur asarlarga uncha ishonmayman. Chunki ko'pi o'rta-miyona kitobxonga mo'ljallab yoziladi, o'rta-miyona kitobxon esa haqiqatan ham omma. Sizni aytmayapman, bir kishi omma bo'lolmaydi. Ammo o'sha ommani ham aldash insofdan emas, yozuvchi hamma yerda, hatto fantastik asar yozganda ham haqqoniylikdan chekinmasligi shart deb hisoblayman. Mening fikrim shunday, qat'iy. Do'stimning G'uliston haqidagi ro'moni esa, unda mening g'oyalarim asosidaligini to'g'ri ko'rsatgani bilan, o'zi noto'g'ri, G'ulistondagi hayotni buzgan, syujetu tasvirlari – hammasi yasama. Bitta misol, unda qahramoni qizi bilan G'ulistonning ichida sayohatga chiqadi. Hu, qizni talashgan haligi raqiblari mahv bo'lgach. Avval poezdda bir shahargacha boradilar, keyin shaloq avtobusda yana bir tuman markazigacha, u yerdan nari yoqqa, ya'ni bular boradigan manzilga ulovlar ketib bo'lgan bo'ladi. Bularning qorni och, o'sha yerda, yo'l bo'yidagi somsaxonadan somsa olishsa, juda sho'r ham achchiq, ya'ni serqalampir ekan, bir amallab yeb olib, choy ichaylik deyishsa, choyxona yopiq, yopiq ham emas, o'zi yo'q, hatto sovuq suv ichaylik desa, shu ham topilmabdi; esingizdami, bizda ham sho'ro payti ma'danli suvlar hozirgidek hamma joyda bemalol emas edi, timsoli shundan-da. Keyin qahramonimiz o'sha yerda otashin bo'lib, somsapazga nutq so'zlab, uning ko'zini ochib qo'yibdi. Somsapaz uning xitoblaridan hayajonga tushib, hatto shu paytgacha qizga hirs bilan termulgani uchun uyalib ham qolibdi, xullas, u ham qahramonimizning muxlisiga, izdoshiga aylanibdi, zanjirga qarshi kurashishga ont ichibdi. Keyin bular bir «Kamaz»ga o'tirib, manzilga otlangan ekan, yo'lda mashinaning balloni teshilib, to'xtabdilar. Bu yer juda bahavo, orombaxsh ekan, mingmi, ikki mingmi yillik chinor bor ekan, bir vaqtlar tanasining kavagida savodsizlikni tugatish kursi ochilib, g'uliylar o'qigan bo'lsa, hozir kelinchakning uyiga o'xshatma qilib yasatib qo'yilgan, qahramonimiz u yerga kirib, qizining qo'lidan ushlab o'tiribdi, labidan niyat bilan

bo'sa olibdi. Ha, shu yerning o'zida bir buloq ham bor ekan, buloq suvida o'ynoqlab yurgan qorabaliqlar muqaddas bo'lib, qahramonimiz bilan qizi ularga non ushatib tashlasa, baliqlarning hammasi xuddi bularga baxt tilab kelgandek buloq labiga to'planib kelibdi. Qahramonimiz qizining belidan quchoqlab, ozodlik haqidagi xayollarga cho'mibdi.

Bilyapsizmi, qayerdan ko'chirganini? Ha, shu o'zimizning Sayrob! Chinori ham, chinor kavagidagi kelinchakning uyi ham, buloq, undagi qorabaliqlar ham Sayrobniki. Buni ham o'zim aytganman. Lekin men Sayrobgaga hech qanaqa qiz-piz bilan bormaganman, Yonimda ikkita do'stim bor edi. Do'stlarim bilan Qumqo'rg'ondagi bir do'stlarinikiga borayotgan edik, shunda haqiqatan ham «Kamaz»ning balloni teshilib, Sayrobda yamatganda o'sha chinorning kavagini ham tomosha qilganmiz. Keyin «Kamaz» bilan Sherobodgacha borib, tushib qolganmiz-da, kechqurun yettidan o'n birgacha yo'lmoshin poylaganmiz, ne sarguzashtlar bilan o'n ikki yarimlarda Qumqurg'onga kirib borsak, do'stlarimning do'sti uyida yo'q ekan, xotini chiqib bizdan oldin boshqa mehmon kelganini, u odam mehmonni olib akasinikiga ketganini aytdi. Chunki ishdan bo'shab, pulsiz juda siqilgan, yana mehmon aytib qo'ygan, xarajatni cho'ntak ko'tarmaydi, noilojdan mehmonni olib, akasinikiga o'zi ham mehmon bo'lib jo'nagan ekan. Ustiga yana biz ham boribmiz, yo'lga oxirgi pulimizni sarflab, qaytishga uning o'zidan olarmiz deb. Ana, tomoshani ko'ring. Mayli, buning o'zi alohida asarga arziydi. Ha, Qarshigacha poezdda bordik, u yerdan Surxondaryoga ketadigan avtobuslarning hammasi ketib bo'lgan ekan, qanaqadir bir ekspedisiyaning eski avtobusi kelib qoldi, shu bilan Dehqonobodga etib oldik. To'g'ri, ochqab ketgan edik. Somsadan boshqa hech narsa yo'q, bu ham sho'r ekan, noiloj edik, shu payti qatorlashib to'rt «Kamaz» kelib qoldi, hammasining tumshug'i ilma-teshik, faralari sinib tushgan, Afg'onistonga qatnaydigan kolonna ekan, harbiy askarlar, praporshchigi «Agar askarlarim bilan gaplashib, uxlab qolgani qo'ymasanglar, marhamat», deb uchovimizni uchta haydovchi yoniga o'tirg'izdi. O'zi ham yuzingda ko'zing bormi deb bosar ekan bular, Chak-chakdan shunday uchirib

haydashdiki, Sayrobga borganda bittasining balloni teshilib to'xtaganimizda, «e-e, xudoga shukur-e», deb yubordik.

Men buni hangomani qizitish uchun, bir latifadek qilib aytganman. Keyin Sayrobda to'xtab o'tganim ham boshqa edi. Buning ham ma'shuqa qizga sira aloqasi yo'q. Ko'p yillardan keyin, bu mustaqillik payti, Sayrobda o'zimiz to'xtab, haydovchim bilan kabob eb olib, baliqlarga non berib turganimizda bir pichoqchi, qo'lida tuyatovuqning qanotiday qilib besh-olti pichoqni tig'idan ushlab yoyib olgan, yopishdi-qo'ydi, bizning pichoqdan oling, ziyorat joy, tabarruk, deb. U desam, u dedi, bu desam - bu, ishqilib, temirtagini o'tkazsa. Men ham yo'q, deb turaverdim. Pichog'ining uchini chertib ko'rsatdim, tirnoqladim, po'lati yaramaydi, dedim, pichoqchi ketmonday soqol qo'ygan, jundor, darveshga o'xshagan odam, molining narxini etti mingdan besh mingga, undan to'rt mingga, tushib-tushib, oxiri «Irimiga bir narsa bering, xay, keling, men sizni bir duo qilay: iloyo, hokim bo'ling», dedi. Men kuldim-da, «O'zi hokimman-ku, ko'rmayapsizmi, mana, galstuk taqqanman, ana, xizmat mashinasi», dedim. Pichoqchi ishonib, bir zum dovdirdi-da, darrov gap topdi: «E-e, keling, bo'lmasa, katta hokim bo'ling», dedi. «Katta hokimingiz qanaqa?» desam, «Hamma hokimlarning kattasi-da», dedi, tasavvuri shundan nariga o'tmas ekan. Yana kulib yuborgan edim, «E-e, uka, odamning shuncha tavallosi ming so'mga o'tmaydimi? Shuyam bo'lmasa, mang, sizga shu, yo'lda qovun-povun so'yib yersiz», deb pichog'ini qo'limga tutqazdi. Ishqilib, o'tmas matohini menga o'tkazdi-da. Ming so'm bergan edim, indamay tumtaydi, yana ming so'm qo'shgan edim, yuzi yorishdi. Shu pichoq hali ham bor, hech narsaga o'tmagani uchun ishlatilmaydi ham, shuning uchun turibdi.

Bu voqeani yozuvchi do'stinga pichoqchining molini o'tkazish uchun artist bo'lib ketganini kulgi uchun aytgan edim, xolos. U esa buni tushirib qoldirgan, ishqiy sarguzashtga zo'r bergan. Yana somsapazdan qahramon yasaganini aytmaysizmi! Bechora bozori qaytib, oldidagi bir tog'ora somsani kimga o'tkazishni bilmay, xunob bo'lib o'tirgan edi, hatto somsang sho'r ekan deb, qaytarib berishga ham rahmimiz keldi. Yeyishga boshqa hech narsa ham topilmadi-da. Ro'monda bo'lsa

u shu tumanda zanjirga qarshi kurashadigan yashirin tashkilot yetakchisiga aylanadi, g'uliylarga somsa yedirish bahonasida qahramonimizning fikrlarini targ'ib qiladi. Mantiqsizlikni qarang, somsapazda shunaqa tashkilotchilik qobiliyatiyu otning kallasidek yurak, yana odamlarni ergashtiradigan dono aql bo'lsa, tandirning tepasida tutun yeb, yana chang bosgan Dehqonobodda qolib ketar edimi? Hech bo'lmasa, somsapazlarning kattasi bo'lib, karillab yurmaydimi? Ko'ryapsizmi, bitta tandir bilan kunini zo'rg'a ko'rib yurgan oddiy somsapazdan soxta qahramon yasagan. Ha, keyin G'ulistonda «Kamaz»ga balo bormi?

Bunisi ham mayli, lekin men yurtimizning chiroyli-chiroyli joylarini boshqa mamlakatga, yana bizga teskari bo'lgan G'ulistonga yopishtirishga tamomila qarshiman. Biz o'zimizni qadrlashni o'rganishimiz kerak. O'zimizdagi go'zal narsalarni ko'z-ko'z qilishni bilmaymiz-u, yana ularni G'ulistonniki qilib ko'rsatsak, endi bu nonko'rlik-da. Ha, yaxshi emas. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, deb shu uchun aytadilar. Bu, axir, suvning emas, o'zingning qadring-ku. Shuning uchun xudoga shukr qilaman, ko'p narsalarni aytmaganimga. O'zim yozarman deb asrab yuribman-da. Mana, masalan, Xorazmga yengil mashinada borganman, lekin o'zimirida emas. Buxoroning Olotidan cho'lu biyobon boshlanadi, ungacha ham bor qum barxanlari, lekin Olotdan keyin xuddi dunyo bir xil kenglikdan iboratdek tuyuladi. Bilmagan odamning yuragi siqiladi, e-e, xudo, bu cho'ling qachon tugar ekan, deydi. O'zi cho'l emas, qum sahrosi, faqat yakkam-dukkam buta ko'p, nuqul do'nglik, yo'l esa tor, yana ko'p joyini yarmigacha qum bosgan; ketaverasiz, tepaliklar tugamaydi, shunisidan oshib o'tsangiz, qishloqqa, odamlar yashaydigan joyga kirib boradigandek ko'zingiz to'rt, oshasiz, yana xuddi shunday do'nglik, orqasida hu uylar ko'rinish beradigandek bo'laveradi. Odamning yuragi tors yorilib ketay deydi. Lekin bilgan odam maza qiladi: jazirama bo'lsa ham toza havo, ko'krakni to'ldirib nafas oling, mashinani to'xtatib tushib, qumga tikilsangiz, undagi hayot asarini ko'rib ko'zingiz hayron: chumolilar g'imirlaydi, yana qanaqadir mayda hasharotlar, yomon chaqqon kaltakesak ko'rinib qoladi, xuddi tayoqning uchiga oq g'uncha yopishtirib qo'yilgandek

gullaydigan bir beli yo'g'on karrakka o'xshash o'simlik ham bor, osmonda esa qoraqush uchadi, burguti shudir, yaqin kelmaydi, juda uzoqda-da; keyin ichkariroqda, o'qiganman, tovushqon, qoraquloq, yovvoyi cho'chqalarning ham umri shu qum ichida kechadi; echkamar bo'lar ekan, ilon, qoraqurt. Qani endi, vaqtingiz bo'lsa, qum kechib piyoda ketsangiz. Unaqa tizzagacha botmaysiz, qumning usti ting, bemalol yursa ham bo'ladi. Saksovulni aytmaysizmi, shu haqda juda ko'p o'qib, o'zini endi ko'rib turganingiz uchun, e-e, qaranglar-ey, haqiqiy saksovul, ha, kitoblarda yozilgani shu-ku, deb qiyqirib yuborasiz. Quchoq-quchoq qilib olib ketay deysiz-u, lekin olib borganda nima qilasiz, saksovul sahroda saksovul-da, uyda o'tindan boshqasiga yaramaydi. Agar ham saksovulning cho'g'ida qaynagan choydan ichishga ko'nglingiz ketmasa. Lekin odam bari bir hayajonga tushadi, albatta.

Yaxshi ham yozuvchi do'stinga shularni aytmaganim deyman. Bo'lmasa, bundan ham bir narsa to'qib chiqaradi. Chinor masalasiga kelsak, menda boshqasi ham bor. Bu – Kosonsoydagi chinor. Ko'rmaganmisiz? Ey, juda qadimiy, Sayrobdagidan ham ko'hna, hovuzning o'rtasida bitta o'zi to'p chinor bo'lib qolgan, mo'jazzgina o'rmon! Buni o'zim uchun asrab yuribman, biron katta asar yozsam, kiritaman deb. Yozuvchi do'stim yaxshi ham bundan bexabar. Chunki u asar qilaman deb, eshitganiga o'zi bilganicha bir narsalarni qo'shadi-da, oqibatda hammasini buzadi.

Mana, endi raddiyamning asosiy qismiga, ya'ni sababiga keldik.

Uning qahramoni G'ulistonga borgandan keyin darrov buzg'unchilikni boshlab yuborgan. Ha, g'irt buzg'unchilikni. Ko'radiki, odamlarning hammasi zanjirband qilingan, xalqning ahvoliga chidash juda og'ir, bola-chaqa demasa, g'uliylar o'zini osib yuborishga ham tayyor. Faqat yo'l ko'rsatadigan bir yo'lboshchi yetishmaydi, xolos. Bunimiz o'sha tayyor yo'lboshchi bo'lib borib qoladilar-ku. Uni ham bir qiz sevgan, ham butun xalqning muhabbati unda. G'uliylar uning orqasidan to'da-to'da bo'lib ergashib yuradi, kechalari ham xufiya yig'ilishlarga aytib ketishadi, hatto u qiz bilan dilguftorlik qilishga ham vaqt topishi qiyin. Ora-sira o'pishib

turadi, chidamagan paytlari, mashinasiga o'tirib, hayyu huyt degancha, o'rikzorgami, toqqami yo'l oladi. Albatta, ma'shuqasi bilan. Ma'shuqaning ham turumi yo'q, qayoqqa yetaklasa, shu yoqqa ergashib ketaveradi. Xuddi majburlab yodlatgandek, odimda qahramonimizga sevgi izhor qiladi. qiz bola-ya? Zanjirband qizga sharmu hayo, odob kerak emasmi? Yozuvchi o'zini buncha yaxshi ko'rmasa! Axir, qahramonining tagida o'zi yotadi-da.

Bu ham mayli-yu, lekin uning birpasda g'uliyarning ko'zini ochishi, butun mamlakatda ozodlik harakatini boshlab yuborishiga nima deysiz! Yashirin majlislar, xufya rejalar, halqa-halqa tarmoqlanib ketgan qarshilik tashkiloti; qahramonimiz goh bekinib yuradi, uning orqasidan yuzlab voqeanavis qo'yilgan, goh shuncha ayg'oqchi iziga tushganiga qaramay, haligidaqa chaqirim-chaqirim cho'zilgan o'rikzorlarda ma'shuqasi bilan oshkora quvlashmachoq o'ynaydi, xuddi yosh bola suvga chanqagandek, entikib o'pishaveradi. Ishqiy sahnalarni shunaqa cho'zadiki, bu o'zi o'pkasini qo'ltiqib qiz bilan chopib yurishdan boshqa ish ham qiladimi, deb o'ylab qolasan. Yo'l boshchilik qilishga qachon ulguradi, deb boshing qotadi.

Firt, g'irt, g'irt yolg'on, o'tirik, qog'ozbo'yamachilik! Kim uni o'pishtirib qo'yadi? Yana ochiq havoda, o'rikzorda! O'zlari bekingani bilan mashinasi ochiq ko'chada-ku. Quvlashmachog'-a! Uchmabsizlar-da, a! Nima, o'rikzor beegami? Yovvoyi, o'zicha o'sib yotibdimi shuncha o'rik? Hech kim qaramaydi, a? Bog'boni yo'q! Bitta emas, o'nta bordir. Chaqirim-chaqirim cho'zilgan bog'larni kamida yuzta g'uliy parvarishlar, axir. Bir g'uliy qizning zanjir taqmagan mosuvo bilan qiyqirishib quvlashib yurganini ko'rgani zahoti kerakli joyga etkazar. Etkazmasa, o'zining boshi ketadi, ko'ribsan, nimaga o'z vaqtida, o'sha zahoti aytmadim, deb. Har bir o'rik, o'rikning har bir yaprog'igacha ham eshitadigan, yozib oladigan uskunachalar qo'yilgandir. Ko'rib keldim-ku men. Bu bo'lsa, bo'liq maysa ustida, qizining chumoli belidan quchoqlagancha moviy osmonga termilib, zanjirsiz kelajak haqidagi xayollarini so'zlab berar ekan-da, qiz ham bu savdoyiga jo'r bo'lib, kuylagandek ohista so'zlar emish. Ol-a! Somsapazni yo'ldan urib,

kurashchilarning yetakchisiga aylantirar emish! E tavba, qog'oz hammasini ko'taraverar ekan-da. Tandir-tog'orasi bilan qo'shib olib borib tiqib qo'yar! Yashirin tashkilotlar, tarmoq otib ketgan halqalar! Tushini kuzatadiyu! G'uliyaning qanday qo'rqqanini aytdim-ku sizga. Tush ko'ribdi, tushida zanjirsiz yurgan ekan, endi uyg'ongandan keyin ham ikki dunyosi qorong'i, ichiga o't qo'yib yuborsangiz ham yorishmaydi, bilib qolishadi deb. Ha, bilmoq ham gapmi, qizning o'zi borib aytib beradi, shunday-shunday, men tushimda shunday gunohga botibman, yo'q, kechirilmas jinoyat qilib qo'yibman deb. Hali mening ham yoqamdan olishlari mumkin, zanjirsiz bo'la turib, asl g'uliya qizimizning, yana maxsus xodimamizning tushida nima qilding, deb. Ro'monning qahramoni bo'lsa, uchrashuvlar qiladi, yashirin majlislar o'tkazadi, otashin nutqlarni gapiradi, ovozini chiqarib! Tushingni suvga ayt, agar suv ham o'sha bir qoshi oq g'uliyning mahkamasiga qarab oqib borib etkazmasa, uning tubida ham yozib oladigan uskunalar bo'lmasa! Heh, po'konidan yel o'tmagan, deb shuni aytadi-da. Chuchvarani xom sanabsan!

Ha, voqean, G'ulistonda chuchvaraning o'zi bormi, yo'qmi, e'tibor qilmabman. Hamma xamir ovqatlarimiz u yerda bisyor, lag'mon ham bor, lag'monki bo'lgandan keyin, chuchvarani ham bilishsa kerak lekin. Shu chuchvarani kiritib, bir narsalarni to'qiganda ham mayli, indamas edim, chunki G'ulistonning taomlari o'zi juda qiziq. O'zi emas, suzilishi. Shuni alohida aytib berishim kerak, albatta. San'at bu, san'at. Siz buni eshitmagansiz ham, ko'rmagansiz ham. Men ham kutubxonada o'qib bildim. Chunki qozonning tepasiga borishga vaqtim ham, imkonim ham bo'lmadi. Qiziqib borganimda ham biron g'uliy oshpaz menga qaramas, gapirmas, aksincha, kapkiri bilan solib, keyin, mehmon bilan munosabatga kirishgani uchun, so'ngra o'zi jazoga uchrashi ham hech gap emas edi. Shuning uchun och qornim - tinch qulog'im, jonu dilim kitob deb, qomusning jildlariga kalla tashladim.

G'ulistonning asosiy san'ati

Eng avvalo, aytib qo'yay, G'ulistonda taomlarni qanday tayyorlashlari haqida gaplashmaymiz, go'sht - hamma yerda go'sht, yog' - hamma yerda yog', kartoshka-piyozu sabzi, makaronu unlar ham shu, faqat ularni kim eyishi istisno: bizda odamlar, ularda g'uliylar. Ha, qanday yeyish ham... Bilib olaverasiz, qiziq gaplar bor.

O'qiganim manbalarni bir-bir ro'yxat qilishim shart emas, hozir yozayotganimda, meni boshqa dard qiynaganidan, ko'pi esimga ham kelmayapti. Mohiyatini aytaman. Eng avvalo, ularning bizdan farqi. Biz ovqat tayyorlayotganda faqat uning yaxshi chiqishini o'ylaymiz, to'g'raganda ko'zimizni achishtirib, yoshimizni oqizsa ham piyoz solamiz, kimqayoqdan terib kelib, keyin Chorsuda sotiladigan ziravorlar, zirklar, nimaligini o'zim ham bilmayman, qanaqadir taomlarga zanjabil degan narsani qo'shsa, anvoyi bo'lar emish, anvoyisi qanaqa bo'lsa... Osh yegimiz kelsa, uyimizda o'sha kuni hayit, har kuni osh yesangiz – har kuni bayram, og'aynilar bilan choyxonada o'z qo'limiz bilan tayyorlaydigan bo'lsak, o'-o', buning gashti! Avval bozor qilamiz, masalliqning ham eng sarxillarini tanlaymiz, quyruqni qora qo'chqornikimi yo oq qo'chqornikimi, deb albatta so'raymiz, pulni ayamaymiz lekin, so'ng choyxonada besh-olti jo'ra chunkillashib, sabzi to'g'raymiz, go'sht maydalaymiz, sarimsoq piyozni bir qavat po'sti bilan toshtomirini ajratib olamiz, burnimizni shinqillatib tortib, piyozni parraklaymiz, gasht-da! - birpasda jaz tayyor, dasturxon ustida erkaklarning jiddiy ishini boshlab yuboramiz

Osh! Kuningdan bir kuning qolsa, palov ye, pulingdan bir puling qolsa, palov ye! Qadimning odamlari yomon aqlli oshxo'r bo'lgan-da. Osh biz uchun hozir ham hamma narsa. Ayniqsa-chi, o'rtaga olingandan keyin, ichida qaynab, dimlanib, quyruqni to'yib simirgan qalampirning uch tomonidan mag'zini siqib chiqarib, oshamning ustiga jichcha tegizib qo'ysangiz! Odamning burni uchigacha ter chiqarib yuboradi-ya! Dahshat! Xolesterindan qo'rqadigan yevropaliklar ham dosh berolmaydi bunga, ha, o'zim ko'rganman, bilagigacha yog'ini oqizib, qo'li bilan

yeganini. E-e, oshna, biz allaqachon qoshiqda olishga o'rganib ketganmiz, hozir hech bir inson qo'lini, tag'in yuvilmagan panjshaxasini oshga botirmaydi, desam ham eshitmagan. «Orient, orient, o-key!», deb; qo'y, deganga qaramay, bilagini ham yalagan. Bu ularning tilida «Sharq, sharq, qoyil!» degani. Haqiqatan ham osh pishirish san'atimizga o'zimiz ham qoyil. Bir akamiz bor edilar, olim kishi, lekin osh qilishda akademiklar ham uning oldiga tusha olmasdi. Oshning damini bilish uchun kapkirning uchiga bir cho'qim ilashtirib qarab: «Har bir guruch alohida ajralib, bitta-bitta o'ynab turmasa, osh – osh emas, shavla», der edi. Oshining sarimsog'ini aytmay sizmi, po'stidan ajratsangiz shilp etib tushadi-da, guruchning ustida kilkillab turadi. Yeb, ey xudo, sarimsog'ing ham shunchalar totli bo'ladimi! – deb yuborasiz. Ha, jannati odam edi, sababi – do'zaxga tushgan bo'lsa ham, u yerdagi mutasaddi shaytonlarga osh qilib berib allaqachon jannatga o'tib ketgan, ha.

Shunaqa. Bitta osh borasida shuncha yozish, bundan ham ko'p gapirish mumkin. Boshqa taomlarimiz ham shunday. Yigitlarimizning lag'monning xamirini cho'zganini ko'p ko'rgansiz, chuchvara tukkanini-chi? Yo'q, ko'rmagansiz. qo'lidagi go'sht bilan xamirni uzib oladi-da, taxtaga teraveradi – chuchvara tayyor! Hayron qolganman, lekin go'shtni xamirga qanday tukkanini ko'zim ilg'amagan. Manti, norin, qazi-qarta, hasip... bular ham qozon san'ati. Hammasini havas bilan, nash'a qilib, zavqlanib tayyorlaymiz.

Lekin G'ulistondagi taom san'ati, masalliq o'sha-o'sha bo'lgani bilan, mutlaqo boshqa masala. Men bu borada ko'p manbalarni o'qidim, o'qiganlarimni o'qimagan manbalarimga solishtirdim, ular o'rtasidagi bahs-tafovutlar bilan tanishib, oxiri, sizga oddiy, sodda tilda gapirib berishga qaror qildim.

Mana, biz ovqatni tayyorladik deylik, ishimiz bitdi, o'zimiz qo'lni yuvib, dasturxonga o'tirsak ham bo'ladi. Tayyor ovqatni kim xohlasa, suzib olaveradi, «Biz pishirib qo'ydik, quling o'rgilsin qilib, nima, suzib olishni ham eplolmay sizmi», deb ta'na qilsak ham yarashadi. Endi shoshmang, g'ulistonliklar bizdan farqi shu o'rinda, obrazli qilib aytganda, bizning taom tayyorlash san'atimiz

yetib kelgan oxirgi manzildan ularning san'ati boshlanadi. Ha, barakalla, tayyor taomdan!

Men o'qiganlarimdan kelib chiqib aytyapman. Keng ommani qiziqtiradi deb, ayniqsa shu taom haqidagi jild-jild tadqiqotlarni varaqlashdan erinmadim. Shuning uchun ham deymanki, taom tayyorlashda bizning san'atimiz yetib kelib, tugagan pog'onadan g'uliylarniki davom etib ketadi. Butun zavq, hamma tomosha qozon ustida, shu yerdan boshlanib, ho', keyin dasturxon ustida ham davom etadi. Buni bir-bir gapirishim kerak.

Mana, bir o'ylab ko'ring, biz nima qilamiz. Ya'ni taom tayyor bo'lgandan keyin - suzamiz. Qo'limizda, osh bo'lsa, kapkir, sho'rvaga – cho'mich, bir qo'limizda lagan yoki kosa, qozondan nima ilinib chiqsa, shularga ag'daraveramiz, xay, suzilgan oshga kapkirni bunday aylantirib, zeb berib ham qo'yamiz, gulday qilib, bir-ikki parra qazi qo'yamiz ustiga. Shu bilan dumog'imiz choq, ishtaha karnay. Yo'-o'q, G'ulistonda tamomila boshqacha. To'g'ri, u yerda ham shu kapkir-cho'mich, shu lagan-kosa, vazifasi bitta. Lekin ularni qo'llash shunchalar san'atki, tasavvur qilib turgandirsiz, ha, zanjir bilan bog'liq! G'uliylar doim zanjirband-ku, taomlanganda ham albatta yechmaydilar. Nafaqat yechmaydilar, balki u bilan taomlanishni tomosha-shou darajasiga ko'tarib yuborganlar. Ham qorin to'yg'azadilar, ham musiqa tinglaydilar. Og'izlarida osh, ko'ngillarida quloqlaridan kirib turgan kuy sehri.

Keling, hamma biladigan sho'rvani olaylik. Ya'ni uni suzishni. Buning nimasi san'at, sho'rva suzish ham ishmi, boshqa gap qurib ketgan ekan-da, deb ensangiz qotmasin. To'g'ri, bizga sho'rva suzishda hech narsa xalaqit ham bermaydi, chap qo'limizda kosa, o'ng qo'limizda cho'mich, chapaqay bo'lsak, teskarisi, - suzaveramiz. Endi zanjirband qo'lingiz bilan shunga urinib ko'ring-chi, eplolmaysiz, chunki zanjir xalal beradi, qo'lingizni tortib qoladi, kosaga tegib ketadi, o'ralishadi, ishqilib, shaldir-shuldir qilib asabingizni buzadi-da. G'uliylar esa ana shu xalalni, o'ng'aysizlikni san'at darajasiga ko'targanlar va bundan, ham ko'rib, ham eshitib, olamjahon zavq topadilar. Zavq deganda siz ehtimol ularning

qo'llari zanjirband holda bir tomchi ham to'kmay, zanjirni qozonga yo kosaga tegizmay chaqqon suzishlarini o'ylayotgandirsiz? Yo'q, yana yanglishasiz! Bunda zanjirning ishtiroki shu qadar tabiiy, shunchalar zaruratki, usiz mumkin emas. Bu san'atda zanjir kuylaydi. Ha, kuylaydi, kuylaganda ham turfa maqomda. Bilimdon g'uliy xo'randa sho'rva suzilishida zanjir kuyini tinglab, bir dunyo ma'lumot ham oladi, ya'ni sho'rvaga nimalar solingan, masalan, qancha go'sht, nimaning go'shti, o'sha nima qaysi yaylovda qancha semirgan, terisi oqmi yo qorami, shoxi buramami yo to'g'ri edimi, molbozordan nechchi pulga olingan, kim so'ygan va qaysi kushxonada... Eh-he, o'qiyversangiz, shu oddiy, biz it bog'laydigan zanjirning jiringlashida shuncha ma'lumot borligidan boshingiz aylanib ketadi. Ha, yana oshpazning ana shu zanjir raqs kuyida boshqa masalliqlarning ham qayerda o'sganu qanchadan olinganidan tortib, qozonga tushgandan keyin qaysi maromda miltillab qaynaganigacha, sho'rva pishgandan beri qancha xo'randaga tortildi yu hozir nechta odamga suzilayotgani, yana qozonda qancha g'uliyga yetarli qolganigacha hammasi bor. Men bularning hammasini batafsil aytmayapman, chunki bilasiz, keyin bizga uncha farqi ham yo'q, sho'rvaning ustiga sepilgan ziraning Hindistondan kelganmi yo o'zimizning Zomin tog'laridan terilgan ozginasiga sabzining urug'ini aralashtirib sotganlarmi, uncha bilmaymiz, ishqilib, hid bersa bo'ldi. Boshqa narsalar ham shu, kartoshkasining bir qaynagandan keyin uvalanib ketadigan navidan bo'lmasa, bas. Uning qanaqa kuyda, qanaqa notada tovush berishi kimni ham qiziqtiradi deysiz!

Ana, endi o'zingiz xulosa qilavering, bitta sho'rvani suzishda shuncha gap bo'lsa, boshqa, mo'tabarroq ovqatlarni qozondan dasturxongacha yetkazishda nimalar bor ekanini. G'uliylar o'rganib ketgan-u, lekin agar bizda bo'lsa, gurros-gurros tomoshaga borib, suzilishini ko'raman deb, o'zini yeyish eslaridan ham chiqib ketishi turgan gap.

Endi, taomni suzishda shuncha san'at ko'rsata oladigan oshpazning uni pishirishda qanaqa mohir bo'lishi kerakligini tasavvur qilavering. Ha, oshpazlar ham saralangan, ustasi farang, ko'riklarda yutib chiqqan. Maxsus hay'at juda ham

maxsus ko'riklarda taomlarni tatib ko'rib, oshpazini ham tanlaydi, ayni suzayotgan paytda qaysi musiqani qaysi registrda, qanday tovush balandligida chalishini ham qat'iy belgilab beradi. Albatta, zanjirda chalishni. qo'li shirin bo'lmagan oshpazning zanjirini ta'sirchan sadolarda jiringlatishga haddi ham sig'maydi, haqqi ham yo'q. Bunga muhtojlik ham ko'rilmaydi, chunki pazandalik mahorati bilan, uni zanjirini kuyga sola bilishi bitta bo'lib ketgan. Ana endi, ana shu ko'rikda mutasaddilarning bitta sho'rvani suzish borasida qancha bilim va mahoratga o'zlari ega bo'lishlari kerakligini tasavvur qilib olavering. Axir, o'zi bilmasa, qanday hakamlilik qiladi? Bu sizga bizdagiga o'xshab, hurmati yo xizmatiga qarab, to'g'ri kelganni jyuriga tiqishtirib, ko'rik o'tib ketgandan keyin nima to'g'risida musobaqa bo'lganini tushuntirib o'tirish emas.

Men «G'ulistonda pazandalik, taom tayyorlash-suzish san'ati musiqalarining xos xususiyatlari borasida fundamental masalalar» degan tadqiqotni varaqlab, deylik, sho'rva suzishda 487 xil asosiy kuy, 17,918 ohang, 27,000 xil jingir keltirilganini sanadim. Qoyil lekin, har bir kuyning tavsifi, har bir zanjir halqasining tovush qatoridagi o'rni, registrlari, jingirlarning amplituda va detsibellarigacha batafsil yoritilgan. Va, bilasizmi, yo'q, siz mutlaqo bilmaysiz, bu jingir-jingirlarga o'sha kungi o'sha soat, o'sha daqiqadagi obu havoning ta'siri, o'sha paytda esgan shabadaning qayoqdan kelib, qayoqqa yo'nalishigacha qanday ohang yaratishlari ham ochib berilgan. qoyilmisiz? Bizning shashmaqomdan faqat nomlarini biladigan, kuy tavsifida besh-olti og'iz dono gapdan nariga o'tolmaydigan ayrim musiqashunos olimlarimiz ulardan o'rnak olsalar arzir edi.

To'g'ri, ularda ham yechilmagan muammoli masalalar yo'q emas, kamchiliklar uchraydi. Men G'uliston Fanlar akademiyasi Taom musiqasi ilmiy-tadqiqot instituti olimlari tomonidan yigirma uch yil badalida tayyorlangan 117 jildlik «Farhangi taom»ning 69- «Musiqun lug'ot» jildida ma'lumotlar O.Sh. degan g'uliy olimning «Sharhun musiqun tamaddin» tadqiqotiga qaraganda u qadar aniq emasligini ko'rdim: «ShMT»da asosiy kuylar 450 atrofida, ohanglar – 20000ga yaqin, jingir – 30000tacha. Qarang, bir olimi qilgan ishga, u erishgan natijaga

butun boshli institut jamoasi yetisha olmagan! Ammo «Farhangi taom» qomusining 1-5 jildidan men o'zimga qimmatli ma'lumotlar oldim. Bu jildlar taom musiqasi tarixi, musiqa bobidagi g'oyaviy-zanjiriy qarashlar, kurashlar haqida g'oyat diqqatga sazovor faktlarga ega bo'ldimki, buni vaqti soati kelganda alohida yozarman. Ayni bir paytda, iste'mol etayotganda xo'randalarning qaysi taomga qanday kuyni qo'llashlari, ya'ni ijro qilishlarini hikoya qilish ham maroqli juda. Ammo o'ylaymanki, taomni suzishda shuncha kuyu ohanglarni kashf yetgan g'uliylar, uning iste'moli chog'ida ham zanjirlarini qanday taronalarda kuylatishlarini o'zingiz ham oson tasavvur eta olursiz.

Lekin, bari bir, bu qadar musiqiy nafosatni tuyish uchun g'uliy bo'lish kerakmi yo ular o'zlarini shunday bilag'on ko'rsatadilarmi, men shuncha qomusu tadqiqotlarni o'qib, talay ma'lumotlarni qo'lga kiritgan, ya'ni ularning musiqa nazariyasini puxtagina egallagan odam, oshmi, sho'rvami, lag'monmi, bari bir, musiqasidagi nozik ohanglarning farqi tugul, jarang-jurungining nima zarilligini ham tushunganim yo'q. Hech narsani his etmadim. O'zi bu yoqda ham musiqa borasida, aytdim-ku, qulog'imni ot bosgan, berilib, rohat qilib eshitaman-u, nima to'g'risida edi, deb so'rashsa, to'g'risi, gap topa olmayman. Lekin, takror aytaman, g'uliylarga qoyil bo'ldim. Bitta lag'monning xamirini havolatib cho'zishning o'zi jild-jild ta'rif, suzish – butun boshli, ko'p yillik tadqiqot, hammasi musiqa, hammasida zanjir kuylaydi. Sizga bu kuylarning tarkibiy qismlarini, sho'ba va sho'bachalrini bilishning hech bir hojati yo'q, zanjir taqmaganingizdan keyin, bari bir, tushunmaysiz, tushunganingizda ham, ming urining, ijro yetolmaysiz, negaki, zanjiringiz yo'q, binobarin, zanjir kuylari ham sizga mutloq kerak emas, vassalom, axboringiz uchun aytyapman, xolos.

Taom tayyorlashu suzish, uning iste'moli borasidagi jildlarni titkilashga ancha kunim ketdi, kunduzi kutubxonaga qamalgan bo'lsam, kechalari televizordan kunduzi o'qiganlarimni tomosha qildim, menga kerak bo'lmasa-da, bu yerdan qutulsam, hangomalarda aytib berarman degan umidda ko'p narsani o'rgandim. Hamma-hammasi zanjir bilan bog'liq, zanjirdan kelib chiqadi va zanjirga borib

taqaladi. Chindan ham zanjirsiz yashaydigan men bilan sizga bu narsalarning hech ham keragi yo'q, agar ham gapxona uchun demasak. Keyin sizga aytsam, bularning san'ati o'zlari kishanda bo'lgandan keyin zanjiriga urib ketganmi ham deyman.

Lekin boshqa gap bor – do'stimning ro'monida bu haqda bir og'iz ham gap yo'q! Yozma, deb aytishimdan qo'rqqanmi yo G'uliston kashfiyotchisi o'zi bo'lgisi kelganmi, ishqilib, mendan shularni so'ramagan, so'raganida ham aytmas edim-ku-ya, lekin nima qiladi o'zi bilmagan narsalarni yozib? Boshidan o'tgan – tabib deyishadi, men bunga boshidan o'tmaganini yozgan yozuvchi yozuvchi emas, deb qo'shimcha qilar edim. U ro'monini G'ulistonning bilimdoni – mening o'qishimni, do'st bo'lsak ham, o'ylab ko'rmagan-da...

Muhabbat go'shasi

Kutubxonada qosh qoraytirib o'tirgan shunday kechqurunlarimning birida, aniqrog'i, kech kirib, atrofga tun qora chodirini tortib bo'lgan, sim-siyoh qorong'i tushgan payti yana chiroq o'chib qoldi. Bir narsani sezgandek, birov, yana ham aniqrog'i, xuddi g'uliy qiz chaqirayotgandek, yo'limga turib qolgan narsalarga urinib-turtinib, zinapoyaga yugurdim. U herga yetishim bilan, ko'nglim sezganidek, bo'ynimga nozik qo'llar chirmashdi, bo'g'ib yuborayozdi. Yuzimga haroratli nafas urilgan. Tilim lolu qo'lim bilganini qilaversa! Uning qo'li ham tinch turgani yo'q... Endi bu yog'ini batafsil aytish nomardlik, albatta. Siz nimaga faqat zinapoya deb hayrondirsiz? Hozir tushuntiraman, zinapoya bo'lgani bilan sovuq marmar emas, ustiga cho'g'dek qalin gilam to'shalgan, gungurtda cho'g'dayligi bilinmaydi-yu, lekin qalinligi juda o'ng'ay. Keyin, faqat zinapoyaning o'zi emas, axir, burilishida kenggina, eni bo'yiga bir yarim qulochcha tekis joy ham bor, uning ustida ham gilam poyandoz, unga yonboshlab, zinaga bosh qo'ysa ham bo'ladi, xullas, hayajonli go'sha bemalol.

Lekin men baribir bir kuni: «Nimaga endi zinapoya?», deb so'radim, shunda qiz qulog'imni erkalab: «Hamma narsa tok bilan ishlaydi, chiroq o'chsa, uskunalar ham o'chib turadi», deb shivirladi. Ziyrak odam emasmanmi, darrov angladim. E, barakalla, bularning ham nuqsoni bor ekan-ku, dedim ichimda. «Xo'p, unda nimaga xonada emas? Har holda karavot bor, chanqab qolganda suv-puv degandek», desam, qiz eshitish a'zoimni battar suyib: «Jim! – deb pichirladi. – Xonangizga oy nuri tushadi, u herga o'rnatilgan uskunalar juda nozik, oy nuri bilan ham ishlaydi». Ana xolos, texnikasi shuncha rivojlanib ketganmi deb rosa ajablandim-da, bugun oy chiqmagani esimga tushdi. «Hozir boraylik. Hali oy yo'q, tongga borib chiqadi», dedim. Ana shunda hayratdan angraydim, qorong'ida og'zim ham lang ochilib qolgan bo'lsa hoynahoy. qiz nima deb nozlandi deng? Xonamdagi eshitib yozib oladigan apparatlar chaqnab turgan yulduzlarning nuridan ham quvvat olar ekan! Tushunyapsizmi, g'uliy larning qanday rivojlanib ketganini. Oy chiqmaydigan, yulduzlar ham yo'q, ya'ni bulutli kechalarda o'ta

sezgir parraklari qilt yetgan shabadaga pir-pir aylanib, keraklicha jichcha quvvat bilan ham ishlab yotaverar ekan. Faxrlanib ham ketdim, shunday nou-xau men uchun o'rnatilgan, demak, men ham chakki odam emas yo bularga nihoyatda kerakman. O'zinga ham qoyil bo'ldim, albatta, tegirmonning tagidan butun chiqadiganman-da, shuncha kuzatishlariga qaramay, bir g'uliy qizning ko'nglini rom yetganimdan keyin.

Shunaqa chiroq o'chishlar tez-tez takrorlanib qoldi. Ba'zi kunlari kechasi ikki marta ham o'chadi, ba'zan hatto uch marta. Har o'chganda men ham avtomatga o'xshab, zinapoyaga chopaman, yonishi bilan xonamga zing'illayman, yoki boqqa chiqib ketib, hayajonim yo hovliqqanimdan jimir-jimir aralashib ketsa ham, yulduzlarni tomosha qilib, nafasimni rostlayman. qiz bilan chiroq o'chganda o'pishamiz, yana u-bu ishlar, yongandan keyin bir-birimizga begona nazar tashlaymiz. Ataylab, albatta. Ammo o'zim ham toliqa boshladim, har kuni zinapoyaga yugurish, albatta, zavq, charchatmaydi, lekin qizni kechalari qorong'ida suyib, kunduzi yorug'da zanjiri bilan ko'rganda rahmim kelib, ichim eziladigan bo'lib qoldi. Shu kecha u bilan boshqa o'zim bo'lgandek, xuddi o'sha o'zim endi yorug'da o'zinga begonadek g'alati ahvolga tushaman. Yaxshi ham men bilan gaplashgani keladigan bir qoshi oq g'uliy buni bilmaydi, deyman. Uning zinapoyadagi uskunalari chiroq o'chganda quvvatdan uzilib ishlamay qolishi rost shekilli, sinini buzmaydi.

Bog'hovlida menga qaramaydigan, tabiiy, gapirmaydigan ham boshqa, tashqaridan kelgan xizmatchilar izg'ib qoldi. qo'llarida qanaqadir ixcham asboblari, suvoq tagidagi elektr simlari qayerdan qayoqqa ketganiyu qayerida ishkal borligigacha ko'rsatar ekan. Tashvishli yuzlari, bir-birlariga yelka qisishlaridan bildimki, chiroq o'chishi sabablarini topolmayaptilar. Lekin ular borida chiroq ham chidab berdi, men ham dam oldim, xayollarimni peshlab oladigan bo'ldim.

Bolaligim qushlari

Bir kuni ertalab, kechasi yugur-yugurdan holi, tiniqib uxlaganman, yengil turib, havo olgani xiyobonga chiqdim, odamning belidan keladigan chavra to'siqlarni oralab borib, qalin boqqa kirdim, shox-shabba tilib ketmasin deb, betimni qo'lim bilan panalab yurib borib, bog'hovlining devoriga taqalib qoldim. Qarasam, kichkina bir temir eshik ham bor, itarib ko'rsam, zangi g'ingshib ochildi. Tavakkal deb tashqariga chiqsam, bu yog'i kengish dala. Unda-bunda har xil mirzaterak, ko'kterak, tut, tol, jiyda tarqoq o'sib yotibdi, albatta, olma ham bor, ariqda suv oqadi, bedapoya, polizlar. Nariroqda katta bug'doypoya. Bug'doyi o'rib olingan, ichida dumini yelpib bir ot yuribdi; quruq somonni chimdilash unga nima zaril, tushunmadim, lekin qadrdonimni ko'rgandek xursand bo'lib ketdim. Borib bo'ynidan silasammi deb chog'lanib turgan edim, birdan qulog'imga «tra-tra» degan tovush kelib, boshqa hayajonga cho'mdim. Ha, shu tovushni eshitdim-u, hali nimadan chiqqanini ko'rmay ham, tug'ilgan qishlog'im, Bulung'urning suviga sho'ng'iyvergandan betim to'rlab ketgan bolaligim yarq etib ko'z oldimga kelsa! Boshimni ilkis ko'tarib qarasam, ustimdan patlari ko'm-ko'k bir jannatiy qush uchib o'tdi – ko'kqarg'a! Uning sayrog'iga qarab, tra-tra ham deydilar. Ilgarilari, hali men kichkina paytimda G'aziramizning bog'-rog'larida ko'p bo'lar, tashlagan patini suvga solib ichirsa, ko'kyo'talga ham davo deyishar edi. Shu qushning yo'qolib ketganiga, eh-he, juda ko'p yillar bo'lgan. Ko'kyo'tal hali ham bor, uchrab turadi, lekin ko'kqarg'a tamom ko'rinmay ketgan biz tomonlarda...

Ko'kqarg'a ko'kterakning shoxiga qo'nib, menga eski tanishini ko'rgandek ajablanib qaradi-da, yana o'zining yumushiga uchib ketaverdi. Orqasidan o'zimning ham uchgim kelib turgan edi, bir narsa to'qillab qoldi. Buning ham nimasidir tanish, juda yaqin. Alanglab topsam, terakning qurigan uchida, bilasizmi, nima ekan - qizilishton! Jonivor-ey, tumshug'i bilan qurigan og'ochni rosa to'q-to'q uradi-da, dam olib, kallasini qiyshaytirib quloq ham soladi, keyin yana boshlaydi. Bu ham bizda yo'qolib ketgan, qurigan daraxtlarimiz to'qillamay qo'yganiga ko'pdan-ko'p yillar bo'lgan.

Ham bu yerda borligidan hayratga tushib, ham o'zimizda yo'qolganidan afsusga botib borayotgan edim, yerda bir chipor narsa pildirab qoldi. Bu – sassiqpopishak ekan! Ha, o'sha tumshug'i uzun sassiqpopishak! Faqat yerda, maysaning orasiga egri tumshug'ini sanchib-sanchib yemish qidiradi. Dubulg'a popukli kallasi lik-lik qiladi, bir –ikki qadamcha pildiraydi, yana tumshug'ini yerga tiqib ko'radi...Tomosha qilasiz!

Keyin qoratorning shabada har birini alohida mehr bilan silab, har birini, ham hammasini shivir-shivir jo'rovoz kuylatayogan barglari orasida maydagina moviy fotmachumchuqni ko'rib, rosa to'lqinlanib ketdim. Jimit bo'lgani uchun bu ham jannatning bir tuynugidan chiqib kelib qolganga o'xshaydi. Ko'rmaganimga ko'p yillar bo'lib ketgan. Bemalol, dumpatchasini likillatib, novdalarning orasida cho'pchib-cho'pchib, tirikchiligini o'tkazib yuribdi.

E-e, ko'ktarg'oqni ko'rganmisiz – ko'kragi ko'm-ko'k baliqchi qushcha. Buning ham chiy-chiyi es-es tanish, nima ekan deb alanglasam, tolning suvga egilgan shoxchasida pastga tikilib ovini poylayapti. Chiyilladi-chiyilladi, keyin kalla tashlab, bitta chavoq baliqchani, qoyil, tumshug'iga ilib chiqdi.

G'uliston o'zi qanaqa joy a? G'uliyarlarni bu ahvolga solishda, ularni kuzatib turish texnikasida ancha ilgarilab ketgan bo'lsa-da, davr ma'nosida bizdan orqada qolgan shekilli, bu qushlar hali ham bor. qishlarda zag'cha ham kelsa kerak. Shuni anglab, qo'rqib ham ketdim: o'tmishga tushib ketgan bo'lsam-a! Xuddi hovuzga cho'kkanday. Bu qushlarning hammasi bolaligim-ku. Ariqdagi suvga qaradim, tip-tiniq, ishonasizmi, ko'm-ko'k limillaydi! Tagidagi shag'al toshchalari, suzib yurgan chavoq baliqchalari ham dona-dona ko'rinadi. Bizda bunaqa suvlarning oqmay qo'yganiga qancha bo'lgan? Shaharlarimizning oqar suvlari mag'zava-yu! Bu ariq labiga ko'kragingiz bilan yotib, suvni to'ppa-to'g'ri og'zingiz bilan simirsangiz bo'ladi, shunaqa toza. Shu o'yimni tasdiqlagandek, tiniq suvning tubiga bir narsa sho'ng'idi-da, hayalda salkam o'ziday qorabaliqni og'zida tishlagan suvkuchuk qaynab chiqdi. Bir suvilon esa undan qochib, suv yuziga rasm chizgandek, o'zini nari yoqqa otdi. Xuddi undan cho'chigandek, bug'doyzor ichida

zarg'aldoq sayrab yubordi. Atrofdagi hasharotlar-ku vizillagan, g'izillagan, pir-pir uchgan.

Bulung'ur arig'imiz bolaligimda shunday edi, chashmalardan chiqqan suvi ko'p, chuqur, o'rtalarini bo'ylasak, tortib ketar, tagiga oyog'imiz tegmas edi; kalla tashlab cho'milardik, bo'ylari qalin qamish, qamish ustida qora ilonlar yurardi, balig'i serob, ayniqsa shirmoy, ya'ni qorabaliq, biz bolalar qarmoq solib, har qalay tishga tekkulik ovimizni xivichga tizib olib borib, onamizga qovurtirardik-da, qiltig'i-piltig'i bilan qirs-qirs tushirar edik. Hozir Bulung'urning bo'ylari yalang chang-tuproq, suvi tizzadan, haklab o'tsa bo'ladi, u ham paxtaning oqovasidan loyqa, qamishini mol qirtishlagan, balig'ini odamlar tok tiqib, kamarini kavlab tutib quritgan, xay, bitta-yarim ilinib turar. Ha, Bulung'urning bo'yida bilmay ushlaganning qo'lini qiyib qonatatdigan to'p-to'p g'ishsha qiyog ham o'sib yotardi. Ayg'irqiyog degani ham shudir-da, a? Yoz kunlari qiyog'ini o'tkir o'roqda o'rib olib, o'tga, pichanga bog' qilamiz, sovuq kuz kunlari, paxta terimida huzurijon gulxan, to'pi ko'kka qadar lovullab yonar, ko'klamda esa hech narsani ko'rmagandek, yana gurkirab bo'y cho'zar edi. Hozir Bulung'ur bo'ylarida yo'qolgan, bolalarga shunaqa to'p g'ishsha qamish bo'lar edi, qiyog'i pichanga bog', qamishi bo'yraga cho'p deb, chizib ko'rsating, o'zini ko'rmagan, ishonmaydi.

Lekin bu yerda shu g'ishsha hali bor ekan. Jayraning tukidek tikka o'sib turibdi. Bittasining yoniga borib, tomosha qilmoqchi edim, tubida sariq bir narsa yiltirab, shatir-shutur qilib qoldi - bilakday sariq ilon o'zini olib qochyapti ekan. Sariq ilon ekanini ko'rib tursam ham, palakat-da, yuragim shuvillab ketdi, lekin bolaligimga qaytganimga mamnun edim. Ha, nariroqda tustovuq uchganini ko'rdim. Biz tomonlarda urug'i qurib ketgan, lekin bu yerda tilladay tovlanib, dumini osiltirib parvoz qilib yuribdi. Uzoqda bo'lsa ham, chiroyi ko'zni quvontiradi, o'zi ham rang-barang zarhal quroqdan kiyinganga o'xshaydi-da. Boyvuchcha qizlar ham bunday kelishtirib yasana olmaydi

Bir soatlar aylanib yurdim, nariroqda poliziga urinib yotgan g'uliyalar bor edi, bormadim, menga ulardan ko'ra bu toza tabiat qiziqroq edi, albatta.

Boya uchib ketgan ko'kqarg'a qaytib kelib, xuddi o'sha shoxga qo'ndi. Yana siyoh nuqtadek ko'zchalarini menga qadagandek tuyuldi. Shunda yuragim birdan hovliqdi. Balki bu qushlar biz bilan G'uliston o'rtasida erkin uchib-qaytar, men ham mashinada yo'l yurib keldim-ku, bular ham osmonda chegara-pegarani bilmay kelib ketib yurgandir? Ha, ularga bemalol, zanjiri yo'q, qanoti erkin, silkitadi - havoga ko'tariladi, yuksaklarga chiqadi, chegaralar ham bepisand. Shu ko'kqarg'a hozir G'aziraga borib kelgan bo'lsa-ya, a! Ayni qishlog'imda bo'lmagan bo'lsa ham, zanjirdan menga o'xshab ozod odamlarni ko'rgan! Eh, attang, buning tili yo'q, «tra-tra» deydi, nima deganini anglash dushvor. Balki... balki bu bolaligimdagi o'sha tra-tra meni izlab bu yoqqa endi uchib kelgandir? Sayrog'i balki katta bo'lib qolganimdan hayronligidir?

Qayoqdan tushgan, biron bola unutib qoldirganmi yoki shamol ilashtirganmi, o't ustida bitta o'n ikki varaqli birchiziq o'quvchi daftari yotgan ekan, tutilmagan, varaqlariga sal-pal dog' tekkan-u, lekin butun. Yana bolaligimni esladim, o'n birinchi, toshbaqa-, pushkinperolar bilan shunaqa daftarga husnixat yozar, varag'idan uchqich yasab uchirar edik. Darrov bir varaqni buklab, chiqqan uchqichimning qanotini rostlab, osmonga uchirdim. Uchqichim havolab ko'tarildi... ko'tarildi-da, yo'q bo'lib qoldi. Uchib borayotgan joyida xuddi suvga cho'kkandek, havoga yutilib ketdi. Avvaliga anglamadim, u yoq-bu yoqni qaradim, uchqich erga tushmagan, yo'q. Yana bitta yasadim, buni ham uchirsam, boyagi ahvol: qulochlab otganimda otildi, ikki qulochcha uchdi-yu, o'sha yetgan nuqtasida yo'q bo'lib qoldi. Bilasizmi, xuddi o'zi shaffof-u, lekin nariyoqni ko'rsatmaydigan devorga kirib ketgandek. Yana yasab, yana uchirdim. Yana shu ahvol. Keyi-in tushundim. Qog'oz uchqich uchib qayoqqadir o'tib ketayotgan edi. Boshqa dunyoga! Shu havoda qandaydir sarhad bor edi, ko'rinmaydigan. Undan narisi ham bu yoqdan ko'rinmaydigan dunyo, uchqichim esa, qog'oz bo'lgani uchunmi, u yoqqa bemalol kirib ketayotgan edi. Bu kashfiyotimdan ham qo'rqdim, ham

ko'nglim taskin topdi: demak, men juda uzoqda emas, boshqa sayyoraga ham tushib qolmaganman, qandaydir yaqin-o'rtadaman, ya'ni yurtimning yonginasida, faqat boshqa o'lchamga kirib turibman. Boshimni tiqib qarasammi, gavdam bu yoqda, u yoqqa faqat boshimning o'zi chiqib turadi.. bir qo'limni o'sha yoqqa o'tkazsammi... U yoqdan qaraganlar havoda bitta qo'lning o'zini ko'radilar... Bir xayolim, qushlarni tutib, nariroqda yovvoyi kaptarlar ham donlab yurgan edi, xatcha yozib, oyog'iga bog'lasam, o'zimning asl dunyoimga etkazar, deb o'yladim, keyin, agar bunaqa aloqa bo'lganda, u yoqda G'uliston borligidan allaqachon xabar topar edilar, bundan, albatta, ko'p o'qib, ko'p qiziqadigan odam, o'zim ham bexabar qolmas edim, keyin esa, bu qushlar menga dumini ham ushlatmas, qo'limda biron matrab ham yo'q. Balki o'zim bir baland sakrasam, shu qog'oz uchqichga o'xshab o'tib ketarman, deb ham xayol qildim, albatta, bu faqat, faqat xayol edi, lekin bolaligim, xuddi bolaligim oldimdagi ko'rinmas devor ortida turgandek, bo'ynimni cho'zibroq qarasam, ko'z oldimda bo'y beradigandek tuyuldi... Ariqdagi suv ham xuddi o'sha chog'lardagi Bulung'urdek sokin bir salobat bilan limillab oqib yotgan edi. Bu suv qayoqdan kelayotgan bo'lsa? U chegara bilmaydi-ku.

Shu asnoda sarhad nimaligini tuyib, birdan xatarga tushdim: mabodo shu ko'rinmas chegara yonimda bo'lsa, o'z yurtimga deb haklab o'tib, G'ulistondan ham battar begona mamlakatga tushib, yo bundan ham yomoni, yana bir boshqa muvoziy olamga ichkarilab, butkul sarsonchilikda qolib ketsam-da, bu yoqqa, ya'ni hozir turgan joyimga qaytish iloji ham yo'qqa chiqsa-chi, deb jo'yali o'yga cho'mdim. Qo'y-e, och qornim – tinch qulog'im, deb seki-in ortimga qaytdim, yurishdan oldin qo'limni cho'zib havoni paypaslab, G'ulistonda ekanimga aniq ishonch hosil qila-qila, ehtiyot bilan bir-bir odimlab keldim.

Muvoziy olamning ham aql bovar qilmaydigan darajada kengligini shunday chuqur anglagach, bu yerdan qochish xayolim ham o'z-o'zidan chippakka chiqib, amniyatimni avaylab qoldim.

Xoldor bilan kelishmagan yaqin oshnalarmiz

Xoldor g'uliy bilan suhbatlarimiz avj pardasiga chiqdi. Endi, ilgari ehtiyotkorlik, o'rtadagi masofa saqlanib turgan bo'lsa-da, har qalay, bu bir-birini o'rgangan ikki tomonning muloqoti, ko'p izohotu azmoyishlar uncha shart emas, aksincha, ba'zi gaplarimiz tig'dor, kelishmovchilikka to'la, hatto cho'qishib ham olar edik. Xoldor xizmatchi qiz bilan aloqamizdan, tez-tez chiroq o'chib turishining asl sababidan yo tamomila bexabar yoki... mayli, hamma narsadan gumon qilavermay, bilmaydimi yo bilmaslikka olyaptimi, bari bir, menga yaxshi-ku. O'zim ham chiroq o'chishini qiz tushmagurning o'zi uyushtirayotganini keyin angladim. Joyini bilar ekan, meni xufyada ko'rgisi kelsa, borib shundoq bir tugmasini pastga bossa, sim-siyoh qorong'i ikki talpingan dilning tasarrufida!

Lekin ro'mon yozgan do'stim bu talpinishni ozodlikka, zanjirdan qutulishga intilish deb ko'rsatadi; yigit bilan qiz osmonni yulduz bosganmi yo bulut qoplaganmi, farqi yo'q, ko'kka boqqanlaricha asoratdan chiqishni orzu qilaveradilar. Men esa g'uliyning bu haqda tamoman o'ylamasliklarini ko'rdim, ular mazkur masalaga qiziqmaydilar ham, masala ham deb qaramaydilar. Shu hayotmi – hayot, bo'ldi, yasha, uni o'ylash nima kerak deb, hatto bu haqda fikr ham yuritmaganlar. Zanjir shu qadar ko'nikmaki, usiz g'uliylik tasavvurlariga sig'maydi. Zanjiri yo'q g'uliy - g'uliy emas, yashamaydi ham. Ha, ham ruhan, ham jisman yitadi. Ruhan – unsiz nafratdan, jisman – ana shu nafrat keltiradigan ruhiy kasalliklardan. Sekin aqldan ozadi, yo aqli dosh bersa, yuragi chidamaydi yo qoni tomirlariga sig'may qo'yadi. Shuning uchun ham, g'uliy qiz meni qancha suysa, shuncha ajablanadi. Zanjirband bo'lmaganim holda gavdamni bardam ko'tarib yurishimdan, yana sevgiga ham yarashimdan hayronligi to'xtamaydi, odam shu holida ham bemalol nafas olishi mumkin ekan-da, deb taajjublanadi, chunki menga o'xshagan erkin odamni ko'rmagan, yana o'zining ham shunday odamni, ya'ni meni sevib qolganidan hayratga tushadi. Zanjirning bo'yinchasi turishi kerak bo'lgan bo'ynimni nozik barmoqlari bilan silab, menda yo'qligini aqliga sig'dira olmaydi. Hayajonda qizib turgan paytlarim zanjiri yalang'och badanimga sovuq

tegib, sakrab ketsam, shunday mo'tabar narsadan dovyuraklik bilan seskanganimga tong qotadi. «Qo'rqmaysiz-a! Qanday jur'at, al!», deb men bilan faxrlanadi, o'ziga ham qoyil bo'ladi.

Bir kuni kechasi yelkalarimni silab, «Uyalib ketaman, juda yalang'ochsiz-da», deb qoldi. Hayron bo'ldim, «Nima yoningda yotganda chopon kiyib olishim kerakmi? O'zing ham hamma narsangni yechib tashlagansan-ku», dedim. «Yo'q, menda zanjirim bor, - dedi u, qorong'ida yuzini g'ira-shira ko'rayotgan bo'lsam-da, o'ylanib gapirayotganini tuydim. – Siz esa qip-yalang'ochsiz, sharmingiz yo'q». Tong qotdim, ikkalamiz birdek kiyimsiz birga yotibmiz-u, zanjirga chulg'angani uchun uning sharmu hayosi joyida ekan-da, meniki yo'q emish. Ko'ryapsizmi g'uliylik bularning qon-qoniga singib ketganini. Yozuvchi do'stim esa to'g'ri kelmagan narsalarni yozaveradi. G'uliyliklar o'zlariga eng qadrdon narsadan ayrilishni orzu qilar emish! Kishanni sevishga kalla yo'q-da... Ey, o'zi borib ko'rmagandan keyin nima ham deysiz. Qo'limni siltayman. Bo'zchi bilganini to'qiydi, tappi tappidan yiroq tushmaydi, degani ham o'zi shu.

Men yana bir kuni xoldor g'uliydan o'zimni soddalikka solib so'ragan edim, o'rtamizda ajabtovur bir suhbat voqe bo'ldi.

- G'uliyliklar qiynalmaydimi?

- O'zlaridan so'rang.

- So'rashimning hojati yo'q, so'ramasligimni o'zim ham bilaman. Biz qancha qiynalsak, shuncha qiynalaveramiz, qiynalganimizni tushunmaslik uchun ham yanada qiynalamiz, deb javob berar edi ular, menga tushuntirganlarida.

- Ana, ko'rdingizmi, qiynalishni tushunishga ehtiyoj yo'q. Butun inon-ixtiyorini zanjirga topshirganlar qiynalish nimaligini bilmaydi ham.

- Lekin siz tushunasiz-ku?

- Kim aytdi, meni tushunadi, deb? Men tushunmaydiganlarning kattasiman, binobarin, ulardan ko'proq tushunmayman..

- Tushunmaysizmi yoki tushunmaslikka olasizmi?

- Siz meni qayoqqa boshlamoqchisiz? Tushunish bu – ixtilolning boshi-ku.

Endi men ham tushunmay, angrayib qolyapman.

- Bu nima deganingiz?

- Men tushunmaydiganlarning kattasi bo'lganimdek, menga o'xshagan kattalarni tushunmaydiganlarning ham kattasi bor, u kattalarning ham tushunmaydigan kattalari bor. U kattalarning yana kattalari... Tushunyapsizmi?

«Tushunyapman», demoqchi bo'ldim-u, lekin yana meni ixtilolchilikda ayblamasa deb, tilimni tishladim.

- Nima, butun boshqaruv tizimlaringiz omilikka qurilganmi?

Xoldor g'uliy derazaga qarab istehzoli kuldi.

- Heh-he, omilikka emas, tartibga! Muazzam, buyuk tartibga qurilgan butun hayot. Mana, ko'chada biron odamni ko'rdingizmi bu tartibga yurmagan?

Yurmay ham ko'rsin-chi, naq zanjirini yechib olasizlar, demoqchi bo'ldim-u, har holda, yurt uniki, mezbon ekanini o'yladim.

- Bir martagina chiqib nimani ham ko'raman?

- Bor bo'lsa, bir martada ham belgi beradi. Ziyoratchilar orasida ziyoratga majburan kelgan g'uliyga ko'zingiz tushdimi? Yo'q, albatta! Shu siz ko'rgan maydonu ko'chalarda bironta namoyishni ko'rdingizmi?

- Ko'rmadim, ko'rmadim...

- Tushunganda g'uliyalar mitingga chiqar edi. Ko'rmasiz ham!

- Yo'q, ko'rmayman ham.

Ko'rmasligimni-ku allaqachon tushunib yetganman, lekin xoldor g'uliyning bu qadar ishonch bilan gapirishidan boshqa bir narsani ilg'ab qoldim: tushungan odamlar namoyishga chiqar ekan, bularda mutlaqo chiqmaydi, bularda umuman hech kim xohish-irodasini namoyish etmasa, xoldorning o'zi namoyish yo miting degan narsani qayoqdan eshitgan yo o'qigan? Anglayapsizmi? U menga shama qilyapti, sizda bunaqa narsalar bor, bizda yo'q, deyapti! Unda, demak... demak, u bizning dunyomiz borligini bilar ekan-da, a?

Aniq bilmadim-u, lekin bularning bizga ulanadigan qanaqadir robitalari borgan o'xshaydi. Keyin, kutubxonada yana bir qancha jildlarni varaqlab, ma'lumotlarni to'plab, xoldor bilan bo'lgan bahslarimiz mag'zini chaqib ko'rib, shu xulosaga keldim. Uning juda ko'p gaplari bizga qarshi edi, qarshi bo'lib, g'irt dushman emas, ayrim masalalarda fikrimiz bir joydan ham chiqar edi. Masalan, yer, suv, tabiat, obu havo haqida. Ayniqsa tabiatni asrash borasida bizdan xiyla ilg'or ham ekanlar. Fikrda emas, atrof muhitni toza saqlash ma'nosida, yana ham to'g'rirog'i, ularda bu narsalarning o'zi hali ancha toza ekan. Ha, masalan, men maynani ko'rmadim dedim-a, lekin bularda ham chiqibdi, lekin hali faqat qafasda, g'uliyalar uning qanaqa qush, qushlarning qaysi oilasiga mansubligini o'rganishni endi boshlagan ekan, men ularga uni avvalboshdanoq yo'qotishni, agar hayvonlarni himoya etadigan tashkilotlari monelik ko'rsatsa, kelgan joyiga qaytarib jo'natishni maslahat berdim. Xoldor orqali, albatta. Qafasga ko'z-quloq bo'ling, chiqib ketsa, naq katta buvingizni ko'zingizga ko'rsatadi, deb qattiq tayinladim. Agar bu shumg'iyaning tuxumini quritmasa, oqibati nima bo'lishini yaxshi bilganim uchun, G'uliston xalqiga, uning tabiatidagi jonzotlarga qilgan katta xizmatim ham shu bo'lsa kerak deyman. Lekin, bari bir, shu maynaning ham G'ulistonga qayerdan kelib qolgani, tadqiqotlarni o'qib aniqladimki, g'uliy olimlarga ham jumboq ekan. Kelgan joyi qayer, unda u qayer qayerda degan mazmunda. Menda aniq ilmiy faraz bor, lekin buni ularga aytmadim, zero, uning ham biz tomondan borib qolgani ma'lum bo'lsa, zararkunandaga qo'shib o'zimni ham ayblashlari, hatto meni uni

qotirish zarur bo'lar, oxiri, xay, shu ekan-da, yo bor, yo yo'q ekan, deb dono xulosaga kelar edingiz. Elchining gapida ham o'z mamlakati haqida hech gap yo'q, lekin G'ulistonga qoyilligi, undan albatta o'rnak olishi haqida bir dunyo hissiyotlar aytiladi va keyin bitta mamlakat emas, qaysining elchixonasi ochilib, elchisi chiqish qilgan bo'lsa, hammasi G'ulistondan hayratda va albatta o'z mamlakatiga undan o'rnak olishni maslahat beradi. Nimadan o'rnak olishi kerak, buni ham taxminlab angladim, zero, bu yerda, boshqa manbalardan yo shiorlardan farqli o'laroq, zanjirga shama-ishora ham yo'q, lekin aqlli odam gap nima to'g'risida borayotganini sezib oladi. Elchilarning zanjir taqqan yo taqmaganliklari, ularning bunga munosabati to'g'risida ham lom-mim deyilmaydimi, demak, ular G'ulistonning zanjiridan, g'uliylarning g'uliyligidan hayratda. Hayrat bildiradigan boshqa narsani men, masalan, ko'rmadim.

Siz shuncha elchiyu elchixonalar borligini o'qib, yolg'izlik hamda zanjirsizlik asoratida qiynalgan bu odam nima uchun biron elchixonaga kirib olib, siyosiy boshpana so'ramadi yoki muxtor vakilga boshiga tushgan ko'rguliklarni aytib, meni olib keting, demadi degan xayollarga borsangiz, yanglishasiz. Eng avvalo, siyosiy qochqin emas, to'g'ri yo'lda adashgan yo adashtirilgan, ishqilib, haydovchiman, keyin, mazkur elchixonalarning gazeta qog'ozi sahifasidan boshqa joyda borligiga ishonmadim, demak, unda elchi yo muxtor vakillar bilan uchrashishning iloji ham juda-juda shubhali. Ularning G'uliston borasidagi hayratlari ham, gazetaning o'zi singari, butun-butun mamlakatlarni og'zini ochib qo'ygan G'ulistonga sen qoyil emasmisan degan ma'noda, faqat menga mo'ljallanganini ham bilib turibman. So'g'in, yangi gazetani o'qib ulgursangiz ham xo'bu xo'b, xotirangiz biron xabarni tutib qolar, lekin solishtiraman, mulohaza yuritaman deb qayta o'qiy olmaysiz, gazeta bir zumda yangilanadi. Ha, shundoq, gazetani o'qib bo'lib, taxlab qo'yishingiz bilan, u boshqa ro'znoma bo'lib qoladi, xuddi noutbukni yopib, qayta ochgandek. «G'uliston jarangi» degan sarlavhasi, yilu oy sanasi turadi, lekin kuni o'zgaradi, ichi batamom boshqa bo'lib qoladi. Avvaliga men ham rosa ajablandim, hatto ishonmadim ham.

Elektron bo'yoq

Bir kuni soqol olayotib iyagimni tilib olgan edim, «G'uliston jarangi»ning bir chekkasidan tirnoqday yirtib olib, qonagan joyga yopishtirdim, xuddi bizdagi gazetalarning qog'oziga o'xshab, birpasda qotirdi; bu ham shunaqa - narxi past, sarg'ishroq, salgina dag'al qog'oz. Ertasi kuni qarasam, bugungi yangi «G'uliston jarangi», lekin o'sha yirtib olgan joyim o'sha-o'sha, ya'ni qog'oz o'zgarmagan-u, lekin bosilgan xabarlari mutloq yangi. Qog'ozini o'z bilganimcha xo'b tekshirdim, oftob nuriga, chiroq yorug'iga tutib rosa qaradim, tishlab, tirnab ko'rdim, g'ijimladim, yana dazmol bosib tekisladim, lekin hech narsa topa olmadim, oddiy, oddiydan ham oddiy gazeta qog'oz. Faqat o'sha qog'oz-u, sahifalari xuddi televizor ekrani yo kompyuter monitoriga o'xshab, zumda o'zgaradi, hatto oldingi rasmlari o'rniga tamomila boshqa suratlar paydo bo'ladi. Kechagi sonida sokin bir ko'l o'rtasidagi qayiqda baliqchi g'uliy suvga qarmoq solib o'tirgan bo'lsa, bugungi sonda qorli cho'qqidan chang'ida uchib tushayotgan g'uliyani ko'rasiz, zanjiri ikki tomonida xuddi qanotga o'xshab yoyilgan.

O'ylab-o'ylab, oxiri o'zimcha taxmin qildim: yo'q, gazeta qog'ozini kompyuter monitori singari dasturlashtirish, ya'ni qog'ozning o'zini kompyuterga aylantirish hali bularning qo'llaridan kelmaydi, lekin elektron bo'yoq kashf etib ulgurganlar. Hamma loyiha, dasturu chiplar gazeta sahifalarida emas, bo'yog'ida! qoyilmisiz? Shunga aqlim yetgandan keyin o'zim ham «e-e, barakalla!» deb yubordim. Gazetani o'qiysiz, taxlab bir chekkaga olib qo'yasiz, yana ochib qarasangiz, sarlavhayu sanasi o'sha bo'lgani bilan boshqa, yangi, balki ertangi gazeta! Ha, ular ertangi, bir hafta keyingi, lozim topilsa, bir oydan so'nggi gazetani bugun chiqaraveradilar. Juda qulay. Bir marta olsangiz bo'ldi, qog'ozini avaylab tutsangiz, bir yil ham yangi-yangisini o'qiyverasiz. Bitta tugmani bosish bilan yuz ming, million tirajda tarqagan gazeta zumda o'zgaradi, ko'chaga chiqib, matbuot ko'shkida navbatda turmay, o'sha eski qog'ozingizda yangi yangiliklarni o'qiyverasiz. Tasavvur qilyapsizmi? Yo'q, uncha tasavvur qilolmayapsiz. Hidi chiqib turadigan o'sha gazeta bo'yog'ini eng so'nggi texnologiyada

dasturlanganini tushunib turgandirsiz, lekin bu bilan ming-ming tonna qog'oz, binobarin, millionlab gektar o'rmonzorlarning asrab qolinayotganini o'ylamayapsiz. Mana, ular qayerda tabiatni toza saqlash borasida ilgarilab ketgan! Iqtisodiy tejamni hisoblab ko'rdingizmi? Ishchi kuchi, transport xarajatlari, atrof-muhitni toza saqlash, kislorodni kamaytirmaslik. Axir, o'rmonlar yerning o'pkasi-ku, ular karbonat anhidridni yutib, bizning toza nafas olishimizga kislorod etkazib beradi.

Yana qarang, men nimalariga qoyil bo'ldim. Gazetada biron qitmirroq gap yo nazoratsiz xabar o'tib ketsa, juda onda-sonda shunaqasi ham uchrar ekan, uni ko'shklardan yig'ishtirib olish, odamlarning uyidagini terib chiqishga sira hojat yo'q, bu ham bitta tugmani bosish bilan hal. Gazetani shu holicha saqlayman deb, temir sandiqqa solib, ustidan sakkizta qulf ursangiz ham befoyda, o'n quloch chuqur quduqqa tashlab, ustidan tuproq tortib tepkilasangiz ham o'sha tubda turgan yerida ichi yangilanib qolaveradi. Bir kuni shunday bo'ldi: «G'uliston jarangi»da «Mehmon ham har xil bo'ladi» degan maqolani «Yaqinda G'ulistonimizga bir mehmon kelgan edi, uni bog'hovliga joylashtirdik», degan maqolani o'qib boshlab, «Iy-e, meni yozishibdimi?» deb taajjubga tushib ulgurmasimdan birdan o'zgarib ketsa! Qarab turibman, ko'zimning oldidagi harflar jimir-jimir bo'ldi-da, sahifaning o'sha joyi tiniqlashib, yangi bir maqola qalqib chiqdi. Xuddi men bu yerga kelmagandek. «G'ulistonning musaffo qorlari» degan maqola! Bu yil Kishan tog'ining Metin, Yuksak, G'ul birinchi, G'ul to'rtinchi cho'qqilarida qor juda mo'l, hatto saratonda ham ko'chki xavfi bor, ammo bu qorlar juda oppoq, musaffo-pokiza bo'lib, G'ulistonning suv ta'minoti, mirobchiligida muammo kutilmas ekan.

Matbuot ko'shklarida, kutubxona, qiroat zallari, odamlarning qo'lida, uyida, stollarning ustida, tortmalaridagi milyon-milyon nusxa gazeta bir zumda o'zgaradi. qo'lingizda ushlab turgan gazetangiz o'qiyotgan paytingiz yangilanadi-ya! Hatto do'kondan olib ichg'u o'raganingiz ham, boringki, yirtib otib yuborgan bo'lsangiz, o'sha yirtiq parchadagi yozuvlarining o'sha joyi yangilanadi. Bu endi har ehtimoli

uchun, keyin bironta g'uliy gazetada shunday bosilgan edi deb, muddati o'tgan, noto'g'ri xabarni ko'tarib yurmasligi uchun. G'uliyalar yerda yotgan, tashlandiq qog'ozni ham olib, albatta o'qib ko'rар ekanlar-da, biron ko'rsatma axtarib. Lekin buni yo'l-yo'lakay aytyapman, o'zgarish asosan ikki tarzda, bittasi gazetani o'qib bo'lib, taxlashingiz bilan, ya'ni shu taxlash bilan eskisini yopasiz, ikkinchisi o'qiyotgan paytingizning o'zida xato maqola yo xabarlarini oshig'ich tuzatish zaruriyati yuzasidan. Bu gazetxonga ham juda o'ng'ay, ishonchsiz manbani o'qib, har xil xayolga borib ulgurmasidan bu boradagi hukumat tahriri yoki nuqtai nazari beto'xtov etkaziladi.

Albatta, bilaman, juda bir zunda emas, o'sha yangi xabar avval yoziladi, tekshiruvdan o'tadi, kompyuterga kiritiladi, keyin tarqatiladi. Lekin shuncha bosma nashrni markazlashtirib, bir soniyada bitta tugmani bosish bilan yangilashni ayting. Biz ham oldinga ketganmiz, lekin. Faqat shu, «Internet»ni telefonsiz ishlata olmaymiz. Telefon uzilib qolsa, «Internet»imiz ham o'ladi.

Bir kashfiyot navbatdagi ixtiroga yo'l ochadi. Elektron bo'yoq kashf etilishi G'uliston matbaasiga ham revolyusion ta'sir o'tkazgan. Bilasiz, xabarlar oqimi saralanib, tanlanadi, kitoblarda damlanib, qomuslarda tiniydi, keyin shu o'zanda tinmay oqib yotaveradi. Ha, aynan oqadi, oqqan oqim esa o'zgarmay qolmaydi. Bizdagi qomuslar, aytish mumkinki, qotib turadigan nashrlar. Ma'lumotlarning hammasi chig'iriqdan o'tib, kerakli mutaxassislarning oq fotihasidan so'ng, qomusda mahkamlanadi va eng ishonchli oxirgi manbaga aylanadi. G'uliston nashrlari, xuddi manbaasi singari, bunday qotib qolgan emas. Ular qat'iy va muntazam tarzda o'zgarib boradi. Tez-tez tahrirga uchraydi, yangilanadi, to'ldiriladi, tuzatiladi va albatta, oldingi o'zgarishga uchragan nashrni keyin qaytib ko'rmasiz, uni eslashingiz ham shart emas, chunki ishonchli manba sifatida eng so'nggi nashr tan olinadi va, bunda ham, tabiiyki, hayotdan orqada qolmasligingiz, ya'ni oxirgi haqiqat shu ekan deb, yopishib olmasligingiz kerak. Mana, masalan, «G'ulistonning xalqaro mavqei: hayrat va namunaviylik» qomusining 10- jildini o'qigan bo'lsangiz, ertasi kuni borib yana aynan shuni o'qiyman deb ovora

bo'lmang, shu qomus, shu jild joyida turadi, lekin ichi boshqa, qayta yozilgan, boshqattan nashr qilingan. Nashrlar ham G'ulistonning rivojiga muvofiq, bu bilmagan odamga sirtda murakkab ko'ringani bilan, aslida juda oddiy jarayon: ular ham G'ulistonning izlanishlarini aks ettirishi lozim, izlanish esa o'zgarishsiz bo'lmaydi, bu jamiyatda esa o'zgarishlar to'xtamaydi.

G'uliston tarixi haqida naqlar

Faqat kundalik hayot, hozirgi voqelik shundaygina emas, balki G'ulistonning tarixi ham rivojlanishda: biz tarixni o'tmish deb qaraymiz, unda kechgan voqea-hodisalarni o'rganamiz, iz qoldirmaganlarining izini izlaymiz, qadimni bilish uchun tuproqqa aylangan paxsa devorlarning tubidan osori atiqalarni kavlab olamiz, ya'ni arxeologik qazilmalar o'tkazamiz. Ko'p-ko'p asrlar ilgari o'tib ketgan tarixdan faqat sopol kosaning siniqlari qolgan, agar ham yozuvi bo'lmasa, hech narsadan guvohlik bermaydi, uni albatta katta pulga laboratoriyalarda ultrabinafsha, infrapashti nurlar bilan tekshirtirib, davrini aniqlashga to'g'ri keladi. Burni uchib, qulog'i singan bir qarich haykalcha chiqib qolsa-ku, eh-he, qancha yoqimli g'alva! Ma'ruzalar, konferensiyalar, banketlar. O'sha joyni kavlatishga qanaqadir tender-konsorsium degan dahmazalar... G'ulistonda esa oppa-oston, ming yil oldin asli o'zi nima bo'lgan deb bosh qotirishning sira hojati yo'q, o'sha oqsoch tarix bugun yaratiladi-qo'yadi, vassalom! Tarixda nima bo'lgan bo'lsa bo'lgandir, uning hozirini ko'rish kerak. Shuncha mablag' sarflab, vaqt ketkizib o'qib-o'rganishdan ko'ra yangidan yozib qo'yiladi - tamom! Kavlab nima kerak, sopol kosada yovg'on ichdi, nimayu oltin kosada sharob simirdi, nima, o'tib ketgan gaplar, bugunga qanday qizig'i bor? Xo'p, boringki, o'sha oltin kosada sharob ichgan g'uliy hozirgi biron g'uliyning bobo-bobo-bobo-bobokalonidir, lekin o'tmishdan chiqib kelib, o'sha sharobidan bizga ham quyib beryaptimi? Qaytangga tarix ham tozalanadi, eng ibtidoiy insonligimizda go'shtni pishirmay egan ekanmiz deb, uyalib yurmaysiz, uning o'rniga ilk ibtidoiy bosqichdayoq odamsimon maymun go'shtni cho'p sixga tortib, olovga tutib kabob qilishni o'rganib olgan edi, deb tuzatish kiritiladi, bo'ldi! Po'stakka o'ranib yurishi o'z-o'zidan kelib chiqadi, hayvonning go'shtidan kabob qilishni bilgan maymun uning shilib olingan terisini quritib, avratini bekitib yurishga aqli etar, axir.

Shuning uchun ham G'ulistonning tarixi muqim bir voqealar silsilasidan iborat emas. qomusning bir jildida uning shimolida bir mamlakat janubidagi mamlakatga hujum qilgan bo'lsa, undan oldingi jildda yoki shu jildning bugungi nashrida

janubdagi mamlakat shimoldagi mamlakatga hujum qilgan, lekin ahamiyati yo'q, chunki G'uliston ikkalasiga kafil turgan, urishsalarining urishaveringlar, men urishmayman, degan va shu bilan tinchlik garanti sifatida namuna ko'rsatgan. Ana, mantiqni ko'ryapsizmi, G'uliston aralashmagandan keyin kimning kim bilan urishganining bugungi g'uliy tarixshunosga nima qizig'i bor? Bordir, lekin ozgina. G'ulistonning bugungi ravnaqini qadrlash uchun. Janubdagi davlat shimoldagi davlat bilan urishgan bo'lsa, bu to'qnashuv qayerda kechgan, o'rtada G'uliston-ku, u paytlari uchqichlar bo'lmagan, janglar havoda kechgan desangiz. Bu ham jiddiy savol. G'uliston bunda ham zo'r yo'l tanlagan - uning bir chekkasida bepoyon Bodiya sahrolari bor ekan, ikki tomonga o'sha erlarda muhoraba o'tkazishga ruxsat bergan. Ana, biyobon, bir-biringning go'shtingni xohlagancha e, men roziman, e-e, o'lib, qirilib ketmaysanlarmi, degan. Urush tugagandan so'ng esa katta foyda ko'rgan, har ikki tomonning ham talafotga uchragan narsalari sahroda qoladimi, sahro kimniki – G'ulistonniki! Urushni vayronagarchilik deymiz-u, lekin sahroda vayron bo'ladigan hech narsa yo'q, qaytangga urushdan keyin har ikki tomondan eskirgan, buzilgan, singan, o'qqa uchragan nihoyatda ko'p ashyo qoladi, ularni tuzatib, qayta ishga solish mumkin. Temiri eritilib, qayta quyiladi. Ana sizga tekin daromad. Men bir jildda o'qib ulgurdim, ertasi kuni varaqlasam o'chib ketibdi: ikki tomonidagi qo'shnilarni bir-biriga ko'pincha G'ulistonning o'zi gij-gijlab qo'yar ekan, azbaroyi manfaat uchun. Diplomatiyadan aniq foyda undirishni qarang.

Shu ma'noda G'uliston tarixi juda boy, tarixshunosligining tadqiqotlari ham bepoyon, o'zgarishlari juda ko'p. Bu shu qadar odatiy ahvolga aylanganki, biron-bir olim e'tiroz bildirmaydi, har qanday yangilanish xuddi shunday tabiiy qabul qilinadi. «Tarixni g'uliy o'z qo'llari bilan yaratadi», degan naql ham shundan.

G'uliston tarixida bevosita o'zi qatnashgan urushlar juda qadim o'tmishda bo'lgan, qachon uning bunaqa bema'ni ishga aralashganini aniqlash ham mushkul albatta. Urushlar ham urushdan ko'ra tarbiya uchun o'ylab topilgan to'qima to'qnashuvlarga o'xshaydi. Ularda hamisha g'uliyalar ustun kelgan, kimligi noma'lum dushman tomon uzil-kesil va batamom taslim bo'lish paktiga yalinib

qo'l qo'ygan. Bostirib kirgani kelgan joyiga itqitib tashlangan, bostirib borilgani o'z hududida yakson etilgan. Fanimning lashkari lak-lak qirilib ketgan, lashkarga qo'shilib qurol-aslahasi ham kunfayakun bo'lgan yoki o'lja olingan; G'uliston tarafdin bironta g'uliy o'lmagan, aksincha, o'nlab g'uliy qahramonlarning oti chiqib, dong qozongan.

Hatto shunday rivoyatlar bor, qadim-qadim zamonda, unda hali odamlar o'q-yoy va qilich bilan urishgan ekan, G'ulistonga bostirib kirmoqchi bo'lgan g'anin uning chegarasiga qo'nibdi-da, kuch sinashish uchun o'zi tomondan bir pahlavonni oldinga chiqarib, bu tomondan ham bir talabgorni o'rta tashlashni so'rabdi. G'anin pahlavon bo'yi bulutlarga yetadigan, hammayog'i zirhli bir zabardast dev ekan, unga dov tortib chiqqan g'uliyning qo'lida xivichday qilich, yelpishtovoq qalqon, mung'ayibgina turgan emish. G'uliyot endi munimizning kuni bitdi, barchamiz dushmanga yem bo'lamiz deb turganda, g'anin pahlavon urushga kirishdan oldin, g'uliy talabgordan «Nimaga zanjir taqqansan?», deb so'rabdi, g'uliy unga «Bilmaysanmi, butun kuchimiz zanjirda-ku», depti, shunda haligi: «Iy-e, hali hamma askarlarning shunaqa zanjirga o'ralganmi?», deb so'rasa, g'uliy: «Ha, bo'lmasa-chi!», degan ekan, pahlavon polvonning hurrasi uchib, zahrasi zog'ora bo'lib, «Bunaqa zanjirga kishanband lashkardan o'zi asrasin, tartibni yengib bo'lmaydi», deb, ustidagi zirhini yechib tashlab, qilichu qalqonini otib yuborib, o'zi orqaga qochgan ekan.

Shunaqa tarixiy rivoyatlar juda ko'p, hammasida ham zanjir ustun kelgan, g'uliy larni doim himoya qilgan. Bu rivoyatlarni bir marta o'qib ulgurasiz, keyingi o'qishda shu rivoyat boshqacharoq tus oladi yo tamoman o'zgarib, yangi bo'lib qoladi.

Bolalikdan kitobga ruju qo'ygan odam, bog'hovlida katta kutubxona, ayniqsa xilma-xil qomuslarning mavjudligi ko'nglimdagidek ish, ko'p kunlar o'qishdan ermakka bosh ko'tarmadim. Xizmatchi qiz damlab kiradigan choynak-choynak choylarni ichib tashladim. Uning kunduzlari o'zini begona tutishi ko'nglimga forom kelgan, sevgidan ham charchaganman shekilli, zanjiri shiqirlasa, kumush

jarangdan ilgarigi zavqim yo'q, asabim o'ynaydi, uni ko'rmasam yo u menga qaramasa, ancha yaxshi, qomusning ustida charchog'imni yozaman.

«G'ulistonning eski va yangi tarixi» degan 23 jildli qomusni, «G'uliston tarixi: afsona va haqiqatlar», «G'uliston tarixiga konseptual yondashuv», «G'uliston tarixiga falsafiy qarash», «G'uliston: zanjir falsafasi genezisi» kabi yostiqdek-yostiqdek tadqiqotlarni hijjaladim. O'qish barobarida asta-sekin bu mamlakatda umuman hech qanday urush bo'lmagan, inchunin, u biron-bir davlat ustidan «to'la va batamom» tugul, umuman hech qanday g'alaba qozonmagan, binobarin, uning hech qanaqa dushmani bo'lmagan, yo'q, bo'lmaydi ham degan fikrga keldim. Shu fikrim o'sib, uning umuman tarixi ham yo'q shekilli, degan xulosaga ham sog'-salom borib qoldim. Shuncha tumanli, atay chalkashtirilgan narsalarni o'qib jinni bo'lmay, yana bir xulosaga kelish haqiqatan ham katta gap, axir. Lekin har qanday mamlakat yo xalqning yaxshimi-yomonmi, bari bir, nimadir o'tmishi bo'lishi kerak-ku! Unda, yo G'ulistonning ikkita: biri – haqiqiy, ammo yashirilgan, aytilmaydigan, ikkinchisi – yasama, soxta, bugun uqtirilayotgan tarixi bor chiqadi. Lekin har ikkalasining ham nimadan iborat ekanini bilish mushkul, haqiqiy tarix bekitilib-bekitilib, xuddi takror-takror ko'milaverib, o'rni ham to'lib-tekislanib ketgan quduqdek, butkul yo'qolgan, yasama-soxta tarix esa azbaroyi o'zgartirilaverganidan tarix deguligi ham qolmagan. O'qish barobarida menda yana bir uchinchi qarash ham tug'ildi. Bu haqiqiysiga ham, soxtasiga ham teskari, ya'ni kelajakdagi tarix. Hozir tushuntiraman: mana, deylik, bizning tariximiz birinchi, o'ninchi, yigirmanchi yil, meloddan oldin, deb sanasi pastga, keyin, birinchi, o'ninchi, yigirmanchi asr deb, pastdan yuqoriga ko'tarilib kelayotir. G'ulistonda esa biznikiga teskari: tepadan pastga tushib boradi. Yanada aniqroq tushuntirsam: biz yilma-yil kelajakka ko'tarilib boryapmiz, ular esa kelajakdan pastga, ya'ni o'tmishga tushib ketayotir. G'uliston tarixchilari yoki ularning yo'l boshchilari mamlakatlari o'tmishini xohlagancha o'zlariga moslashtirishlariga sabab shuki, bu o'tmish kelajakda kechgani yo kechishi kerak bo'lgani uchun biron-bir mamlakat e'tiroz qilolmaydi, e'tirozining o'zi mumkin emas, chunki

G'ulistonning tarixi biron-bir davlat yo xalqning tarixiga to'qnash yo zid chiqmaydi, binobarin, bu yoqdagi biron mamlakatning yo xalq, kelajakda unday yo bunday bo'lgan edi, deb aytishi ham aqlga to'g'ri kelmaydi.

Ularning bu ketishlarida oldinda nimalarga to'qnash kelishlarini tarixchilar butun jahon tarixiga asoslanib aytib berishlari mumkin. Lekin, fahmimcha, bunga imkon yo'q. Bu dunyodan yagona vakil men, tarixdan bilimim esa universitetda «besh» olganim bilan, nomiga, shu ketishda ularning ibtidoiy tuzumga tushib ketishlarini aytishim ham mumkin-u, bir odam, ustiga-ustak, dohiy ham emas, yakka shaxs holida butun boshli bir mamlakat, xalqning tafakkur tarzini o'zgartirishga qurbi yetmaydi deb, istihola qildim. Shu bilan ularning teskari tarixi o'zgarmay qolaverdi, ya'ni hozirgi, o'zlari istagancha o'zgartiradigan ahvolda.

Keyin... bularda tarixni yaratishning ibratli bir usuli bor. Bu yoqda, ya'ni o'zimiz tomonda ayrim yozuvchilarning xayoliy kitoblarida matbuotni, tarixni o'zgartirish usullarini o'qiganman, lekin bularniki anchagina ravnaqli va samarador ekan. Men o'qigan kitoblarda o'tmishda bo'lgan tarix matbuotda o'zgartiriladi, buning uchun maxsus axborot mahkamalari ish olib boradi. G'uliyalar juda oddiy, lekin to'g'anoq bo'lmaydigan usul kashf yetganlar. Ular tarixga murojaat etib o'tirmaydilar, chunki, yuqorida aytganimizdek, tarixning haqiqiysi yo'qotilgan, soxtasi esa betayin, shuning uchun qaysi davr bo'lmasin, kerakli voqeoti to'qilib, bu haqda risolami, kitobmi yoziladi yo bir tadqiqot ro'znomada yoritiladi, keyingi risola, kitob yo ro'znomada bunga asosiy manba sifatida qaraladi, ko'chirma keltiriladi, shu tariqa «ilk ishonchli manbaga murojaatlar»dan keyin haligi bo'lmagan voqeot bo'ldiga chiqib ketaveradi va davlat nazoratida ma'qullangach, qomusga ko'chadi hamda bu yerda endi mo''tabar martabaning tahriri bilangina o'zgaradi. Zero kitobda chop etilgan, ro'znomada yozilgan, hatto radioefirdan havoga uchib ketadigan kalom ham benihoya hurmatda, o'qigan-eshitganni qo'rquvga soladi, shuning uchun ham hech qanday shubha tug'dirmaydi.

Kamina ham, hozir zikr yetganimdek, bir tomoni qiziqish, yana bir tomoni boshqa qilar ishim yo'qligidan, matbuotga, qomus va tadqiqotlarga ko'z nurimni berdim.

G'uliston borasidagi taassurotlarim ham, ko'rganlarim katta yo'l, shahar va bog'hovliyu uning atrof-javonibi bilan cheklangani bois, ko'proq shu o'qiganim manbalarga asoslanadi. Ammo bunda ham o'sha andisha: bu manbalarning qaysisi rost, rosti ham qanday uydirmaga tayangan, aniqlab bilishning sira iloji yo'q, chunki manba manbaga ulanadi, biri birini to'ldiradi, yana inkor qiladi, yana fikr bir joydan chiqqan bo'ladi va hammasi beistisno nazoratdan o'tadi, xullas, rost bilan haqiqatni asl voqeotga taqqoslash iloji yo'q, shubha mumkin emas, g'uliy olimlar uchun esa chop etilgan manba mo'tabar, ya'ni eng oxirgisi, eskisi bari bir o'chib ketadi, o'zingiz bilan o'zingiz bahsu munoazara yuritishning keragi ham, foydasi ham yo'q. Yana «e-e, bor-e», deb qo'l siltaysiz, «Mana, G'ulistonning o'zi bor-ku, uning o'zgarayotgan, rivoj topayotgan bugunida yashayapman, shuning o'zi etadi menga», degan xulosaga kelasiz.

Endi anglagan bo'lsangiz, buning hammasiga hu boya aytganim bosma bo'yoq sababchi, istagan kitob yo gazetani xohlagan paytda yozib-chiqarib, yana ko'ngil tusagan vaqtda o'chirib-yangilash ham mumkin. Qarang, ilmiy izlanishlarni yangilashga qanday imkoniyatlar yaratilgan! Yana har qanday, har tarafga tarmoqlab ketgan izlanishlarni bitta yagona xulosaga olib keladi. Oldingi manbada bunday yozilgan edi, yoki ilgari falon fikr undoq aytilgan edi, endi esa mundoq bo'lyapti degan noroziliklar yo'q, chunki oldingi-poldingilarning hammasi o'chirilib, saralanib, tekshirilib, nazoratdan ham o'tgan oxirgi to'g'ri natija qoladi. Qoyil bo'lasiz. Bizda esa hali ham qancha izlanish bo'lsa, shuncha ilmiy farazlar bor, akademiya degan tashkilotlarimiz ham mo'tabar-u, lekin o'z olimlarimizning boshini bir yoqadan chiqara olmay halak.

Men ham o'qiganim oxirgi manbalardagi xulosaga kelaman-u, lekin hech ko'nglim joyiga tushmaydi. O'tmishi bunaqa, tarixining bo'lgan-bo'lmaganini aniqlash qiyin, moziy haqida yozilgan kitobu qomuslarning ham turumi yo'q, hammasi dudmol, shundoq ekan, G'ulistonning o'zi bormi, yo'qmi, bor desam, nimaga buncha majhul, yo'q desam, unda o'zim qayerda yuribman, shu yerdaman-u, ammo shu yerda emasman shekilli qabilidagi g'alati savollar o'ylantiradi.

G'ulistonda yanglish paydo bo'ldimmi yo meni bular bir hiyla bilan adashtirib olib keldimi, bilolmayapman; agar o'zim kelib qolgan bo'lsam, masala ancha ravshan, yana shunday tasodif ila qaytishga umid yo'q emas, bularning ham tinch-tartibli hayotiga g'ulu solmaganim yaxshi, chunki butun boshli bir xalqni kishandan chiqarishga albatta bitta o'zimning chog'im yetmaydi, g'uliylar bunga muhtoj ham emas, lekin o'zlari meni Toshkent-Jizzax yo'lida tuzoqqa tushirib, endi meni g'uliyga aylantirish borasida ruhiy tajriba o'tkazayotgan bo'lsalar, unda ahvolim juda-juda chatoq. Bular hozircha faqat matbuot, kitobu gazetalar orqali bosim o'tkazmoqchilar, men esa o'zimni hech narsa bo'lmagandek tutyapman.

Arosat

Juda dovyurakligimdan, qaysar erksevarligimdan emas, maqtanishning nima keragi bor, bu yerda xizmatchi g'uliyadan boshqa hech kim men bilan gaplashmaydi, bu ham qorong'ida, qorong'idagi suhbat faqat ishq-muhabbat mavzuida, e-e, qoyil! – deydigan odamning o'zi yo'q, shunchaki ko'nika olmaganimdan. Bo'lmasa, bu yerda zanjirini taqib yurib, chegaradan o'tishim bilan yechib otib yuborishim ham mumkin edi, lekin o'rganolmayapman, qiz hadeb hayron bo'laverganiga bir kishanda yurib ko'ray-chi, qanaqa ekan, deb chog'lanaman ham, lekin, nafsilamrini aytganda, hali g'uliyalar ham, xoldor misolida, shunchaki kutishda, majburlashga ikkilanyaptilar shekilli.

Hozir afsus qilaman, taqib ko'rsam nima bo'lar edi? Shu bilan g'uliyga aylanmas edim-ku, to'g'rimi? Ham zanjirband odamning o'zini qanday qis yetishini o'z tanamda sinab ko'rgan bo'lar, hozir buni bir mutaxassis sifatida ilmiy izohlar edim. Mana, endi u yoqda zanjirbandlarning orasida qanday bo'g'ilgan bo'lsam, bu yoqda, erkin odamlar orasida ularga zanjirbandlikning aslida qanday ekanini tushuntir olmay xunobman. Erkin odamga bu tuyg'u begona, men esa tayyor tajriba turganda o'zimni chetga tortibman. Agar ham zanjirband qiz bilan o'rtamizda bir narsalar bo'lib o'tganini aytmasa.

Bu g'uliya ham juda oqilaga o'xshaydi-yu, lekin suhbatlari g'alati. Kunduzi odatdagidek, juda quruq, “salom, yaxshi yotib turdingizmi, choy damlab beraymi, qorningiz ochmadimi, nima yeysiz”dan nari o'tmaydi – bog'hovlida hordiq chiqarayotgan mehmon bilan unga xizmat ko'rsatayotgan xodima o'rtasidagi rasmiy bir muomala, kechasi og'zimiz bo'shamaydi, bo'shaganda ham entikib nafas rostlashimiz kerak. Avvaliga erkin odam bilan “yurishi”dan qizning esi teskari bo'lib yurar edi, endi esa bizdan dunyoga keladigan farzandning kimga o'xshashini gapiraverib, odamning yuragini siqadi. Bola o'ziga o'xshasa, albatta, zanjirband g'uliy, menga o'xshasa... nima bo'lishiga aqli yetmaydi. Keyin, olmani niyat bilan juda ko'p eydi. Hali tug'ilmagan go'dakni zanjirga solib ko'radi, kelajagi ravshan – o'zi tarbiyalab, bir baxtli g'uliy qilib o'stirmoqchi, men esa hali

o'zini ko'rmagan bolakayning ertasini kishanda ko'rib, ichim eziladi. Bu ham bir qismat ekan, qochib bo'lmaydi. Haligi katta do'konda menga ko'zini tikib o'tirgan bolakay ko'z oldimga kelaveradi. qizni har gal bag'rimga olganimda, bolakay menga: «Nima, esingizni yeb qo'ydingizmi? Oqibatini o'ylasangiz-chi!», deb vijdonimni tirnayveradi. Shunda qizning zanjirini o'zining bo'yniga o'rab bo'g'ib ham qo'ygim keladi-yu, lekin, na iloj, hali qarimaganman, kechalari undan boshqa ovunchog'im yo'q. Bunga ham hayronman, g'uliy qiz bo'lsa ham ehtiyotini qilib yurmaydimi men bilan, tavba, shu tashvishim kam edi deb, boshim g'alvada.

Shuncha pahlavon g'uliy yigitlar turib, qizning meni topib olgani ham sal ko'nglimga botadi. Bog'hovlida faqat ikkovimiz emas, bog'bon-u farroshlar, montyorlar, oshpazlar ham bor. Bir haydovchi yigit uymoshinda ovqatga masalliq tashiydi, binoyiday. Oshpaz yigitni ko'rdim, oshxonadan po'choq olib chiqib qolgan ekan, kelishgan, bama'ni yigit. Simyog'ochga chiqib, nimalarnidir chuqulayotgan yana bir navjavon ham, har qalay, mendan tikroq, tuzukkina, boshqalarning hurmat bilan qaraganidan, kasbi ham yomon emas, daromadi joyida. Eng asosiysi, hammasining zanjiri bor, xizmatchi qiz esa suluv bir mahliqo, istaganini baxtli qilib, o'zi ham shu baxtni tatib yashashi mumkin edi. Lekin tanlagani men, nimamga uchgan, hayronman. Meni sevish vazifasi yuklatilgan unga desam, juda chiroyli, nihoyatda go'zal, shoir bobomiz aytganlaridek, zanjirsiz bo'lsa, «suv yaqosinda paritek o'lturur, g'oyati nozikligindin suv bila yutsa bo'lur», shunday nazokat sohibasining maxsus xizmatda bo'lishi hech aqlga to'g'ri kelmaydi. Yana u ayniqsa keyingi qorong'ilarda tinmay farzand haqida bidirlab, shirin suhbatga xavotir qorishtiraveradi. Maxsus xizmat ham bunday yaqin insoniy aloqalarga ruxsat berib qo'yadigan anoyi emasdir. Agar, xudoning o'zi asrasin meni, uning orzusi amalga oshib qolsa, kichikroqlari bir-ikkita yulduzidan ayrilib, kattaroqlari hayfsan bilan taqdirlanishi turgan gap.

Bunga shubha qilmayman, men bilan katta guruh shug'ullanyapti, hatto muayyan tadqiqot institutlari ham bosh qo'shgan bo'lsa, hech ajab emas va bu tabiiy ham. Ozod insonni g'uliyga aylantirish, bir insonni yangidan yaratishdek olamshumul

gap bular uchun. Bo'lmasa, shunchaki adashib kelib qolgan bir odamga buncha azizlash nimaga? To'g'ri-da, oliy ma'lumotli, universitet bilimlaridan tashqari ham ko'p narsalarni o'qigan, ozodlik tuyg'usi qon-qoniga singib ketgan qaysar bir odamni g'uliyga aylantirishning uddasidan chiqa olsalar, unda... bu ishni keng miqyosga qo'yishlari ham mumkin. Toshkent bilan Jizzax orasida bir kunda qancha mashina qatnaydi? Buning oqibatini, ya'ni men bilan o'tkazilayotgan tajriba nimalarga olib kelishini tasavvur qilyapsizmi? Shuning uchun ham qattiq turishim kerak. Yozuvchi do'stimning ro'monida yozilgan ozodlik harakatidan urvoq ham yo'q bu yerda, birontani ortimdan ergashtirishga intilganim ham yo'q, asosiy tashvishim - o'zimni sog', ozodlik imonimni basalomat saqlash edi, faqat shu g'uliyaga o'ralashib qoldim. Bular meni g'uliyga aylantirishiga erishsa, keyin men yurgan yo'lda yana qancha odam adashishini o'ylab, yuraklarim muzlab ketadi. Tag'in ularga meni, mana, sobiq baxtsiz ozod, hozir esa baxtli g'uliy deb namuna qilib ko'rsatsalar! Xudo ko'rsatmasin.

G'ulilarning dohiysi

Bir kuni xoldor g'uliydan so'radim, chunki uning o'zini oddiy savollarni ham tushunmaydigan qilib ko'rsatishidan charchagan edim.

- Eng, eng kattangiz kim?

U men shu paytgacha devorda qancha ko'rgan bo'lsam, shuncha e'tibor qilmagan rasmga ishora qildi. Ammo rasm meni tushunmas, tabiiyki, menga ham hech narsani tushuntirmas, nuqul buyurib turgan edi, xolos. Ha, ko'ziga qarashingiz bilan uning indamay buyruq berayotganini chin yurakdan his qilasiz. Kim biladi, balki uning ustidan ham kattalar bordir, ular ham hech narsani tushunmas, ehtimol, G'uliston mantig'ining cheksizligi ham shundadir.

Ana shu mantiq tamoyilidan borib, sizni ham chalg'itishimga sal qoldi. Demoqchi edimki, tushunish mumkin, har holda, ko'p o'qiganim uchun ko'p narsaga fahmim etdi. Ular ham keragicha tushunsa kerak, lekin bildirmaydi, agar tamom omi bo'lganlarida bu qishlog'u shaharlar, zavodu fabrikalar, obidayu imoratlar, bog'-rog'u ko'chalar qanday yuzaga kelgan, kimning mehnati bilan, hatto bu shiorlarni kimlar yozgan degan savol ham tug'iladi. Ongsiz mavjudot bularni bino qilolmaydi-ku. Lekin... lekin hamma tushunishlarning sarhadi zanjirgacha! Undan u yog'iga o'tish mumkin emas. Har qancha tushunsangiz ham, bari bir, borib devordagi rasmga taqalasiz, u esa hech narsa tushuntirmaydi, faqat buyuradi. U bilan ham ko'p suhbatlar qurdim. Juda ko'p narsalarni so'radim, o'zim ikkiga bo'linib, bir tomonim u bo'lib, bir tomonim o'zim, chin dildan, hech narsani yashirmay, ochiqcha gaplashib olishga urindim. Kunduzlari yorug'da, kechalari elektr chirog'ida ko'zim bilan teshib yuborgudek rosa qadaldim, oy nuri tushib turganda ham nigohimni uzmay, goh intizor, goh g'azab bilan tikildim, yo'q, o'sha-o'sha buyurib turgan ko'zlardan boshqa hech bir narsani topa olmadim. Tan olish kerak, qarashi qattiq, irodasi juda mustahkam g'uliy ekan. Odamga to'g'ri qaraydi, oy sho'lasida yiltirab turgan qorachiqlarining tubida ham tariqcha ikkilanishni sezmadim. Keyin, uning nigohlari «Xo'sh, men bo'lmasam ahvolding

nima kechar edi? Baxtingga – borman!», deb to'g'risini aytib ham turar ekan. Ayniqsa, kechalari yolg'iz qolib qaragan paytlarim usiz hech narsa emasligimni tuyib, yuraklarim muzlab ketar edi. Rasmiga qaragan har bir g'uliyga shunday ta'kid bilan qarab turadigan bo'lsa, ha, unda bor g'uliyotning tuyg'ulari uning izmida, uning buyurishi bilan o'zi qiladigan ishni bitta deb biladi, binobarin, G'ulistondagi qat'iy tartib haqiqatan ham ishonchli qo'llarda va bu ishonch yana aylanib kelib, har bir g'uliyga singib ketgan.

Men bunga bir kuni bog'hovlidagi olmazorda kezayotib yana bir karra amin bo'ldim.

Yana arosat yoki yana muhabbat sahnasi

Shu kuni olmazorda olma terilyapti ekan. Xosil sayli, xotin-qiz g'uliyalar birovi narvonga chiqib, birovi shoxga minib, qolganlari yerdan cho'zilib, zing-zing zanjir hamohang, shirt-shirt olma uzyapti, ikkita g'uliy yigit olmani qutilarga solib, bir joyga tashib taxlayapti. Mehnat simfoniyasi deymiz-ku, shunaqa, qizlar xirgoyi qilgan, ayollar gap tashlaganda haligi ikki yigit tirjayadi, bularga yer ostidan qaraydi, hingir-hingirga xotin-qizlarning zanjiri sho'xchan sado bilan, bularniki go'yo tortingandek sekin zingillab jo'r bo'ladi. Mendan boshqa hammasi shunday, o'zi gapiradi, zanjiri esa jingirlaydi. G'uliyalardan tovush chiqib turadi, faqat kaminadan sado yo'q, ular ham menga qaramaydi, gapirmaydi, umuman e'tibor qilmaydi. Xuddi o'zim ham bu yerda yo'qman, bir shu olmazorga chizilgan portretman yo ular olma terayotganlarning jonli surati. Ayollar uyalmay ko'zini ma'noli qisadi, yigitlar yolg'ondan sholg'omdek qizaradi. Begona odam qarab turibdi, yana mehmon degan andisha o'lgan. Go'yo ko'zi, qulog'i yo'q jonsiz bir buyumman, bamisali shoxlari kesilgan tikka to'nka. Ko'z oldimda bir qichiq kino qo'yilayotgandek. Odam bor demaydi-ya. Shu qadar behurmatlik.

Yoshroq bir juvon g'uliy bor ekan, parpasha ko'ylakli, dirkillab, ko'ylagini yorib chiqay deyotgan quymichlarini kishani zo'rg'a ushlagan, haligi quti tashiyotganning bittasiga ishva qilaverdi, oxiri yigit chidamay, unga olma otdi, bu olmani ilib olib, cho'ntagiga solib qo'ydi-da, nozli kuldi. Yigit, hayajonidan eshkanlab ketdi shekilli, yana olma otdi, juvon ilolmay qolgan edi, olma tarsillab quymichiga tegdi. Arazlab, po'pisa qilsa kerak degan edim, yo'q, yana yigitga ko'zini qisdi-da, sekin qiyqirib, hosilidan erga chodirdek solingan olmaning tagiga yugurgiladi. Turgan gap, o'pkasini qo'ltiqib, zanjirini shiqirlatib yigit ham o'sha yoqqa chopdi. Olma ikkalasini ham bag'riga yashirdi, nima bo'layotgani tushunarli, ishqilib, u yoqdan kalta-kulta shirq-shirqdan boshqa tovush chiqmay qoldi. Faqat bu yoqdagi ayollar bir-birlari bilan takror-takror ma'noli ko'z urishtirdilar, endi quti tashish bir o'ziga qolgan bu yigit ham juda ochiqcha ishshaydi. Barisining zanjiri kinoyali jo'rovoz jiringlab berdi. He, ichlaring yonib

ketyapti-yu, yana o'zlarini pokdomon ko'rsatmoqchi bo'lasizlar, dedim ichimda. Hamma joyda ham oshiq-ma'shuqlarning ishi qiyin deb, olma tagiga kirib ketganlarga mehrim ham tovlandi. Nima buncha qolib ketdi bular, ishni kim qiladi deb, borib qaramoqchi ham bo'ldim. Olmaning shoxlarini yirib, bundoq ko'radigan bo'lsam... qanday ahvolda ko'rishimni siz ham tasavvur qilasiz, albatta. Avval juvon yilt etib qaragandek bo'ladi, keyin yigitning boshi men tomonga burilib, nigohi Yonimdan o'tib ketadi. Lekin... lekin hech narsa o'zgarmaydi. Ha, xuddi men yo'qdek! Tariqcha uyalmaydi. Kuppa-kunduz kuni, hech kimdan bekitmay, bemalol... he, yuzsizlar, qaramaganim bo'lsin-e, har qanday sevgi-muhabbat ham sal bekitiqcha bo'lsa jo'yali-da deb, burilib chiqayotgan edim, darvoza tomondan bir traktorning tarillab kelayotgani eshitilib qoldi. U yoqdan traktor ko'rindi, bu yoqdan, olma tagidan hech narsa bo'lmagandek, yoqasini to'g'rilab, etagini tekislab juvon otilib chiqdi. Sochining turmagini silliqlab, to'g'nog'ichini tishlagan ko'yi shunday shirin ishva bilan qaradiki! Vo-o, axloqni ko'ring. Bu gal endi traktorda o'tirgan yigitga. Go'yo olma tagida uni sog'inch xayol surib uyquga ketganu hozir traktori tovushini eshitib, quvonchdan sachrab uyg'onib ketgandek. Shunaqa samimiyki, hozirgina pana joyda boshqa yigit bilan dilguftorlik qilganiga sira-sira ishonmaysiz. Ko'rib turib men ham sal oldin olma tagida bo'lgan ishlar shunchaki ko'zimga ko'ringan shekilli deb, bular qalin do'stga o'xshaydi-ku, og'aynisining xotini bilan olma tagida undan-bundan gaplashib qoldi chog'i deb shubhalanib qoldim. Haligi don olishish, xo'-o'sh, mumkin emasdek tuyuldi. Juvon u yigitdan ilib olgan olmani cho'ntagidan chiqardi-da, xuddi atay asrab qo'ygandek, traktordagi yigitga otdi, u ham olmani ilib olib, juvonga mamnun termulgancha, labi-lunjini yig'ishtirolmay, xuddi qahraton qishda bozordan tansiq narsani topgandek, karsillatib yeyishga tushdi. Hayro-on bo'ldim, juvon ikkalasini ham sevadi, lekin qaysi birini tanlashga qiynalyapti, unisi yaxshi desa, bunisi, bunisi yaxshi desa, unisi ko'ziga olovdek ko'rinyapti, deb o'yladim. Lekin keyin boshqalar bulardan ko'z uzmagani holda yana bir-birlariga imo qilib, yana o'sha olma tagiga ma'noli tikildilar, vah-vah deb, bosh chayqadilar, zanjirlarini sho'x-sho'x jiringlatdilar, shundan juvon bilan bu traktorchi yigitning hech qanday oshiq-

ma'shuq emas, halol juft ekanini darrov bilib, fikrlarim o'zgarib ketdi. Tavba, shunchasi ko'rib-bilib turgan narsani er jonivor bilmasa, guvohlar aytmasa ham, xotinining xiyonatini o'zi sezishi kerak-ku, shuncha haftafahmmi, yana o'sha xotinboz uzib yostiqdoshiga bergan xiyonat mevasini o'zinga atalgan deb o'ylab, huzur bilan, so'lagini oqizib esa! Tag'in traktor ustida g'o'dayib o'tirishini qarang. Ko'zi ochiq ko'rmi deysan. «He, xoldor, - dedim ichimda, - Maqtanma, g'uliysoz, hunaring oz. Fuqarongni zanjirband qilasan, lekin uning tuyg'ulariga kishan sololmaysan. Mana, ko'ryapsanmi, maqtagan muazzam tartibing ostida nimalar bo'lyapti? Bir qoshingda xosiyat belgisi bo'lsa ham, aqling hamma narsaga yetavermas ekan.»

Shunda mazkur manzarani har tomondan o'ylab ko'rdim:

a) birinchi olma otgan yigit juvonni sevadi, juvon bilan endi murod-maqsadiga yetaman deganda, eri traktor minib kelib qoldi, juvon noiloj, sevgisini tark etib, eriga peshvoz chiqdi va ikki o'rtada azobda qoldi;

b) xotini o'ziga otgan olmani karsillatib yegan traktorchi ham jufti halolini sevadi, lekin xotinining u yigitni sevsammi yo sevmasammi deb ikkilanib yurganini sezadi va olma tomog'iga tiqilib, kekirdagini yulib ketay deb tursa-da, jilmayib yegan bo'ladi, azbaroyi xotiniga yordam berish, ya'ni o'zining ustunligini ko'rsatish uchun; bu mard yigitning azobi;

v) juvon ikki yigitni ham yo sevadi, yo sevmaydi, sevsa, demak, ikkalasiga ham samimiy, muhabbati toza, faqat ikkita, sevmasa, unda juvon juda baxtsiz, erga tekkan, yana o'ynashi bo'lsa-da, hayotidan rozi emas, u hamon muhabbatga tashna;

g) birinchi bo'lib olma otgan yigit esa hali muhabbat nimaligini bilmaydi, juvonga yurakdan intiladi-yu, lekin nima uchun uni ko'rgisi kelaverishini o'zi ham tushunmay, qizarib-bo'zarib yuradi...

Xullas, uchalasining ahvoli ham yaxshi emas, bunga esa ularning oyoq-qo'llari, bo'yinlarini chulg'agan zanjir sababchi, o'rtadagi muhabbatga o'xshagan narsa ham aslida zanjirga qarshi tilsiz isyon, zero xiyonat ham isyondur, lekin buning isyon ekanini hali o'zlari anglash darajasiga ko'tarilmagan, chunki ular zanjirband va hokazo... Xullas, sirtdan aniq zino, ikkovining olma ostida qolib ketishlari ham buni tasdiqlaydi, lekin sevgi-muhabbat borasida chalkashlik, keyin bexabar ugmrohlik ham bor.

Ana shunaqa chuqurroq o'ylar girdobiga tushib, nihoyatda teran mulohazalarga boryapman deb tursam, xizmatchi g'uliy chiqib qolib, xayollarimni ham, g'uliy larni ham to'zitib yubordi. Hiring-hiring, pisqin otishlar tappa bosilib, bor g'uliy guv-v ishga yopishdi, traktorchi yigit yeb turgan olmasini yarim g'ajilgan holida shartta ko'ylagi cho'ntagiga yashirdi, muhabbat go'shasidan u yigit ham uchib chiqib, qutilarga tarmashdi. Bir zumda mehnat simfoniyasi tiklandi. Juvon ham xizmatchi g'uliyaga xavotir bilan qarab qo'yib, olma terishga zo'r berdi. Xizmatchi g'uliy esa hech kimga hech narsa degani yo'q, do'q ham urmadi, buyruq ham bermadi. Shunchaki, qo'lini peshbandiga artib, jilmayib turaverdi. Indamay to'xtab qolganidan angladim – meni choyga manzirat qilyapti. Lekin bularning yuragi qinidan chiqib ketayozdi.

Ko'nglimga ana shunda shubha oraladi. O'zi sal gumonim bor edi, oldinroq aytdim ham shekilli, lekin bu yerda ancha oydinlashdi. Ha, bu qiz oqsoch ko'rinib, menga choy damlab, ovqat tashib yurgani bilan oddiy xizmatchi emas, yo mana shu yerda olma terayotganlarnng ustidan ham katta yo... ishqilib, ko'rinishi bilan bularning mazasi qochdi-da.

Munday sirtdan qarab, bir narsani payqamaysiz, andomi o'ziga yarashig'li, xushhol-sodda bir munisa, yana siniqqina jilmayib yuradi. Lekin uning shu jilmayishini ko'rgani zahoti haligi juvonning beti soliqib, xuddi yuzidan artib tashlagandek, bor chiroyi qum o'chib ketdi. Boshqalarining ahvolini aytdim. Ana shu noziknihol g'uliyaning qudrati, meningcha, bularning zanjirini yechib tashlashga ham yetadiganga o'xshaydi-yov.

Endi o'zimni jiddiy tutishga intildim. Shu paytgacha hazillashib yurganga o'xshayman. Qiz bilan o'rtamizdagi munosabat muhabbat yo shunchaki ko'ngil mayli emas, chuqurroq, bo'yimda u-bu deganlari ham odamni gumonlarga tortib ketadi. Qorong'i kechalari quchog'ida hayajondan o'zini unutib yuboradi, boshi aylanib, tili ham shirin galdiraklab qoladi, sim-siyohda ham gul-gul qizarganini sezaman, shunaqa paytlari mening ham mehrim tovlanadi, xo'p, xullas, muhabbatga shubha yo'q, lekin zanjirini silashim bilan ko'nglimga g'ashlik oralayveradi. Doim o'zi bilan bo'lgandan keyin silamay ham iloj yo'q, bari bir, qo'ling tegadi. Ammo menga hali zanjir taqsangiz degani yo shama ham qilgani yo'q, gaplari bari ishq oldi-berdisi. Chiroq uch-to'rt kun o'chmay qolib, keyin nihoyat ko'rishsak, sog'inchini shu qadar hasrat bilan aytadiki, ko'p narsani unutib, shu menga talpinayotgan bokira qalb haqqi, kel-e, zanjir taqsammi ham, deb yuboraman. Balki niyati ham shudir, g'uliy qizga ko'nglimni ilitish bilan zanjirga mehr uyg'otmoqchi, G'ulistoniga husni rag'batimni oshirmoqchi bo'layotgandir, deyman. Lekin hali murg'ak bolakayning menga bitta qaraganini kelajagiga yozib qo'ygan mahkama bo'lajak o'tmishda zanjirsiz yurganimni shunday qo'yib qo'ymas degan o'yga ham boraman. Bilmadim, bilolmayapman, har qalay, g'uliy qiz bilan o'rtamizda ishqdan boshqa ham nimadir narsalar borga o'xshaydi. Hammasidan ham unga bog'lanib qolayotganim chatoq bo'lyapti.

U emas, bu emas, ko'p o'ylayverganimdan bog'hovlidagi mehmonligim ham asta-sekin zahar-zaqqumga aylana boshladi. Shubha ko'nglimni iskanadek o'yadi, yana o'sha o'ygan joyini burg'ilaydi, qizni erkalatishimga ham ishonchsizlik aralashib, uning suyishlari ham malol kela boshladi. Nuqul nimaga meni sevding, deb shirin azoblagim keladi, holbuki shu savolga o'zimda ham ma'nili bir javob yo'q. To'g'ri-da, muhabbat sababini so'rab o'tiradimi? Muhabbat haqida ko'p gapiraman-u, lekin o'ylab ko'rsa, bu ham yigitchilikda bir don olishish o'zi. Eshitib qolsa xafa bo'ladi deb, sevgi-muhabbat deb aytyapman-da.

Tabiat baribir yurakka yaqin-da

Bir kuni kechasi bog'hovliga chiqib, xiyobonda sayr qildim. Ichkarida chiroq o'chgan edi, zinapoyada mahliqo kutayotganini bilsam-da, qaytmadim.

To'lin oy. Osmon kumush gard elaydi. Daraxtlar yopingan chodirlar xira yiltiraydi. Sokin oqshom. Shunaqa damlarda yaqining bilan o'tirib, oy, osmonga, sut oydinda cho'milib, junjikibgina turgan daraxtlarga qarab, ko'nglingdagi sirlarni sirlashging keladi. Shabada erkanib, pochalarindan sirg'alib kiradi, hamma yog'ingni beibo silaydi, paypaslab ko'radi, keyin yana sekin yoqangdan chiqib ketadi. Badaning, har bir hujayrang salqinga rohat qilib intiladi. Huzur! Osmon – huzur, oy – huzur, daraxtlarning senga some turishi – huzur, o'zing ham nuqul huzurga chulg'angansan.

Nimagadir shu payti ko'chadan kelgan «no'l to'qqiz»ning tovushiga hah-hah deb yopiq darvozaga pildirab chopadigan Pahmoq -Ahmoq kuchugim ko'z oldimga kelib, ko'nglim g'alati bo'lib ketdi.

Bunday chamalab ko'rsam, endi qo'rqmay qo'yibman. Qo'rquv ham g'alati narsa, birinchisida. Hali u kichkina payti qo'rqasiz, shunda ham dastlabki hamlasida, u kattarib, ya'ni juda katta qo'rquvga aylanib, chek-chegarasini ko'rmasangiz, qo'rqmay qo'yasiz. Chunki inon-ixtiyoringizni unga topshirasiz, uning ichida, bag'rida bo'lganingizdan keyin sizni uning o'zi himoya qiladi. Qo'rquv qo'rqinchli esa-da, yaqin qadrdoningizga aylanadi, qo'rqmay qo'yganingizda esa yana uni o'zingiz axtara boshlaysiz. Qo'rquv shunday tahdid solib turibdi-ku, nimaga qo'rqmayapman deb. Anglayapsizmi? Shu ma'noda qo'rquv nihoyatda kerak ham. Odamning hushyor tortib yurishi uchun. Mening esa G'ulistonga kelib qolganimdan qo'rqmay qo'yganim uchun hushyorligim ham pasayib qolganga o'xshaydi. Adashib boshqa, zanjirbandlarning yurtiga kelib qolganim, qaytish umidi ham puchligini bilib turgan holimda bu vaziyatdan chiqishga uncha intilmayapman, xuddi vaziyatning o'zi meni suvda oqizgandek, ilgari holatimga, ya'ni Toshkent - Jizzax yo'lida ketayotgan paytimga chiqarib qo'yadigandek.

Shuni kutib ham, nima, qizni shu ahvolga solib, yana nomardlik qilib tashlab ketamanmi degan vijdon g'imirlashlari ham bor. Shuning uchun ham ko'nglimning tub-tubida uncha ketgim ham yo'q.

Ammo shu kecha ko'nglim sal yorishib, g'uliyalar ko'zimga boshqacha ko'rinish boshladi. O'ylab ko'rdim, shu paytgacha ularga ichimda bir g'animlik bor ekan. Menga qaramayotganlari alamidan. Axir, ulardp hpi ayb yo'g'-u. Ular mening yurtimga borib qolgani yo'q, men keldim bularnikiga. Hatto adashtirgan bo'lsalar ham, o'z oyog'im bilan, ya'ni mashinamda o'zim keldim. Ular g'uliy, men g'uliy emasman. Shundoq ekan, ko'zlariga qanday ko'rinishimni ularning o'zi biladi. Balki boshqa toifadagi bir jonzot sifatida, ehtimolki, ashaddiy aksilg'uliy, har qalay, begona bir jonzot bo'lib...

Endi o'zimga bir g'uliy bo'lib qarashga uringan edim, ular ham ko'nglimga ancha yaqinlashib qoldi. Hali olmazordagi g'uliyalar ham hamdardlik uyg'otdi. Ularni zanjiri bilan birga tushunishga harakat qildim. Shu paytgacha g'uliyalarni kishanda ezilib, dardini ichiga yutib yurgan deb, yaqin olib, ya'ni beixtiyor o'zimga hamdardlik kutib yurgan ekanman. Endi anglasam, ular zanjir asoratidan mutlaqo azob chekmas, faqat azob emas, o'ng'aysizlik ham sezmas, kishanband bo'lsalar-da, hayotning hamma ne'matidan, hatto ayyorligu xiyonatlardan ham bebahra qolmasliklarini teran his etdim. Kishandagi hayot o'zlari uchun shu qadar o'rganish, shu qadar o'ng'ay, yaxshi ediki, endi zanjirsiz ham bemalol yurgan odamni, ya'ni meni ko'rib, xotirjamliklarini buzmaslik uchun, ko'rmaslikka olishlarining tabiiyligini ham angladim. Shunda hammasi menga yaqin bo'lib qoldi. Olmazordagi g'uliyalar, ayniqsa, haligi uch oshiq-ma'shuq, mayli endi, g'uliy bo'lgandan keyin, unisi bunisiga xiyonat qildi, yo bunisi unisini aldadi, menga farqi yo'q, uchalasi ham zanjirda-ku.

Qizga ham muhabbatim ortdi. Unga, xoldor g'uliy aytganidek, bulardan ham katta bo'lgandan keyin, albatta, ko'proq tushunmaslik vazifasi yuklatilgan. U ham olma terayotganlarni nazoratda tutishi, ham o'zini nazorat qilib turganlarning oldida hushyorligini yo'qotmasligi kerak. Ham, yana men bilan ishq-muhabbat savdosi.

Bechoraga naqadar mushkul. Men esa shu paytgacha qizni qachon xayolimga keltirsam, uni zanjirdan qanday xalos yetishni o'ylab yurgan ekanman. Zanjirdan qutulish esa uning parvoyiga ham kelgani yo'q. Aksincha, balki zimdan meni zanjirband ko'rishni orzu qilar. Men bunga hayotda ko'nmasam-da, uning ham tariqcha aybi yo'q. Uning qanchalar maxsus xizmatda bo'lmasin, bari bir g'uliy qizligini, g'uliychasiga orzu qilishga yuz foiz haqqi borligini tushunaman.

Bir yolg'on o'nlab yolg'onlarni bolalatadi

Ana shu jihatlarini hisobga olsak, yozuvchi do'stim o'z ro'monida men aytib bergan tayyor sarguzashtlarni evini keltirib yoza olmagan, o'zidan to'qiyvergan, oddiy aytganda, g'uliyotning yaqiniga ham borolmagan, ruhiyatini tushunmagan. Axir, ularda g'uliy bo'lishlariga qaramay, bari bir, qalb ham bor-ku. Yozuvchi do'stimning ro'monidagi g'uliylar hech qanaqa g'uliy emas, uning o'zi o'ylab topgan, shunchaki odamlarga zanjir taqib qo'ya qolgan, mana, mendan so'rang, bunaqalari xayolda ham, hayotda ham yo'q, bo'lmaydi ham. Ro'mon ekan deb, tagini surishtirmay yozaveradimi!..

Eng birinchi uydirma, oldinroq ham aytdim, g'uliylarning zanjirga qarshi kurashishi. Men bu yoqdan borib qolib, darrov atrofimga fikrli, hushyor g'uliylarni to'plab, yashirin tashkilotlar tuzib, zanjirga qarshi tashviqotni boshlar ekanman-da, menga ergashganlari soni ham kun-kundan ko'paygan emish. Bu yolg'on, o'zim ham qalamkash bo'lganim uchun, bunaqa o'tiriklarning qanday to'qilishini yaxshi bilaman. Eng avvalo, meni qahramon ko'rsatishning sira keragi yo'q edi, bunga zor ham emasman, o'quvchini aldashni gunoh sanayman, keyin, bunaqa tashviqotni eshitadigan g'uliyning o'zi yo'q G'ulistonda, ularning hamma quvonchu tashvishlari zanjir bilan, binobarin ular ayni shu kishanbandligidan baxtiyor, zanjirlarini sevadi, unga sig'inadi. O'zim televizorlarida ko'rdim, ko'rsatuvlari, davra suhbatlarida zanjirlari haqida faxr va g'urur bilan gapirishlarini diqqat bilan kuzatdim, kassetaga yozib olib, sekinlatib ham qo'ydim. Yirik planda olingan kadrlarda ko'zlaridagi ifodani, gapirayotganlarida lab harakatlarini o'rgandim, hayajonlanganlarida nafas olishlariga qarab, yurak urishlarini sanadim, jumla bo'laklari orasidagi to'xtamlarini hisobladim va albatta aytimlariga hamohang zanjir ohanglarini shoyon e'tibor bilan tahlil etdim – hammasi tabiiy va samimiy, hech qanday soxtalik, yolg'on yo'q edi. Bilasiz, odam o'rgatilgan, yodlab olgan gapini ravon, til qoidalariga amal qilgan holda juda silliq gapiradi, tutilsa ham darrov eslab, o'zini o'nlab oladi. Qancha chiroyli badiiy etib sayramasin, eshitgan odam ham uning qog'ozga qaramasa-da, majburan gapirayotganini his

etadi, yana o'sha gapmi, bilamiz-ku, deb ensasi qotadi. Men buni televideniada ishlaganda juda ko'p ko'rganman. Shunday odamlar borki, hatto o'rgatmasangiz, yodlatmasangiz ham o'zlari siz kutgan kerakli gapni to'tiday takrorlab beradi. Ular aynan qanday gap kerakligini biladi, shuni aytaverib pishib ketgan. Chunki shunaqa gaplarni aytish bilan kimgadir yoqib, amallari ko'tarilgan yo boshqa yaxshiroq ishga o'tganlar, ba'zan esa xayollariga kelmagan osmon qadar baland martabaga chiqib ketganlar. Yana katta bir qismi egallab turgan amalidan ayrilmaslik uchun ham boshqalarning, yuqoriroq amaldagilarning gapini yodaki aytaveradi. Men hatto bir kuni yurak yutib katta bir odamdan: «Nimaga bunaqa deysiz, bu sizning gapingiz emas. O'zingiz ham ishonmaysiz-ku?», deb so'radim ham, u avval atrofga alanglab, keyin yuqorida ilingan rasmga qarab qo'yib, shunga ham qanoat qilmay, qo'lini ko'ksiga qo'yib, sharaflagandek bo'ldi-da (meni emas, albatta), «Ko'ryapsiz-ku, kerak, kerak, kerak», deb uch marta takrorladi, keyin «Eh, shunaqa gaplarni gapirib nima kerak sizga? Bilmaysiz-da», deb qo'shib ham qo'ydi. Yo'q, men bilib turgan edim, lekin balki hali bilmaganim ham bordir deb devordagi rasmga qaradim, unda ham yana biladigan hech narsa yo'q, faqat «Men hammasini bilaman», degandek mayin jilmayib qarayotgan edi, xolos. Ha, o'sha tanish soqolchasi bilan albatta. Bunaqa holatlarni juda ko'p ko'rganman, o'rganib ketganman, nima deyishni bilmay shoshib qolganlarga tayyor gapni o'zim ham o'rgatib turaman, shuning uchun rost gap bilan soxta nutqning farqiga juda yaxshi boraman.

Lekin g'uliyalar intervyu berganda bunday emas. Ular o'ta samimiy, zanjirga chin yurakdan sig'inadilar. Ishonadilar, hamma balo-qazodan asraydi deydilar, ammo asraydi ham u. Biz bir narsani tilaganda o'zimizga dam solib qo'ysak, ular zanjirlarini sidqidildan silaydilar, bir qo'llari yo ikki qo'llaridagi kishanni ko'zlariga surtadilar.

Yozuvchi do'stimning ro'monida yozilganlarni endi mening ko'rganlarimga solishtiravering. Uni yana bir o'qing, qanchalar haq ekanimni bilasiz. Do'stim, birovning emas, o'zimning do'stim bo'lsa ham, kitobxondan obro' olish umidida

ko'pirtirib yuborgan. G'uliylar zanjirga qarshi kurash boshlar emish-a! Evi bilan-da. Evi bila-an!

Asli o'zi do'stimning shu ro'monini yozayotganidan xabarim bor edi, bir ko'z tashlab beray deb, so'radim ham, lekin o'qitmadi, xayoliga xalal berar, ijodiy niyatlariga putur etkazar emishman. Mana! Ko'rdik ijodiy niyatlari mevalarini! Axir, ijod yolg'on degani emas-ku. Zanjirga qarshi kurashgan g'uliylar haqidagi ro'monni G'ulistonda bostirganda ham boshqa gap, balki bahs uyg'otib, g'uliylarni o'ylantirar edi, lekin bu tashviqotning bizga nima keragi bor? Biz, axir, shusiz ham erkinlikni sevamiz, ozodlikka jonimiz fido, kuy-qo'shiqlarimiz ozodlikka bag'ishlangan, shiorlarimiz erk, hurlik haqida. Bir kun ham erkinlikni o'ylamay yashamaymiz. O'zimiz ozod bo'lsak, ozodlikni shusiz ham sevsak, shundoq ekan, yana unga targ'ib qilish chikora?

Undan ko'ra yozuvchi do'stim g'uliyotning bu qadar yakdillikka qanday erishgani va uni qanday saqlab turishini yozganda, balki falsafiy-etnografik nuqtai nazardan ancha qiziqarli asar chiqar edi. U shunga eringani uchun endi shu diqqatvozlikni zimmamga olishga o'zim majburman. Zerikarli yumush, lekin nihoyatda kerak, axir, odam doim bir xil turmaydi-ku. Ozod, erkin yashashning ham qadriga etib yurish uchun g'uliyotning ahvolini bilib qo'yish kerak.

Zanjirning tarixda kelib chiqishi va qoidalari

Xo'sh, eng avvalo, hech bir narsa lop etib osmondan tushmaganidek, g'uliylar hozir taqib yuradigan zanjir shu shaklida o'zicha paydo bo'lib qolmagan. «Buyuk ne'mat genealogiyasi va zanjiriy qarashlar tarixi» degan zarhal muqovali o'n jildli tadqiqotni varaqlab, zanjirning kelib chiqishi, shu shaklda urfga kirishi borasida g'oyatda qiziqarli ma'lumotlarni o'qidim. Aqlim yetganicha aytaman. Eng avvalo, ilk bosqichda, biz buni ibtidoiy davr deymiz, g'uliylar ishton kiyishni o'rganishdan ham oldinroq zanjirga chulg'anishni boshlagan ekan. Bunda, tabiiyki, u paytlari metallurgiya yo'q, temir quyishga hali minglab qovun pishig'i bor, ular chirmovuq o'tning pishgan-pishiq bandlariga avval osilib yashab, keyin o'zlariga osib yurishni o'rgangan. Albatta, chirmovuq bandi ko'p turmaydi, qurib, mo'rtlanadi; qaysidir ilk g'uliy dahoning kallasiga kelib qolgan buyuk ixtiro bilan sambittol novdalarini bir-biriga halqa qilib o'tkazib, zanjirga o'xshagan tushov tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Keyin, avval toshdan, keyin tunch-bronzadan sal-pal kesadigan pichoqsimon asbob kashf etilgandan so'ng, zarang yog'ochdan o'yib zanjir yasash urf bo'lib, bu ham bir qancha asrlar chidab bergan ekan. Yog'och zanjir nechog'li o'ng'ay bo'lib, havo yoqqan paytlari ho'llanib, yumshamasin, bari bir yengilligi uchun tartib mas'uliyatini uncha yuklamas, mamont – hu o'sha, badhaybat baroq yovvoyi fil, tishi ham ham qiyshayib ketgan - ovlagan paytlari sinib qolib ham pand berar ekan. Yana u zanjiriy qarashlar o'rtasida qator ijobiy tafovutlar paydo qilib, g'uliyot jamiyatiga nifoq solishga ham olib kelar ekan. Ya'ni, u paytlari texnika yaxshi rivojlanmagani, o'lchov-hisoblash uskunolari takomillashmagani sababli zanjirning halqalari soni va shakli borasida ham ancha ixtiloflar kelib chiqqan. Bir xil najjor ustalar cho'zinchoq halqalarni qulay topsalar, boshqa birovlar osongina to'rtburchak shaklini, yana ayrimlari halqaning to'g'ri to'garak ko'rinishini ma'qul ko'rganlar. Keyingi shu ikki usul keng tarqalib, ularga tarafdor muxlislar ko'paygan va, tabiiyki, nazariy asoslari ham ishlab chiqilgan. Chunonchi, doira halqachilar butun olam asosida aylana yotishi, yer kurrasi ham dumaloq ekaniga tayansa, keyingi toifa to'rtburchak, kvadrat halqada mustahkamlik ramzini ko'rib, g'uliy o'zi qo'li bilan bino qiladigan juda ko'p

narsalar, jumladan uylarning ham tarhi, devorlari to'rtburchakka asoslangani bilan isbotlashga uringan. Zanjir halqalarini uchburchak, beshburchak, olti-ettisakkizburchakli qilib yasaganlar ham bo'lgan, lekin bunaqalari tarqalmagan. Ammo burchak sonlari borasida juda ko'p tortishuvlar kechganda, keyin bir dono g'uliy chiqib, hamma burchaklar, muayyan sonligi ham, cheksizi ham doirada mavjudligini kashf etib, bu bahslar barham topgan. Undan besh asr keyin tug'ilgan bir shogirdi esa yer kurrasi va quyosh orbitalarini hisoblab, halqaning ellips shaklini kashf qilgan, ba'zi eskichi g'uliyalar e'tiroz bildirganda, u soddagina, lekin dohiyona misol bilan ustun kelgan. Ya'ni u oddiy tuxumni, mana, ishonmasang, ko'r-e, deb tuyaqush tuxumini ko'z-ko'z qilgan. Tuxum dumaloq holida bir tomonga sal cho'zilib, yer orbitasi aylanisini takrorlagan ham ekan-da. Shu bilan boshqa hamma nazariya va shakl tarafdorlari bir fikrda to'xtab, zanjir halqalari shakli kim necha yildan beri shu andazada kelayotgan ekan.

Shu o'rinda ularda qadimiy davrlardayoq handasa ilmi ancha oldinga ketganini ta'kidlab o'tish joiz. Hali aljabr kashf etilmasdan oldinroq ham ular doira va burchaklarni hisoblash darajasiga yetganlar.

Keyin, ancha asrlar o'tib, g'uliyot mis olishni o'rgangan, shu bahonai sabab, mis zanjir ham juda keng tarqaladi, lekin u ko'p turmagan, birinchidan, yengilligi, shu tufayli mas'uliyatni susaytiradi degan qarash bois unga qarshilar ko'paygan, ikkinchidan, halqalar bir-biriga ishqalanib, tez yeyilib qolgan, bir zanjir voyaga yetgan erkakka bir umrga yetmagan. Lekin g'uliyalar zanjir genealogiyasida, binobarin, dunyoqarashlari shakllanishida misning ham juda muhim o'rin tutganini ehtirom bilan ta'kidlaydilar.

Keyin bronza – tunch eritish takomil topib, tartib mas'uliyatini yanada salmoqli qiladigan tunch zanjirlar quyila boshlagan. Tunch uzoq turgan, g'uliyot zanjiriya falsafasining taraqqiyotida ham muhim bosqichga aylangan. Hu hali menga xoldor g'uliy aytgan yeru quyosh, butun olamning doiraviy harakatiga asoslangan muazzam tartib borasidagi zanjiriy qarashlar ham shu davrda qat'iy yo'nalishga tushgan, bu g'uliyotning ongli qabilaga aylanishiga sabab bo'lib, zanjir taqadigan

tarqoq qabilalar birlashgan, bitta umumiy «g'uliy» degan atama ostida markazlashib, «G'uliston» degan mamlakatning tamal toshi qo'yilgan. Ko'ryapsizki, zanjir ular uchun biz tushunadigan kishan yo shunchaki bezak uchun taqiladigan narsa yoxud tartibning ramz yuki emas, balki g'uliyini haqiqatan g'uliy darajasiga olib chiqqan, unga vatan bergan, geosiyosiy nuqtai nazardan ham muqaddas bir... bilmadik, har qalay, narsa deb aytishga til bormaydi.

Yozuvchi do'stimning masalaga chuqur kirmaganiga endi ishonayotgan bo'lsangiz kerak, albatta.

Tarix haqidagi suhbatimizni davom ettiradigan bo'lsak, men haligi qomusni o'qib, o'qiganlarim hali o'chib ketmay, shunga amin bo'lib ulgurdimki, g'uliyot tunchni qancha e'zozlamasin, haykallarini haligacha tunchdan quymasin, bari bir, u salbiy oqibatlarga ham olib kelgan. O'sha, keling, shuni tunch davri deylik, undan oldin mis davri, undan ham ilgari chirmovuq davri, undan ham burun esa hech qanday davr yo'q, bo'lgan bo'lsa ham, zanjir taqilmagan davrlar tarixdan o'chirib tashlangan; faqat bir iltimos, bizdagi mezozoy, kaynozoy yo tosh, bo'r davrlari bilan adashtirmang, ularda davrlar zanjirning o'sha vaqtlarda nimadan yasalganiga qarab atalgan. Xo'sh, mana shu tunch davri etnografiyasi va tibbiyotiga oid tadqiqotlarini o'qiyotib, juda g'alati faktlarga duch keldim: ayni shu taraqqiyot bosqichida g'uliyilar orasida bukrilar juda ko'payib, sog'laridan ham ko'pining bo'yin umurtqasi nobop shikast yeb yurgan, yana hayvonlarni ovlash nihoyatda qiyinlashganidan ocharchiliklar kelib chiqib, ularning gavdasi ham nimjonlashib qolgan ekan. Tadqiqotda bunga sabab qilib, u payti g'uliyning ongi murakkab sotsial masalalarni uncha tushunmaganida deb ko'rsatiladi, lekin men, ularning kosa tagidagi nimkosalarini tez biladigan odam, darrov angladimki, masala mutlaqo boshqa tomonda. Tunch og'ir bo'lgan! Ha, tunch zanjir zalvori bilan g'uliyini pastga tortib, bo'ynini ezib yuborgan va tabiiyki, yurishi, yugurishiga xalal berib, ovi baroridan kelishiga ham qo'ymagan. Bir jihatdan, tunchning o'ziga, keyin albatta, muazzam tartibot ramziga sajda darajasiga yetgan hurmat tufayli, bu haqda lom-mim deyilmaydi, o'sha paytlarda zanjirdan norozilik bor ekan degan

xulosa kelib chiqib, bu o'z navbatida yana boshqa xulosalarni urchitmasin degan ma'noda.

Sabr qilasiz endi, ozgina qoldi, konchilik kasbi o'sib, temir kashf etilishi barobarida shu metallardan zanjir yasash ham yo'lga qo'yilib, katta taraqqiyot bosqichiga o'tilgan va, xullasi kalom, tunch zanjir temir zanjirga almashib, halqalari ellips shaklini olib, bu holati hozirgi kungacha qariyb o'zgarmay kelgan.

O'zlaricha o'zgartirishga uringanlar bo'lgan. G'uliyalar ham bizga o'xshab tinch o'tiradigan emas, oralaridan har xil islohotchilar chiqib turadi. Zanjirning burchagi, halqalari o'lchami va soni, g'uliyning tana a'zolarining qancha joyini kishanlashi borasida turli ilmiy va amaliy qarashlar o'rtasida bahsu munozaralar doim bo'lgan, lekin ularga batafsil to'xtalishning sizga hech ham qizig'i yo'q deb hisoblayman. Faqat ibrat sifatida bittasini aytishim mumkin, bu ham bo'lsa, yana zanjirning nimadan yasalishi borasida. Gap shundaki, sanoat rivoj topib, turli xil metallar, jumladan ranglisini ham eritib, turfa asbobu taqinchoqlar yasashga o'tilgandan keyin, bu ancha keyingi davrlar, o'ziga to'q g'uliyalar orasida zanjirni tilladan quyib, yaltillatib taqib yurish ham rusum bo'lgan, tilla tunchdan ham og'ir botmon bo'lib, qaddini dol qilsa-da, boyligini bukur bo'yniga osib yuradiganlar chiqqan va bu o'z navbatida G'ulistonning g'uliyot jamiyatida ijtimoiy tabaqalanish hamda moddiy tengsizlikni keltirib chiqargan. Bu borada ham aniq yozilmagan-u, lekin men boshqa manbalarni, bu manbalarga asos bo'lgan ulardan oldingi manbalarni o'qib, keyin o'sha davrdagi oltin xazina topib kambag'aldan boylar qatoriga o'sib o'tganlar haqida g'uliy og'zaki ertaklari va yozma ijodini o'rganib, shunday xulosaga keldim. Tadqiqotlarda ham har qancha xaspo'plashmasin, bari bir, oltinning og'irligini batamom yashira olmaganlar.

Lekin nima bo'lganda ham, bu xildagi bahsu munozaralar beiz ketmagan, natijada zanjir borasida qat'iy tamoyillar, o'lchamlar, qarashlar, mulohazalargacha hammasini birdek andazada belgilab qo'yish boshlanadi. Aqida darajasiga chiqqan bu qoidalarni hech kim o'zgartirib, isloh kirita olmaydi. G'uliy qayerda yashamasin, qaysi amalda o'tirmasin, boy yoki kambag'al, terisi qaysi tusda

bo'lmasin, uning zanjiri bir xil tarkibli temirdan, halqalari bir o'lchamda, bir og'irlikda, faqat ikki xil – mardona va zaifona. Tozalab, yaltillatib yurishiga izn bor, lekin tilla yo kumushdan yasab yo yasatib, namoyishga taqishi mamnu. Istisno faqat yosh uchun, besh-yetti, o'n, o'n sakkiz, keyin nimagadir yigirma sakkiz yoshlar uchun, albatta, o'g'il yoki qiz jinsiga qarab, tafovutli andazalarda kishanlanadi. Yigirma sakkiz yoshdan keyin g'uliy haddan ortiq semirib ketsa, bo'ynidagi bo'yincha bilan, belidagi tasma kengaytirilishi, agar nihoyatda oriqlab, shalvirab qolsa ham sal-pal imtiyoz berilib, toraytilishi mumkin. Va albatta, ikkala holatda ham bizning VTEKka (BTOK) o'xshagan maxsus komissiya ko'rigidan o'tgandan so'ng. Ha-ya, shu o'rinda yana bir-ikki qiziqroq narsalarni aytsam bo'ladi. Shunaqa tibbiy nazorat ko'riklarida invalidlarning ishi bizdagiga o'xshab har yili bir marta emas, olti oyda ko'rilar ekan. Kitoblarda buning sabablari yozilmagani uchun xoldor g'uliydan «Nimaga? - deb so'radim. – Axir, masalan, oyoqsiz invalidning oyog'i olti oyda o'sib qolmaydi-ku?». «Bari bir, - dedi xoldor g'uliy. – har olti oyda uning oyog'i yo'qligi rasman tasdiqlanishi shart. U oyog'im yo'q deb oyoqning o'rniga beliga bog'lab yuradigan zanjirini tashlamagan bo'lishi kerak». Ko'ryapsizmi, ularda tartib qanaqa.

Zanjirga oid hamma narsa, xuddi ichg'u bilan quyg'u kabi to'liq davlat standartlari va nazorati ostida. Bunda notenglik, haddan oshishga yo'l qo'yilmaganidek, ortiqcha kamtarlikning ham oldi olingan. «Men bir kichkina g'uliyman, zanjirning mundayrog'i ham bo'laveradi» degan tortinishlarga aslo izn berilmaydi.

Xuddi shuningdek, zanjirni jiringlatish yo shiqirlatishning qat'iy tartib-tamoyillari, ta'bir joiz bo'lsa, adabiy zanglari ham ishlab chiqilgan. G'uliyning o'z bilgicha yoki shevasi ohanglarida jiringlatishiga tamomila haqqi yo'q, hatto poytaxtda yashaydiganlar ham o'z lahjasida zing etsa, qat'iy jazoga mustahiqdir. Zanjiri olib qo'yilmasa-da, maxsus sirach surtiladi, ming silkitmasin, po'k tovush beradi-da, egasini juda obro'sizlantiradi. Keksalar yoshlarini “Zanjiring doim jingirlab tursin!”, deb duo qilishlari ham shunga-da. Ayni boisdan ham ular zanjirning nimadan yasalishidan tortib, undan qanday sado chiqarishigacha belgilab qo'yilgan

tartib-qoidalariga, jiringlatish notasi yo'llarigacha nihoyatda hushyor yondashadilar va bu borada davlatning milliy yakdillik borasidagi siyosatiga qat'iy amal qiladilar, ya'ni har kimning mas'uliyatsizlik bilan o'zicha yengil jiringlatib, markaziy kuylarda parokandalik keltirib chiqishiga sira-sira yo'l qo'yilmaydi.

Yana shunisi ham borki, bevosita butun borlig'ini bag'ishlamagan g'uliy zanjirni tilida jo'yali gapirtira olmaydi. Buni o'zim ham sinab ko'rdim. Kerak bo'lar deb qiziqib, xizmatchi qizdan so'ragan edim, u ham yo'q demay, keyin chiroq o'chgan kechalari tonggacha birga qiladigan boshqa yumush ham topish kerak-ku, o'rgatishga kirishdi. Bo'lib-bo'lib, son-sanoqsiz darslar o'tgan bo'lsak-da, bir-ikkita sadoni yodlashdan nari yoqqa siljimadim. Sababi - zanjir kuylarini butun vujud, ya'ni tana bilan ijro yetish, bu uchun esa u butun qoidalari bilan taqilgan bo'lishi shart. Yo'q esa, uni qo'lingizga olib, shu silkiting, g'uliy singari jiringlata olmaysiz.

G'uliyalar esa, boshroqda ham aytdim-ku, zanjir bilan gaplashadilar, ha, ular jiringlatish orqali bimalol gurung quradilar. O'zlariga juda qulay, kerakli. Biz, masalan, osh yeyayotgan payti, og'zimiz osh bilan band bo'lgani uchun, «im-m», «hum-m»dan nariga o'tolmaymiz, keyin shu payti gapirish farosatga ham tasanno emas, lekin g'uliyalarga bu tabiiy hol, zanjirlari bo'sh bo'lsa bas, butun boshli ma'ruzani ham o'qib tashlayveradilar. Qizig'i shundaki, uni eshitib turganlar ham bitta ham sadoni qoldirmay tushunadi. Yana shunisi qiziq-ki, g'uliy bizga o'xshab salomlashish va uzoq so'rashishga og'iz og'ritib o'tirmaydi. Zanjirini bir shiqirlatadi – «assalomu alaykum!», bunisi ham shiqirlatadi – «va-alaykum assalom», unisi shirq etkizadi – «yaxshimisiz?», bunisi zing beradi – «zanjirga shukr»; qolgan so'rashishlar ham shu tariqa ketaveradi. Bir-birini tanimay ko'chadan ketayotgan g'uliyalar ham juda sertavoze, ular tamomila begona holda ham salomlashadilar, bunda qo'l olishish va hatto qarash ham shart emas. Mana, misol uchun siz avtobusda kitob o'qib ketyapsiz, bir mo'ysafid g'uliy chiqdi, soqol qo'ymagan bo'lsa-da. keksaligi ko'rinib turibdi; kitobdan ko'z uzmay, zanjiringizni shirq ettirasiz, tamom, g'uliy boboyning hurmati joyiga qo'yiladi.

Boboyga qarab, qo'lingizni ko'ksingizga qo'yib, yana baralla ovoz bilan qichqirishingiz ham shart emas. O'rningizda turib, joy bo'shatmasangiz ham ayb sanalmaydi, kitobdan bosh ko'tarmagandan keyin, ko'rmagansiz, ko'rmaganga joy berishni talab qilish ham o'rinsiz.

Tushundingiz-a, g'uliyarning zanjir bilan tillashishi qandayligini? Hamkasb do'stimdan ko'nglim qolgan joyi ham shundaki, u g'uliyotning ana shunday nozik jihatlarini qalamga olmagan. Yozuvchilik shunaqa deb, yozib ketavergan. Aytdim-ku, qahramonlaridan g'uliy degan atamani olib tashlasa, o'zimizning odamlardan farqi yo'q. Zanjiri tinmay jiringlaydi deydi, lekin nima deb jiringlashi to'g'risida inq etmaydi. Ko'rishgandagi jiringlatishni zarda qildi deb uqtiradiki, bu endi g'irt johillik, g'uliyarga borib turgan tuhmat. G'uliy hech qachon zanjir bilan zarda qilmaydi, zardasini unga bildirmaydi ham. Chunki, yana aytaman, aytishdan og'zim charchamaydi, - zanjir unga muqaddas. U bilan faqat xush xabarlarini yetkazish, xush gaplarni gaplashish mumkin, ko'ngilsizlikka aralashtirilmaydi. Mana, bir misol: bir g'uliy juda xomush ketayotgan bo'lsa, uni ko'rgan boshqa g'uliy yonidagi g'uliyga: "Juda mashqi pastga o'xshaydi-ku, boshiga nima kulfat tushgan bo'lsa?", deydi, unisi "Qayoqdan bildingiz?" deb so'raydi, bu: "Ja zanjiri jim-da, sado yo'q", deb javob beradi. Ana shu javobi to'g'ri: g'uliy g'ulini yomon xabardan uzoq tutadi. Ko'ryapsizmi, yozuvchi do'stim kim-nima balolarni yozib tashlayvergan, yozib tashlayvergan, yozganlarining noto'g'riligini ko'rsatish uchun ham endi bir-ikkita qarshi ro'mon yozish kerak.

G'ulistonda jazo

G'uliston, u yerdagi hayot, g'uliylar shunday yozishga arziydi ham. Eng avvalo, albatta, ularning zanjir taqib yurishi. Butun hayotiy ta'limotlari zanjirga qurilgan, ilm-fan, madaniyat, tarix, tamaddun, yana nima, xullas, hamma-hammasi kishanbandlikka asoslangan, qarashlar, nuqtai nazarlar, mulohazalar, mubohasalar – barisi zanjir bilan, zanjir tufayli, zanjirlangan. Falsafiy tizim zanjir ustiga qurilgan va nihoyatda aniq-ravshan. Zanjir, takror aytaman, muazzam tartib, ya'ni olamning bog'lanishlari silsilasi. Hamma narsa halqa-halqa bo'lib, muayyan tartibda unga tizilgan. Eng oliy mavjudot, zanjir taqib yurishga munosib zot, albatta, g'uliy. Haqiqiy g'uliydan boshqa hech bir maxluqot zanjir taqishga, u bilan kishanband bo'lishga munosib emas. Shuning uchun, boshda ham aytdim shekilli, hayvonlar, nechog'li qopog'on yo yirtqich bo'lmasin, uyda asralsa ham, faqat ihota etiladi, ya'ni katakda saqlanadi. Chunki u hayvon, zanjirdek aziz narsaga ravo ko'rilmaydi. Xoldor g'uliy birinchi aytganda uncha tushunmagan edim, endi nimagaligini angladim, bularda eng ashaddiy jinoyatchi ham bir umrlik qamoqqa yo o'limga hukm etilmaydi, balki eng oliy jazo sifatida zanjiri yechib olinadi, tamom! Dodini aytaversin, hech kim eshitmaydi, hech kim qarab ham qo'ymaydi, hatto nafrat ham nasib etmaydi unga, zanjirsizlikdan ezilib, xorlanib, mosuvo, o'lib ketaveradi. Qamoq, hibsxona, mirshab, mirg'azab – birontasi kerak emas, tishi o'tkir omburning o'zi bas, bellik, bo'yindagi bo'yincha bilan oyoqdagi tasma halqa qirs etkizib kesib tashlanadi, vassalom, shu bilan u g'uliyot jamiyatidan tashqarida, tamom, ana, yana jinoyatni ko'ngli tusasa, qilaversin, hatto uning jinoyati ham endi e'tiborga tushmaydi. Masalan, o'g'irlik qilsa, hech kim uning qo'lidan ushlaymaydi, to'xtatmaydi, umuman birov: «Hoy, nima qilyapsan, noinsof, uyalmaysanmi?», demaydi ham, o'zi zanjir urib qo'yibdi, yana o'g'irlik ham qilsa, jazosi o'zi bilan, deb qaraladi. Zanjiri - g'uli yo'qmi, g'uliy emas, demak, tirik o'lik, endi u bor bo'lsa ham yo'q, o'lgandan ham battar! Ko'ryapsizmi, supermarketda poyafzalni qo'limda ushlab ko'ray-chi deb, qanaqa dahshatga uchraganimni. Yaxshi ham o'sha payti o'zim bilmaganman.

Bolaligimdagi dunyo

Shundoq ekan, bular meni qanday sig'dirdilar, bog'hovlida mehmon qilib asrayaptilar, yana suluv g'uliyaga menga shaydo, umuman aqlim etmayapti. Bir o'ylayman, yo'qman deb, ya'ni G'ulistonga kelmaganman, bu voqeotlarning hammasi xayolimda kechyapti, tush ko'ryapman, bir urinsam, sachrab uyg'onib Toshkent – Jizzax yo'lida ketayotgan bo'laman deyman. Rostdan ham o'ldimmikan degan vahm bosadi. Qattiq halokatga uchrab, til tortmay o'lgan bo'lsam-a, juda tez jon berganim uchun sezmay ham qolganman, endi bu dunyoda yuribman, bu dunyosi G'uliston ekan-da, deyman. Lekin chimchilasam biqinim og'riydi, qitiqlasam, o'zimning qo'limga ham qitig'im keladi, o'likning badani og'riq nimagini bilmaydi, uning qitig'i ham kelmaydi. Bu ham xayolimda deylik, mayli, tush bo'lsin, tushimda o'zimni qitiqlab, qitig'im kelganini tush ham ko'ryapman, deylik. Lekin unda nimaga shu tushimda uxlab, uning ichida ham tushlar ko'raman, tushlarimda o'z yurtimda yurgan bo'laman, o'yg'onaman, uxlayman, yana tush ko'raman. Mayli bularning ham hammasi biri biriga kirgan ichma-ich tush ham deylik, lekin nimaga g'uliyalarni ko'raman, qamoqqa tushmaganman, zindonga solinganman yo'q, surgun bo'lmaganman, nima uchun tushimda zanjirli odamlar yuribdi? Juda g'alati, juda-juda.

Nimaga bunaqa bo'lyapman deb, tarjimai holimni titkilab chiqaman. Shaharda turaman, shaharda bunaqa narsalar yo'q. O'zim ko'rmaganman-u, lekin bolaligimda juda ko'p eshitganman, so'rasa, juda keksalar hozir ham aytib beradi: ilgari jinu ajinalar ko'p bo'lgan. Bizning G'azirada itburun - na'matakni hech kim «itburun» yo «na'matak» demaydi, uning oti «bog'gul», odamlar bog'gul deydi, na'matak desangiz, nima u, deb hayron ham bo'ladilar. Lekin undan ham keng tarqalgan oti «ajinapitta», ya'ni «ajinabuta». Chunki ilgarilari hamma joyda bor edi, barining tagida kamida bittadan, bo'lmasa, uch-to'rttadan ajina o'tirgan. Kechalari, ayniqsa, kun tig'iga kelgan yozning saratonida bolalarni qo'ymas edi. Vay-vuy, dod-voy, g'ingshish, tap-tup do'mbira chalishlar. Quyun bo'lib o'yinga tushganda «Osh-pichoq, qalampir!» demasangiz, aylantirib olib ketib ham qolar

edi. Bizda gapi gapiga to'g'ri kelmayotgan odamni «Nima, xayoli qochibdimi?» yo «Esini yeb qo'yibdimi?» deb aytish o'rniga: «Ajinapittaning tagidan o'tib kelyaptimi, nima balo?», deydilar. Ajinabuta ajina bilan shu qadar bog'lanib ketgan.

«E-e, burunlari bu qirilgurlar juda ko'p bo'lar edi», der edilar onam. Qayerda ajinabuta bo'lsa, chet-chakalak, ovloq joylarda, paxtazorlardagi egasiz shiyponlarda, hatto qishloqlarning ichidagi odam turmaydigan choldevorlarda ham bu kasofat bisyor uchrab turgan. Kechqurunlari chorbog'larning chekkalariga kelib olib, chaqaloqqa o'xshab zor-zor ingillab, o'ziga chaqirgan. Ablah, go'daklarga juda o'ch bo'lgan, lekin kattalarni ham uchintirib turgan. Aniq esimda, juda kichkina edim, onam, opamlar kunduzi paxta terib, kechasi uyga majburiyat qilib berilgan ko'sakni chuvishar edi. U paytlari brigada shiyponi dalada ham, qishloqning o'rtasida ham bo'lar, bunisida terilgan paxta, chuvilmagan ko'sak saqlanar, brigadaning ot-aravasi ham shu yerda turar edi. Opamlarning ko'sak chuviganda tong ottirish uchun aytib berganlaridan bilamanki, ana shu shiyponlarga ajina in qurib, davlatning paxtasiga qarab o'tirar ekan. Keyin, u paytlari, yana esingizda bo'lsa, hammayoq paxtazor, hamma paxtaning ichiga ko'milib paxta tergani bilan, o'zi nihoyatda tanqis, do'konlarda yo'q, ko'rpalikka topilmas matoh, opamlar terimdan keyin bir hovuchginasini fartukning ichida yumaloqlab olib kelib, chigitini chiqarib, gulpaxta qilib olar edilar. Har kuni bir hovuchdan kelsa, uch oymi, ko'proq terim paytida bir ko'rpaga yetarli yig'ilib qolardi. Albatta, bekitiqcha, hech kimga bildirmay, agar birov xabar topsa, bir hovuch paxta deb qamalib ketish naqd edi. Men bir kuni: «Hovuchlab olib kelib yurasizlarmi, shiypondan bir etak olib kelsa bo'ladi-ku, hozir hech kim yo'q», deb so'rganman. Hatto botirlik qilib, o'zim ham boraman deganman. Shunda katta opam ko'rsatgich barmog'ini labiga bosib: «Bu gapni bir aytding, boshqa aytmay, eshitib qoladi. Shiyponning ajinasi bor, davlatning paxtasiga qarab o'tiradi», degan. Men shunda serzarda brigadir G'aniqul aka va har yakshanba bozor darvozasining oldiga stolini qo'yib olib, qarzdorlarni yoniga chaqirib tutib

oladigan Istam nalogchiga o'xshab ajinani ham shiyponga davlat qo'ygan, u ham davlatniki deb rosa qo'rqar edim. Biz bolalar «lo'kkavoy» uylik moshinlardan bundan battar ham qo'rqardig-u, lekin buning ajinaga aloqasi yo'q, uning davlatniki ekani ko'rinib turar edi, qishloqdan kimlarni olib ketib qolganidan ham bilardik. Ajina hech kimni olib ketmagan-u, ammo ko'p zarar bergan, kim qirq kun alahlab yotib, keyin Solih qori o'qigandan so'ng sal-pal o'ziga kelgan, kimning og'zi qiyshayib qolgan, lekin buni hech kim o'qib tuzata olmagan, do'xtirlar ham shifosini topmagan. Bizga hammadan ham ko'ra shu vahima edi.

Ajina hamma joyda bo'lgan, hatto yuvuqsiz bolalarning ham betini yalab ketgan. Kasofat juda chatoq edi. Bir xil paytlari uncha zarari ham tegmagan, xonakiroq bo'lganmi, yo u ham teginmaganga teginmayman deganmi, ishqilib, odamlarga tinch aralashib yurgan.

Onam aytadilar, bir kuni namozshom qorong'usida og'il tomonga qarasalar, yorug' chiqib turgan emish. Sigirni boyagina soqqanlar, u yerda chiroq-piroq bo'lishi mumkin emas. U paytlari qishloqqa hali elektr bormagan, uylardagi lampachiroq ham hisobda. Shu vaqti xayolimga bir fikr kelib qoldi: shu ajinalarning kamayishiga elektr ham sababchi emasmikan, hammayoqqa lampochka osilib, bechoralar hurkib qochib ketmadimikin deyman. Mayli, bu boshqa masala, xullas, onam qarasalar, og'ildan nur taralib turgan emish. Nima gap ekan deb borib qarabdilar. Ko'rsalar, Amir akam, bir qo'lida chiroq tutgan, bir qo'li bilan sigirning sag'rinini silab yuribdi. «Nima qilganing bu? O'zi kerosin qahat, hech o'ylaysanmi? Oqshomda sigirning boshida balo bormi senga? Bir kasofatni boshlama tag'in», desalar, akam indamay, yana sigirni silayveribdi. Onam: «Amir, deyman, senga aytyapman, Amir! Amir!» debdilar. Shu vaqti «Ha, biyi, nima deysiz-e» debdi akam, u chiroq ushlab turgani emas, bu yoqdan, uydan chopib chiqib. Onam «Iy-e, sen bu yoqda edingmi», deb keyin yana og'ilga qarasalar, chiroq ushlab turgan akam yo'q, og'il qorong'u. Onam darrov uning kimligini anglabdilar. Bu sigirning ham ajinaga bog'liq nimadir tomoni bo'lishi kerak, saratonda yovvoyi jiydaning soyasida yotganmi yo ajinabutaning ichida

buzoqlagan sigirning bolasimi, xullas, bir tutashligi bor, lekin, ishqilib, bezarar bo'lgan.

Ana shuni o'zingizcha bir tahlil qilib ko'ring-da: onamning ko'zlariga Amir akam bo'lib ko'ringan deylik, chunki, bir ismli nusxa yana akam bo'lmagan-ku, lekin chiroq qayoqdan, uning nuri-chi? Chiroq nur sohib, nuri og'ilni yoritib, hatto shu'lasini tashqaridan ham ko'ringan. Chiroqni ko'rmagan bo'lsalar, boyagina sigirni sog'ib, o'tini berib kelganlar, yana borib xabar olishlari kerak emas edi. Ko'zga ko'ringan narsaning aslida o'zi yo'q, demak, undan nur chiqishi ham sira-sira mumkin emas. Mayli, onam ham, akam ham katta odam, jin-ajinani ko'p eshitgan, balki oldin ko'rgandirlar ham, yo'q esa buncha xotirjam bo'lib, bezarar qolmas edilar, shuning uchun ularning ko'z o'ngida xuddi bordek ko'ringan ham deylik. Molning ham qo'riqchisi bo'ladi, kechalari uning oldiga borganda kalima qaytarish kerak ham deydilar-ku, balki onam rahmatli o'sha payti bir xayol bilan borib qolib, shuni o'ylaganlari, ya'ni ajinani bilganlari uchun ham ko'zlariga ko'ringandir. Otning ham devi bo'ladi, agar ketini yerga berib o'tirgan bo'lsa, demak, devi kelgan, bola odamning uning oldiga borishi yaxshi emas. Echkinning ham ajinaga bog'liq nimadir tomonlari bor.

Men sizga hali hech narsani bilmaydigan yosh bola bilan bo'lgan bir misolni aytaman. Bizdan bir sinf pastda Orziqul degan bola o'qir edi. To'ladan kelgan, suyaklari yo'g'on, chillakni zo'r urar, kesakparronda betiga kesak tegib ketsa, og'riqdan ko'ziga yosh kelsa ham inq yetmas, lekin og'zi qiyshiq, «va-va» deb yaxshi gapirolmas, duduq edi. Shuni onasi kichkinaligida Tosh akaning shiyponi yonidan ko'tarib o'tib ketayotganida o'sha yerda bir ona-bola oq eshak turganini ko'rgan. Bola narsa, tag'in minaman deb xarxasha qilib yurmasin, deb yuzini ham bekitgan. Shunga qaraganda, Orziqul hali qo'lda bo'lgan. «Voy-ey, shuni ko'rganim yaxshi bo'lmadi-da», degan ona sho'rlik bolasini mahkam bag'riga bosib. Lekin otasinikiga, ya'ni Orziqulning ona tomondan bobosinikiga borib, yorug'da qarasa, bolaning og'zi qiyshayib qolgan! Shu bilan do'xtirga chop, Momoxol qushnochga o'qit, mo'ltonilarga jodu oldir, nechta duoxonu parixonga

yugur, foydasi yo'q, Orziqulning, bilmadim, uncha esimda yo'q, sakkizinchi sinfda Buxoroga ko'chib ketishdi, shu vaqtlarda ham og'zining qiyshiqligi hali bor edi.

Ana, buni ham o'ylab ko'ring. Xo'p, deylik, katta odam kinoda ko'rgani yo o'qigani, yo eshitganini xayolida jonlantirib, anavi, nima edi ilmiy nomi, yo'qni bor ko'rsatadigan, ha, gallyusinasiyaga duch kelishi mumkindir. Lekin Orziqul yosh bola, yurganmi, yurmaganmi, ishqilib, hali onasining qo'lida bo'lgan. Ongsiz go'dak, turgan gap, kitob o'qishni bilmaydi, kino ko'rmagan, u paytlari hali qishloqda televizor yo'q, kino kelsa ham o'sha shiyponning taram-yoriq yoriq, lekin oqlangan paxsa devoriga qo'yib beriladi, uni onasi o'zi bilan olib chiqqanda ham, qo'lda uxlab qolgan yo qaragan bo'lsa ham nima ko'rganini tushunmagan, ekrani devor yoriqlarida yana bir nechta «front»ga bo'linib ko'rinadigan kinolar ham urushga bag'ishlangan yo hindlarniki, quruq tuproqqa o'tirib tomosha qilinar edi. Ona-bola eshakni ko'rganda onasi: «Vay-y! Bolamning ko'zi tushmasa edi», deb Orziqulning yuzini bekitib olgan, bag'riga yashirgan, bo'lgani shu. Orziqul kurrali eshakni ko'rgan bo'lsa ham, ajina ekaniga fahmi etmagan, hali go'dak, bu yoshda fahmning o'zi yo'q. Xullasi kalom, onasining ko'ngliga vahm tushgan, sal yurgandan keyin uning yuzini ochib qaragan, lekin og'zi qiyshaygani qorong'ida bilinmagan, ko'ringan bo'lsa ham ona sho'rlik ishongisi kelmay, qo'rqqanimga shunday ko'rinyapti deb qo'ya qolgan. Ho', otasinikiga borgandan keyin, chiroqning yorug'ida boshqalar ham ko'rgandan keyin bolasining rostdan ham og'zi qiyshayib qolganiga amin bo'lgan.

Bu yerda odamni o'ylantiradigan ancha narsa bor. Keling, Orziqulning ham ko'ziga ko'ringan, shunga og'zi qiyshaygan ham deylik. Og'iz qiyshayishini bilasiz-a? Faqat og'izning o'zi emas, bet ham tirishib, bir ko'zni ham pastga tortib, shilpiqlantirib ham qo'yadi. Juda xunuk. To'ylarda bolalar qozonning tepasiga osh so'rab borganimizda, Orziqul bilan bitta tovoqqa to'g'ri kelib qolsam, u toza bo'lsa ham, juda irganardim. Oti ham «Og'zi qiyshiq Orzi», lekin albatta, o'ziga eshittirmay. Nimaga endi faqat Orziqulning og'zi qiyshaygan? Ona-bola eshak onasi ikkalasiga birday ko'ringan, shunda ham onasi aniqroq ko'rgan, keyin ham

qanaqa eshak, tusi qanday, nima qilib turganini hammaga gapirib yurgan. Lekin uning og'zi qiyshaymagan, holbuki ajinani ko'rgan katta odamlar shunday dardga uchraganini ko'p eshitganmiz. Bunga ham mayli, ajina o'zi asli yo'q, goh eshak, goh ma'rab turgan echki, siypalab ko'rsangiz yelini bo'lmaydi, goh sariq sochli qiz, yana har balo bo'lib, har kimga har xil ko'rinadi, o'zi esa havo, faqat xayolda, xayol odamning ko'z oldida bir narsa bo'lib gavdalanadi, ona-bola ikkovi shunday ro'yoga duch kelgan deylik. Lekin... lekin Orziqulning og'zi xayolda emas, aniq hayotda qiyshaygan edi-ku, unda kim qiyshaytirgan? Buni asab kasalligi, odam qattiq qo'rqqanda yuzdagi asab mushaklari tortishib, og'izni bir yoqqa, ko'zni esa pastga tortib qo'yadi, deydi tibbiyotchi shifokorlar. Lekin Orziqul go'dak, qo'rqmagan, qo'rqishga aqli ham yetmagan, shundoq ekan, qanaqa asab haqida gapirish mumkin? Xo'p, asab kasalligi desak, keyin nimaga shuncha dori darmonu o'qitish sabini tuzatib, og'zi joyiga kelmagan? Aytyapman-ku, sakkizinchi sinflarda ham shu nuqsi bor, bechoraga endi hech kim xotin bo'lib tegmaydi-da, deb yurar edik. Hatto Samarqandga olib borib, zo'r-zo'r do'xtirlarga ko'rsatishsa ham kor qilmadi. Ana endi chuqurroq o'ylang-da, xulosa qilavering.

Yana bir taxmin mulohaza. Xo'p, Orziqul hech narsani bilmaydigan go'dak, lekin onasining ajinani ko'rganda yuragiga tushgan vahmi, ona-bolaning ko'ngli bir-biriga bog'liq, ona ruhiyatidagi o'zgarish bola ruhiyatiga ham o'tib, yagona qalblar emasmi, og'zi shundan qiyshaygan ham deylik. Ya'ni ona-bola oq eshak aslida bo'lmagan, ona bilan bolaning ko'ziga bor ko'ringan, ona yuragidagi xavotir, qo'rquv bolaga ko'chib, uning asabini ishdan chiqargan. Lekin endi sizga boshqa bir voqeani aytib beraman. Eski vaqtlar, u paytlari qishloq do'konlariga un kelmagan, unni kolxoz mehnat haqiga bergan yo odamlar o'z bug'doyini tegirmonda torttirib olgan. qishlog'imizning ikkita tegirmoni bo'lardi. Bittasi qishloqning ichida, bozorjoyning biqinida, Tegirmonariqning ustida, bittasi xiyla olis, ovloq bir yerda, juda katta eski mozoristonning tagi, Qipchoqariqning boshida. Mozor bilan o'rtada bir arava yo'li. Mozor juda eski, yantog'u baland-baland o't bosgan vahima, kunduzlari ham o'tgani odam qo'rqadi, xuddi o'liklar

yantoq, qamish oralab chiqib: «Tinch yotgani qo'yasanmi, yo'qmi?», deb yoqangdan oladigandek. Yana teparog'idagi keksa chinorlari, qayrag'ochlari ustida biram semiz qarg'alar qag'-qug' qilib eshitganning etini seskantirib yuborardi. Shuning uchun tegirmonga ham odamlar zaril bo'lmasa bormas, borganlarida ham yolg'iz yurmas edilar. Otamning otalari yoshliklarida bir sariq sochli ajinani tutib olgan ekanlar. Xuddi shu tegirmonda, yigit odam, hech narsadan qo'rqish yo'q, o'zining nafasi o'tkir, un tortishga yotib qolib, pinakka ketgan ekanlar, bir vaqti jimlikdan uyg'onib ketibdilar. Qarasalar, tegirmon taqa-taq to'xtagan, guldiramaydi, atrof tim-tirs, faqat suv parrakka urilib, shaldiraydi, xolos. Otamning otalari, bobom, men ko'rmaganman u kishini, nima bo'ldi o'zi, deb qarasalar, parrakning ustida bir qiz sochini tarab o'tirgan emish. Soch sap-sariq, tovonigacha uzun tushgan. O'zingni yegurning yana chiroyliligini aytmysizmi! Bobom, yurakni qarang, shartta shu sochdan tutib, buragan ekanlar, qiz yalinibdi, «Meni qo'yib yuborsang, etti pushtingga tegmayman, deb qasam ichaman», debdi. Ajina ekan-da u, bobom bilganlar-da. Ajina qasam ichibdi, yalinib yolvoribdi, oxiri, bobom qo'yib yuboribdilar. Shundan keyin ajina har qancha ko'p bo'lmasin, bizga umuman teginmagan. Qiz bitta o'zining emas, shu atrofdagi bor ajina qavmining nomidan qasam ichgan-da. Men ham shunga ulardan qo'rqmay, o'sha mozoristonning ichida bemalol o'tini o'rib, molimizni boqib yurganman. Xo'sh, ha, o'sha eski paytlari o'zimning otam rahmatli ham shu tegirmonda un tortish uchun, kunduzi qo'llari tegmagan, kechasi tegirmonda yotishga tegirmonchida yurak yo'q, bir o'zlari qolib, xampani bug'doyga to'ldirib, pinakka ketgan ekanlar, dupur-dupur uyg'otib yuboribdi. Chiqib qarasalar, ettiurug'lik ko'pkaritozlar, Poyariqdagi bir to'ydan kechalab qaytishyapti ekan. Taglarida zo'r-zo'r uloqchi otlar, Ettiurug' ham bir qadam, tegirmondan keyin uch-to'rt yuz odim Qambar ota, undan keyin Bulung'urdan tikkasiga yarim chaqirimcha yo'l. Birda-yarim yotmagan uyning chirog'i shu yerdan ham lipillab ko'rinadi. Lekin otam ko'pkaritozlarga: «Endi yarim oqshom, Qambar otani bosib o'tmanglar, shu yerda tong ottirib, ertalab yo'lga chiqasizlar», deptilar. Bunga, turgan gap, ko'pkaritozlar illo ko'nmay: «E-e, eshonbobo, etib kelgan joyimizda-ya! Tagimizda shunday ot,

qo'limizda qamchi... Bolalar ham xavotir olib o'tirgandir», deb turib olibdi. Shunda otam noiloj: «Mayli, aytdim, aytdim-qo'ydim-da», debdilar. Ko'pkaritozlar qishloqqa qarab yo'l tortgan. Lekin hayal o'tmay, yana dupur-dupur, tasir-tusur. Otam chiqib qarasalar, haligilar yana tegirmonxona darvozasi oldida. Otlarning ko'zi olaygan, ko'pkaritozlarning yuragi qinidan chiqib ketayozgan. «Ha?». «E-e, Qambar otaga yaqinlashganimizni bilamiz, birdan qora vahima bossa! Tezroq o'tib ketmasak, bir balo borga o'xshaydi, deb shu otga qamchi uramiz, qani bu sabillar yursa! Taqqa to'xtagan, qamchilasang, o'zini orqaga otadi, oldinga yurmaydi». «Ha, bo'pti, hali ham xudoga aytganlaring bor ekan, qani, tushinglar», deb ichkariga chorlabdilar otam. Ko'pkaritozlar shu kecha tegirmonda yotib, ertalab o'sha yo'ldan ketibdilar. Tinchlik, hech gap yo'q, hamma sog'-omon. Rost, Qambar ota, Qambar ota deganlari bilan, qadamjo bo'lsa-da, bezarar edi. U yerda biron bir jonzot yo'q, ayiq yo bo'riga o'xshagan. Ikki tarafi paxta, o'rtadagi bir parcha chakalakda g'uj o'sgan qayrag'och, bori shu. Mayli, ko'pkaritozlar odam, qo'rqqanlar, otamning bosib o'tmanglar degan gaplaridan keyin o'z-o'zidan yuraklariga vahima tushib, Qambar otaga borganlarida kuchayib ketgan, deylik. Ammo otlar-chi? Ot jonivor shundan shuncha yo'lga kelib, qishloqqa bir qadam qolganda nimadan seskangan? Hayvon odamning ko'ziga ko'rinmagan nimani ko'rgan? Demak, nimadir bo'lgan, hayvon shundan hurkkan, pishqirib kishnab, ko'zlari ham olayib ketgan.

Men endi sizga yana bir murakkab voqeotni aytib beraman, bunga o'zim guvoh, chunki o'z ko'zim bilan ko'rganman. Universityetga kirypman. Adabiyotdan inshoni «uch»ga, og'zakisini «besh»ga topshirdim, hali shu «besh» sabab o'qishga kirishimni bilmayman-u, nihoyatda xursandman, uydagilardan suyunchi olay deb, to'lib-toshib qishloqqa keldim. Albatta, kechqurun osh. Otam bilan o'tirgan edik, ichkaridan akam ham chiqib keldi. Oshda doim uydagilarning hammasi dasturxon ustida, jamoat bo'lardik, bu gal faqat akam kelib qo'shildi. Nimagadir ko'zlari qizil, sal bejo ham, alang-jalang qiladi, ranglari chuykab ketgan. Men hamishagidek mast deb o'yladim. Otamga qaragan edim, akamni ichgan paytlari

rosa urishadigan odam, indamay ezilibroq qarab qo'ydilar. Oshni o'rtaga oldik. Men yana akamga qaradim, ko'zi bir joyda turmay, alanglayverganiga hayron edim. Otam: «Qani, oshga qaranglar», dedilar. Endi oshga qo'l uzatgan edim, akam birdan baqirib yuborsa! Hurram uchib ketdi, otam esa pinaklarini buzmay, menga «Ol, ol, o'g'lim», dedilar. Yana hayronman. Akam dodlab qo'lini yerga siltaydi, otam esa meni oshga undaydilar. Nima ekan desam, akam oshga uzalgan payti qo'lga shap etib qora ilon o'ralibdi. «Mana, ota, ko'rmayapsizmi, axir? Olib tashlang, olib tashlang», deb siltaydi. Otam esa menga: «Ol, o'g'lim, oshni rosa sog'ingansan», deydi. Keyin bilsam, akam vos-vos - «belaya goryachka» bo'lib qolgan ekan. Shundan bir-necha kun oldin, qismat qisganini qarang-da, Qambar otada ichib kelib, mashinani ko'chaga qo'yib, o'zi uxlab yotsa, birdan-shovqin suron turibdi. Uyg'onib, nima gap ekan deb, ayvonga chiqib qarasa, yonida turadigan hamsoyasi Egamnazar akani bu yonboshdagi hamsoyasi Pirmat miltiq bilan paqillatib otib tashlabdi. Odam to'plangan, tumonat, Pirmatning o'zi ham shu yerda, kim otdi, kim ko'rdi, degan baqir-chaqir tortishuvga u ham aralash, «Men eshitmay qoldim, lekin otdi, kim otganini bilmayman», der emish, shunda birovi «Ana, falonchi qarab turibdi, otganni shu ko'rgan, ushlanglar, so'raymiz», degan ekan, hamma akamga qarab yuguribdi. Akam kayfi uchib ketib, «E-e-e» deb, o'zini ayvonni oftobdan to'sib tortilgan qanor panasiga olibdi. Eski qanor, u yer-bu yeri yirtiq ham ekan, shu qarichcha ham chiqmaydigan bitta yirtig'idan Hayit aka o'tib kelsa bo'ladimi! Akam endi qo'rqib ketib, uyga qochib kirib, eshikni bekitib olibdi. Shunda deraza darchasi - fortochkasidan akamning devday semiz oshnasi, hamishagi jo'ra Rahmat aka oshib kiribdi. «Ko'rdingmi, endi nimaga yashinasan? He o'l-e, chiqib Egamni kim otganini ayt-da», der emish. Akam Rahmat jo'rasining shunday katta gavdasi bilan deraza tuynugiga qanday siqqanini o'ylab ham ko'rmabdi. Shu vaqti yana tashqaridagilar battar shovqin ko'tarib, «Bo'ldi, buni olib ketamiz, ey, yur biz bilan, bir yayraysan», deb chaqiribdi. Egamnazar akaning otilgani esdan chiqqan. Akam chiqishga battar qo'rqibdi. Ular do'mbira chalib, o'yinga tushib, yur, deb rosa qiziqtirishsa ham, bormabdi. Shu qo'rqqani asrab qolgan, bo'lmasa, ularning aytganiga kirib, supadan pastga tushsa, ergashsa,

dala-dashtga uloqib ketib, kim qayerlarda yiqilib o'lishi hech gap emas ekan. Lekin ular ham qo'ymagan. Akam qayerga borsa, ular ham shu yerda, hatto arava ham tayyor, ustiga qip-qizil gilam to'shalgan. O'yinchi-yallachilari bo'lganmi, yo'qmi, akam muqom qilganini gapirmaydi, agar ham musulmon ajinalar bo'lsa, g'ar qizlari yo'q hamdir, lekin o'yin-kulgi bisyor, bazm bakabang. Faqat shu bor gapning tagida haligi - ergashtirib ketmasa degan xavotir. Xullas, ular ham tinch qo'ymagan, aldaganlariga akam ham ergashmagan.

Men borganda akam shu ahvolda, qo'liga qora ilon o'ralishi ham o'shalarning ishi ekan.

Juda xafa bo'lib yana Samarqandga qaytdim. Hali ikkita imtihon bor, o'ninchi bilan o'n birinchi sinflar baravar bitirgan, bir o'ringa o'n to'qqiz talabgor; bir xayolim imtihonlarda, bir xayolim akamni o'ylab, siqilaman. Tarixni topshirdim, domla «to'rt» deb yozib, ustidan bo'yab «uch» qildi, maktabda chet tili o'tmaganimiz uchun unga ham «uch» bahoni shunday qo'yib berishdi, hali mandatgacha muddat bor edi, baribir kirolmasam kerak deb, yuragim shuvillab qishloqqa kelsam, akam tuzalib ketibdi. Ha, nima bo'lganini gapirgisi kelmaydi-yu, ishqilib, xayriyatchilik. Yana uydagilar hammamiz birga o'tirib osh edik. Akamga zimdan razm solaman, ko'zlari joyida, ranglari ham toza, chehralari ancha ochilgan, qo'lini silkib menga hazil ham qilib qo'ydi.

Endi qarang, keyin bildim qanday kasal bo'lganini. Ichar edi. Shu, o'n uch-o'n-to'rt yashar paytlaridan haligi tuynukdan kirgan haydovchi Rahmat oshnasi, yana bir-ikkita shumtaka bilan kolxozning ombori tomidan teshik topib tushib, musallasidan otib yurishar ekan. Shundan o'rganib qolgan. Maktabda o'qib yurgan paytlarim bozorjoyda uchib yotganida ko'tarolmay, necha marta yig'lab-yig'lab o'zim sudrab kelganman. Otam urishdilar, so'kdilar, oq qildilar, ko'k qildilar, ta'siri bo'lmadi. Birinchi toifali haydovchi, «ZiL»ni uxlab ham haydab yuradi. Xudoning asraganini. Biron marta ham avariya qilmagan. Bir kuni Navro'z tepada mashinaga paxta yuklaguncha, kim biladi, nechta shishani bo'shatgan bo'lsalar. Juda ilgarilari, esingizdami, tirkama yo'q, paxtani qanorlab, ikki kishi ikki

tomonidan quchoqqa olib, «ha-hu»lab uzatar, u yoqdagilar tortib chiqarar, bu ancha vaqtni olar edi. Ana shu bir mashina paxta ortilguncha ichilgan-da. Men uyda o'tirgan edim, ko'chada mashina tinmay guv-guv qiladi, nima bo'ldi deb chiqib borsam, akamning «ZiL»i, ustiga juda baland qanor bosilib, arqon tortilgan, suv o'ynab, boya yo'lning u yog'idan bu yog'iga jildiratib ochgan edim, bir qarichcha ham chuqur emas, shunday katta narsaning orqa g'ildiragi shu yerdan chiqolmay, g'ijillab aylanib yotibdi. Akam tinmay gazni bosadi, mashinaning ketidan pag'a-pag'a tutun bilan gur-gur-r uchqun uchadi, o'zi silkinadi, lekin joyidan jilmaydi. Uchqun paxtaga tegib, yonib ketmasa deb qo'rqdim. Shu baqiraman, akam eshitmaydi. Keyin kabinaning zinasiga chiqsam, boshini rulga qo'yib, uxlab yotibdi. Lekin gaz bosishni qo'ymaydi. Tushib otamga yugurdim. Otam kelib, kabinani ochdilar-da, bir siltov bilan akamni sug'urib oldilar. Aytmagan so'kislari qolmay, uyga yotqizib chiqdilar. Keyin o'zlari mashina atrofida aylanib, «Ha, bu palakatini qanday o'chiradi endi?», deydilar. Oxiri motorning o'zi o'chib qoldi shekilli, ishqilib, paxtaga zarar etmadi, akam bir uxlab turib, yana paxta punktiga haydab ketaverdi.

Oxirgi ichish ham shunday bo'lgan, o'n uch kun uzmay, akam shu muddatni aniq qilib aytadi, ovqat-povqatsiz paydarpay otilgan. Eng keyingisi Qambar otadek muqaddas joyda. «ZiL»ni yana o'zi haydab kelgan, uyga kirib tappa tashlagan. Uyg'onsa, haligi darang'-durung', shu falokat. Albatta, Egamnazar akani hech kim otmagan, shu payti u bahorikorga ketgan, Pirmatning esa miltig'i ham yo'q, ikkovi hamsoya, ham juda qalin, oralaridan qil o'tmaydi; akamning ko'ziga shu tomosha ko'ringan-da.

Ana endi do'xtirma-do'xtir chopishni ayting. Bu orada, albatta, eskicha davolar ham qolmagan. Albatta, otamga aytmay. Momoxol qushnoch, oti chiqqan azayimxonu mullo, qoqimchi, baxshi, bironta orqaligi qolmagan, Ro'zi mo'ltonining kampiri jodu ham olgan, hatto Olako'zoyimga ham dam soldirishgan. Akam qayerga borsa, haligilar ham ergash. Nima qilasan bularga qatnab, foydasi yo'q, undan ko'ra, yur biz bilan, undoq yayraymiz, bundoq maza qilasan.

G'aziraning bozoridagicha odam, chuvvos yalla, lekin akamdan boshqa hech kim ko'rmaydi, eshitganlar «E-e, xudo asrasin-e», deb hayiqib qo'yadi-yu, boshqa nima deyishni ham bilmaydi. Hech kim bunaqasiga uchramagan-da. Oxiri, sira bo'lmagach, Olimxon eshonboboga olib borib o'qitmoqchi bo'lganlar. Akam eshakda, endi ovqatdan ham tortilib, ancha mazasi ham qochib qolgan-da, yangam oldinda, eshakni yetaklab borayotsa, shu yarim chaqirim ham yurmay, Burumga yetganlarida, yo'lning ikki tomonida kallaklanaverib, to'nkaning o'zi novdalagandek qari tutlar, eshak shu yerda taqqa to'xtab, yurmay qo'yibdi. Yangam ipidan tortadi, eshak qaysar oyog'ini tiraydi, kallasini xuddi bir narsadan olib qochayotgandek u yoqqa-bu yoqqa tashlab, salanglatadi. Yangam akamning ahvolidan o'zi ko'ngli cho'kkan, yana eshakning qaysarligiga xunobi oshib, «Sabil qolgur, endi buning qilig'i etmay turuvdi», deb yig'lab yuborgudek bo'lsalar, akam hiring-hiring kulib: «Tortma, foydasi yo'q. Ana, tutga qara, ustini to'ldirib o'tirib olgan. Kesakka tutyapti-ku. Qaytinglar, Olimxon eshonbovolaringning kuchi yetmaydi, deyapti», debdilar. O'sha kuni Olimxon eshonboboning oldiga borishganmi, yo'qmi yo boshqa kunimi, shu kishi akamni ko'rib, haqiqatan ham, «Menga kelib vaqtlaring bekor ketibdi, kuchim yetmaydi. Endi boshqa hech kimga borib yurmanglar, bunga faqat eshonbobo otangizning nafasi kor qiladi», degan ekan. Shundan keyin otam akamni uyning burchagiga buklama karavot bilan qamab, o'zlari shu karavotda o'tirib olib, o'qishni boshlabdilar. Shu o'qishda uzmay yetti kun o'qibdilar. Otam o'qir emishlar, haligilar ham uyda, qaysi yerda, qaysi tokchada tizilib o'tirib kutarmish, eshonbobo o'qishdan to'xtasa yo biron ishkal chiqsa, o'g'illarini olib ketamiz deb. Akam ularni ko'rib turgan, burchakdan chiqmagan, otamga qo'shilib o'zi ham kalima qaytaravergan. Oxiri, yettinchi kuni o'rtada oldi-berdi savdo bo'lgan, hamma shartlar ko'rilgan shartnoma tuzilgan: «Endi ichmaysanmi?» - «Yo'q, ichmayman» - «Yana ichadigan bo'lsang, chaqirib o'tirmaymiz, shunday olib ketamiz» - «Yo'q, tamom. Ichsam har narsa bo'lay» - «Tavba qil» - «Tavba qildim» - «Qasam ich» - «Qasam ichdim» - «Og'zinga olmayman, piyolasini ham ushlamayman, de» - «Pivo-chi? Hamma shopir ichadi-ku. Yozda Pushkinga zo'ri keladi-da» - «Yo'q, u ham mumkin emas. Uning ham

spirti bor» - «Mayli, lekin, iltimos, cheksam, hech bo'lmasa, nosga ruxsat beringlar, lekin aroq, mayli, pivo ham ichmaslikka qasam ichaman». Akam yalinibdi. Ular bir-biriga qarab olib: «Mayli, ruxsat. Lekin ichadigan bo'lsang, keyin chatoq», depti. So'ngra: «Bo'pti bo'lmasa, biz ketdik, lekin sen o'zingga qara, qasamni buzsang, biz yana shu yerda», deb dovu dastgohini ko'tarib jo'nab yuborishibdi. Shu bilan akam xuddi uyqudan uyg'ongandek tuzalib ketgan. Salda ro'zg'or yaxshilangan, qishloqda haydovchi odamning topishi baloday, pul ichkilikka ketmagandan keyin, eshikda uch-to'rt mol, qo'y, tovuq-povuq deganday. O'zi ham tinmay ichog'riqdan azob chekar edi, qutulib ketdi. Bir-ikki yilda garaj mudiri. Ilgari otib yurgan odam, endi ichadigan haydovchilarning rangini chiqarmaydi. Lekin qoyili shuki, o'zi o'sha kundan bir gramm ham ichmay ketgan, to'y-po'yda davrada aroq solingan piyolani noilojdan yo beixtiyor uzatib yuborishga to'g'ri kelsa ham, bir-ikki kun mazasi qochadigan bo'lib yurdi, lekin keyin bu ham qolib ketdi. Hozir akam katta eshon, hoji, o'sha vaqti shunaqa bo'lgan edi a, deb so'rasangiz, olayib qarab qo'yadilar, gap yoqmaydi-da.

Ana shu voqeotda ham odamni o'ylantiradigan ko'p gaplar bor. Akamning shunday bo'lib qolib, otam o'qib davolaganlarini aytsam, birovlar uncha ishonmaydi, birovlar shunaqa ham bo'lar ekan-da a, deb angrayib eshitadi, yana boshqalar esa meni rosa kelishtirib to'qiydi-da, degan shubhaga boradi. To'g'ri, to'g'ri, o'zi ko'rmagan odamning ishonishi qiyin, men ko'rganman, shunda ham ba'zi jihatlarini o'ylab qolaman. Bilimdon odamlar buni duoning, tilovatning kuchi bilan izohlaydilar, otangizning haqiqatan ham nafasi o'tkir bo'lgan, akingizni o'qib tuzatgan, ammo... ilgari qancha urishib-so'kib ham aroqni tashlata olmagan bo'lsalar, keyin oxirgi chora sifatida o'zlari ta'sir o'tkazib, keyin, tavbasiga tayantirgan bo'lishlari ham mumkin lekin, deb ham taxmin qiladilar. Bu fikrga qo'shilmayman, to'g'ri, otamning nafaslari kuchli, biz bilmagan ko'p narsalarni bilar edilar. Siyosati qattiq sho'ro zamonida ham besh vaqt namozni kanda qilmaganlar, melisa kelib gaplashgan, soliqchi-poliqchilar jarima solamiz degan bo'lsalar ham, nikohlab qo'yishni, musibatda janozalarni o'qishni to'xtatmaganlar.

Har hafta juma namoziga Samarqandga qatnar edilar. Qishloq, chekka joy deb ovora bo'lmaganlarmi yo bir-ikkita eshonning namozidan sho'roga putur yetib qolmaydi degan esliroq rahbarlar bo'lganmi, ishqilib, hech kim bu zarurat ishlardan qaytarolmagan. Aksincha, ko'p joydan eshonbobo, eshonbobo deb kelib turar, kattakonlarning ham ota-potasi o'lib-netib qolsa, so'rattirib olib ketar edilar. Lekin otam hech kimni o'qimas edilar. Bola paytimizda kasal bo'lib qolsak, dam solib qo'yardilar, lekin qancha odamlar iltimos qilib kelgan, qaytarganlar. «Duo yuk tashlaydi, bolalarim ko'p, shularni deb o'qimayman», der edilar. Akamni ham boshda o'zlari shu uchun o'qimagan bo'lsalar kerak. Keyin, boshqa iloj qolmagandan so'ng, majbur bo'lganlar. Qanday tuzatganlarini o'zlaridan necha marta so'rab ko'rgan bo'lsam, hammasida eshitmaganga olganlar. «E-e, bolam, - deganlar bir kuni, - agar xohlasam, shunday qilamanki, Po'latxonning xotini hozir o'zini bilmay, oldimga uchib keladi, uchib! Lekin qilmayman shuni, gunoh bo'ladi». Men Po'latxon domlaning shunday gavdali kampiri Lo'bat xolaning ko'zlarini ola-kula qilib, vag'illab uchib kelayotganini tasavvur qilib, otamning kuchlaridan qo'rqib ketganman. Issiq-sovuq qiladiganlarni juda yomon ko'rardilar, «Bular xudodan qaytgan. Bo'lmasa, «Kanzul husayn»ni men ham o'qiganman, lekin uni ishlatish gunohi azim», der edilar. «Kanzul husayn» qanaqa kitob, yo noto'g'ri eshitganmanmi, hozir ham bilmayman. Otamga u paytlari menga ham eskichani o'rgating, deganimda, «Bu hukumat harf uchun shuncha odamni qamab yubordi, yetadi shu. Sizlar bu zamonni o'qinglar», deb harf ham o'rgatmaganlar. Men universitetda fors tili o'tganda arab imlosini baloday o'rganib, eskichani bilishda qishloqda ancha obro' oldim-u, lekin bilimim «havopeymo» bilan «donishjo'»da qolib ketdi. Otam bilgan narsalarning daragini ham bilmadim. Lekin akamni davolaganlariga hali ham tong qotaman. Vosvos, ayniqsa alkohol tufayli paydo bo'lgan vosvosni davolab, ichkilik zotini tamom og'ziga ololmaydigan qilish hazilakam gap emas, yana yetti kunda.

Otam rahmatli akamni juda ko'p narsalarning ichidan sog'-omon olib chiqib qo'yganga o'xshaydilar. Qarang, anavilar bitta emas, ikkita emas, juda ko'p,

tumonat bo'lgan. Bu sizga ajinabutaning tagida o'tirib, o'zi ko'rinmay, bolalarni qo'rqitadigan shunchaki qitmir ajina ham emas. Bir narsani tushunganki o'shalar, akamga yon berib, tuzalishiga qarab turgan. Demak, o'zlarining maktablari yo malakali kurslarida o'qib, maxsus bilimlarni egallagan bo'lishi ham hech gap emas. Shuning uchun ham boshqa eshonlar akamni o'qishdan o'zini olib qochgan deyman. Eshonbobo o'z bolasini o'qisa, haligilar ham tushunadi deb o'ylaganlar.

Shu yerda bir narsaga aqlim etmaydi. Yaxshi, ularning o'zi bo'lganmi yo akamning ko'ziga ko'ringanmi, ishqilib, oldida to'planib, o'yinga tushib, chaqirib, do'q urib yurgani bor gap, otam aroqni tashlatish uchun akamga shunday ta'sir qilib, qo'rqitganlar ham deylik, lekin... lekin Burumda tilsiz, aqlsiz mahluq - eshak nimani ko'rgan? Uning ajina nima ekaniga farosati yetmaydi-ku. Odam bir narsani o'ylasa, shu o'ylagani ko'ziga ko'rinishi mumkindir. Akam «Jonivorga tarsillab kesak tegayotganini, mana, men ko'rib turibman-ku, nima, senda ko'z yo'qmi, deyman yangangga», degani ham tushunarli. Lekin eshak nimani o'ylaydi? Eshak-ku u! Boringki, eshakda ham ko'z bor, odam ko'rgan narsani u ham ko'radi, tut ustida tizilishib o'tirgan ajinalar unga ham ko'ringan desak, unda kesak qayoqdan? Axir, kesak otilgan! Bo'lmasa, hayvon boshini olib qochmas edi. Demak, aniq kelib tekkan. Men hammasining xayolot mevasi, butun jinu ajinalar aslida yo'q, lekin odamning ko'ziga ko'rinishi mumkin degan gapga ham qo'shilaman-u, lekin Burumda eshakning kallasini ular otgan kesakdan himoyalashini o'ylab, juda o'ylanib qolaman.

Demak, bor ular. Eshak, to'g'rirog'i, unga kelib tekkan kesak buning isboti. Haqiqatan ular bo'lgan, akamni o'rtaga olishgan, shartnoma tuzishgan, ichkilik ichishini taqiqlab, faqat sigaret bilan nosvoyga ruxsat berganlari bor gap deb hisoblayman.

Olis bolaligimni o'ylasam, jinu ajinalar bilan aralash yashaganga o'xshayman. Hamma yerda bor edi, ikki hangomaning birida gap ular haqida, o'zini ko'rmasam ham, yonginamda yurganlarini his qilar edim. Faqat ajinabutalarning ichida emas, to'qay, chakalak, yovvoyi jiydalarning siyrak soyasi, qayrag'ochlarning tagi,

kavilzorlar, to'p o'sgan daraxtlarning orasida, shamol turganda quyunda, ishqilib, odam yashamaydigan hamma-hamma joyda makoni bor. Yozda kun qizib, har xil vizilloq' u chirilloqlarning ashulasi avjga minib, dalalarning ustida jimir-jimir sarob o'ynagan xotin-peshinda tikilib qarasangiz hammayoqdan chiqib kelayotgandek tuyular edi. Shularning boshqa toifasi akamga uchragan, deyman. Uchramagan, ichaverib, akamning o'zi chaqirib olgan yo ularning o'zi shu ichadiganlarga keladigani. Har xili bo'lgan-ku. Echki, to'ng'iz, tulki. Otning devi qachon kelishini aytdim. Yana bir Rayimqul degan traktorchi kechasi bahorikordan otda qaytayotsa, Shayit boboning oldida, shunday yo'l bo'yida bir echki ma'rab turgan ekan, «Yaxshi bo'ldi-e, egasi chiqmasa, bolalar sutini ermak qiladi», deb otga o'ngarib olibdi. Sodda odam-da, sutlik echki ham egasiz bo'ladimi. Yo'lda ketayotib, «Ko'ray-chi, yelin-pelini to'lami o'zi», deb echkining butini paypaslab ko'rsa, tep-teki, elinning joyida hech narsa yo'q emish. Yurak qoladimi, o'takasi yorilib, echkini tashlab yuborgan, shundan kelib qirq kun alahlab yotib, rosa o'qitgandan so'ng yostiqlardan boshini ko'targan. Keyin ham ancha vaqt xayoli qochadigan bo'lib yurdi.

Bunaqa voqeotlarni tez-tez eshitib turardik. Maktabimizdagi ba'zi bolalar o'z ko'zi bilan ham ko'rgan. Albatta, ko'rishi bilan «Oshpichoq, qalampir!» deb, bezarar qolgan. Lekin jinu ajina nimaga oshpichoq bilan qalampirdan qo'rqqan, bilmayman. Qalampirmunchoq degani ham bo'lardi, isi burunni achchiqqina jiyirtiradi, shodasini qizlar hozirgi bijuteriyalar o'rniga bo'yniga osib yurardi, ko'zikmay deb, ko'z ham shu insu jinsdan tegadi-da, boshqa nimadan bo'lmasa? Lekin go'sht chopib, tut novdasini kesadigan oshpichoq nimaga o'tadi, nimani qaytaradi, bilmayman. Biron xosiyati bordir-da.

Yoshimiz yetib, universitetda o'qiymiz, ha, akam vos-vosga uchragan o'sha yili uchta «uch» bitta «besh» bilan mandatdan o'tdim, fakultet yaqinidagi Go'ri Amirning atrofi g'ij-bij ijara uylar, uchta karavot zo'rg'a sig'adi, o'rtada bitta liqilloq stol, shu karavotlar ham kursi, ba'zan poli ham yo'q, qattiq somonsuvoq er, poyafzal echib ovora bo'lmaysiz, qishda elektr isitgichning sovuqning zabti bilan

bilan basma-bas kuchanib qizargan spiraliga qarab hu-hulab o'tiramiz. Shu joy ham topganga bor, bo'lmasa, buklama karavot bilan ko'rpani yelkalab, uyma-uy izlanganingiz izlangan, kim ijara qo'yadi deb. Shundoq yaqiningida, Go'ri Amirning biqinida bir yaxshi xonadon bor edi, ijaraga beradigan xonasi ham zo'r, baland, poli qip-qizil bo'yalgan, kontramarka pech, devorlari ganch naqsh, uncha qimmat ham emas, oyiga o'n so'm, olti-yetti talaba tursa ham sig'ar edi. Lekin talabalar bu yerda bir oy, nari borsa, bir yarim oydan ko'p yashamagan, shunda ham bilmaganlari. Boshqa fakultetdan, zo'r uyligiga uchib kelib qolganlar, sal o'tmay ko'rparasini yelkalab qochib qolar edi. Sababi – kim shu uyda yotsa, kechasi devordan soqoli ko'ksiga tushgan bir oq yaktakli boboy chiqib kelib, ustidan bosar ekan. Ha, devordan chiqib kelib, indamay bosaverar emish. Men bir kuni bir kursdoshimizning sinfdoshi, jug'rofiya fakultetidan, bilmaganmi, yo qo'rqmaganmi, esimda yo'q, ishqilib, shu yerga ko'chib kelibdi, kursdoshim kirib ko'raylik, dedi, qiziqib ergashdim. Haqiqatan ham yaxshi xona, boyvachcha talabalar tursa ham bo'ladigan, bizlarning zax xonamizga sira o'xshamaydi, lekin yuragimni vahm bosdi, haligi bola bilan sal gaplashgan bo'ldig-u, tez chiqa qoldik. Kursdoshimning ham kayfi qochgan ekan. Sinfdoshiga rahmimiz kelib, bu yer shunaqa bexosiyat joy deb aytgan edik, o'zlari olmoqchi deb o'yladimi, zaharxanda kuldi, lekin keyin kursdoshim aytdi, ikki haftaga ham yuragi ko'tarmabdi, boshqa joy topguncha ham kursdoshimning yoniga borib yotib olibdi. Yolg'iz o'zim zerikib ketdim, depti-yu, lekin u yerda bir o'zi turmaganini, qorong'i kechalarda boboy ham paydo bo'lishini biz yaxshi bilardim, buning uchun ustidan kulmagan edik.

Shaxsan o'zim ularga duch kelmaganman, ko'rmaganman, lekin bilmayman emas, albatta. Mutlaqo ko'rmaganman desam ham bo'lmas. Universitetni bitirib, Toshkentga kelganimdan keyin bir ijarada turganman, shu yerda juda ko'p bosinqirar edim. Uyquga ketishdan oldin, hali ko'zimni yummay ham turib hozir boshlanishini bilardim. Bir narsa tinch guvillab keladi, kutib yotaman, ustimga oyog'imdan boshlab vazmin yuk bosilib tushaveradi. Yolg'iz yotsam ham,

«Uyg'otlar meni! Hoy, eshitmayapsizlarmi?» deb baqiraman, tovushim chiqmaydi, siltanaman, lekin hech bir joyim qimirlamaydi, agar jimjilog'imni qimirlatolsam ham uyg'onardim, lekin ming urinmay, shu ham qilt etmaydi, o'zi o'tib ketishini kutib yotaveraman. Davrini surmasa, bari bir to'xtamaydi, orada uyg'onib qolsam, nafas rostlab, yana yostiqqa bosh qo'yishim bilan kelgan joyidan davom etadi yo qaytadan boshlanadi. Xudoning bermish kuni shu ahvol, bezorlarim chiqib ketgan. Bosh uchimga pichoq, keyin burda non qo'yib yotishim sabab bo'ldimi yo boshqa ijaraga ko'chdimmi, hozir esimda yo'q, har holda, bir-ikki yildan keyin qoldi. Shunaqa paytlari o'zimni o'qib qo'yishni ham odat qilgan edim, balki shu tufaylidir. Lekin hozirlari eslasam ham yuragim shuvillab ketadi, ha, ustimdan bir narsa aniq bosar edi, na shakli, na ko'lankasini bilaman, lekin nimadir jonli, og'ir bulutga o'xshagan yuk edi. Albatta, bosinqiraydigan odam ko'p, alahlaydi, guvranadi, vaqtincha, birpasda o'tib ketadi, lekin meniki doimiy, surunkali edi, bosib tushadigan kuch ham xuddi qadrdon tanishdek, unga hatto ot qo'yib olsam ham bo'ladigandek edi. Ko'p qiynagan meni, lekin zarar etkizmagan.

G'uliston qolib, nimaga bu yoqqa o'tib ketdi, deb ajablanmang. Bu yoqqa kelib qolganimni avval o'zim tushunib, keyin sizga tushuntirishga urinyapman. Shunga gapni uzoqdan olib kelyapman.

Eng avvalo, haligi ajinalar to'g'risida. Ular shuncha ko'p bo'lgan, hamma burchak-kunjaklar shularniki, bolalar tugul, kattalar ham ulardan bezor edi. Lekin hozir yo'q, unda qayoqqa yo'qolgan yo bekingan? Faqat ko'zga ko'ringan, o'zlari aslida bo'lmagan, gallyusinasiya, xayolot golografiyasi desak, unda nima uchun asorati aniq? Ko'rganlar uchingan, dard topgan, yetti kun, qirq kunlab o'ziga kelolmay alahlagan, davo topmaganlari shu bilan o'tib ham ketavergan. Ona-bola oq eshakning o'zi bo'lmasa, Orziqulning onasi nimani ko'rgan va, eng asosiysi, Orziqulning og'zi qiyshaygan-ku? Qambar otadan o'tishda, xo'p, ko'pkaritozlar oyoqosti qilyapmiz deb qo'rqqan, o'takalari yorilgan, banda, lekin unda tulpor jonivor nimadan hurkkan? Yo Qambar ota otga ham muqaddasmi? Odam ko'rganini ot ham ko'rgani bilan, lekin uning ko'ziga o'zi yo'q nima ko'rinishini

biz bilmaymiz-ku, u ham vahimaga tushganida, bu mumkin, lekin insonning xayolini boshidan kechirmaydi-ku. Bu savollarning hammasiga javob bordir, lekin akam masalasida hech kim meni fikrimdan qaytara olmaydi: ular aniq bo'lgan, bo'lganda ham juda ko'p, oramizda, biz bilan birga yashagan, oilalari, davralari, yoru do'stlari bilan; xalqmi, millatmi, ishqilib, akamga bir to'pi ko'ringan, xolos.

Buning hayotiy asoslari bor albatta. Men ularni muvoziy – parallel dunyodan deb bilaman. Ha, ular bizning yerimizda biz bilan birga yashaydi, hatto birga rivojlanadi ham. Ba'zan-ba'zan, ayniqsa kun tig'iga kelib, oftob jazillatgan paytlari yo sim-siyoh qorong'i kechalarda ham, ikki dunyo tutash joyda nimadir ishkal chiqib, bu dunyoga, ya'ni biz tomon dunyoga o'tib yuradi, bir xil odamlarga ko'rinadi, mundayroqlarga teginadi. Gohida ko'plashib o'tib keladi, ko'pligi uchun ham hammasi bekina olmay, to'pi bilan ko'rinadi ham. Akam shunaqalariga duchor bo'lgan. Ba'zilar birovlarining yonida yuradi yo yotganda ko'rpasining ustidan yotib oladi, haligi Samarqanddagi ijara uydagi soqolli chol yo Toshkentda mening bosinqirashimga o'xshab.

Ularning borligiga yana bir aniq isbot – o'zimizdagi azayimxon, qoqimchi, baxshiyu qushnochlar. So'rang shulardan, kim bilan gaplashar ekanlar. Birontasi ularni yo'q demaydi, chunki yo'q bo'lsa, bularning tirikchiligi nimadan? Necha-necha asrlardan beri aldab kelayotgan bo'ladilar-ku. Yolg'onning umri buncha cho'zilmasa kerak.

Endi ularning qayoqqa yo'qolganiga kelsak, taxminim shuki, qishloqda traktorning tarillashidan cho'chib, ham ekologiya buzilishidan qochib ketgan. Keyin dala shiyponlarigacha elektr o'tkazildi, bu yorug' ham ularga yomon. Haqiqatan ham bolaligimizda ovloq joylar bisyor, hammayoqda ajinabuta, xarobazor, shiyponlar tunlari egasiz, o'zlashtirilmagan yer ko'pligidan ilon, yumronqoziq, tulki, Bulung'urning chekka-chekka joylarida qanotlarini tovlantirib tustovuq ham uchrab qolar, umuman kengchilik, mol boqishga, pichan qilishga yer mo'l, ajinaga ham obodonlik edi. Lekin kechayu kunduz tarillab traktor hamma yoqni buzib tashladi. Ovloq joylar qolmadi, hammasi fermerlar qo'lga o'tib ketdi, ajinaga

makon tugul, molga yemishga bir bog' o't ham yo'q, chakalagu to'qaylar tugagan, ajinabutalar kesilib ketgan, borining har biriga bittadan ziravorfurush xo'jayin, mevasini terib olib kelib, qon bosimiga davo deb, bozorda pullaydi. Ajinasi bechora qochib qutulgan.

Ekologiyaning buzilishiga kelsak, ertaga o'zimiz qanday yashashimizni ham o'ylamay, bechoralarni haqiqatan ham tamom qilyapmiz. Ajina odam emas bu havoga chidagani, u erkin, musaffo nafas, toza suvlar kerak unga. Ho', aytdim-ku, bolaligimizda daladagi to'g'ri kelgan ariqqa ko'ragimizni berib yotib, to'yib simirib ketaverar edik, iyagimizga loyqa inib qolsa ham, suv bari bir toza, ha, o'sha paytlari ajina ham ko'p bo'lar edi-da. Hozir eng katta Bulung'urimizning o'zidan bir ho'plamgina suv ichib ko'ring-chi, yo'q, rangini ko'rishingiz bilan ko'nglingiz ayniydi. Ajina bunaqa suv bo'yida turolmaydi, uning erki o'z qo'lida, tozaroq joylarni izlab hayyo-huyt deb quyonni surgan. Hayvonlarning-ku kamayib ketayotganini «Qizil kitob»larda asrab qolarmiz, lekin ajinaga hatto qo'riqxonaga ochsa bo'ladimi, yo'qmi, buni o'ylab ham ko'rmaymiz, axir. Shunaqa qilib, hozirgi kunda qishloqlarda ajina yo'qolib, balki butkul qirilib bitayotir.

Shaharlarda, uncha bilmadim, shu muammo bo'lsa kerak. Eski mahallalar buzilib, yangi ko'pqavatli mavzalar qurilyapti, yo'llar tushib, hammayoq asfalt, temir-beton, plita, panjara, kechasi ham soqchilar qo'riqlaydi, yengil mashina nihoyatda ko'p, bir yoqdan yangilari chiqsa, bir yoqda o'ttiz-qirq yillik «veteran»lari ham vag'illab tutun qaytarib yuribdi, bu yerda ham ajinaga makon yo'q. Agar ham tagida odam qo'rqadigan birda-yarim juda eski shaytonko'priklar buzilmay qolib, shularning tagida jon saqlamagan bo'lsa, buni ham, hay, bilmadik-da.

Kim edi ular va men kim?

Ana, endi asosiy taxminlarga keldik.

Birinchi taxminim – ular bor, lekin bu yerda, dunyomizda yashashga, keyin odamlarga teginishga ma'vo qolmagandan keyin, o'sha yoqda turib meni Jizzax – Toshkent yo'lida, cho'lda chalg'itib, mashinamni o'z yurtlariga yurgizib olib ketib qolganlar. To'g'ri, hayron bo'lishingiz mumkin, chunki bolaligingizda ham, hozir ham zanjirband ajinani ko'rmagansiz, men ham eshitmagan edim, lekin, aytyapman-ku, muvoziy dunyodagilarning hammasi bir xil emas, millatida, irqida tafovut deganday, rang-ro'yi, tuzilishi, tili, shevasi har xil, xuddi shuningdek, yashash tarzi ham bir-biriga o'xshamaydi, juda ham turfa olam-da bu ham. Menga omadim yurishib, o'z tilimizda gapiradiganlari to'g'ri kelib qolgan. Keyin, oldinroq ham aytdim, ular ham rivojlangan, ilgari faqat mahluqot shaklida insu jins bo'lib ko'rinib, arava mingan bo'lsa, endi bizga taassub qilgan holda, texnikasi taraqqiy etib, uchar likopchayu har xil nurli zo'ldirlarning ichida uchib ham yuradi. Bu ma'noda bizdan o'zib ketgan bo'lishi ham ehtimol, isbotiga G'ulistondagi ichg'u, quyg'u, keyin shabada, yulduzlarning nuridan foydalanish borasidagi kashfiyotlarini aytdim. Undan zo'r ixtirolari ham bordir, lekin o'zimning fahmim yetganiga e'tibor qildim-da.

Siz bolaligingizda ko'rgan ajinalar eshkilsiz, men uchragan g'uliylar zanjir taqqan bo'lsa, demak, ajablanadigan joyi yo'q, binobarin, muvoziy dunyo ham, aytdim, keng bir olam, G'uliston uning bittagina mamlakati, balki, o'zlari chandon ulug'lagani bilan, mundayroq bir yurtidir, xolos. Menga siz umuman ko'rmaganlaringiz ko'ringan.

Endi yana bir masala: nima uchun Toshkent – Jizzax yo'lida aynan meni adashtirdilar, mingta haydovchi bezarar o'tib-qaytib yotibdi-ku? Buning ham asoslari bor, u paytlari uncha o'ylamagan edim, hozir tushunyapman. Bular meni bolaligimdan ko'rib yurgan, talaba paytlarim ham, keyin ham nazarda bo'lganman, lekin o'zlarining menga ko'rinishiga bir sabab chiqmagan, qandaydir turtki

topilmagan, deyman. Lekin... ana shu yerga diqqat qiling, akam tinmay ichib, oxirgisida yana qadamjoda falokat bosib, ularning g'ashiga tekkan, oqibatda o'zi vosvosga uchragan, men Samarqanddan kirish imtihonlarining ikkitasini topshirib kelib, akamning ko'ziga o'shalarning ko'ringanini o'zim ko'rmaganim uchun ishonmaganman, ular meni ishontirish yo'liga tushganlar-da, yo'lini izlab-izlab, oxiri, hu keyinroq, cho'lda, Toshkentdan Jizzaxga qarab bir o'zim chiqqanimda payt poylab, adashtirgan. Hammasi ko'rsatib qo'yish uchun. Ha, shunday deyman. Ular uchun oradan o'tgan yillar, vaqt masalasi ahamiyatli emas.

Buning yana bir jiddiy asosi ham bor. Men u paytlari ruju qo'ymagan bo'lsam ham, oz-ozdan otib yurar, o'sha kundan bir kun oldin, ertaga yo'lga chiqaman, to'yib uxlab olay deb, ikki piyola urgan edim, ertasi kuni og'zimdan hidi kelmasa ham, bu palakat badanimda bo'lgan-ku, ular «Iy-e, biz akasini shartnoma bilan ichkilikdan qaytarsak-da, ukasi bizni nazarga ilmayaptimi, bir esini kiritib qo'yaylik-chi», deb qasd qilgan. Tayyor sharoit – bekas cho'lda yolg'iz kelyapman, chaqirsam ham eshitadigan odam yo'q, tag'in old bilan orqa almashib qoladigan g'alati joy, ko'zimni shamg'alat qilib shartta G'ulistonga o'tkazib olganlar.

Lekin... qizig'i shu yerdan boshlanadi-da, xullas, lekin bu yerga olib kelgandan keyin, qarashsalar, men ular o'ylaganchalik shunchaki mashina haydab ketayotgan oddiy bir fuqaro emasman, o'qigan, oliy ma'lumotli, yana o'zini soddalikka solib turgan yozuvchi. Yana tarjimai holimni o'rganib chiqsalar, aytdim-ku, ularning bizga bog'lanib turadigan robitalari bor degan taxminimni, bir-ikki avlod oldin bobom bulardan bittasining sochidan tutib, yetti pushtingga tegmayman, degan qasamini olgan, demak, menga teginish mamnu, ikki dunyo o'rtasida katta gaplar chiqib ketib, muvozanat buzilishi xavfi bor, bir yo'li topilib qolar deb, meni bog'hovliga ihotalab qo'yib, o'zlari yuqori idoralarida shu yo'lni izlab maslahat qilib yotadilar.

Bu uncha taxminim ham emas, aniq bor gap. Menga bildirilayotgan ehtirom shundan, xizmatchi qiz ham shu uchun hurmati oshib, muhabbat qo'ygan. Lekin

masalam hali oxirigacha yechilgani yo'q, ularga g'irt boshog'riq bo'lib turibman, endi nima ko'rguliklar boshimga tushishini o'zim ham bilmayman.

Ammo, o'tmishimni titkilab, hatto G'ulistondan keyin bo'lgan ba'zi voqeotlarni o'ylab, vaziyatga oydinlik kiritishga harakat qilaman. Bu, ikkinchi taxminim o'zimga ham xavotirliroq. Uncha ishonmayman, lekin mantiq shu yoqqa tortib ketadi. Gap shundaki, men kimman, meni G'ulistonga adashtirib ular olib keldimi yoki... Shoshmang, oydinroq bo'lishi uchun gapni boshqa yoqdan boshlashimga to'g'ri kelyapti.

Esingizda bo'lsa, yigirma yillarcha oldin osmonimizda uchar likopchalar yomon ko'paydi. O'zga sayyoralardan kelgan maxluqotlar kimlarnidir o'g'irlagan, kimdir o'zi qo'shilib ketgan, Yozyovonmi yo Qashqadaryodanmi bir qiz ularning orasida ancha yashab ham kelib, keyin bir gazetamizda chiqish ham qildi. O'zim o'qiganman. Matbuotda doim shunaqa xabarlar, hatto maxsus jurnallar ham chiqdi. Chotqolmi, Chimyonda ular, haligi boshqa sayyoralarning gumanoidlari kelib-ketib yuradigan joy ham topilib, o'sha yoqqa muloqotchilar, ya'ni kontaktyorlar guruhi maxsus reydlar uyushtirib, qo'l olishmasa-da, uzoqdan ay-haylashib ham qaytdi. Bizdan borib kelganlar keyin nima bo'ldi, haligi ular bilan yashab kelgan qizning taqdiri bu yoqda qanday kechdi, turmush qila oldimi, yo'qmi, buni yozishmadi-yu, lekin chet eldan, Bolgariyadan shekilli, o'ntacha qiznimi olib ketib qolishgan ekan, shular kelgandan so'ng tuqqan degan xabarlarni o'qigan edik. Haligilar uchib yuradigan koinot kemalari ilmiy tilda NUJ – noma'lum uchar jismlar deb atalar ekan, ana shu NUJlar hatto Toshkentimiz osmonida ham bemalol keza boshladi. Kechqurun hovlimizga tushib, oshimizga halfana sherik bo'lishiga bir bahya qoldi, xolos. Ular yo osh nimaligini bilmadi, yo bizning ovqatlarimiz ularga zo'rlik qiladi, ishqilib, nechog'li mehmondo'st bo'lmaylik, aniq birovnikiga qo'ngani yo'q. Men Toshkentni aytyapman, chekkaroq joylarda kim biladi nima bo'lganini. Ba'zi odamlar tomlariga tushganidan guvohlik berib gazetlarda chiqish qildilar lekin. Men bu gaplarni hazilnamo qilib aytyapman-u, lekin u paytlari juda jiddiy edi. Bir qo'shnim bor edi, Anvar aka degan, xudo rahmat qilsin, juda yaxshi

jiddiy odam, taksichi, shu kishi mijoz olib ketayotganda Yunusobodning ustida, osmonda o'shanaqa NUJ uchib yurganini o'z ko'zi bilan ko'rganini aytuvdi. «Mashinam odamga to'la edi, hammasi: «Ana, ana, uchib yuribdi! Qarang, qarang!» deb yubordi. Qarasam, shunday old oynaning tepasida to'rt-beshta fara rostdan ham uchyapti. Lip-lip qiladi». «Keyin, keyin nima bo'ldi», dedim. «Keyin hech narsa, - dedi Anvar aka, – ketaverdim. Hozir bizlarning ham plan katta, to'xtab tomosha qilishga vaqt yo'q». «Likopchalar, ular nima bo'ldi?», deb yopishib oldim, chunki shu paytgacha NUJni ko'rgan odamlar haqida o'qiganman, lekin birontasini o'z ko'zim bilan ko'rmagan edim-da. Anvar aka hafsalamni pir qildi, «Bilmadim, qanday kelgan bo'lsa, shunday ketgandir-da o'zi», dedi. «E-e, tushib, yaxshilab qarab olmaysizmi, aka», desam, «Yaxshilab qaraganda menga nima kerak? Bu uchun taksoparkda mukofot puli qo'shib bermaydi yo planimni kamaytirmaydi. Lekin odamlar qarayotgan edi», dedi Anvar aka. U kishidan shundan boshqa gap chiqmadi.

Ishqilib, NUJ o'sha payti yomon ko'paydi-da. Sal chekkaga chiqib, osmonga tikilsangiz, galalashib ko'rinadigandek tuyular edi. Keyin, shular sabab bo'ldimi, yo o'sha paytda bodroqday ochilgan kooperativ oshxonalar tufaylimi, birdan xalq tabobatchilari yomg'irdan keyingi qo'ziqorindek bodrab chiqdi, bularning ichida eng zo'rlari ham qanaqadir kuchlar bilan, dorisiz davolaydiganlari edi. Matbuotimiz cho'chitib qo'ydimi, NUJlar uncha kelmay qoldi, lekin ularning o'rniga bular urchidi. Shunaqa zo'rlari chiqdiki, qo'lini tegizib, uqalab-puqalab ham o'tirmas edi, qishlog'iga borib, hatto avtobusdan ham tushmaysiz, o'zi chiqib hammaga bir qaraydi, allanarsalarni beradi yo o'sha o'tirgan joyingizda qo'lingizdagi shakarmi, suvgami, shunga uzoqdan dam soladi, fisabillo pulini berasiz, bo'ldi, uyingizga qaytib, u aytgan amallarni bajarsangiz, tamom tuzalib ketaverasiz. Odamlar do'xtirxonaga bormay qo'ydi, davolanish kasal bo'lishdek juda osonlashib ketdi. Ablah, bitta-yarim pokdomon ayollarni yo'ldan urgan qo'shnilar ham topildi lekin. Farg'ona tomondan bir ekstrasens chiqib, borib uchrashgan mijoziga kechasi eshik-derazani ochib qo'yib, oq ro'yjada, oppoq

kiyimlarni kiyib kutib yotsa, oq kiyimli ruh kirib, o'zi davolashini tayinlar ekan. Ha, bir likopcha oq shakar ham qo'yish kerak bo'lgan. Arvohmi, ruhmi, shuning og'zi tegishiga. Bir juvon yo qizmidi, ishqilib, hamma shartlarni bajarib, ruhning poyqadamini kutib yotsa, qo'shnisi, poylab yurar ekan, kunduzi uning ekstrasensdan nima topshiriq bilan qaytganini eshitib olib, qirchiningda qirilgur, oq choyshabni yopingan ruh bo'lib kirib kelibdi-da... vijdonini yegan noinsof, xotingadoyi bo'lib o'tsin, ishqilib.

O'sha paytlari Yozuvchilar uyushmasida ham hayot qaynagan, qariyb har kuni quloqcho'zma she'rxonlik, muhim masalalar bo'yicha majlis, tortishuv, bahslar, buning ustiga haligidaqa tabibu ekstrasens, biotokchilar ham shu yerda in qurgan, tinmay odam qaraydi. Gurros-gurros davotalablar keladi, lekin bularga ko'proq mashhurlar kerak, «Atoqli Falon Falonchini bilasiz-ku, shunday odam juda azob chekib yurgan ekan, qabulimda tuzalib ketdi», deb aytish uchun. Nafasi o'tkir, qo'li pechkaday issiqlaridan tortib, kelajakni bashorat qiladiganlarigacha bor, eng asosiysi, o'zlari o'zlariga juda ishonar edi. Men mashhur emas-u, lekin otning qashqasidek taniqliman, bir kuni oldimga bitta ayol kelib, he yo'q, be yo'q, «Men Orol dengizni suvga to'ldiraman», deb yuborsa! Shunaqa ishonch, shunaqa sirli bir kuch bilan aytdiki, xayolimga boshqa o'yni keltira olmadim. «Juda yaxshi, shuncha olimu tashkilotlar shu ishni qilolmay qiynalib yotibdi. Xalqimiz ham sizga muntazir», dedim. Boshqa nima ham deyman, Orolni qanday to'ldirishni o'zim bilmayman, boshqa biladiganlarni ham bilmasam. «Ishonmaysiz, chunki qalbingiz ko'rmayapti», dedi u. Qarang, gapining chuqurligini, odamning qalbini biladi! «O'zlaring to'ldira olmaysizlar, to'ldirganga esa yo'l bermaysizlar», dedi ayol sal achchiqlanib. Juda izza bo'ldim, rost lekin, necha yildan beri baqir-chaqir qilamiz, qo'mita ham tuzib, oyligini ham olib yotibmiz, lekin Orolga suv bermaymiz. Ayolning gapiga shappa yopishdim, «Yo'q, juda-juda ishonaman. Faqat ayting, nima yordam beray?» dedim. «Hammaning o'zi yordamga muhtoj, siz menga emas, men sizga yordam beraman. Mana, shuning uchun keldim oldingizga», dedi ayol ma'noli qilib. Bir oz dovdiradim ham, «Xo'p, endi men nima qilay? Yo

ishonganimning o'zi yetadimi?», deb so'radim. Ayol bu gaplarni eshitishga ham arzimaysan, degandek juda bepisand iljaydi-da, «Meni prezident bilan uchrashtirasiz, bu sirni faqat u kishiga aytaman, vazifam shunday», dedi. Bu ish, albatta, qo'limdan kelmaydi, prezident bilan uni uchrashtirish tugul, o'zimga ham yo'l bo'lsin, shuni tushuntirmoqchi edim, lekin ayol so'qirga yig'lagan esiz ko'zim, degandek: «Ahvollaring shu, Orollaring ham suvga to'lmaydi», deb meni xayr-xo'shga ham arzitmay, o'sha bepisand iljayganicha jo'nab yubordi. Gapirayotgan payti rosa razm solgan edim, kiyinishi binoyi, och kulrang kofta-yubka kiygan, sochi zamonaviy kesilgan, oq shokilali ro'molni boshiga shunday tashlagan, ko'zlari juda ma'noli, odamga tik boqadi, hali gapirmasdan ham imo bilan javob kutadi, qomati nozik, o'ttiz besh-qirqlarda bo'lsa ham, hali tug'magan qizlardek, xullas, uning shu o'tirishida biron nuqsini topolmadim, lekin, bari bir, unda bizda yo'q qandaydir kuch bor, qay bir ma'noda bu dunyoning odamiga o'xshamas edi. Umidsiz qo'yib yuborganimga xo'b afsus yedim, lekin uni boshqa ko'rmadim, kelmay ketdi. Orolni suvga to'ldirib berishiga juda-juda ishongim kelsa ham, bari bir, xomxayol ekanini bilar edim-u, lekin uning menda ham bir narsa bor deb o'ylab, o'ziga yaqin olib kelgani haligacha o'ylantiradi.

Uyushmada doim tumonat, dolonda ko'p odam orasidan o'tayotgan edim, birovni bilagimdan tutib to'xtatdi-da, juda ham qalin oshnamdek tikildi. Tanimaganimga xijolat ham bo'lgandek bo'ldim. «Juda toliqib ketgansiz», dedi u nigohi bilan meni kechirib. Keyin, «Kiring, sizga seans berishim uchun atay yuborishdi», dedi. Shunaqa shafqat bilan gapirdiki, xuddi yalang'och bo'lib qolgandek edim. Bilagimni qo'yib yubormay, yonboshdagi kichik majlis xonasiga da'vat etdi. O'tirdik, menga juda sinchiklab mehribon qaradi. Ming yildan beri tanishdek. O'zimni sodda ko'rsatib, aldashga ko'nglim bo'lmadi. «Qo'yishmaydi, shu yerga kelgan hammasi seans bergan, lekin menga ta'sir qilmaydi. Sizni ham ovora qilmay, o'zim shunaqa beta'sir to'nkaman shekilli», deb to'g'risini aytdim. Juda bama'ni yigit ekan, qo'lini boshimning ustiga soyabon qilib yurgizdi, xuddi shisha qobig'imni silagandek, hamma tomonimga aylantirdi, keyin boshini ma'noli

chayqadi-da, «O'zingizda ham bor ekan-ku. Mening kuchim etmayapti», dedi. Nimaligini bilmasam ham, ko'zlaridan nimadir yaxshilikka ekanini sezdim. «Nima, davolab bo'lmaydimi meni endi», deb so'radim. «Davongiz o'zingiz bilan, - dedi yigit. – Sizning quvvatingiz manbai - daraxt. Uni shunday quchoqlab, boshingiz osmonda, oyog'ingiz erga chuqur tomir otgan, shu tomirlardan so'rilib chiqib kelayotgan hayot sharbatlarini his qilasiz, men ham daraxtman, yerdan quvvat olib o'syapman, sog'man, charchoqlarim hozir barglarimdan to'kilib ketadi, deysiz. Lekin bu gaplarni ishonib, ishonch bilan aytasiz, tashqarida aytsangiz ham bo'ladi, ichingizda ham». «Mayli-yu, lekin daraxtni qanday quchoqlayman?», dedim. «Ha, oddiy, quchog'ingizdagi qizdek quchoqlayverasiz», dedi u, shuni ham bilmaysizmi, degandek. «Bitta-yarim ko'rib qolsa... nima deydi?», dedim. U yigit soddaligimga ma'yus jilmaydi. «Siz odamlarning oldida quchoqlamang, boqqa boring, ovloqqa chiqing-da, quchoqlayvering. Oddiy nodonlarning kulgisiga qaramang», dedi. Men doim band ekanimni, yana odamlar orasida ishlashimni dolonga ishora qilib ko'rsatdim, odamsiz joylarga borishga vaqtim yo'qligini aytdim. Bu juda ham shart emas, ishda ham odamlarni tashqarida gaplashaylik deb olib chiqib, uyushma oldidagi soyaga chorlagan bo'lib, bir qo'lim bilan daraxtga tiralib olsam yo biron shoxchasini xuddi o'ynayotgandek silkitib tursam ham, daraxt menga quvvat almashib, kuch beraverar ekan. Sindirib qo'limda olib yurishim ham kerak emas. Juda oson bo'lsa ham, bari bir, juda erish tuyuldi, qilmadim.

Bir yaqin og'aynim ham ekstrasens bo'lib ketib, ko'p odamlarga davo berdi. U kunduzi uxlab, kechasi bilan ham toat-ibodatda, ham kasal ko'rar, nihoyatda jiddiy muolajachi edi. Unga ishonmagan odam xuddi shak keltirgandek bo'lib qolardi. Har kuni eshigida yigirma-o'ttiz odam navbatda. Bir kunduz kuni u uyushmaga kelib qoldi, xonamga kirib, «Keling, jo'ra, sizni bir ko'rib qo'yay», dedi. Juda yaqin edik-da. Unga ham haligi gapni, ya'ni menga ta'sir o'tmasligini aytdim. U ham ishonch bilan: «Bilaman, chunki o'zingiz eshonbobolardan, sizga uncha-muncha odamning kuchi bilinmaydi», dedi. «Sizni o'zingizning ajdod ruhlaringiz

bilan uchrashtirib qo'yaman. Munday tikka turing, ko'zingizni yuming. Oq yaktak kiygan, oppoq soqoli ko'kragiga tushgan xushro'y bir mo'ysafidni ko'rasiz, bu Yassaviy bobongiz», deb tong qoldirdi. Otam rahmatli oltmish uch yoshlarida he yo'q, be yo'q, birdan Turkistonga o'tlanib, hammamizni hayron qoldirgan edilar. «Borib Ahmad Yassaviy bobomizni ziyorat qilib keldim-da», deb meni rosa g'ururlantirganlar. Darsligimizda feodal-klerikal shoir deb Ahmad Yassaviy yozilgan, otamga shunday odam bobo bo'lsa, demak, men ham chakana emasman, deb o'ylaganman o'shanda. Endi otamning ziyoratlari bilan do'stimning aytgani to'g'ri kelganini qarang. Xullas, aytganini qilib, ko'zimni yumdim. Shu tikilaman, qani endi u aytgan mo'ysafid ko'rina qolsa! Lekin bir narsa lipillab, goh soya tashlab, goh yorisha boshladi, oq sharpa ko'rinish berayotgandek tuyuldi. Hozir, mana, hozir Yassaviy bobomni ko'raman deb, yuragim gumurib ham ketdi. Nimaga ko'rinishi buncha cho'ziladi deb, sabrim tugab, ko'zimning bir chekkasini jichcha ochib, qirida qarasam, qo'lini elpiyotganda, yuzim oynaga qaragani uchun yorug'likni to'sib-ochib turgan ekan. «Ko'rdingizmi?», dedi oshnam. Shuncha mehnati ketdi, meni rostdan ham to'nka ekan demasin deb, «Ha, juda aniq emas-u, oq kiyimini ko'rgandek bo'ldim lekin», dedim. «Ana shunday-da, sekin-sekin, bir seansda yaktagi sal hilpiragandek bo'ladi, keyin ko'proq, o'n to'rt marta olganingizdan keyin aniqlashadi», dedi u quvonib. Xonada bir xodimamiz ham o'tirgan edi, u ketgandan keyin qiziq gapni aytib qoldi: «Nima ko'rganingizni bilmadim-u, lekin qo'lini ko'kragingizga olib borib, olib kelib turganda, shunga mos tebrandingiz, men qo'rqib ketdim», dedi, buni o'zim mutlaqo sezmaganman lekin.

Ekstrasens oshnam yo'q deyishimga qaramay, bari bir seans beradigan bo'ldi. U har kuni kechqurun, uyg'ongandan keyin birinchi menga zaryad yuborar ekan, bu uchun uyiga borishim ham shart emas, shu muddatda o'z xonamda, oldimga uning rasmini qo'yib, qarab o'tirsam bo'ldi ekan. Rasmi yonida yo'q ekan, dastxat yozib bergan kitobimdagi rasmim ayni muddao, dedi, uyim ta'mirlanyapti, kitobingizni topolmayman deb, bahona to'qigan edim, «Unda roppa-raso to'qqizda o'tirasiz-da,

falonchi-falonchi deb meni ko'z oldingizga keltirasiz, men u yoqdan, uyimda o'tirib sizga zaryad yuboraman», dedi. Keyin yana qulay tomonini aytdi, safarda yursam ham, mashinada bo'lamanmi, uchqichdami, farqi yo'q, uni ko'zim oldiga keltirsam yo o'ylasam bo'ldi, seansini olaverar ekanman. U ketishi bilan, mingta ishim bor, seansi esimdan chiqib ketdi. Yuborib turganlari ham havoga uchgandir.

Uning xotini ham zo'r tabib, ikkalasi hamkorlikda davolar edi. U kasalni yoshi, tug'ilgan yili, qayerda turishini yozib olardi-da, o'zini ko'rishi ham kerak emas, ma'lumotlarni kelinga yetkazadi, kelin esa kasal a'zolarining yozuvi to'g'risiga rangli chorburchak qo'yib, unga beradi. Masalan, jigari qarshisiga qora chorburchak qo'ysa, demak, ahvoli chatoq, qizil bo'lsa, davolatish kerak, oq bo'lsa, hech narsa yo'q, ya'ni jigar toza. O'shanaqa jadvalini o'zimga ham ko'rsatgan: odam o'zini soppa-sog'man deyishi yolg'on, biron a'zosi nosog' bo'lmagan odamning o'zi bo'lmas ekan.

Shunday kuchli ekstrasens tabib ham menda bir narsa borligini aytdi-da lekin. Bitta u bilganda ham mayli edi. Orolni suvga to'ldiradigan xotin ham oldimga bejizga kelmagan, undan keyingi ekstrasens yigit maxsus yuborilganman, deb aniq shama qildi. Kimlar yuborganini so'rashga yuragim dov bermadi, ammo o'zimning tanlanganlardan ekanimga ham uncha shubham yo'q, G'ulistonga kelganimga ham sabablardan biri shumi, deyman.

Buni yana bir voqea bilan quvvatlasa bo'ladi. Bir yozda Samarqanddan kelayotgan edim. Shu «no'l to'qqiz», rulda bir o'zim, tush payti, kun tig'iga kelgan, mashinaing ichi qaynagan, tashqari ham yonadi. Yuqori nuqtadan o'tganimda, Qorovulbozordan chiqqanmi, yo'l bo'yida ikkita qiz, bittasining ko'ylagi havorang, unisiniki sariq, shu issiqda ustida yashil nimcha ham, kimsasiz joy, oftobda qovrilib turgan ekan. Qo'l ko'tardi shu sariq ko'ylaklisi, to'xtadim. Chiqib orqa o'rindiqdan joy olishdi. Sariq ko'ylaklining nimchasi tugmalari echiq, o'zi ham sariqqina, durrasi tagidan bir tutam oltindek sochi ham chiqib turibdi, yuz qirralari bejirim, og'zi hayron bo'layotgandek yarim ochiq, ustki labining mayin tuklariga mayda munchoqdek ter ko'pchigan, nozikdan kelgan, ko'hlikkina

chiroyni arzon chit ko'ylagi ham sarg'ayib yashira olmagan edi. U bilan oynada tez-tez ko'z urishtirdik. Birpasda ko'nglimga o'tirishdi. Havorang ko'ylaklisi «yanga»layverganidan bildim, bu - yosh kelinchak. Sal yurganimizdan keyin, Marjonbuloqqa tikka kesib chiqadigan yo'lda qayinsingil tushib qoldi. Bu yer ham kimsasiz, odam kelmaydigan joylarga o'xshar edi. «No'l to'qqiz»da endi ikkalamiz, bir ko'zim yo'lda, bir ko'zim orqada, kelinchakning ham nigohi menda. Qaraganim sari chiroyi ochiladi, ko'nglimga ming ajoyib o'ylar keladi. Hozir to'xtasam-da, yuring, hu anavi makkayipoyalarni aylanib kelamiz, deb boshlasam, yo'q demas, deb o'ylayman. Manavi chakalakning soyasi ham yomon emas, «no'l to'qqiz»ni to'ppa-to'g'ri narigi butaning tagiga haydab borish mumkin, bir soatgina suhbatlashib o'tirsak, deyman. Ko'nglimda ko'p hissiyotlar jo'sh uradi, hammasi toza, xuddi shu to'g'ridek, kelinchak bari bir pokiza qoladigandek tuyulaveradi. Ikkovimiz qolgandan beri kelinchak yanada ochilib, yashnab ketdi. Arzon chit ko'ylagi sariq alanga olib, yondi; olmadek turtib chiqqan ko'kraklari mashina sal silkinganda ham nimchasi tagidan otilib chiqib ketadigandek potirlar, mening ham tilim tanglayimga yopishib qolgan edi. «Men sizni taniyman», deb qoldi u birdan. Boshimni burib hayron qaradim. «Siz artistsiz, ha, mashhur artist, hozir otingizni eslolmayapman», dedi ishonch bilan. «Yo'g'-e», deyishdan boshqa gap topolmadim. «Ha, kamtarlik qilmang, sizni ko'riboq o'sha kishi shu, dedim». «Kim o'sha kishi?» deb so'radim. «Yuzingiz o'sha kishiniki-da, xuddi akamga yo otamga o'xshaysiz. Sizga ishonsa bo'ladi», dedi u o'zini juda yaqin olib. Hayajonlanib ketdim, bilasizmi, o'zimga hurmatim nihoyatda oshdi. Kelinchak butun inon-ixtiyori bilan ishongan edi-da, qarang, meni qanaqa baland odam deb o'ylagan ekan. «Artist emasman, yozuvchiman, - dedim. – Meni hech ko'rmagansiz, shunday tuyulyapti yo bir odamga o'xshatyapsiz. Lekin o'xshatgan odamingiz yaxshi bo'lsa, xursandman», dedim erib. «Yo'q, - dedi kelinchak qandaydir shirin bir o'jarlik bilan. – O'xshamaysiz, ko'nglim sezdi, o'zingiz yaxshi odamsiz». Atrofda jazillagan oftob tagida hansirab turgan lalmi o'riklar ham xuddi ustimdan kulayotgandek sal-sal tebranayotgan, lekin shu begona kelinchakning ko'nglimda boyagina kechgan tizginsiz o'ylarimni bilmay, meni yaxshi odam deb,

ko'nglini ochib maqtab gapirayotgani yuragimda xuddi qo'shiqdek jaranglayotgan edi. U G'allaorolga kelyapman, dedi, lekin yetmay, hech kim yo'q joyda tushib qoldi. Ko'zimning oldida haligacha shamol tortqilagan ko'ylagi sariq lovullaydi. Xayolan yuz martalab ko'rishib, sayrlar qilganman, lekin unga zarra gard yuqmagan, doim toza qolgan, o'zimning ham vijdonim toza, o'ylagan ishlarimning ham aybi yo'q edi.

Kim edi u, shunday alomat chiroyi bilan kimsasiz dashtda, oftobning tagida nimaga qovrilib yuribdi, meni qanday tanidi, nimaga o'zini buncha yaqin oldi va qanday qilib o'zimni o'zim hurmatlashimga majburlab, yana kimsasiz joyda tushib ketdi, deb juda ko'p o'ylayman, o'yimga yetolmayman.

Gapni qayoqqa olib kelayotganimga e'tibor qilyapsizmi? Bekorga aytmayapman.

O-oldin, jurnalda ishlagan paytlarim har zamonda bir yigit kelib turardi, u yozuvchi bo'lmoqchi, odamning xayoliga ham sig'maydigan tog'larni gapirib, rosa havasimni keltirardi. Tiyonshon tizmalarini faqat jug'rofiya kitobida o'qiganman, Quramani esa mutloq bilmas, chiqqan tog'im o'zimizning G'ubdin, u ham Qoraqasmoqdagi haligi tagidan gunohkor o'tsa, bosib qoladigan, lekin ming yildan beri hammani bezarar o'tkazgan supadek xarsangtoshning atrofi, u esa Tiyonshonga ham, Quramaga ham borganini, yana boshqa tog'larda ham yurganini aytadi, ayniqsa Himolay, u juda chiroyli talaffuz qiladigan Jamolungmaga safarga hozirlanayotganini eshitganda, ochig'i, yorug' hasaddan ichim yorishib ketadi. Ko'rinishi bilan ham xuddi kinodan chiqib kelganga o'xshaydi, egnida yangiligida qimmat bo'lgan, hozir safarlarda uniqqan, lekin ohorli ko'ylak-shim, chayir qo'llari doim pokiza, sochi tekis olingan, ko'zlari gaplariga yarasha xayolchan, yana nimalari bilandir bizga hech o'xshamas, shu holida tag'in faqat menga ishonar edi. Gapimizning ustiga birov kelib qolsa, yo suhbatimizga quloq solayotganini bilsa, shartta to'xtab, menga o'ng'aysizlanib qarab qo'yardi. O'zi to'g'risida ba'zilarining «Ahmoqqa ikki dunyo bir qadam» deyishlarini ham bilar, shundan ehtiyotlanar edi. Men esa yoz kunlari, ba'zan erta bahorda, hushiga kelsa, ekspedisiyalar oralig'ida kuzda ham paydo bo'lib, menga bir olam taassurotlarini

aytishdan boshqa hech kimga hech qanday zarari tegmaydigan sayyohga, ha, dunyoning sayyohi edi u, nimaga odamlarning g'ashi kelishini u paytlari tushunmas edim. Keyin, ko'p narsalarni o'qigandan so'g'in angladim, odamlar o'zlarida yo'q narsasi bor odamlarni yoqtirmaydi. Hech kim unga o'xshab, tog'ma-tog' kezgan emas, bu yoqda mingta ish, oila odamning oyog'idan bog'lab turadi, hammasini tashlab toqqa jo'nab yuborishning sira iloji yo'q. Nima uchun bu yoqdagi ishdan qochib, tog'ma-tog' sandiroqlash kerak? Keyin uning yurish-turishida, eh, sizlar ham yashayapsizlar-da, degandek cheksiz bir surur bor edi. Albatta, yoqmaydi-da.

U qor odamini izlab, butun umrini shunga bag'ishlagan, uni «yeti» deydi, anamana topishiga shubhasi yo'q, xuddi oshnasini arazlatib qo'ygandek, ko'nglini topishga intilar edi. «Kechalari chodir ichida bir o'zim yotganda kelganini sezaman, qadam tovushini eshitaman, tog' titrab, gursillaydi, shox-shabba qirsillab sinadi – aniq, u yuradi, ha, ertalab chiqib qarasam, u yer-bu yerda shag'al toshlar joyidan ko'chgan, o't toptalgan, archaning butasi singan, butun-atrofda uning shu kecha shu yerda bo'lgani, balki hozir ham bir toshning orqasidan menga qarab turganini vujudim bilan his qilaman», deydi. «Nimaga chodirdan chiqib qaramaysiz yo kunduzi o'zi ko'rinish bermaydi?», deb so'rayman. «Hali o'rtamizda ishonch yo'q, u – tabiat, men - odam, u yaxshilab o'rganishi kerak meni. Lekin bir kuni bari bir uchrashamiz», deydi u. «Meni ham olib boring, birga ushlaymiz», desam, xafa bo'ladi, «U tutqich beradigan oddiy hayvon emas, qor odami! Faqat yolg'iz do'stlashish mumkin u bilan. Shuncha jonzotni qirib yuborgan insoniyatning kimligini juda yaxshi biladi, shuning uchun faqat tanlanganni tanlashi mumkin», deb qanaqadir tushuniksiz izohlar beradi. Tog'u toshni gursillasa, balki ayiq-payiqdir, deb so'ray desam, o'zim ayiq shunday yuradimi, yo'qmi, bilmayman, ham ko'nglini o'ylayman. To'ng'is-po'ng'iz ham duch kelgan narsani kavlab, toshlarni ko'chirib yurishini eshitganman, buni aytish ko'rish ham noqulay.

Juda baland tog'lar haqida bilganimcha so'rayman. «Edelveys degan ertaknamo gul bo'lar ekan, ko'rganmisiz?», deyman. U shafqatli jilmayadi: «Edelveys - qor bosgan cho'qqilar gultoji. O'zini hurmat qiladigan har bir alpinist uni ko'radi», deydi. «Bu kelishingizda bir dastasini olib kelolmaysizmi? Odamlarga ko'rsatardik», desam, soddaligimga ma'yus jilmayib, indamay qo'yadi. Lekin nima demoqchiligini bilaman.

«Yozing, yozing», deb da'vat qilaman. «Aytyapman-ku, uchrashaylik, keyin. O'zini ko'rmay qanday yozaman?» deydi u. «Shu axtarganingizni yozing-da. Zo'r sarguzasht chiqadi. Bilgancha qog'ozga tushiring, ustidan qarab beraman, keyin jurnalda bosamiz», deb uqtiraman. U paytlari jurnalimiz juda baobro', unda to'rt qator she'ri chiqqan havaskor ham katta shoirga aylanib ketar, buni u ham yaxshi bilar, sarguzasht asari bosilsa, birpasda obro' topishiga aqli yetar edi. Doim yetini topishi kerakligini tinmay ta'kidlar, topsa, hatto uzoqdan ko'rib qolsa ham, boshqacha odamga aylanishiga ishonar edi. Lekin yozgan bir qatorini ham ko'rmaganman, yozishiga ishonmas ham edim. Butun dardini ishonib doston qilganda odamni tog'larga tortib ketadigan nimadir jozibali bir savdoyilik bor edi. Keyin tamom ko'rinmay ketdi, biron domu daragini ham eshitmadim.

Shunaqa odamlar nima uchun menga intilgan, hozir, G'ulistonni yozayotgan paytim, mana, oradan ne vaqtlar o'tib, anglagandek bo'lyapman. Tush qizig'ida ko'rganim sariq ko'ylakli kelinchak xayolimdan ketmaydi. Yeti oshnasini izlab yuradigan qalamkash ham shunchalar yaqinki, uni xuddi o'zim o'ylab topgandek.

Yana bir voqea. Bundan o'n yillar oldin Farg'onaga bir borganimda, Buvaydada hokim o'rtog'imga uchrashim kerak bo'lib, ishda bor-yo'qligi bilish uchun avval Rishton hokimligiga kirib, sim qoqmoqchi bo'ldim. Endi zinasidan ko'tarilishga chog'langan paytim bir xotinning «Ha-a, salom!» degani qulog'imga kelib, taqqa to'xtadim. Qarasam, xotin menga tamomila begona, lekin o'zim unga tanish, tanish ham emas, ancha, balki juda qadrdoniga o'xshadim. Tovushida shu yaqinlikni bildiradigan, yoshiga yarashmasa-da, eski ko'ngilxushlikdan qolgan chuchmal o'pkalash bor. Bir zumda xayolim necha o'n yillar o'tmishga borib qaytdi, yo'q,

ilgari ham, hozir ham bu bilan don olishmaganman, uning qizlik paytini ham bilmayman, albatta. Bosh iring'ab qo'yib, o'tib ketmoqchi edim, xotin: «Iy-e, to'xtang, namuncha, odam tanimay qoldingizmi? Shunaqa ekan-da», dedi, shundan keyin astoydil to'xtab, mayli, yaxshilab ko'rib olib, adashganini bilsin deb, to'g'ri qaradim. Bilagiga qora sumkacha ilgan, ko'ylagi yaltiroq chiziqli bargikaram matodan, yelkalari tagidan bir narsa qo'yib ko'tarilgan, qoshlari ingichka terilgan, labi bo'yalgan, ko'zi o'ziga yarasha tamanno bilan suzilgan, tanimagan odaming haqida xulosa chiqarish noo'ng'ay, lekin menga yoqmadi. Shunday baobro' joyda, biron tanigan ko'rib qolib, ta'naga qolmay deb ichimda xijolat ham bo'ldim. Hokimlikning shundoq yonboshi bozor ekan, shu yerdan chiqqandir deb o'yladim. «Ha, ko'zingizni yog' bosdimi, qaramaysiz, qaratib olsa, so'rashmaysiz ham», dedi u yana. Yuzma-yuz turibmiz, oramiz bir qadamcha kelmaydi, xotin qo'lini uzatib, yuzimni silasa ham bo'ladi. «Adashdingiz, - dedim atay sovuqqina. – Men Toshkentdan, Falon Falonchiman». Xotinning fig'oni oshdi, «Ho-o, endi Falon Falonchi bo'lib oldingizmi? Yana Toshkentdan! Voy, Falon Falonchi-ey» dedi. Tong qotdim. Aniq, bu xotin bilan o'rtamizda bir vaqtlar bir narsalar bo'lgan-u, tamom unutib yuborganman, bu unutmagan, endi esa o'sha eski qadrdonlikning arziyas haqi – shunchaki tanib, salomlashib qo'yishni talab qilyapti, degan o'y keldi xayolimga. Xotin o'sha bir vaqtlar o'zi bilan diltortarlik qilgan o'sha odam emasligimga mutloq shubha qilmayotgan, hatto hozir uni ko'rib-ko'rmaslikka, aniqrog'i, tanimaslikka olayotgan sotqinligim uchun g'azabga minib kelayotgan ham edi. «Singlim, meni birovga o'xshatyapsiz», degan gapimga: «Yo'-o'q, xuddi o'zingizga o'xshatyapman, xuddi o'zingizsiz», dedi.

Qochib ketayotgandek, «E-e, bor-e, xo'p, o'shaman, lekin seni unutganman, nima desang, deyaver, hozir ko'zini yog' bosib, o'zgargan nomardman», degandek zo'r bilan jo'nab yubordim, xotin shu joyida «Voy, tavba, odam ham shuncha o'zgaradimi?» deganicha qolaverdi. Iloji qancha, bozorning oldi deyapman-ku, ko'p odam o'tib-qaytib yotibdi, «Musulmonlar, manavi odam men bilan juda yaqin

bo'lgan, endi esa o'zini bilmaslikka solyapti», deb, har holda, ayol kishi, baqira olmasa!

Lekin ikkilandim: kim biladi, shu paytgacha o'zimni bilganimdan tamom boshqa odamdirman, men shuman deb, adashib yurgandirman balki. Bu xotinga yaqin bo'lmaganimni aniq bilganim bilan, balki yaqinlik qilgandirman.

Qiziq, hozir shu yerda, hokimlik oldida xotindan qochib ketayotgan o'zim bir boshqa, bundan qancha, aniq bilmayman, ishqilib, ancha yillar oldin uning ko'nglini olgan o'zim bir boshqa bo'lib, o'sha odam bugun obro'yimni to'kayotgandek, uni yomon ham ko'rib qoldim. Ishonasizmi, «Nomard, ketingni tozalab yur-da, yigirma yil oldin qilgan buzuqliginga bugun men javob beramanmi, axir», deb aniq xunobim ham oshdi.

O'ttiz yillar, yo'q, undan ham oldinroq shunaqa holatga bir tushgan edim. Qishloqdan akam keldi. Men bilan yaxshilab gaplashib qo'ygani. Aytdim-ku, tamom ichmay ketgan, uning oldida o'zi eshitmaganga olsa ham, ichkilik haqida gapirish noqulay, shu kelgan kuni, aksiga olib, hamishagiday, doimgi do'stlar ham yig'ilib qoldik, Shoir aka ham bor, uni hali aytib beraman, o'tirdik, turgan gap, shusiz ham bari bir ichar edig-u, lekin Shoir aka: «Akaning kelishlari sharafiga», dedi, kallani qizdirib oldik. Yaxshi suhbat bo'ldi, do'stlarim turaman desa ham, men ataylab cho'zdim, yetib turgan bo'lsa ham, sekin imo-ishora bilan akamning o'zidan pul olib, yana olib keldim. Oxiri ular ketib, akam ikkovimiz qoldik, o'zimni kayflikka solib, yotamiz desam ham, akam, bari bir, odamni ezadigan o'sha gapini boshladi-da. Oying qaridi, kasali ham yo'q emas, xudo ko'rsatmasin, kelinning qo'lidan bir choy ichmay o'tib ketmasa, ukang ham xotin oladigan, qolib ketyapti, yana bir-ikki yil o'tsa, kim ham tegadi unga, sening yurishing esa bu, bir shisha aroqqa ham puling yo'q, mayli, bergan pulini qizg'anmaydi, lekin umrim bekor o'tib ketayotganiga afsusda, xullas, g'ish-g'ish-sh o'sha patefon. Uyquasi kelib qolsa, o'zi o'char degan niyatda ha-xo'p, bo'pti, bo'pti, deb eshitib o'tiribman. Bir vaqti, «Mana, siz ham o'ttizdan oshib ketdingiz, hali sizga o'zi birontasi tegadimi, yo'qmi, qari deb», desa bo'ladimi! Jiddiy masalalarda, xalqaro

ahvol haqida gaplashganda ham meni hurmat bilan «siz»lar edi, masalan, «Shu Amerika ham urishib yurmay, ol-e, seniki deb, Vyetnamni Sovetga bersa bo'lmaydimi, nima deysiz?», deb so'raydi, xuddi shu muammoni men bir og'iz javob bilan yechib qo'yadigandek. Gapining tagida shundoq katta odam, nimaga uylana olmaysiz, degan ma'no bor-da. «Aka, ichgan men, siz nimaga adashasiz?», dedim. Akamning paqqos jahli chiqdi, «Kim adashadi, menmi?», dedi. «Men hali o'ttizga ham borganim yo'q, qirq to'qqizinchi yil, yigirma yettidaman», dedim. «Kim? Sizmi? – dedi akam yana, hech bir ikkilanishga o'rin qoldirmay. – Siz o'ttiz ikkidasiz, balki o'ttiz uchdir, bildingizmi, menga o'rgatasiz!» «Aka, men Abduhamid, Hamroqullar bilan bir sinfda o'qiganman, Mavlon, Habiba, Noroy, Ismoililar ham hammamiz tengqur, hamsoyamiz Abdurahimdan, to'g'ri, bir yosh kattaman, u bizdan keyin bitirdi», dedim kulib. «Kim bilan o'qigan bo'lsangiz o'qigandirsiz. U paytlari metrikani xohlaganday yozdirib olishgan. Katta bo'lsa, urushga olib ketib qoladi deb, yoshini kichkina qilgan. Mana, men ham qog'ozda yigirma to'qqiz, o'zi yigirma oltinchi yilman. Siz ham shu», dedi akam qat'iy qilib. Yuragim shuvillab ketdi: birdan katta bo'lib qolsam, oradagi besh yil qayoqqa yo'qoladi? «Aka, o'ylab gapiryapsizmi, nima, ikkita opamdan ham kattamanmi? Ular maktabga mendan oldin borishgan, men kichkina edim, ularning kalishini kiyish uchun darsdan qaytishlarini kutib o'tirardim», dedim, akamni insofga chaqirib. «To'g'ri, u vaqti kalish ham topilmas matah edi. Lekin siz, bari bir, hozirgidan kamida besh yosh kattasiz», deb turib oldi. «Unda urush payti tug'ilgan bo'lamanmi? Qirq to'rtinchi yil, a?», desam, akam «Otam urushga bormaganlar, mehnat batalyonida bo'lganlar. Keyin hammani urushga olib ketgan payti Chandirga ko'chib ketganmiz», dedi, «Men, nima, Chandirda tug'ilganmanmi? Pasportimda, metrikamda ham «G'azira» deb yozib qo'yilgan-ku», desam, akam: «E-e, yomon boshni qotirdingiz lekin. Hozirgi yoshingizdan besh yosh kattasiz, men shuni bilaman, tamom. Bo'ldimi endi?», dedi, «Yo'q, bo'lmadi, unda aytingchi, oradagi besh yil qayoqqa ketgan? Men eslolmayapman-ku», desam, «Men qayoqdan bilay qayoqqa ketganini. Ichaverib esingizdan chiqib ketgandir-da», deb uzib oldi. Akam bilan tortishishning endi foydasi yo'q, ammo o'zimning bor

kayfim ham uchib ketdi. Akamning adashayotgani yo tezroq uylansin deb shu gapni to'qiyotganiga ishonib tursam ham juda g'alati ahvolga tushdim. Xuddi hammani aldab yurgandek. Aqlga sig'masa ham, yoshimni besh yosh katta qilib, jiddiy o'ylab chiqdim, hamma yillar, ko'p kunlar qator-qator tizilishib xotiramga keldi, hech bir joyida besh yillik bo'shliq topilmadi. Unda men sinfdoshim Habibani emas, opamning sinfdoshi Sharofat opani yaxshi ko'rar edimmi? Ha, shunday bo'ladi-da, Sharofat opa hamsoyamiz, ham chiroyli edi, Sulton akaga tekkan. Xo'p, Habibani ikkinchi sinfdayoq olaman-olaman deb yurgan bo'lsam, demak, unda hali u uch yoshli go'dak... unda besh yosh katta men qanday qilib u bilan birga o'qiganman, yoshimni metrikada qisqartirgan bilan, o'zim so'laqmonday o'sib ketgan bo'laman-ku. O'ylayverib, rosa kallam achidi, lekin ko'nglimda qiziq bir tuyg'u muhrlanib qoldi: shu yashab yurgan yoshimdan kattaman, tengqurlarimdan ko'p narsani ko'rib qo'yganman degan. O'zim bilib kelayotganimdan qanaqadir boshqachaman, o'zimdan ajralib turaman. Ba'zan shundan qiynalaman, ammo yordam ham beradi.

Siz bu nimaga buncha chalg'ib ketdi deb o'ylamang, hali hammasini G'ulistonga olib borib bog'layman. Kimligimni o'zim ham G'ulistonda jiddiy o'ylab qoldim-da.

Hali ham kimligimni o'ylayman

Buning uchun yana bir voqeotni aytishim kerak. Bu ham boshimdan o'tgan. Yetmishinchi yillarning oxiri, kunim yoru do'stlar bilan o'tganiga xursand, bola-chaqa, oila tashvishi, e-e, ko'nglimda ertangi kunimga nodon ishonchdan boshqa hech narsam ham yo'q, lekin uylanaman degan niyat aniq. Shunday kunlarning birida tez-tez boradigan Shoir akamiznikiga yana bosh suqdim. Ulfatmiz; bag'rikeng odam, jurnalidagi ishimdan bir haydalib, ishsizning uyida turishidan qo'rqqan bir kampir ijaradan chiqarib yuborganda, o'zi ham oilasi bilan ijarada yashasa-da, uch-to'rt oy boshpana ham bergan, xullas, juda qalin aka-ukamiz. Uyidan hamishagidek mehmon uzilmaydi, bu gal bir xotin kishi, nigohidan sezdim, nihoyatda o'ktam, bir qarashidayoq meni yechintirgandek, borimni sanab, xijolatga qo'ydi. Bo'lmasa, ko'rinishi boyvuchcha emas, ortiqcha tilla-pilla taqinchoqlariga ham ko'zim tushmadi, aniq nima kiygani esimda yo'g'-u, lekin uncha emas, nimasidir eskiroq, rusumi o'tganmi, bichimi to'poriroqmi, ishqilib, ko'p mehnatdan qasam yeganga o'xshab ketadi. Nimagadir, ishqilib, o'ziga o'xshab ko'pni ko'rgan. Lekin boqishlari erkakchasiga jasoratli, tikilib qaraganda odam, bir aybi ochilgandek, beixtiyor ko'zini olib qochadi. O'tirdik, ellik-ellik oldik, u bizdan ham shaxdamroq ko'tardi. Shoir akaning o'z uyi yo'q, shundan gap ketsa, bildirmay siqiladi, bu gal juda xursand. Sababini ham aytib berdi: o'ziga to'rt xonali uy olyapti ekan, o'rtada turgan odam - shu xotin, uyning manzilini ham beribdi, borib ko'rib, yoqsa, tamom, pulining hammasini birdan yo yetmasa, uchdan ikkisini berib, bemalol yashayveradi, qolganini keyin uzadi. Shoir aka uning uyiga boribdi, hatto garniturini ham gaplashib, ustiga besh yuzni ham qo'shib, mardlik bilan birdan to'lab yuboribdi. Endi ko'chadigan, faqat dahmazaga yuragi betlamay turibdi. U ayolni xo'b maqtadi, «Ko'rib turibsiz-ku, qanday mard! Erkaklar ham bunaqa bo'lolmaydi», dedi, xotin ham u kishining shunchalar shoirligiga tan berib, bunaqasi kam uchrashini aytdi. «O'zi shoir degan bilan birinchi marta tanishyapman. Zo'r bo'lar ekan», dedi. Keyin Shoir akam ayolga meni maqtadi; «Bu ham zo'r inson-u, lekin uyi yo'q, yaqinda uylanishi kerak, kelinni qayerga tushirish masalasi chatoq», dedi. Xotin menga ko'zini qadab

tikilgan edi, ichimdan sovuq ter chiqib ketdi, hozir: «E-e, bu ukam yaramaydi», deb yubormasa deb o'tiribman. Bilasizmi, bir xil odamlar bo'ladi, odamni bir qarashda o'ziga rom qilib olib, keyin bemalol hukmini o'tkazadigan, xotin ham shunaqa toifadan. Hammayog'im tirishib, tilim ham g'uldirab qoldi. «Shu ukamizga yo'q demaysiz», dedi Shoir akam. Xotin mendan ko'zini uzmay: «Puldan bormi, ukam?», deb so'radi. Qancha pul kerakligini bilmasam ham, bari bir yo'q-ku, «Topiladi», deb yubordim. Unga yo'q deyishning ham iloji yo'q, chunki so'rashi juda mardona edi. Shoir akam tushuntirdi; u to'rt xonali uyni to'rt mingga olyapti ekan, menga hozircha ikki xonalisi ham etadi. Shunda xotin unda ikki xonalini ancha kutishga to'g'ri kelishini aytib, meni juda ko'tarib yubordi: «Pulning betiga ham qaramaydigan ko'rinasiz. Ming so'mni bir haftada sohib ham yuborasiz. Shartta uch xonaligini olavering. Mayli, sizga uch mingga beraman», dedi. Shoir akam yana xursand bo'lib ketdi: «O-o, Hurinisoxon, himmatingizga balli, rahmat sizga!», dedi, meni «Yo'q dema-ang, oling, oling!» deb, shu zahotiyog tabrikladi. Bitimni yuvdik. Savdo bir og'iz gap bilan pishdi. Bu xotinga hech bir masalada yo'q deb bo'lmas, Yonimda bo'lganda pulini o'sha vaqti berib yuboradigan edim. Hamma aytganiga xo'p-xo'p deb tursam ham, ikki gapning birida «O'g'ilbolamisiz o'zi, ukam, ha, shunday bo'lsin», deydi, o'ylab ko'rishga ham jon qolmaydi. Hali pulni qayerdan topishga ham aql yurgizmay, oladigan uyimiz uchun o'zim ham qadah ko'tardim. Xotin uyni nafaqat olib beradi, balki juda tez naqd qiladi, naqd qilganda ham yigirma to'rtinchi mart kuni quling o'rgilsin order qo'lga tegadi. Ungacha, hozir turadigan joyim yo'qmi, albatta, o'sha uyga borib yashab tursam ham bo'laveradi, endi meniki, arzimagan qog'ozi keyin rasmiylashadi, xolos. qo'lning kirini kelishsak, tamom. Mana shu gaplashganimiz gap, u xotin bo'lsa ham, o'g'il bolalik sharti shunday, vassalom. Ertaga ikki mingini beraman, uy meniki! Mingi keyin. Kambag'alligimga qayishdi. Tasavvur qilyapsizmi, mening ham ustimda qor-yomg'irdan bir pana bo'larmikan, deb, necha tonglarni oq oqartirib chiqqanman, mana, endi birdan hal, yana uch xonali-ya! Men, kalamda shu pulni kimdan olish o'yi girillab aylanadi, ertaga emas, uch kundan keyin dedim, xotin yo'q, sabrim ikki kun, dedi, indinga soat o'n

birda ishxonamga borib olishini aytdi. Bo'lmasa, uysiz ham, xuddi burchakdagi shu uyning xaridori ham ko'p, boshqaga o'tib ketadi. Xotin xonadonni ko'p qavatli uyning burchagida ekanini uch-to'rt marta ta'kidlaganiga, men ham burchakdaligi zo'r ekan, tabiat uch tomonidan ko'rinib turadi, deb o'yladim. Shoir pulini indin bersangiz ham, ertagayoq ko'chib oling, dedi. Xotin yana yigirma to'rtinchi mart kuni order olishimni eslatdi. «Men orderning aniq chislosini aytyapman, siz esa muddatni cho'zyapsiz», dedi. Shoir akam: «Mardlik ham shuncha bo'ladi-da», deb menga im qoqdi. Ey, og'aynilar, haligacha bilmayman, xudo qanday ko'nglinga soldi, ishqilib, kallamda shubha g'imirladi, nimagadir shu “yigirma to'rtinchi mart” degan sanadan g'ashlanib qoldim. Shu kunni xayolimga keltiraman – kelmaydi, order havoda ham ko'rinmaydi. Xotinni ko'rgan paytimdan beri kambag'allik xijolati endi g'ashlikka aylanib, ancha ichsak ham mast bo'lmadim. Lekin kallamda “yigirma to'rtinchi mart” degan sana tinmay aylanadi.

Xuddi borimni qimorda boy bergandek, ixtiyorim xotinning qo'liga o'tgan, hatto, ishonasizmi, ko'nglinga kelgan, tilimga ko'chmagan shubha uchun boshqa gaplar bahonasida necha marta uzr ham so'rab oldim. «Uzr, Huriniso opa, men aldab ketadigan yigit emasman, lekin cho'ntak masalasi... ammo siz uchun qaytmayman», dedim. Pul topishni shu qadar orziqib o'ylayapmanki, xuddi, mana, hozir yo bo'lmasa ertaga o'zi lop etib topilib qoladigandek, uch ming pul shunday taxlog'lik holida ko'z oldimda ko'rinadi, entikib ketaman. Ey xudo-ey, uchxonali uyim bo'ladi-ya, o'zimniki! Hurinisoxon opa kalitni bergan edi, men ham mardlik qilib olmadim, ikki oy kutish nima, pulini beray, ko'chish qochmaydi, dedim. U qo'lida kalit bilan cho'zilgan ko'yi, menga juda tikilib qarab qoldi lekin, indamay. «Aynan yigirma to'rtinchi mart kuni qanday qilib olib berasiz?» deb so'ray deyman-u, ishni buzib qo'yishdan qo'rqaman.

Devonaning ishini xudoning o'zi o'nglagani, ertalab ishxonamga birinchi bo'lib rahmatli Shukurning o'zi o'z oyog'i bilan kirib kelsa! U ham shoir, lekin meni ustoz deydi, juda ham mard, tanti yigit. Tug'ishgan ukamdek. Unga kechagi hangomani aytib bergan edim, rosa quvondi-da: «Aka, siz uy olsangiz, biz qarab

o'tirmaymiz. Men shu oy uydan olib kelib beraman», dedi. Men u yurtiga borib kelguncha vaqt o'tishini, menga esa ertaga kerakligini aytgan edim, u «Bo'ldi, aka, o'ylanmang. Asosiysi - uy bor ekan-ku. Men shu yerdagi hamyurtlardan topaman», dedi. Shunaqa mard ayol bo'lsa, biron yillardan keyin unga ham olib berishimni so'radi. Yo'q, deymanni. Oxirati obod bo'lsin, beg'ubor inson edi lekin.

Xullas, pul masalasidan ko'ngil xotirjam, endi bo'ladigan uyga bo'lajak bekani ham xursand qilay deb, talabalar yotoqxonasiga o'tdim, uning ham ko'nglini orzularga to'ldirib, qaytib ko'chaga chiqsam, yo'l ustida kursdoshi G'ani taksiga qo'l ko'tarib turgan ekan, u ham bizga shogird maqomida, bir to'plamda she'rlarini berganman, meni ko'rib quvonib ketdi. Qashqadaryodan akalari kelgan, hozir «Toshkent» restoraniga borib o'tirishmoqchi ekan, birga yurasiz, deb yopishib oldi. «Akamlar sizdek akam borligini ko'rib qo'yishsin. Ham yuvadigan bir gap ham bor», degan edi, erib ketdim. Qorin ham och, bu yoqda uy olayotganimning xursandchiligi, ichsam ham yarashadi albatta, deb birga ketdim.

«Toshkent» restoranida o'tirdik. Kalla qizidi. Buni qarangki, G'ani ham uy olyapti ekan, buniki besh xonali, «nevarachalarimizni o'ylab» ekan. Bari bir, bo'p qolganini aytmaysizmi! O'qishni bitirsa Toshkentda qolib shoir bo'ladigan, hozirdan qayerda yashash masalasi hal. Yuviladigan bir gapi shu ekan. Uniki ham Chilonzorda, hatto men bilan bir dahada bo'lib chiqyapti. Uy uchun, boshqa uysizlarning ham uyli bo'lishiga tilak bildirib, bir nechta qadah ko'tardik. Men o'z uyim manzilini irim qilib, ha, endi meniki ekaniga shubham yo'q, lekin bari bir g'ashlik tarqamagan, nima bo'lib, yana xudo ko'nglimga soldimi, «E-e, G'aniboy, zo'r bo'пти, yaxshi-da, qo'shni turish», deb uning uyi nechanchiligini so'rasam, u battar xursand bo'lib, Huriniso opa menga bergan manzilni aytsa! Yuragim shuv-v etib ketib, takror ayttdim. O'sha uy! Avvaliga uning shogirdingizman deb yurib, men oladigan uyni olmoqchi bo'lganiga achchig'im keldi, lekin akalarining oldida noqulay, yana xarajat akalaridan bo'lsa ham, meni mehmon qilyapti, o'zi ham yaxshi yigit, jahlinga hay berdim. «Ha-a», deb qo'ydim-da, yana o'yladim, «Axir, u mendan oldin gaplashgan-ku! To'xta, bu yerda boshqa gap borgan o'xshaydi»,

dedim ichimda. «G'anijon, siz shoshmay turing, men bir-ikki narsalarni aniqlayman», desam, u kulib, «Aka, biz shoshib bo'lganmiz. Ya'ni besh mingni berib, qo'lni qo'lga tashlaganmiz», dedi. «G'anijon, ikkovimizga ham berilgan manzil bitta bo'lib chiqyapti. Burchakdagi uymi?», dedim. G'ani, bitta uy bo'lib chiqsa, men oladigan bo'lsam, o'zi albatta yon berishidan cho'chib ketdimi, ishqilib, achchiq iljayib: «Aka, kalitini olganman», deb izoh berdi. Olib berayotgan kimligini so'rasam, Shoir akanikida gaplashgan o'sha xotin, Huriniso, o'zi Shoir akani ham unga G'ani tanishtirgan ekan. Uy olyapman desa, Shoir aka menga ham kerak edi, deb yopishibdi. Ana xolos! G'anining rangi o'zgardi, menga uncha ishonmayapti, ayol kishiga tuhmat kelib chiqayotganidan o'zim ham xijolatda. «Aka, juda mard opa u, mana, kalit, ana uy, manzili shu, borib bemalol yashayvering, pulini hafta ichida bersangiz bo'ldi, dedi. Uncha-muncha odamning qo'lidan kelmaydi bunaqa ish», dedi G'ani menga ta'na bilan. «Xo'p, orderni beradigan kunini ham aniq aytdimi», desam, G'ani boshini qattiq-qattiq silkib tasdiqladi. «Qaysi kun?» – «Yigirma to'rtinchi mart. Xudo xohlasa, shu kuni uyning hujjati ham ukangiz qarag'ayda». «Ana shu sanada shubham bor-da, G'ani. Menga ham shunday degan. Ikkovimizga ham bir xil gap aytibdi. So'ramabman, balki Shoir akaga ham shu kunni aytgandir», dedim. Ukam qarag'ayning kayfiyati buzildi, qadahni to'ldirib yana otdi-da, mendan ham ko'ra o'zini ishontirib: «Aka, besh mingni qurtday sanab berdik. Besh ming-a! Bu pulga hech kimni adashtirmaydi», dedi. «G'aniboy, hozir uy beradigan kunni aniq aytish vazirning ham qo'lidan kelmaydi», dedim, G'ani: «Demak, opaning qo'lidan keladi», deb turib oldi. «Necha xonali degan?», deb so'radim, «Besh xonali», dedi u. «Borib ko'ring, uch xonali bo'lmasa», dedim. G'ani esankirab qoldi.

O'tirishimizdan ancha fayz ketdi, G'anining akalari ikkovimiz gapni gapga qo'shmay, pichir-kuchir qilaverganimizga ko'ngli ham og'rigan, ichkilik ham ko'p tatimadi, agar bitta uy bo'lib chiqadigan bo'lsa, G'ani uylanishim kerakligini biladi, bu uyni albatta menga berishini qayta-qayta shivirlab, oxiri, ayrilishdik.

Ko'nglim qop-qora. O'zimni yer qildim, tuproq qildim, bari bir, ayol kishiga orqavorotdan balchiq chaplab yurishimni, menga shunday zo'r yaxshilik qilaman deb turgan zaifaga bo'hton uyushtirganimni hech-hech kechira olmayotgan edim. Shoir aka aytgan qizchasini ko'rmaganman, lekin u ham ko'zimning oldida tirik ta'na bo'lib turib qoldi. Ha, meniki borib turgan, g'irt, yap-yalang'och bo'hton. Boshqacha aytish mumkin emas.

Shunaqa qiynalib o'tirgan paytim, Oqil o'rtog'im kelib qoldi. Choyxonadan qaytayotgan ekan, yo'l-yo'lakay hangomalashgani kiribdi. Bu ham qalin oshnam, shu turgan ijarani topib, o'zi ko'chirtirib kelgan. Yonimdagi choyxonadan tez-tez ustiga non bostirilgan kosalar chiqib turishi ham shu tufayli. Choy damladim, Oqil bilan suhbatimiz doim chortang, dildan gurunglashamiz, bugun ham unga tortgan ruhiy azoblarimni aytib berdim. «Oqil, do'stim, nihoyatda qiynaldim, umrimda biron ayol haqida bunaqa yomon o'yga bormagan edim. U menga uy olib beraman deyapti, men esa rahmatning o'rniga tuhmat o'ylab o'tiribman. Ko'nglim shunaqa nomardlik qilyapti», deb dardimni yoydim, buni qarangki, xudo ko'nglimga solib: «Mabodo shunaqa bir xotinni bilmaysizmi, oti Huriniso», debman. «E-e, ko'rinishi qanaqa? Sochi kesilgan, munaqa ko'ylak, tagidan shim kiymaganmi?» deb Oqil ham xuddi o'shaning ta'rifini keltirsa! «Ha-a, ha!» deb, hayajondan sochimning tagigacha jimirlab ketdi. O'sha! Oqil bilan gapimiz bir joydan chiqyapti. «Hurka, Hurka u!», dedi Oqil, keyin aytib bo'lmaydigan juda qo'pol so'kindi-da, «Hurka bilan nima xudo urib topishdingiz? G'irt, g'irt, g'irt aferistka-ku u», deb uch marta takrorladi, yana hayratdan boshini ham rosa tebratdi. Bizdek odamlarning Hurka bilan gaplashganini aqliga sig'dira olmay. «Yo'lamang unga, sira yo'lamang, yo'lamang, yo'lamang», dedi, u hayajonlansa, qattiq tayinlasa ham uch-to'rt marta takrorlab yuborar edi. «Ertaga ikki ming berishim kerak», degan edim, u atay qah-qah urdi, keyin tizzasini shapatiladi ham. «E-e, tavba, Eski shaharda oti chiqqan aferistkani sizlar bilmasangiz! qayoqdan ham bilasiz. Hayotda pul bermang. Shoir akaga mening aytganimni ayting! Uy-ku yo'q, lekin bir tiyini ham qaytmaydi endi. Vay, shaytonni o'tirg'izib qo'yib dars beradi-ya u!» Hali pulni berganim yo'g'-u,

lekin hech kimning kuchi yetmaydigan bir qora kuch bor-budimni tortib olayotgandek qo'rqib ketdim. Muqarrar qismatga o'xshagan vahima bosdi ko'nglimni. «Hali ham toza odam ekansiz, ko'nglingiz sezgan. Bo'lmasa, bu gapni kelib-kelib Hurkaning kimligini biladigan menga aytasizmi», dedi Oqil. O'zim bir ahvoldaman, yana u: «Nemedlenno, nemedlenno to'xtating!» deb o'rischalab battar o'takamni yoradi. Xuddi gunohni o'zim qilgandek, «Pulini berib qo'yishgan, Oqil», dedim. Oqil ikki qo'lini ham tizzasiga urib: «Vay-y!» deb yubordi. «Axir, Hurkani ispolkom eshigidan qo'yishmaydi ham, qanaqasiga uy olib beradi? Vay-y, nodonlar! Vay-y, pul topib, aql topmaganlar! Bunaqa xotindan faqat hazar qilish kerak, hazar!»

Oqil ham birovni yomon ko'radigan bo'lsa, gapida oshirib, yerga toptab, ko'mib, yana ustidan suvoqlab yuboradi. Lekin, bari bir, ertasi kuni Shoir akanikiga uchdim. Pulni xotin urug'idan qanday topganini, hali-veri qaytarolmasligini ham bilaman. Akam hamishagidek xush kayfiyatda ekan, qarab o'tirib, gapni boshlay olmay qiynaldim. Shunaqa odamni aldash mumkinligi hech aqlimga sig'maydi. Haqiqatan ham qalbi toza, hech qachon odam ayirmas, ulfatlari orasida akademiklardan tortib o'g'ri-kissavurlargacha bor, hammasi ham chuqur hurmat qilari, g'alamislarning ham unga g'alamislik qilishga ko'ngli bormas edi. Xuddi iflosga botib qolgandek, aytmoqchi bo'lgan gapimdan o'zim irganib, juda qiynaldim, o'zi ham naq yarim quti sigaretani chekib, yo'q, g'ajib tashladim. Oxiri kecha G'ani bilan o'tirganimni, keyin Oqil Hurkani tanishini ming tutilib aytib berdim. «Shu xotin hammamizni aldayapti shekilli», dedim. Shoir akamning fig'oni falakka chiqib ketdi. Aytdim-ku, qalbi toza, bunday qalbga tajovuz qilish yovuzlik bo'lishini. «Qanaqa odamsiz? Nima uchun insonlar haqida bunday past o'ylarga borasiz? Insof bormi sizda, insof?», dedi. Men, noiloj, endi o'zimni himoyalashim kerak, G'ani ikkalamiz ham oladigan uy bitta bo'lib chiqayotganini aytdim. Shoir aka: «Menga ham shu manzilni aytgan. Ha, nima bo'пти? Uy olguncha kim xohlasa shu yerga borib turaversin, deyapti-da», dedi. Battar hayratga tushdim, endi Shoir akamdan. Hurkaning kimligi o'zimga aniq bo'ldi,

lekin insonga munosabatim uchun Shoir akaning nafratiga uchrashim ham hech gap emas edi. «Naqadar badbinsiz-a! – dedi u juda cho'nqir, butun insoniyatga yetadigan mislsiz hasrat bilan. – Axir, u qizini, biznikida, vannaxonada cho'miltirdi, deb aytdim-ku! To'qqiz yashar norasidasini! Ona-ku u, ona haqida shunaqa o'ylarga ham borasizmi, a?» Shoir aka, hali sizga aytdim-ku, xayolning qora kechasini kunduz qilib rasmini chizib beradigan yorug' iste'dod, boladek pokiza qalb, uni faqat gunohi azimdan qo'rqmagan xudobezori aldashi mumkin edi. Shuni ko'rib turib ezilib ketdim, tamom bo'ldim, lekin gapimda turib oldim: «Nemedlenno pulingizni qaytarib oling. Ololsangiz! Men G'aniga ham aytaman», dedim. Shoir akam sakrab turib ketdi, qo'llarini siltab, qarshisidagi g'animni avra-astari bilan fosh qilib tashladi: «Siz... siz yaxshilikni bilmaydigan... Bilmayman, yana sizni nima deyishim mumkin. Onaga ishonmay bo'ladimi, axir? Pastlik qilyapsiz», dedi. Asabiylashib, sigaretni teskari tishlagan ekanman, labimni kuydirib oldim, lekin yon bermadim, xuddi tergovchidek sovuqqonlik bilan: «Avval pulni qaytaring, pastligimni keyin gaplashamiz», dedim, lekin o'zim cho'kdim, chunki insonga qarashda men ham ozmi-ko'pmi uning tarbiyasini olgan, ayol, yana ona degan muqaddas zotning odamni shunday aldab ketishi mumkinligiga, bilib tursam ham, ishongim kelmayotgan edi. Shoir aka ham uyida to'qqiz yashar norasidasini cho'miltirganini tinmay takrorlab, meni badbinlikda ayblar edi. «E-e, cho'miltirsa cho'miltiribdi, o'zining vannasi yo'qdir yo buzilgan», dedim. Shoir aka menga umuman bunaqa haftafahm bag'ritoshni endi ko'rayotgandek hayrat bilan qaradi-da, gap topolmay qo'lini siltadi. Ey, shunaqa shubhago'ylik bilan olinadigan bo'lsa, shu uyga ham o't tushsin-e, dedim ichimda. Men ham Shoir akaga o'xshab insonlarni shunday pokiza ishonch bilan sevsam nima qiladi, a, deb o'rtandim. Oxiri yalindim: «Aka, mayli, ishqilib, men adashgan bo'lib chiqay. Lekin siz ham bir surishtirib ko'ring. Oqildan boshqalar ham uni bilar ekan», dedim. «Oqil ham, siz ham bir, ko'ngillaring qattiq», dedi Shoir akam, lekin xayrlashayotganda sal past tushgandek bo'lib: «Ko'p olislab ketmang», deb qo'ydi. «Aka, shu aniq sanasiga ishonmayapman. Sizga ham yigirma to'rtinchi martni aytganmi?», desam, Shoir akam men soddaning ustidan siniq kuldi-da, «Ha,

xuddi shu kunni aytgan. Axir, o'sha kuni ispolkomda uy ajratish masalasida yig'ilish bo'lsa kerak-da», dedi.

Ertasi kuni ishxonamga Hurkaxon keldilar, uning kimligini bilib turib, yana: «Pul kelmay turibdi, bir-ikki kun sabr qilasiz» deb yolg'onlashim juda ham noqulay bo'ldi, ko'ziga qaray olmadim. U ham menga o'xshaganni ko'p ko'rgan shekilli, «Ha-a, gapingizdan latta hidi kelishini o'shanda ham sezgan edim», dedi, lekin «Bo'пти, ko'p cho'zmang, u yerga boshqa ega chiqib turibdi», deb, yana uysiz qolish xavfini ko'nglimga soldi. Boshqattan va'da berishimga sal qoldi. Shunchaligini bilib turib ham, Yonimda pulim yo'qligiga o'ksindim: bo'lsa, qo'lga tutqazganimni o'zim ham bilmay qolar edim. Jozibasi yomon, odamni qo'rqitadigan, gaplashganda yuragim orqaga tortib turdi, nima desa ham mayli, ishqilib, tezroq ketsa deb, jon hovuchlab o'tirdim. Keyin darrov G'anini topishga tushdim. Uni gapimga ishontirish og'ir kechdi. Kayfi tarqab, u kungi vallomatligi yo'q, hatto meni uyni o'zi olmoqchi shekilli deb, ochiq aytmasa ham, ancha tarxashlik qildi.

Keyin... keyin men o'ylagan, oldindan aytib berganim voqealar boshlanib, ko'p g'aroyiboti ochilib ketdi. Shoir akam har kuni Hurkanikida mehmon, Hurka odam bilishda hammani o'qitadi, Shoir aka unga bir norasta qalb, har gal xursand keladi, «Qattiq kurashyapmiz», deydi, natija yo'q, lekin ishonchi o'lmaydi. «Mayli, uyga ikkilansangiz, pulingizni olasiz», deb akadan Hurka arazlagan. Eskishaharning aka uchun o'rtaga tushgan hamshisha kuzirlarining ham Hurkaga tishi o'tmadi. Umuman, unga bas keladigan chiqmadi. Oxiri yana bir akamiz bor edi, unga aytdik, u KGBning o'zida ishlaydigan naq polkovnik sinfdoshini ishga soldi. Afsuski, Shoir aka Hurkaga pul berib, tilxat-milxat ham olmagan, bu ishda hujjatsiz hech narsa qilib bo'lmas ekan. Bitta yo'li – o'zidan insof tilash. Shoir aka shu niyatda, Hurkanikiga tanda qo'ygan, har ko'rishganimizda: «Nihoyat bo'ladigan bo'ldi. Siz aralashmang, ishni buzasiz», deydi. Men ham, aralashmaganimda ish bunaqa chappa ketmas edi, deb o'ylab qolaman. Rostdan ham, Hurkaning manzili aniq, uyi bor, uyida doim o'zi, hech kimdan bekinmaydi,

to'qqiz yashar qizini etaklab yuradi, sira bir o'g'ri-kazzobga o'xshamaydi. Shoir akamning aytishicha, Hurka uning ahvolini, ishonmasligi sabablarini ham tushunib, yordam berishni ham o'z zimmasiga olgan.

Bu orada pulning jigardan bo'lishini anglagan G'ani ishonch-pishonchni yig'ishtirib, Hurkani tergovga torttirib, ishni sudga oshirdi. Ana, ayol degan muqaddas zotning ustomonliklari ochilib ketmaydimi! Shoir akam hayratda, «Noyob iste'dod, bu ham genial ijod, faqat yaxshilikdan adashgan», deydi. Men ham chin ma'noda qoyilman. Ellik oltita odam chuv tushgan ekan! Hurkaga aldanaman deb, qator navbatda turganlar! Hammasi kamida uch xonali uy oladigan, to'rt xonaligiga ham, besh xonaligiga ham pul berganlar talay; oltmish-yetmish minglik hovlilarni hujjatdan oldin olib qo'yganlar, kazo-kazo; hukumat bunchani qayerdan to'plading deb, qisti-bastiga olmasa deb, dami ichida, buqinib ketganlarning soni noma'lum.

Puli bor odam laqqi bo'ladimi, bitta «dom» yoki hovliga o'ntalab talabgor, hammasi kalitini ham olgan, lekin qanday qilib bir-biri bilan to'qnash kelmagan, ko'rishmagan, aql bovar qilmaydi. Bitta menga kelganda, shu yigirma to'rtinchi martni aytadiyu ko'nglimga shubha tushib, misi chiqishi boshlanadi. O'zimda ham shunaqa favqulodda iste'dod bormi ekan, deb xavfsirab ham yurdim. Shu sanani aytganiga ko'nglim sezib, uni fosh qilishga kirishib ketganim, ishqilib, bejiz emas-da. Shuncha odam qolib, kelib-kelib men bilamanmi bo'lmasa. Ularning orasida bilimdon olimlar, fakultet dekanlari bor ekan, bular ham mayli, odamning ko'ziga qarab, faqat cho'ntagida pulini emas, ko'nglidagini ham sanay oladigan do'kon mudirlari ham chuv tushganiga nima deysiz!

Hurkani oddiy ayol, farzandiga meqribon bir ona deyishga tilim bormaydi. Ayol, yana ona insonning shuncha odamni, hatto o'zlari xohlab, yo'l berib tursa ham laqillatib ketishi mumkin emas. Ularning ichida xalq nazoratiyu OBXSSlarga tutqich bermay, balki o'zlarini sherik qilgan chiltonlar ham bor edi, deyishadi. Hurkani shunga qarab, hammamiz qatori bandai ojiz deya olmadim o'shanda. U boshqa dunyo, haligi aytganim, muvoziy olamning Iblisiyasidan kelgan urg'ochi

iblisha deb xulosa chiqarganman. Boshqa izohi yo'q. Men bilan to'qnashuvda yaxshilik bilan yomonlik o'rtasida kurash kechgan: men – ko'p yaxshi narsalarni o'qib, shundan tarbiya ham topganim, boshqa bog'lanishlar ham qo'shilib, yaxshilik vakili, u iblisha esa yomonlik kuchlari tomonidan; kamina g'olib chiqdi, u mahv etildi, ya'ni qamalib ketdi.

Lekin shu bilan badar qurimagan ekan. Uni o'n-o'n besh yillardan keyin yana ko'rdim. Avvaliga tanimadim. Kechqurun rulda edim, tirikchilik, yo'l bo'yida bir ayol qo'l ko'tardi. Kiyimidan bildim, bozorchi xotin, tiyinning ustida dumalab turadigan xilidan, lekin noiloj, boshqa mijoz yo'q, to'xtadim. Xotin oldingi o'rindiqqa tappa cho'kdi. Boradigan joyini keyin aytdi, bir qadam – Chilonzor bozori ekan, yo'q demoqchi edim, lekin tovushining nimadir bir hukmi bor ekan, haddim sig'madi. Qorong'i, qarashga yuragim dov bermaydi, bir narsasi bor, bilolmayapman, ammo menga tikilib qarab ketayotganini sezyapman. Nigohlari chakkamga o'qdek qadalgan. E-e, xudo, ro'zg'or tashvishidan ham charchadim, yozuvchi holimda bu nima yurishim deb ezilib boryapman. Xotin vag'illab gapga tushdi. Xonimfurush ekan, bir militsioner yigit tirg'alibdi, unga emas, yonida manti sotadigan chalaroq qiz bor ekan, shunga. «E-e, yigit o'lgur, erkakmisan! Senga qiz kerakmi, mana, men turibman, qo'y bu bechorani, chiroyli bo'lsa ham o'zini xudo urib qo'yibdi-ku, ko'zing o'yilib tushgur, dedim», deb sannab ketgan edi, birdan tanib qoldim – Hurka! Xuddi o'zi! O'zgarmagan. Sochi kalta kesilgan, ko'ylak tagidan shimi tirsillab chiqib turibdi. «Nima dedingiz? Boplapmanmi? Mayli, menga yopish, dedim. Endi qaytadan qiz bo'lmayman, lekin hali hammasini yarim yo'lda qochiraman. To'g'rimi, ukam, o'g'il bola gap?» deganda, «Men... men bilmasam bunaqa ishlarni», deb g'uldiragan edim, u ham shartta tanisa! Urdi xudo. Ko'zimni qayoqqa yashirishni bilmayman, u esa menga qadalib olgan. «Juda tanishsiz-da. Ha, oldin ham uchrashganmiz. Tanib turibman», deydi, men indamayapman, yana gapirsam, otingacha bilib oladi deb. Qarang-ey, sim-siyoh kecha, ko'chaning chiroqlari ham siyrak, shu qorong'ida menga qarab, tanib turibdi, shuncha yildan keyin, o'zi esa o'zgarmagan, o'sha-o'sha iblishaligi.

«Qo'limdan hamma xonim egan», deb qo'yadi yana. Bozorgacha miq etmay bordim, «no'l to'qqiz»ni to'xtatganimdan keyin so'ramasam ham: «Shu bir qadam joyga ham pul olasizmi», deb ta'na qilgan edi, «E-e, rahmat, rahmat, sizga tekin», dedim. Tushgan joyida eshikni qo'yib yubormay, egilib qaradi, «Ha, uka, o'zingizni aytmadingiz-a, lekin men tanidim, bilaman sizdaqalarni. Xonimimdan yegansiz», deb ichimdan terlatib yubordi. Ko'ryapsizmi iblisaligini! Ancha yilga kesilib ketganini o'z qulog'im bilan eshitganman, o'shanda sudiga bormoqchi ham bo'ldim. Lekin qo'rqqanman, barisini mana shu qildi, bo'lmasa, shuncha odamning hammasiga uy olib berardim-a, deb suddagilarni ishontirishi ham hech gap emas edi. Mana endi, shuncha yil ahloq tuzatish joylarida o'tirib, ahloqi tuzalmagan, o'zi ham o'sha-o'sha, xuddi shuncha odamni kuydirmagandek, aytayotgan gapini qarang, hammaga xonimini yedirib qo'yadi, militsioner yigit axloqsiz, ey, menga yopish, vah-ha-ha emish...

Men shunaqa dahshatli yovuz kuch timsoli bilan olishib, shiddatini pasaytirib, yosumanni xonimfurush bozorchi xotin darajasiga tushirib qo'yanim uchun o'zimga ham tan berishim kerag-u, lekin asosiy masala yaxshilik kuchlari vakili bo'lish sharafiga sazovarligim deb bilaman va G'allaorollik kelinchak ham xayrli fazilatlarimni qo'llash niyati bilan shu kuchlardagi qutli bir go'zallik timsoli sifatida ko'ringan deyman. Uni ko'p eslayman, xotiralarim juda yorug', ilhom berib turadi. qay bir ma'noda u xizmatchi g'uliyaga ham o'xshab ketadi, kim biladi, menga juda yaqinligini o'ylasam, bu yerdagi charxi gardunning ishlarini anglash qiyin, balki uning o'sha sog'inch holida qolib ketgan, endi o'zgacha qiyofaga kirgan o'zidir degan fikrlarga ham boraman. Muvoziy olamdan bizning dunyoga o'tib kelganlarning turli qiyofada, jumladan odam qiyofasidagilarining oramizda yashab, hatto hamxona bo'lib turib ham o'zini bildirmasligini nazarda tutsak, buning hech bir ajablanadigan joyi yo'q. Siz bilan ham shunday bo'lishi mumkin. Men qiliq-qilguliklari bilan bu dunyo odamiga o'xshamaydigan juda ko'plarni ko'rganman. Sizga ham duch kelgan, e'tibor bermagandirsiz. Ularning ayrimlari yaxshi bo'lsa, anchasi tinch yashay olmay, sizni bizga tuhmat qilib,

bo'hton yog'dirib, turish-turmushimizni zaharlab yuradi. Mana, bittasini bilaman, odamlarning ustidan tegishli joylarga yozib beradi-da, keyin o'sha odamga borib: «Vijdonim qiynalib ketyapti», deb hasrat qiladi. Ko'pincha o'zining do'sti bo'ladi-da. «Nimadan qiynalyapsan muncha?» deb hamdardlik bildiradi-ku do'st. «Kecha ustingdan yozib berganman», deydi u. Albatta, do'st angrayadi, jahli chiqishini ham, arazlashini ham bilmay angrayib qoladi. «Xo'p, - deb zarda qiladi oxiri. – endi nimaga yo'q vijdoningni menga pesh qilasan?» «Yozganim g'irt tuhmat-da, oldingga kelib bo'ynimga olyapman. Kechir! Do'stimsan-ku, axir!», deydi yozg'uvchi yana. Bunga nima deysiz endi, jinu ajinani malaka oshirish kurslarida o'qitmaydimi! E-e, u og'iz qiyshaytirishlar o'tmishda qolib ketayotgan eski usul.

Albatta, jinu ajinaning yaxshilaridan ham ehtiyot bo'lgan ma'qul. Chunki berilib ketib, bu dunyo ishlarini unutish mumkin. Haligi kelinchakka o'xshaganlari juda kam uchraydi, u bilan uchrashishim ham davom etsa, oqibati yaxshi bo'lmas edi. Hatto Shoir akam ham oddiy odam emas degan xayollarga boraman. U bizga o'xshab pulning betiga qaramas, umuman boylikka qiziqmas, nihoyatda insonparvar, birov birovni aldaganini eshitsa, jahli chiqish o'rniga, o'sha aldaganning o'ziga rahmi kelar, yana shunaqa juda ko'p fazilatlari bor ediki, bu hayotga sira to'g'ri kelmas, hatto Hurkadan ham: «Insoniyatning iste'dodi cheksiz» deb, chin ma'noda hayratga cho'mib, yeb ketgan puliga rozi edi.

Ana endi, men aytib bergan, o'zingiz ham biladigan shunaqa voqeotlarning barchasini bir tizginga tizib, xulosa chiqaring: xo'sh, shunday odam G'ulistonga qanday borib qoldim, bular adashtirib olib o'tdilar mi yo o'z ixtiyorim bilan kelib, bularga yuk bo'ldimmi? O'zim ham boshda bularning ustomonligidan ko'rib yurdim, lekin ancha yashaganimdan so'ng, asir qilingan bo'lsam, bu izzat-e'tibor nimaga, deb ancha yumshab qoldim. G'ulistongacha kechgan hayotimni chig'iriqdan o'tkazdim, bolaligimdagi ajinalar, insu jinslarning yetti pushtimizga tegmasligi, menga ham zarar yetkazishga haddi sig'masligi, vakilasi so'z bergan-da, keyin uyushmada ishlagan paytlarim har xil bashoratchi-ekstrasenslarning alohidaligimni aytganlari, ayniqsa shoir do'stimning ajdod ruhlarim bilan bilib

tanishtirmoqchi bo'lgani, oxiri, mana, Hurka masalasida o'nlab odamlarning xayoliga ham kelmagan aldovni fosh etganim – hamma-hammasi o'zimga hurmatimni oshirib, haligi aytdim-ku, muvoziy dunyolar tutashgan joyda favqulodda o'zgarish yasab, bu yoqqa o'tib kelganimga ishonдим. Ko'p narsa oydinlashdi. Birinchisi, albatta, meni, ya'ni odamni g'uliyga aylantirishga urinishlari. Bu so'lim bog'hovliga joylashtirib, zanjirni ongu ko'nikmalarimga singdirib, tez kunda o'z qatorlariga olishga urindilar, lekin men hech qanday asoratga bo'yin beradigan emas ekanman. Endi asirlikda tutib emas, balki nima qilishga chora topolmay, mo'tabar mehmon martabasida ushlab turibdilar. Xizmatchi g'uliyaning muhabbati shundan, u ham zanjirsiz holimda alohida martabamni qalbi bilan tuygan, qahramonga qaragandek qarab, vazifasidan tashqari ham, odam bilan yaqinlikka yurakdan intilgan, his-tuyg'usi ustun kelib, chiroq o'chirish zavqiga berilib ketgan. Qizlar nimasi bilandir ajralib turadiganlarni yoqtiradi-ku, bu ham g'uliy bo'lsa-da, bari bir qiz narsa, ko'ngli boshqacha yigitlarga moyil, faqat noqulay tomoni - oddiy layli-majnunlik darajasidan nariyoqqa o'tib ketib qolibmiz. G'ulistonga kelib, g'uliyalar orasida yashab, hatto g'uliy qizning muhabbatiga erishib ham ulardan biriga aylanmaganim sababi – o'zimni asrab yurishim, goh tilimda, lekin doim dilimda kalima qaytarib, o'zimni asraganim, eng asosiysi, mustahkam qalqonim eshonbobo otam orqali Yassaviy singari bobolarimning ruhi qo'llaganida deb bilaman. Chuqur ketgan tomirlarini unutmagan odam kam bo'lmasligiga aminman. Endi g'uliy qiz bilan vaqtixushliging ham imoningning butunligimi, deb yozg'irishingiz mumkin. Lekin masala siz o'ylagandan chuqurroq, bu menga ham bog'liq, ham bog'liq emas, olamshumul muammolar oldida u bilan kechirgan ishq sharoramiz mayda masala, sal bir sho'xlik-da endi. Hali o'zingiz tushunib olasiz.

Ha, uzr-da: men undoq, men bundoq deb, o'zimga bahoni oshirib yuboryapman, lekin o'sha paytlari shu ahvolda edim: yotlarning orasida yaxshi tomonlarimdan kunduz kuni chiroq yoqib suyanch izlaganman, keyin, tushuning-da, shunday deb

ko'nglimni o'zim ko'tarib yurishdan boshqa choram ham yo'q edi-da.
Maqtanchoqlik demassiz, axir.

G'ulistondagi jiddiy tadqiqotlar

Ana shu chalkash, lekin chuqur bog'lanishlardan so'ng G'ulistondagi hayotim umidga to'lib, ancha oson kechdi. Bu yerdan bir kuni ketarman, ungacha o'qib-o'rganib qolay degan ishonch meni yana kutubxonaga qamadi. Jildlardan hayotning hamma sohalarini o'rganishga kirishdim. Sahifalari tez-tez o'zgarib, yangilanib turgani bilan, bari bir, boshqa olam, boshqa mamlakat-da, juda qiziq. Ko'p jiddiy kashfiyotlarga ko'zim tushdi, kunduzi quyosh yallig'i, kechasi yulduzlarning nuri bilan yuradigan mashina kashf etilish arafasida, hozirgi holatida u kunduzi tez, kechasi sekinroq, bulut chiqqan kunlari yurmay ham qoladigan qiliq chiqarib, hozir shu tafovutni bartaraf etish borasida oxirgi ishlar ketyapti ekan. Xo'sh, robotlar yasash sohasida olamshumul harakatlar bor, ajoyib namunalari yaratilgan, bular orasida sun'iy it, mushuk, ot, hatto eshak jonivor ham esdan chiqmagan, bu nima zaril ekan, bilmadim, lekin fanning bunaqa yo'nalishini uncha tushunmaganim, keyin o'zimizda ham bunaqa ixtirolardan xabarim borligi uchun uncha zavqlanmadim ham. Chaqirim-chaqirim o'zi yuradigan to'shama yo'llar yotqizilyapti ekan, ustiga tursangiz bo'ldi, istagan manzilingizga yetkazadi, faqat siltangan payti tutqichini mahkamroq ushlaysiz, shu tomoni hali ancha ishlovtalab, lekin bunaqasi o'zimizda bor, sal qisqaroq, ko'p yillar keyin Istanbul aeroportida o'zim, boshqalarini esa televizorda ko'rganman, sizga ham uncha qiziq emas. Ishqilib, rivojlanayotgan mamlakat sifatida tarixdagi kashfiyotlariga o'xshagan inkishoflari nihoyatda ko'p, izlanishlari esa undan ham bisyor.

Shu o'rinda bir kemptigimni ham aytmasam bo'lmas. O'qib yurgan paytlarim so'zamol javoblarimga «besh» qo'yib beravergan o'qituvchilarimdan endi ranjidim. Burro til burro aql nishonasi bo'lavermas ekan, haligi «besh»lar bu yerda asqotmadi. Baland baho emas, chuqur bilim kerak ekan! Bularning kitoblari mutolaasida mazmunining ichiga kira olmay, fikrlarim yuzalab ketaverganida ana shu haqiqatni achchiq angladim. Attangki, diplomda «a'lo» bisyorligi qomusiy bilim degani emasligini boshimdan o'tkazdim!

Xo'sh, yana gapimizga qaytsak, mutolaada juda ko'p yillardan beri bahsu munozara chiqarib, qarshi tomonlarni batamom mahv qilgan bir g'alati tadqiqotga duch kelib, taajjubga tushdim. U uch bosqichda ekan, birinchisi – turli xil meva-cheva tarkibida temir moddasi – ferrum miqdorini ko'paytirish, ikkinchisi – uni inson tanasiga singdirish, uchinchi esa... sizga kulgili tuyuladi, lekin ular uchun juda jiddiy, mafkura darajasiga chiqqan aqida. Keling, bir boshdan aytay. Esingizda turgandir, G'uliston hududiga kirganimdayoq olmayu olmazorlar ko'pligiga e'tiborim tushganini aytgan edim. Bu bekorga emas ekan: tarkibida eng ko'p temir moddasi bori - olma, shuning uchun uning turli xil navlari, hatto qishda issiqxonada ham tarmeva beradiganlarini ham yaratish qishloq xo'jaligida ustivor masala bo'lib, buning tepasida haligi hamma devorda rasmi osilib, bosh haykalchasi yopishtirilgan daho g'uliyboshi turadi. Bu – tadqiqotning olmaning o'zigagina bog'liq yo'nalishi. Uni keng tarqalgan iste'mol mahsulotlari, jumladan bug'doy, grechixa, suli, arpa, tariq bilan chatishtirib, keyingilarida ham ferrum miqdorini oshirish, fanning yana bir izlanish so'qmog'i sifatida – xurmo bilan sholg'om, kartoshka, qizilchani bir-biriga changlatish, chunki temir moddasi xurmoda ham ancha ekan-da.

O'zingiz ko'rmagandan keyin, ishonmaysiz, men ham boshda bu o'simliklar bilan olma yoki xurmoning tamomila boshqa-boshqa oila, bir-biri bilan payvand qilsa ham, yelimlab yopishtirsa ham chatishmasligini xoldor oshnamga tushuntirmoqchi ham bo'ldim, lekin jildlarni o'qisam, masalaning ko'lamini keng, o'nlab ilmiy-tadqiqot institutlari, yuzlab g'uliy olimlar ishlayapti, hey-hey desam, o'zimni jinniga chiqarishlari hech gap emas, indamay qo'ya qoldim. Keyin mening o'zimizda olgan bilimlarim, aytdim-ku, bularning ilmiga to'g'ri kelmadi. Yana, bu yerga kirib kelayotganda o'zimizning Boysun tog'lariga o'xshagan qizg'ish tusli yerlarni ko'rib, uncha ahamiyat bermagan edim. Anov kuni bog'hovlidan tashqaridagi bug'doypoyalarning tuprog'i ham qoramtirroq ko'ringan, yeri shunaqa qumoq ekan, deb qo'ygan edim. Endi jildlarni o'qib ko'rsam, bu yerni ferrumga to'yintirish natijasi ekan. Mevalar tarkibida ferrumni ko'paytirish olimlar

tavsiyasi bilan ikki xil usulda: o'g'it sifatida solish va purkash yo'li bilan amalga oshirilgan ekan. Buning uchun ferrum unga boy rudalardan ajratib olib, eritiladi, boshqa keraksiz ma'danlardan tozalanib, keyin yana qotirilib, kukun holigacha tuyiladi, keyin mevali daraxtlarning tagiga solinadi yoki dalalarning tepasidan maxsus uskunalar bilan purkaladi. Yerlarning qizg'ishligi shu kukunning zang rangi, qoraygani dalaga yangi sepilganidan ekan. Mazkur ish juda keng miqyosda olib borilishi haqida ma'lumotlar bisyor, lekin natijasi haqida tumanli gaplardan boshqa hech narsa yo'q. Siz albatta ishonmassiz, lekin shunaqa qizg'ish yo qoramtir dalalarga o'zim guvoh, minglab, balki ko'pdir, g'uliytlarning ayni yumush bilan band ekanliklarini ko'rdim, o'qidim, G'uliston miqyosida hisob qilsak, qancha mablag' va texnika kuchi sarflanishini aytib o'tirishga hojat yo'q. Mayli, ishonmang, lekin men butun bir mamlakat, hali nufusini to'liq aniqlay olmaganim g'uliyotning daholig' g'uliyboshi topshiriqlarini og'ishmay, yakdil bajarishiga qoyil bo'lganman.

Izlanishlarning ikkinchi bosh yo'nalishi - inson tanasiga temir moddasini singdirish bo'lib, bunga ham barcha ilmiy-potensial kuchlar, tumonat bog'bonu dehqonlar jalb etilgan va hammasi G'ulistonni to'lig'icha olmazor boqqa aylantirish ustida ter to'kadi. Boshlarida albatta daholig' g'uliyboshi, bor ish uning nazorati va g'amxo'rliqi ostida. Boshqa mevalar borasida ham ancha bahslar kechgan, ulardan, boya aytganim, ustuvorlik xurmoga ham salgina berilgan va bu ham daholig' g'uliyboshi qaramog'ida. Umuman men shu borada ular bilan hamfikrman: bahsu munozara deb ilmiy janjallarni urchitgandan ko'ra, barcha sohalarda, boshqa arziguligi topilmasa, albatta, bir dahoning fikri bilan ish yuritgan ma'qul deb hisoblayman. Keyin, bu zanjir e'tiqodiga ham mos, hamma farovonlik tartib va bo'yin sunishda ekanini isbotlaydi.

Endi uchinchi, asosiy maqsad yo'nalishiga kelsak, bunga ham, albatta, daholig' g'uliyboshining shaxsan o'zi boshchi, ishlar uning karami, g'amxo'rliqi ostida, hammasiga vaqt ajratib, shaxsan qarab turadi. Lekin siz aytganlarimga ajablanmang, chunki bu oldingilaridan ham jiddiy masala.

Dastlab o'qiganimda mening ham hayratdan esim og'ib qolayozdi. G'uliyot olimlari necha-necha yillardan beri, tarixni muntazam tuzatishlarini hisobga olsak, balki qadimdandir, mamlakatning temir rudasiga ehtiyojini kamaytirish, zanjirsozlikka chek qo'yish maqsadida, anglayapsizmi, ha, aynan shu serchiqim qora mehnatni yo'qotish yo'lida katta sa'y-harakatlar ko'rsatib kelar ekan. Ular zanjirga qarshi bosh ko'taribdi degan fikrga bormang tag'in. Aslo! Yozuvchi do'stim, aytdim-ku, ana shunaqa nozik masalalarning ustidan yuzalab o'tib ketgan. Mayli, uni ko'p yomonlayvermay, qalamni qo'lga yaxshi niyatda olgan-ku. Ha, ular, ya'ni g'uliyot, odam ishonmaydi, - g'uliyning o'zini zanjiri bilan birga tug'dirishga bel bog'lagan! Anglayapsizmi, chaqaloq jimit g'uliycha, bo'ynida o'ziga mos mitti zanjirchasi bilan tug'iladi! Bir tasavvur qiling, zanjir ona qornidan chaqaloqqa qo'shilib, badanining tabiiy a'zosi bo'lib yaraladi, tug'ilgandan keyin u bilan birga ulg'ayadi, ya'ni bo'yi o'sishiga qarab cho'zilib-kattarib boradi! Buning yo'li - g'uliy tanasida temir moddasi – ferrum miqdorini oshirish! Ferrum qanday ko'payadi – tarkibida temir moddasining miqdori yuqori mevalarni, ayniqsa olmani ko'p eyishdan. Bolalikdan, erkagu ayoli. Ko'p temir moddasi to'plagan ota-onadan bo'ladigan homiladayoq temir moddasi nozik zanjir ibtidosiga aylanib, tug'ilganida, badaniga taqilgan holda, birga dunyoga keladi.

Men, ochig'i, bunaqa ilmiy jasoratga ilgari sira ham duch kelmaganim uchun tong qotdim. Hali biron g'uliy bolasini bo'ynida zanjiri bilan birga tug'dirishga erishmagan ekanlar-u, lekin ana-mana, bari bir, dunyoga keladi deb, butun G'uliston intiq. Agar shunday tug'ma zanjirband bolacha tug'ilib qolsa, tasavvur qilyapsizmi, volidalariyu avlod-avlodlarini ham shuhrat, ham mablag' bilan manguga ta'minlab qo'yishini.

Birinchi kunlari nima uchun doim dasturxonda bir chinni olma turishiga, xizmatchi qizning ham o'zi yeb, ham meni undab hol-jonimga qo'ymasligi, ayniqsa xoldor g'uliyning olmani po'chog'ini uzmay yupqa payraxa qilib archishiga e'tiborsiz qaragan ekanman, endi vahimaga tushdim. Bular menda ham o'sha ferrum miqdorini oshirib, zanjirga tabiiy mayl uyg'otishga, ehtimolki, bu qiz bilan...

mayli, g'uliya bo'lsa-da, ko'ngil berdik, har xil gumonlarimni aytavermay, ishqilib, shunaqa bir rejalar tuzgan ekanlar. Bu, kimyodan savodim chala holida ham bilaman, albatta xomxayol, lekin bari bir, tanamga singgan temir moddasidan zanjir unib, vujudimni chulg'ab oladigandek, olmani azaldan yaxshi ko'rsam ham, endi tomog'imdan o'tmay qoldi. G'uliya qizning olmaxo'rliги ham qayergacha borishini o'ylab, xavotirga tushdim.

Lekin bor gapdan ko'z yumib bo'lmaydi, G'ulistonda zanjirband bola olish borasida juda keng ko'lamda ish olib boriladi, butun g'uliy xalqi bugun bo'lmasa, ertaga, jilla qursa, yaqin kelajakda shunday namuna zuryod dunyoga kelishiga ishonchi komil va shu yo'nalishda ilhom bilan ijod qiladi. Olmaning o'zi, sharbati, to'ppasi, po'sti, qiyomi, ochari, parra qoqi, payraxa kesmasi, quritilgani, dimlangani, oshga bosilgani, talqoni, hatto urug'ini yutishgacha – hammasining tarkibida qancha ferrum borligi jadvalga solinib, bo'lajak onaga tavsiya etiladi. Olma sayli, yilda bir necha marta oshiqalar kuni o'tkazilib, ularda zanjir jo'rligida xor qo'shiqlari kuylanadi. Chimildiq'larga shu tilakda olma guli osiladi. Qish kunlari ham issiqxonalaridan gullab turgan shoxchasi keltiriladi. Ashulalar, termalar, musiqalar, jiring-jarang majmualari, ha, uni bo'lajak onaning o'zi ko'zi yorigunicha aytib, zanjiri bilan chalib yuradi, ishqilib, bolaning tug'ma g'uliy bo'lishi uchun, nima lozim ko'rilsa, sidqidildan hammasi qilinadi. Hozircha kuttiryapti, lekin ana-mana kelay deb qolgan. Shundayin zuryodni qay bir baxtiyor yosh ona yetiltirayotganiga butun vujudingiz bilan qattiq inonib, ko'z oldingizga keltirsangiz, haqiqatan ham lop etib tug'iladigandek tuyulaveradi. Hammasi ishonchga bog'liq.

Ana shu o'rinda ishonchning hayotbaxsh yaratuvchilik qudratini chuqurroq his etdim. Albatta, olma tugul, faranglarda hamma narsani kemirib tashlaydigan odamga o'xshab, temirning o'zini chaynab esa ham, ona qornidagi bolada zanjir ham paydo bo'lib, yana unga chatishib tug'ilmasligini yaxshi bilaman, lekin mamlakat miqyosida keng ko'lamda olib borilayotgan ishga ishonmaslikka

odamning haddi ham sig'maydi. Shunchaning umidini bitta men sindira olmayman, axir.

G'ulistonda jami ishlar ana shu ixlosga qurilgani uchun ham mamlakat faoliyati ravon yuritiladi. Bunda maqsadga yetish, ya'ni kutilgan natijaga erishish shart emas, gap intilishga undash, yetaklay bilishda. Bunda maqsad nechog'li uzoq, unga yetish qanchalar nihoyasiz mashaqqat bo'lsa, yana-da yaxshi, unga yetish kerak ham emas, yetilsa, zararli ham. Zero maqsadga erishilsa, shu bilan unga intilish tugaydi, binobarin, endi o'ziga chorlab, kelajakka ilhomlantiradigan boshqa yangi bir maqsad topishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham, tushundimki, g'uliyot uchun bolani o'z zanjirchasi bilan dunyoga keltirish natijasi nechog'li olis, tumanli, unga erishish qanchalar ilojisiz bo'lsa, shuncha ma'qul, tinimsiz intilish nihoyasiga yetmasa, demak, o'rtada shuncha ko'p ishlar amalga oshaveradi. Daho g'uliyboshi o'z xalqi ruhiyatini chuqur anglagan holda, uning oldiga hech qachon yetib bo'lmaydigan maqsadni belgilab qo'yib, oxiri yo'q yo'ldan ishonch bilan boshqarib boraveradi, yo'l, tabiiyki, tugamaydi. Zanjirband bola tug'dirish muammosi ham shunday, qanchalar aql bovar qilmaydigan ish bo'lsa, demak, amalga oshirish uchun undan ham balandroq aqlar yetmaydigan yumushlarga qo'l urishga to'g'ri keladi. Shu tariqa intilishlar bir-biriga ulanib, ilhombaxsh bo'lib boraveradi. Olmadagi temir moddasini inson tanasiga singdirish borasida qilinayotgan ishlar hech qachon natija bermaydi, balki bu modda ko'payib ketsa, turli kasalliklar ham kelib chiqishi ham mumkin, lekin shu maqsadga erishish kerak degan ishonch butun G'ulistonni gullagan olmazor boqqa aylantirib, g'uliyotni bu meva hosili bilan abadul-abad ta'minlab qo'ygan.

Qudrat yo'q yerdan ham bo'ladi

Boshqa, masalan, g'arb dunyosi odamlariga G'ulistondagi bu ishlar g'alati tuyulishi mumkindir, lekin men – buyuk yo'ldan kommunizmga atigi bir manzil qolganda qaytgan inson, darrov tushunib inkishof etdim: bu yerda yolg'onning yaratuvchilik qudrati bor. Temir moddasi, u bilan bog'liq maqsadlar, to temir zanjiri bilan tug'iladigan chaqaloq masalasigacha, bir so'z bilan aytganda, yolg'on. Lekin u juda katta, ko'lami kamida mamlakat miqyosida, shuning uchun ham ishonchli, chunki bunday katta ko'lamli ishga ishonmay bo'lmaydi, ishonmasangiz, yutib ham yuboradi. Uning hayotbaxshligi ham shunda.

Ensangiz qotmasin-u, lekin siz ham qirqdan oshgan bo'lsangiz, boshingizdan o'tgan, ya'ni ishonchning kuchini amalda ko'rgansiz. Yorug' kelajagiga yetmadig-u, ammo maqsad sari yetmish yillik intilishda nimalar qilmadik, nimalarni qurib tashlamadik! Ko'pni aldash oson shekilli, keyin, mamlakat ham kunchiqishdan kunbotishga qadar bepoyon, nufusi juda ulkan edi, o'sha bo'lg'usi buyuk baxtga ishonib yo'l bosaverdik-ku! Shundoq ekan, yetib bo'lmaydigan maqsad sari hormay-tolmay ketayotgani uchun g'uliyotga bepisand qarashimiz insofdan emas.

Xullas, belgilangan yo'l yoki berilgan ko'rsatmaning hayotbaxsh yaratuvchilik qudratiga ishonch – ularning baxtu farovonligi. Bu ma'noda yolg'on ularning kelajagini ta'minlab qo'yadi, desak ham xato qilmaymiz. Maqsad yo'lida topshirilgan vazifani bajaradilar – kelajakka ketaveradilar, g'uliyot psixologiyasining odamni hayratga soladigan nekbinligi ham shunda. Albatta, bunga erishish oson kechmagan, men tarix jildlarini varaqlab, bu yo'ldagi keskin kurashlarni ko'rmadim, ehtimol, o'tmish voqealari odatdagidek yangilab yozilgandir. Lekin g'uliyotning mo'min-qobil tabiati, daho g'uliyboshi rahbarga ishonchu sadoqatidan xulosa chiqarsak, u ko'rsatganidan boshqa yo'ldan yurishni istamaydi ham. Chunki, boshqa yo'l izlash, birinchidan, g'uliyboshining ko'rsatmalariga zid, ikkinchidan, g'uliyot orasida boshboshdoqlik va bo'linishlarni keltirib chiqaradi. Men, masalan, eng ilk marta qabila boshliqlarining umumiy yig'ilishida zanjir taqishga o'tilishi borasidagi tarixiy manbalarni o'qib shu fikrga

keldimki, fuqaro g'uliyar qabila boshliqlariga, qabila boshliqlari esa yagona dahoga qarshi chiqib o'tirmaganlar. «Kel, olishib-tortishib yurgandan ko'ra, shu zanjirini taqib qo'ya qolaylik, keyin bir gap bo'lar, axir», deganlar. Keyin, asrlar bo'yi taqqandan so'ng, shu qadar ko'nikkanlarki, taqmasa yurolmaydigan, taqmaydiganlardan nafratlanadigan bo'lib ketganlar. Mana, hozirga kelib g'uliyar - g'uliy, mamlakatlarining nomi G'uliston, zanjirsizlik tasavvurga ham sig'maydi. Bo'lmasa, bunday o'ylab qarasangiz, zanjir shunchaki bir temir tushov, erkin yurishga xalal beradi, yashashga noqulaylik tug'diradi, u butun olamning muazzam tartibini yaratadi degan ta'limot g'irt cho'pchak, chunki uning o'zini inson yasaydi, lekin... bu cho'pchak har qanday haqiqatdan kuchli, hayotbaxshroq. G'uliy uchun haqiqat nima – bor-yo'g'i bor narsa, bilganingiz bilan biror narsaga erishsangiz ekan. Zanjirning olamni muazzam tartibda saqlab turishi to'g'ri emasligini g'uliyotga isbotlab, uni ishontiring, oqibati nima bo'ladi? Gullab yashnayotgan jamiyat inqirozga uchraydi, zanjirbandlik ta'limoti chilparchin, g'uliyotning o'zida zanjir o'rniga nimani kishan qilamiz degan kalapatralik, va turgan gap, G'uliston parokanda, unga ham yangi nom topish kerak, xullas, butun mamlakat g'alvaga itirqin. Xoldor g'uliy bir hangoma berganda «Sarvarimiz bizda g'uliyarlarni o'y o'ylashdan xalos etib, qiynalmay yashashlariga sharoit yaratgan, zero, g'uliy uchun o'ylashdan ham og'irroq azob yo'q», dedi, bu gapni u meni o'zlariga og'dirish uchun aytgan bo'lsa ham, g'oyat to'g'ri deb topdim, chunki u ham shunday deyishimni kutib turgan edi. Tinch bir jamiyat, fuqarolari mo'min-qobilgina bir mamlakatga orani buzadigan har xil erkin fikrlar nima kerak o'zi? Bitta sarvar, ya'ni g'uliyboshi rahbar bo'lsa, bas-da.

Badiiy asar ham xavfli bo'lar ekan

Yozuvchi do'stim o'z ro'monida men boshchiligimda bir guruh g'uliylarning zanjirga qarshi bosh ko'tarib, xufiya tashkilotlar tuzganini yozgan-u, lekin buning qanchalar zararli oqibatlarga olib kelib, oxir-oqibat, G'ulistonni inqirozga uchratishini o'ylamagan. Agar u ro'mon, haligi oldin aytganim, bularning bizga bog'lanadigan robitalari bilan G'ulistonga o'tib qolsa, oqibatini bashorat qilish qiyin. Bunga aniq xavf ham bor, masalan, deylik, ro'mon G'ulistonga kelishimdan oldin yozilib, men ham olib, Jizzaxga borganda o'qirman deb, mashinamga tashlab qo'yganimda, kelganimdan keyin bular topib olsa, xudo ko'rsatmasin, boshimga nimalar tushmas edi. Yo mamlakatga taqiqlangan adabiyotni olib kirganim uchun qamalib ketardim, yoki bu asar ham qo'lma-qo'l bo'lib, ancha g'alva qo'zg'ardi. Yaxshiki, qaytib kelib, aytib berganimdan so'ng yozilgan, lekin bu xavf yo'qoldi degani emas. Kelajakda boshqa biron odam ham Toshkent – Jizzax yo'lida shu ko'rgulikka uchramaydi deb aytish qiyin. Shuning uchun ham yo'lga chiqadiganlarga yozuvchi do'stimning ro'monini olib yurmaslikni maslahat beraman. Mening ozodlik bilvosita aks etgan bezarargina narsalarim shuncha mashmasha chiqardi-yu, uniki borib qolsa, hay-hay, bilmadim, ishqilib, ko'p xavf ish bo'lar edi lekin. Umuman begona yurt yo'lida badiiy asar olib yurishning xosiyati yo'q ekan. Tanimda sinab ko'rdim, hali aytib beraman.

Biz zanjir taqmaymiz, insonning o'zini o'zi kishanband qilishi aqlimizga ham sig'maydi, g'uliylar esa hayotni shusiz tasavvur qilolmaydilar, xo'p, nima bo'пти shunga, qo'ying, o'zlariga ma'qulmi, tinchlik-farovonliklari shu bilanmi, yashayversinlar. Hayotimizni ularga o'rnak qilib qo'yib, hammani o'zimizdek yashashga undashimiz insofdan emas. Sho'ro zamonida boshqalarga aql o'rgataverib o'zimizda qolmagani yetadi bizga. Bu gapni bekorga yo o'zimizning yaqin o'tmish zamonimizni yomonlash uchungina aytmayapman. G'ulistonga hech bir aloqasi ham, zanjirdan qutulishga undov-pundov ham yo'q, voqealari bizning kechagi ham bugungi kunlarimizdan olingan, g'uliylarga tariqcha ham daxli

bo'lmagan kitobimning boshimga qanday balolar olib kelganini ayttсам, badiiy asar bilan hazillashib bo'lmasligini shunda tushunib olasiz.

«No'l to'qqiz»da, albatta, do'stimning ro'moni emas, o'zimning o'zog' yili chiqqan kitobim bor ekan. Ha, mashinada kitobimni olib yurishni odat qilganman. Tez haydayman, «dan»chilar juda ko'p to'xtatadi. Shundoq ola tayog'ini ko'tarsa bo'ldi, yuragim shig'-g' etib, tormozni bosib yuboraman. Lekin darrov o'zimni bosaman, chunki shular uchun albatta bir-ikkita kitob atab qo'yilgan. «E-e, salom, yaxshimisiz, hormang! Bizdan xato o'tdi shekilli. UZR, uzr endi, boshqa qaytarilmaydi», deb yaxshi salomlashib, uncha qadrimni tushirmay kechirim so'rayman. Ko'pi bunaqa qaltiramay ochiq gaplashishimga hayron turadi, ayrimlari bu odamdan hech narsa undirolmayman deb sal tumsayadi, shunda «Meni tanimayapsizmi?», deyman, tanigani tanidim deydi, tanimagani «Sal tanimayroq turibman. Lekin qayerdadir ko'rganman», deydi, ana shunda men: «Oftobda qovrilib...», qish bo'lsa, «Sovuqda qotib... turgan ekansiz. Shu mehnatingizga bir qo'lingizni olib qo'yay, deb to'xtadim-da», deyman. Yaxshi gapirsangiz kim erimaydi? O'zi to'xtatgan bo'lsa ham, hurmatim uchun to'xtabdi-da, deb o'ylaydi. Shunda ham tarxashlik qilaversa, «Mana shuni biz yozganmiz», deb kitobni dastxat bilan beraman, keyin ham jarimasiz qo'yib yubormasin-chi! U turgan joydan har kuni yozuvchi o'tyaptimi? Ba'zi o'tganlari esa bir tiyin ham bermaydi, aksincha, xafa qiladi. Bir kuni o'zim bilan shunday bo'ldi. Ertalab uchirib borib qolibman, Sirdaryoning ko'prigi tagida bittasi turgan ekan, ola tayog'ini o'qtalib, yo'lning o'rtasiga chopib chiqdi. Noiloj to'xtadim. Vajohatidan kitob-pitobga ko'nadigan emas. «Qani, hujjatlarni oling-chi», degan edi, shartta redaksiya guvohnomasini chiqardim. qizil muqovali, ustida gerb ham bor. Muzeyda ishlaganimdan qolgan, ichiga redaksiyaning qog'ozini o'zim yopishtirganman, salobati zo'r. «Dan»chi uni shunday ko'rdi-yu, qo'lga olishga ham haddi sig'may, yoshim o'zidan kichik bo'lsa ham: «Nimaga to'xtaysiz, aka?» deb qattiq o'pkalandi. Tushunmadim albatta. «E-e, aka, o'zingiz to'xta, deb buni ko'tardingiz-ku, to'xtadim-da», dedim. «E-e, ko'targan bo'lsam ham, o'tib

ketavermaysizmi, shunaqa hujjatingiz bor ekan, axir», dedi. «Uh-h, o'zi bugun omadim chopmagan ekan. Hali ertalab, lekin sizga o'xshab ikki kishi hujjat ko'rsatib, quruq qo'yib ketdi», deb xo'rsindi yana. Shunaqa payti ko'ngliga kitob sig'adimi, bermadim, ezilib ketar edi. Lekin, bari bir, yozuvchimi, muxbirmi, qalam tutganning hurmati hamma yerda bor.

Bularga ham o'zimni yozuvchiman deganimni aytdim, bu izzat-ikrom ham, albatta, qalamning orqasidan bo'lsa kerak. Juda ishonchli chiqishi uchun bitta dastxat yozib bersam ham yaxshi edi, lekin «no'l to'qqiz»ni qayerga qo'yganlarini bilmayman. Keyin, mashinada kitob bormi, yo'qmi, Toshkentdan chiqayotganda qarab qo'yish esimga kelmabdi. Masalani xoldorning o'zi hal qildi-qo'ydi. Kitobimdan bittasini to'xtaganimda odatda mashinaning hammayog'ini aylanib qaraydigan oladigan «dan»chilarning ko'zi tushsin deb, ko'rinarli joyga qo'ygan ekanman, bari bir, o'zim eslolmayman, xoldor jo'ramiz yaxshilab eslatdi.

Bu galgi suhbatda u olma archishdagi mahoratini emas, tishining oqini ko'rsatdi, derazaga qarab, sovuq iljayib, menga hatto irshaygandek ko'rindi. «Yozuvchi ekansiz-da», dedi, bilamiz sizdaqa yozuvchilarni, degandek. «Ha, boshda aytgan edim-ku», dedim. O'zi yozuvchiligimga bir necha marta hurmat bildirgan, endi esa meni birinchi marta ko'rayotgandek, «Kitobingiz ham bor ekan-da», deydi! Gap bilan ta'sir qilishning yomon hadisini olgan. Derazaga tikilgan ko'zlarida ov ko'rgan mushukning bosiqligi, keyin zanjirini asabiy shiqirlatishidan bu bilan vajlashish befoydaligini ko'nglim sezdi. Meni fahmi yetmaydi deb o'ylasa kerakdir, lekin bularning zanjiri qimirlashidan ichida nima gap borligini biladigan bo'lib qolganman. Avzoyidan mehmon – mezbon o'yini ham tugaganga o'xshaydi. «Ha, bir-ikkita chiqqan», dedim yashirmay. «Lekin bizda emas», deb ta'kidladi xoldor g'uliy. Qiziq savollarni beradi-ey, kitobim albatta bularda bosilmagan, qanday ham bosiladi? «Bu yerdagi nashriyotlarga topshirmaganman», dedim. Uning tovushi keskinlashdi, «Unda nimaga olib kirdingiz?» dedi. «E-e, mashinamda bor ekanmi?», debman, o'zimizning kitoblarni o'qishga zoriqib turgan edim, kitobim kelib qolgani zo'r ish bo'libdi, deb o'yladim. Hamma yerda

ham o'zingning narsang ma'qul-da. «Men kitobni kimning topshirig'i bilan olib kirganingizni bilishim kerak», dedi u. «Hech kim topshirig'i bilan emas, o'zi kirgan». - «Kim o'zi kirgan?» - «Kim emas, kitobim. Doim mashinamda yuradi. «Dan»chilarga o'zimni tanishtirishga yaxshi» - «Bizdagi «dan»chilargami?», degan edi, zanjiri ham hushyor jiringladi. «E-e, sizda ham «dan»chi deyiladimi? Ha, to'g'ri, yo'l harakati hamma yerda ham shu harakat-da. Agar ular ham o'qiyman desa, marhamat», degan edim, xoldor g'uliy ancha asabiylandi, «Hali bizning «dan»chilarga ham o'qitmoqchi edingizmi? Topshiriqning ko'lamini keng ekan-da», dedi. Nima desam bu boshqa yoqqa burib tutib olyapti, shuning uchun to'g'ri gapirishga o'tdim. «Qanaqa topshiriq, og'ayni? Kitob o'qiladi, o'qiganga dam beradi, hayot haqida fikrlashga undaydi. Topshiriqqa balo bormi?», dedim. «Ah-ha, hamma gap ana shu undashida-da. Nimaga undaydi va bu undovni kim, qanaqa tashkilot bergan?» Hang-mangim uchdi, yo piray, mutloq xayolda yo'q narsalarni so'raydi-ya. Shunda ham o'zimni qo'lga olib, xoldorga ijikilab tushuntirdim, «Og'ayni, muhtaram g'uliy, kitob davlat nashriyotida bosilgan, ungacha ham rosa chig'iriqdan o'tgan, bir nechta muhr bilan tasdiqlangan. Hech qanaqa tashkilot-mashkilot yo'q», dedim. «Bizda muhr bosilmagan, tasdiqlanmagan, demak, taqiq kitobni mamlakatimiz hududiga olib kirgansiz. Binobarin, aniq bir topshiriq bilan. Aytmayapsizmi, demak, topshiriq ham maxfiy, maxfiymi, unda topshirgan tashkilot ham sir ochilmasligidan manfaatdor, chunki uning o'zi ham shunday. Mana, ko'ryapsizmi, yashirganingiz bilan bizga hammasi aniq», dedi xoldor ishonch bilan, zanjiri ham gapini urg'ulab, shaxdam jarangladi. Nima bo'lsa ham g'uliy-da bechora, fikr-mulohazasi ham zanjirlangan, shu g'uliylikiga borib adashyapti, har xil xayollarga boryapti. «E-e, og'ayni, bitta kitobga shuncha gapmi? Bizda minglab nusxada ochiq tarqatilgan, do'konlarda o'tmay yotibdi. Unda hech qanaqa topshiriq-mopshiriq, uni beradigan tashkilot ham yo'q. Keyin-chi, kitobim chiqqanda bizda hali sho'ro degan tuzum edi, sal mundayroq asarni dunyo yuzini ko'rsatmay olib borib tiqib qo'yardi», deb maydalab tushuntirdim. «Hech bir ish o'z-o'zicha bo'lmaydi, u tashkil qilinadi, demak, uni tashkillashtiradigan tashkilot bo'ladi», deb turib oldi g'uliy. O'zi shu

«tashkillashtirish» degan uzun yasama so'zni juda yomon ko'rar edim, bularda ham bor ekan. G'ashim keldi, lekin bunga biron tashkilotni aytmam, qutulmayman shekilli, aksiga olib hech biri esga kelmayapti, mahallamni aytay desam, hozir u qo'mitami, kengashmi yo tashkilot ham desa bo'ladimi, buni ham bilmayman. Birdan esimga Yozuvchilar uyushmasi kelib qoldi. Ha, hamma yozuvchi uning atrofida uyushgandan keyin, o'zi yozuvchilikni tashkillashtirgandan so'ng, tashkilot-da. Keyin hali ham obro'si tushmagan. Shuni aytsam, xoldorning mahfiy topshiriq deb o'smoqchilashidan qutulaman deb o'yladim. Gapni ancha uzoqdan boshladim. G'uliy kallasiga quyib olsin deb, avval badiiy asarning chegara bilmasligi, mamlakatdan mamlakatga o'tib yurishi, boshqa tilda bo'lsa, bemalol tarjima qilinishini erinmay tushuntirdim. Keyin kitobimga kirgan qissa, hikoya, novellalardan bir-ikkitasining mazmunini juda qiziqarli so'zlab berdim. U ham diqqat bilan eshitdi, hatto zanjiri ham «ma'qul» degandek jingir-jingir etib turdi. «Mana, ko'ryapsizki, hammasi yaxshi niyatli to'qima, badiiy asar, publisistik ham emas», deb, publisistikada tegib ketishi mumkin bo'lgan gaplar o'tib ketishi mumkinligini ham izohladim. Keyin uyushmamizning juda beozor tashkilot bo'lib, qiladigan ishi tinchlik bilan do'stlik o'rnatish ekanini, rahbarlari xalqlar o'rtasida o'zaro shunday munosabatlarni mustahkamlash uchun shaxsan o'zlari tinmay boshqa mamlakatlarga safarga chiqib turishlarini uzoq gapirib, lekin G'ulistonga o'zim adashib kelganim, bunga uyushma-puyushmaning aloqasi yo'qligini ham ta'kidlab, eson-omon yurtimizga qaytsam, g'uliyalar bilan ham do'stlik jamiyati tuzib, boshqa nomzod bo'lmagani uchun unga o'zim rais bo'lib, o'rtada aloqa o'rnatib ham rivojlantirishimni aytgan edim, xoldorning oq qoshi asabiy uchib, «Ana, topshiriq ham, undagi maqsad ham ochildi», deb yubordi. O'qimagan to'nka, badiiy ijod, Yozuvchilar uyushmasining nimaligini tariqcha bilmaydi. Maxsus xizmatdagilar ham shunaqa tor bo'ladimi! Qoqvosh, yo'q, metin devor! Hech gap ta'sir qilmaydi, aytganiga yopishib olgan. Undan zanjiri ta'sirliroq. Jiringlashidan issig'ingda qotgur egasining ichidagi o'ylarni bilib turaman.

Adashib keldim, degan gapni uqtirib bo'lmadi. Kim adashtirdi, birov sizga olayashil tayog'ini o'qtalib, bu yoqqa yur, deb yo'lingizni burdimi, deyishlariga javobim yo'q edi. «Oldinga to'g'ri qarab yurgansiz, hatto yo'l ham so'ramadingiz», dedi. To'g'ri, haqiqatan ham Toshkent – Jizzax yo'lidan hech qayoqqa burilmay, to'g'ri G'ulistonga kirib keldim. Yo'lda peshvoz chiqqanlarning ichida buning o'zi ham turuvdi. Lekin «Adashmay to'g'ri keldingizmi, demak, yo'nalishni oldindan bilgansiz», degan gapi mantiqli bo'lsa ham, noto'g'ri edi. To'g'ri kirib keldim, lekin, siz ham shohid, kelar manzilimni bilganim yo'q. Sal xabarim bo'lsa, mashinamni qayirib olmas edimmi? «Hammasi kitobni maxfiy uyushmaning aniq topshirig'i bilan aniq G'ulistonimizga kiritganingizni ko'rsatyapti», dedi bu gap uqmagan yana. Bilmagandan keyin, Yozuvchilar uyushmasi ham bular uchun maxfiy-da. Ko'p kitob o'qib, qomus jildlarini varaqlab, g'uliyotning fikrlash mantig'ini o'rganib olganman. Bularda birinchi tug'ilgan fikr bahsli, hali uncha aniqlanmagan bo'lishi mumkin, lekin ikkinchi fikrdanoq aniqlik boshlanadi, chunki bu fikrga birinchi fikr aniq manba vazifasini o'tagan, manba aniq ko'rsatildimi, demak, manbaga tayangan fikr ishonchli, aniq, undan keyingi fikrlar, hatto taxminlar ham, oldingi manbalarga tayangan bo'lsa, demak, hammasi shubhadan holi, xoldorning tinmay «demak»lagani ham shuning uchun, bitta fikr boshlanib, unga ikkinchisi tayandimi, aniqlash jarayoni to'xtamaydi, hammasi tamom aniqlanadi. Mashinamda o'zi kelgan kitobim, mana, ko'ryapsiz, qanaqa aniq xulosalarga manba bo'lyapti. Bularda manbaga tayanildimi, demak, u shubha, taxmin ham emas, aniq aniq fikr, narsaning o'zi yo'q, yo'qligini isbotlab ham berolmaysiz, lekin u haqdagi fikr aniqligicha turaveradi. Men G'ulistonga kitob bilan kirdimmi, demak, xufya tashkilotning xufya topshirig'i bilan aniq maqsadda kelganim aniq, tamom: yo'q, bunaqa emas deb, ming tortishmay, befoyda, chunki boshqattan boshlanadi: «Siz G'ulistonga aytmay kitob olib kirgansiz, demak, muayyan tashkilot, demak, xufya maqsad...» tarzida bir-biriga chambarchas bog'langan mantiq to'ri, to'g'rirog'i, zanjiridan chiqib keta olmaysiz, burnidan teshib buloqi

o'tkazilgan buqadek, boshingizni har qancha silkitmang, zanjirni uzishga kuchingiz yetmaydi.

O'zi g'uliyilar, siz ham tushunib olgandirsiz, mulohaza yuritish, fikrlashning juda ravon, kuchli mantiqqa asoslangani bois e'tiroz uyg'otmaydigan tizimini egallab olganlar. Biz, aytdim-ku, osmonga bulut chiqsa, yomg'ir yog'adimi, yog'maydimi, bilolmay bahslashib yotamiz, havoshunoslarimiz nari borsa, yog'ish ehtimoli bor, deb taxmin aytadilar. G'uliyning bu boradagi fikrlari lo'nda, soddaligi uchun ham juda aniq. Osmonga bulut chiqdimi, yog'ish-yog'masligi tabiatning ishi, muhimi – uning yerga soya tashlashi, chunki osmonga chiqdimi, albatta ko'lankasi tushadi, ko'lanka aniqmi, unda uning manbai ham aniq mavjud; demak, osmonga bulut chiqqanmi, demak, u yo aniq yog'adi, yo aniq yog'maydi, vassalom, boshni qotirib o'tirish shart emas. Chunki aniq manbaga tayangan fikr halqa bo'lib yakunlanadi, endi boshqa fikrga emin-erkin ulanadi, uni ham aylana, boshi borib oxiriga ulanadigan shaklda bimalol yakunlash mumkin. Yomg'ir yog'yaptimi, demak, yog'ishi aniq, unda yer ho'llanadi, yer ho'llansa, osmonda suv tushadigan bulutdan boshqa manba yo'q, demak, yomg'ir yog'yapti. Angladingizmi, oppa-oston, kitobim G'ulistonda bosilmaganmi, demak taqiqlangan, yashirin kirdimi, demak, yashirin topshiriq bor, topshiriq yashirinmi, demak, uni bergan tashkilot xufya, tashkilot xufyami, binobarin, topshirig'i ham, binobarin, maqsad, oxir-oqibat, kitob ham taqiqlangan. Aniq fikr nimadan boshlansa, yana shuning o'ziga qaytib, mustahkam halqa yasaydi va bu halqada e'tirozga yo boshqacha fikrga o'rin qolmaydi. «Ko'vanda semirgan ko'kkina qo'zim» deganlaridek, bir tug'ilgan fikr o'zini o'zi tarbiyalab, bolalab, chalg'imaslik uchun yana boshiga qaytib boshlab, boyib yotaveradi. Men o'zimizda, na ro'monu qissalarda, na tarixiy manbalarda, na qomuslarda, xullas, hech bir joyda mulohazaning bunday bekamu ko'st tugal shakllarini o'qimaganman. Agar ham qadimgi chin yo yunon manoqiblarida bo'lmasa; tan olishim kerak, tarixning juda eski sahifalari bo'yicha xabardorligim juda zaif, lekin ularda ham mantiq ilmi G'ulistondagi kabi mukammal darajaga chiqmagan, albatta.

Kutilmaganda shodlanganim

Xoldor g'uliy ham, mana, fikr boshini oxiriga ulab, mustahkam mantiq halqalari yasashga tushib ketdi, unga quloq berishdan boshqa ilojim qolmadi. Chunki u faqat menga emas, butun bir izdihomga qarab, tumonatni fosh etib tashlayotgandek balandladi, uning yoniga ko'plashib ko'tarilib, shunchaning nomidan e'tiroz bildirishga, albatta, bitta o'zimning chog'im kelmas edi.

Masalani aniqlash bundoq boshlanibdi. Eng boshida kitobimni hozir tozalash sabog'ida yurgan bir xodim o'qib, uni o'z yo'nalishlari bo'yicha xulosa berishlari uchun soha xodimlariga bergan, keyin navbati bilan saboqqa uchragan (saboq nimaligini hali aytaman) bular ham mutolaadan xulosa chiqarib, bo'lim rahbarlariga oshirgan, bular ham asarlarimni, u haqdagi xulosalar bilan birga yakunlab, yuqoriroqqa chiqargan va rasamadi bilan bulari ham saboq olishga o'tgan. Keyin albatta. Kitobim hamma lavozim darajalarida o'qilib, martabamamartaba xulosalanib, eng baland rahbargacha ko'tarilib borgan, shu tariqa hamma maxsuslar nazaridan o'tgan. O'qishi shart bo'lmagan boshqa xodimlarga ham nusxa qilingan, chetda qolib ketmaylik deganlariga nusxalardan nusxalar, hammasining yor-og'aynisi, uyiga borganda bugun nima ish qilganini tergaydigan xotini, o'rnakka intiladigan bola-chaqasi bor, qulog'i teshik qarindosh-urug'i, laqillashadigan qo'shnilari ham keragicha emasmi, xullas, shunaqa kitob kelibdi degan mish-mish bolalab, gap tarqalib, keyin nusxalari butun G'ulistonga yoyilib ketib, aytdim-ku, matbaasining oldinga ketganini, xullas, yangilikdan bebahra yurmaydigan hamma savodxon g'uliyning qo'liga borib tegibdi.

Eshitib rosa quvondim. Bunaqa nom qozonish tushimga ham kirmagan, shodligimdan qulog'im chippa bitib, xoldorning gaplarini, latta isi kelib tursa ham, eshitmay qo'ydim. Yuragim hapriqib, hatto quvonchimning o'zi ham galdiraklab qolgandek bo'ldi-ey. Men G'ulistonda shu qadar ommaviy o'qilsam! Dahshat-a! Albatta, bularga boshqa muvoziy dunyo voqealari bo'lgani uchun ham qiziqarli. Lekin, bari bir, yurtida e'tibor topmagani bois yozuvchiligiga o'zi ham uncha tan bermaydigan qalamkash birdan tanilib, tuyiqsindan buyuklashib qolsa, juda yomon

bo'lar ekan. E, bu mashhurlikka ham sig'maydigan shuhrat, nihoyatda ulkan dongdorlik-da, axir! Bunaqa dovuq jahon adabiyotidan biror yozuvchining orzusida ham yo'q, chunki hech biri G'ulistonga kelmagan va turgan gap, bu yerda asari ham bosilmagan, demak, g'uliyalar bizdan mendan boshqa hech kimni eshitmagan, bilmaydi ham. Bitta men kelganman, birgina mening kitobim tarqalgan! Muvoziy dunyoda mendan boshqa yozuvchi yo'q. Ana, mana buni ijodkorning haqiqiy baxti, yuksaklik cho'qqisi desa bo'ladi. Qoyil! Faqat... faqat, ming afsus, o'zimizdagilar bundan butkul bexabar, bir faqir qalamkashlarining tamomila begona dunyoda qanchalar... e-e, mayli, hadeb o'zimga bino qo'yavermay, bu yerda meni o'zimizda mendan zo'rlarga hech kim solishtirib ko'rmagani bilan, hali qaytaman degan umid bor, keyin uyalib yurmay, xullas, G'ulistonda shuhrat topganimni yaqin jo'ralarim ham eshitmaydi. O'zimni bosib olib, qani edi, peshtaxtalarda chang bosib yotgan kitobimga qarab xunob o'tirgan do'konchilar hozir ko'rsalar, ololmagan daromadlariga bir taskin o'rniga o'tardi, yozganlarimni uncha xushlamaydigan ustoz tanqidchimiz eshitsa, sal-pal insofga kelardi. Lekin, ming attang, boshqa dunyoda dong taratganimning o'zimizdagilarga issig'i ham, sovug'i ham yo'q. G'ulistonda o'tim chiqqanini biron g'uliy u yoqqa borib, «Ey, bu yoqda nomi varanglab ketgan yozuvchilaringga shuncha ham bepisand bo'lasizlarmi!», deb na'ra tortolmasa, qaytganimdan keyin maqtanish o'zimga noqulay, xullas, kambag'alni tuyaning ustida ham it qopgani shu-da.

Chek-adoqsiz, kimsasiz cho'lu biyobonda hech narsa yo'qligi bois hech narsaga almashib bo'lmaydigan bir xum tilla topib olgan gadoy ahvalidaman, lekin, bari bir, shuhrat shuhrat-da. Jahon adabiyotimizdan birinchi hamda yagona vakil bo'lganimdan ancha vaqt faxr va sharafiga cho'mib o'tirdim. Bu yerda yetishgan martabam u yoqqa yetib bormasa ham, o'zim guvoh, ko'rib turibman, tilla yetti qavat yer tagida yotsa ham tillalik qadri yo'qolmaydi. «Og'ayni, o'lmang! Ko'p yashang! Boshim osmonga yetdi. Bu yoqqa o'tish bitta menga nasib etibdimi, demak, o'zimda ham ancha gap bor ekan. Maxsus xizmat xodimlarini ham

zukkoliklari bilan tabriklayman, kitobim misolida bizning olam bilan aloqa o'rnatish sharafiga mustag'riq bo'libdilar. Cheksiz minnatdorman, ko'ksim ham ko'k qadar ko'tarildi», dedim. Rost-da, bu o'rinda kamtarlik mutlaqo keraksiz, ortiqcha yuk, endi meni kichkina yozuvchi degan o'yga borishlariga yo'l qo'ymasligim kerak. Keyin... istagancha o'zimni oshirsam ham yarashaveradi, chunki bunday emas deydigan bironta inson yo'q bu yerda. Asl kimligimni hech bir g'uliy bilmagandan so'ng o'zimizda shuncha yil kamsuqum yurganim ham etar. Dovruqqa, o'zingiz ko'rdingiz, men intilganim yo'q, o'zlari ko'tar-ko'tar qilib yuboribdilar. Shundoq ekanmi, o'zimizda labim ham tegmagan shuhrat sharobiga bu yerda miriqib to'yib olayin-da. Qaytib borganimda ham yo birov taniydi, yo yo'q.

Xoldor jo'ram, zanjiri tahdidli shiqirlab tursa ham, ko'zimga yaxshi ko'rinib ketdi. «E-e, og'ayni-ey, oldinroq shuni aytmysizmi, sizdan bekorga xavotirga tushib yuribman-a», deb gapini bo'ldim. E'tibor qilyapsizmi, uni ham g'uliychasiga xursandligim domiga tushirib olyapman. Nechog'li buyuk martabaga chiqqanimni bilib, shodligimga sherik bo'lsin, hammayog'i gumon bo'lgan halqasining gardishidan bu yoqqa chiqsin degan ma'noda. Albatta, o'zimizga qaytib, ko'p yillar o'tgandan keyin hayajonlarimning hammasi puch, mashhurligim ham hatto ko'zga ham ilinmaydigan sarob ekanini angladim, o'shanda ham sezgan edim-u, lekin ataylab bo'ynimga olmagandim. Tanilish, nom qozonish, dovruq taratish istagiga yetish kuchi xoldor g'uliy qo'poruvchilik deb baholayotgan xatti-harakatlarimni ham endi jazolab bo'lmaydigan juda baland martabaga ko'tarib yuborgan, ya'ni gunohim ham nihoyatda purviqor bo'lib, endi hech qanday jazoning haddiga sig'mas edi. Shuning uchun o'zimni bemalol tutib, xoldorning tergovga o'xshagan savollariga qo'rqmay va bir oz masxaralab ham javob bera boshladim.

Uning aytishicha, mahoratim nechog'li teran ekanini boshda o'qigan mas'ul g'uliyalar sezmay ham qolibdi. O'qib chiqqanlaridan keyin nimaga fikrimizni ohanrabodek bir narsa kengliklarga tortib ketyapti, nima uchun bunaqa ta'sirlanib

qoldik, deb razm solsalar, bu ta'sir tubdan, jumalarning tagidan sizib chiqib, o'qigan g'uliyning ongosti sezimlari, aqli zamiridagi shuurlarini buzib, doimgi tinch ko'nikmalariga putur yetkazayotgan ekan. Qarang-ey, qanaqa teran tadqiq qilganlar - xoldorni tor bir nodon deb yuribman-a. Bo'lmasa, vazifasi mutlaqo boshqa - maxsus xizmat, bog'cha yoshidan nazoratga olib, tarbiyasiga kirishmasa, bunday zakiy xodimlarni yetishtirish juda qiyin. Aytdim-ku, hali o'zimizda tanqidchilarning professional ham meni bunaqa yozuvchi demagan, ijodimni umuman pisandga ilmagan. Yaqin do'stlar ham u-bu degani bilan, ko'ngil uchun. Hammasidan ham shunday balo iste'dodim borligidan o'zim bexabar yurganimni aytmaysizmi! Bularning ijodimni shunchalar yuksak baholaganlariga o'zim ham qoyil qoldim. Uzi, «ijodim» deyapman, bu so'zni ishlatishga haddim sig'may, «mashqlarim», «yozuv-chizuvim» deb yurar edim-u, ammo bu yerda obro'yim oshib ketganidan bemalol qo'yib yuboryapman. Xoldor jo'ram ana shu ma'noda maqsadimga erishganimni ham aytgan edi, yana tashakkur bildirdim. «Kitobingiz ta'siriga uchragan g'uliyning ko'pligidan ularni tozalash sabog'iga o'tkazishga uzundan ham uzoq navbat tuzilgan», degani mayda gap tuyulib, tagini o'ylamay, qanaqa navbat bo'lmasin, ijodim uchun ekan-ku, deb battar g'ururlandim. «Juda yaxshi, asar yozishdan maqsad ham uni o'qiganga hayot, dunyo haqida ta'sir o'tkazib, o'zi qanday yashayotganini tanasiga yana bir o'ylatish», deya balanddan qarab nasihat qildim. «Ana, endi nima maqsadda keltirganingizni bo'yingizga olyapsiz», dedi xoldor g'uliy o'sha oq qoshi zanjiri bilan birga titrab. Gapidan zahar sirqigani parvoimga ham kelmadi. «Ha, shundoq, xayrli maqsaddan hech bo'yin tovlamayman. Faqat kitobimning emas, umuman badiiy asarning maqsadi buyuk – u ma'rifat tarqatadi, kitobxonga hozirgi yashayotganidan boshqaroq, yanada yaxshi yashashdan saboq beradi. Lekin meni ja-a saboqdan tahsil beradigan ustoz adib deb o'ylamang, har qanday yaxshi yozilgan asarning maqsadi ham o'zi shu», dedim hech bir shubhayu gumonga o'rin qoldirmay, aniq qilib. Oldimda qisinib, dovdirab o'tirmasin dedim-da. Xoldorning ham chehrasi yorishdi: «Nihoyat-e, qanchalar mohir bo'lmang, bari bir, aldamayapsiz. Ammo biz ham piximizni yorganmiz, hamma yozganlaringizni so'zma-so'z, jumlama-jumla, har

bir kalom ostidagi ma'nolarigacha batafsil aniqlab chiqdik», dedi. «Juda katta e'tibor bu, bir musofirning o'z yurtida ro'shnolik ko'rmagan qalamini shuncha e'zozlash!», deb yana to'lqinlandim. U yoqda kun ko'rmay, bu yoqda chirog'i palpillab yongan yozuvchi, g'ururimni bosib ololmayman, xoldor jo'ram hay-hay degandek zanjirini tindirmaydi; ikkalamiz ham kitobim g'uliylarga o'tkazgan ta'sir halqasi bo'ylab aylanib yotibmiz.

O'zimning xayolimga ham kelmagan pinhona ijodiy izlanishlarim, yashirin kashfiyotlarim yana talay ekan, lekin bular ham pista chaqqandek aniqlab tashlabdilar. Xoldor hammasining nomidan: «Tilsimli nasr», deb xulosaladi. Qissa, hikoya, novellalarimda men tasvir, kechinma, harakatlarni berish uchun e'tiborsiz yozib ketgan shunaqa so'zlarni aytdiki, ularda g'uliyotni ta'sirlashga qaratilgan zamonaviy tilsimlar bo'lib, hammasi muayyan shifrlar bilan kodlangan ekan. Mana, «osmon», «bulut», «qushlar», «keng dala», «so'lim ma'vo», «tizginsiz o'ylar», «parvoz», «yugurish», «intilish», «talpinish»ga o'xshagan o'nlab, balki yuzlab so'zlar g'uliyning qat'iy ko'ngliga, hozir aytganimdek, tubdan, taglama ta'sir o'tkazib, o'z hayotini yana bir marta tanasiga o'ylab ko'rishga undab yuborar ekan. Shuning uchun ham kitobimni o'qiganlarni tozalash sabog'idan o'tkazish uchun navbatlar tuzilgan, saboqdan o'tgan va o'tmaganlar orasida katta ixtilof chiqishi xavfi etilib kelayotgan ekan. Nihoyat shuni aniqroq bilish kallamga keldi. «Boyadan beri ikki-uch qaytardingiz, bu sabog'ingiz nima o'zi, kitobimning ta'siri bo'yicha dars o'tiladimi?», deb so'ragan edim, xoldorning rangidan qoni qochib, zanjiri ham shalvirab qoldi. «Kitobingizdan ta'sirga uchragan hamma tozalash, ya'ni zanjirsizlik sabog'idan o'tishga mahkum! Siz ma'lum tilsimli so'zlar bilan hamma g'uliyning dunyoqarashi, o'ziga qarashini zaharlagansiz, endi bu zahardan tozalash uchun unga yana shu zaharni berish kerak. Ular zanjirsizlik qiynog'ini amalda ko'rib, nafratga uchrab, xor bo'ladilar, o'lmay qolganlarini keyin maxsus komissiya zanjirga loyiq yo loyiq emasligini ko'rib chiqadi», deb tushuntirish berdi. Bu gapdan o'zim ham dahshatga tushdim, xudo ko'rsatmasin, - hu hali bularning orasida, ko'chada zanjirsiz yurib ko'rdim-ku, g'uliy kitobxonlarim katta

musibatga uchrabdilar. «Xo'p, shuni navbat tuzib, qiynoqni cho'zguncha, hammani birdan tozalasa-chi? Vaqt, xarajat ham tejaladi, kutish azobi yengillashadi», dedim. «E-e, yo'-o'q, - dedi xoldorvoy. – Bu yog'iga sizga hushyor turamiz. Hamma o'qiganning zanjiri olib tashlansa, zanjirsizlarning solishtirma miqdori oshib ketadi, keyin hamdardlik kuchayib, eshkilga qarash o'zgaradi. Siz shuni ko'zlagansiz. Zanjirlilar sonini zanjirsizlardan kamaytirishga aslo yo'l qo'ymaymiz». «Unda siz nima uchun zanjirda yuribsiz. Nimaga navbatingiz orqada?», deb uzib oldim. Xoldor birdan ma'yuslandi, derazaga juda ezilib qaragan edi, hammasini tushunib, o'zim ham cho'kib ketdim. «Bari bir, boshingizda shu ko'rgulik bor ekan-da», deb ko'ngil so'ragan bo'ldim. «Sizni to'liq o'rganganimdan so'ng, o'zim ham burchimni ado etishga o'taman. Ammo yana shu sharafiga loyiq ko'rilishimga ishonaman. G'uliston unga qilgan xizmatlarimni unutmas», dedi u boshini mag'rur ko'tarib. Ko'rib turibman, sinini bildirmasa ham, ichi to'kilib, yig'lab yuboray deyapti. Men esa boshqa sababdan qiynalyapman. Ko'p g'uliyga kelgan to'y ekan-ku, lekin xizmatchi g'uliyamning ahvoli nima kechadi, undan ayrilsam, u bechora meni ko'rmay ne-ne azoblarga uchramasa hali. Yo zanjirini olib tashlashsa ham xizmatimda qoldirarmi ekanlar? Sekin pardalab, o'zimga uncha aloqasi yo'qdek bir beparvolik bilan: «Bu, haligi... menga choy damlab kirib, ul-bul qarashib yurgan pokiza qiz... nimaga qiziqib qoldi deb tag'in ko'nglingizga kelmasin... xullas, uning taqdiri nima bo'ladi? Sabog'ini shu yerda o'tab, xizmatini qilib yuraversin. Mayli, u zanjir taqadimi, yo'qmi, menga farqsiz», deb o'smoqchiladim. «Uning o'rniga saboqni o'zim olsam ham bo'ladi», deb mardlik ham qilib yubordim. Xoldor g'uliy tirishib iljaydi-da: «Shuncha qilayotgan sabog'ingiz ta'sir o'tkazmagan, endi o'tkazadimi? Qizimiz bilan ishingiz bo'lmasin, shusiz ham u nihoyatda muhim topshiriq bilan band. U hozir sizning samimiyatingizni o'rganyapti. Zanjirsiz odamning sevgi-muhabbat holatidagi kechinmalarini tadqiq etish bo'yicha yashirin davlat dasturini bajaryapti», dedi. Angrayib qolibman, u bilan aloqamizni chuqur bir sir deb yursam, hali bu ham zanjirband g'uliya qiz bilan zanjirsiz odam o'rtasidagi ishqiy munosabatlarga bir tajriba ekan-da! Dasturingdan o'rgildim! Hali sizlarga sinovchi oshiq bo'lib

qoldimmi, deb bir achchig'im keldi-yu, lekin tishimni tishimga bosdim. Chunki zanjirsiz erkin odamzot vakili sifatida tanlangan ekanmanmi, mardligimni ham ko'rsatib qo'yishim, ya'ni past tushmasligim, xizmatchi qizga nisbatan tuyg'ularimning samimiyligini bildirishim shart. Masalada, kalla ishlaymay, o'zim ham chuqur ketib qolganman. Lekin, albatta, kelib-kelib shularga tajriba bo'lganim ancha botdi.

Xoldor g'uliy ham buni sezdimi, yana qanchalar ustomon yozuvchi ekanimni ta'kidlashga o'tdi. Kitobimning tagiga chizilgan jumllarini ko'rsatdi, to'g'risi, bo'yalmagan so'zning o'zi yo'q, hammasida ham zanjirsiz yashashga da'vat pinhon, erkin hayot chorlovlari xufya, ana shu yashirinligi bilan ham o'qigan g'uliyning his-tuyg'ularini ag'dar-to'ntar, g'orat etib, tozalash sabog'iga to'g'rilab qo'yar, saboqda esa hammasi zanjirsiz bo'lgani bois bu beboshvoqlik kuchayib ketar ekan. Eng yomoni, kitobimda bironta qahramonning zanjiri yo'q, aqalli nomiga bo'lsa-da, kishanlanmagan bo'lib chiqibdi. G'uliston tarixida zanjir falsafasiga qarshi so'zlar qatida bu qadar yashirin, umumiy manzaralar bunchalar pinhoni tashviqotli kitob hali yozilmagan, endi esa charos charosni ko'rib chumak urgandek, birniki mingga, mingniki tumanga, bolalab ketib, mamlakat kelajagini xavf ostiga qo'yishi mumkin ekan. Ko'ryapsizmi, qanaqa dahshatli yozuvchi bo'lib chiqqanimni! O'zim ham o'zimdan qo'rqib qoldim. «E og'ayni, oshna, bizda hamma erkin odam, binobarin, kitobim hayotning oynadek aksi, demak, undagi qahramonlarimga zanjir taqish ham kulgili. Bizda bunaqa odam hayotda tugul, xayolda ham yo'q. Faqat juda qopong'ich itlar, nihoyatda semirib, arqonga bo'y bermaydigan bo'rdoqi buqalarga zanjir solinadi. Telba-jinnilar zanjirga solib, davolangan deb eshitganmiz-u, lekin bu ham uzoq o'tmishda. Qahramonlarimning erkin yurishi tabiiy, hayotning o'zidan olingan. E-e, qo'ying, mahoratimni, mayli, aytmang, shuncha mehmon qilganingiz ham etadi», deb o'zimni kichkina oldim, yana: «Mashhurlikdan ham to'ydim lekin», deb qo'shib qo'ydim.

Xullas, sirti kitobim haqida tahliliy mulohazalar, ichi asli tergov bo'lgan munoqasha - fikr olishuvimiz uzoq cho'zildi, men kitob o'qish xayrli yumush deb

turib oldim, xoldor esa yozganlarimdan yashirin ma'nolar chiqarishdan charchamadi. Xullas, men bularning mamlakatiga xufya reja va yashirin topshiriq bilan nihoyatda ashaddiy niyatda o'z nomimdan kitob yozib, juda ustomonlik bilan kishibilmas qilib olib kirganman va bular ham bilmay o'qib qo'ygan va xuddi o'sha mo'ljalim bo'yicha, kitob misoli bir vabo kasalidek hammasiga yuqqan, faqat o'qiganlar emas, eshitganlar ham shu baloga chalingan.

Xoldor buni shunaqa lo'nda aniqlab berdiki, o'zim ham ishonib ketdim. Adashib kelib qoldim deb yana xatosini tuzatmoqchi edim, xoldor buni ham chaparosta etib tashladi, quloq soldim. Haqiqatan ham, aytdim-ku, Toshkent – Jizzax yo'lidan to o'zim to'xtagan «DAN» manziligacha birov yo'limni burgani yo'q, o'zim yurdim, o'zim keldim, mashinaga manzirat qildilar, qarshilik ko'rsatmadim, qayoqqa olib boryapsizlar deb so'ramadim, mehmonxonada ko'rsatgan izzat-ikromlariga ko'nglim to'ldi, xizmatchi qiz bilan ham «yur» deb majburlaganlari yo'q, hammasi o'zimdan, bularning to'riga ilinib qolgan bo'lsam ham, o'z ixtiyorim bilan. Boshda shundoq ustomon yozuvchiligimni bular bilmay qolganiga kelsak, hozir bergan baholari moydek yoqayotgan bo'lsa-da, boshda butkul xabarim yo'q edi.

Faqat menga bir zararkundaga qaragandek qarashlari botmayroq turibdi, lekin kitobimni o'qib tozalash sabog'iga mahkum bo'lgan shuncha g'uliyning orasidan tarafdorlarim ham chiqib qolib, yonimni olar degan umid ozgina taskin ham beryapti. Xoldorning o'zi aytyapti-ku, saboqdagilar ko'paysa, zanjirga qarash o'zgaradi, erkinlikka intilish kuchayadi deb. Balki zanjirsizlikni o'ylaydiganlarning solishtirma miqdori chindan ham oshsa, men ularning lideriga aylanamanmi, kim biladi, xudoyimning karami keng, bular tanimagani bilan meni marhamatisiz qoldirmas, axir. Shuncha suvu qushlarini u yoqdan bu yoqqa o'tkazib qo'yibdi-ku.

Men o'zi umuman har qanday ko'rgulikni sinov deb, boshga tushgan azobga bardoshim bilan yengishga intilaman. Bu yoqqa kelganim ham, kim biladi, balki o'tashim kerak bo'lgan bir imtihondir. Balki xudoyim meni mashhur qilishdan oldin G'ulistondagi shu og'ir shuhrat mashaqqati bilan bardoshimni sinab ko'rayotgandir. Chunki bu yerdagi dong taratishimdan o'zimdan boshqa hamma

bexabar, u yoqda bironta g'uliy yo'qmi, demak, shuhratim hisob emas-da. Xudoyim menga o'zi yo'q shuhratni berib qo'yib, asli o'zi kelsa boshi aylanib qolmasin deb sinoqqa olayotgan bo'lsa ham ne ajab?!

Xullas, xoldor g'uliy kitobimga o'ylab topilgan gunohlarni taqashidan o'zim bilan hisoblashib qolganini ham angladim, undan keyin ko'nglim sal yorishib, faqat mahoratinga emas, umuman, bu vaziyatdan chiqib ketishimga ham yana umid paydo bo'ldi. Xoldor nimadadir ancha pastladi, o'zim esa balandlab, ancha xotirjam tortdim. Xizmatchi qiz xizmatda boshqa ko'rinish bermay, chiroq ham boshqa o'chmay qolganiga ham oqillik bilan qaradim.

Yo o'zimga bir narsa bo'ldimi ekan

Bir kuni bog'hovlida yolg'iz sayr etib yurganimda lop etib keliningiz esimga tushsa! U menga hamishagidek juda yaqin tuyuldi, xizmatchi qiz esa uzoqlashib, xuddi begonadek bo'lib qoldi. Ana, u ichkarida, lang ochiq deraza orqasida ishini qilib yoki bekorchilikdan menga termulib o'tirgan bo'lsa ham, juda-juda olisda, hatto menga xizmat ham ko'rsatmagan, bu yerdagi chiroqlar ham hayotda o'chmagandek. Vijdonim ham sal-pal og'ridimi deyman, yo'q, kap-katta, bolaparvar odam, nima jin urib g'uliy qiz bilan don olishib yuribsan, deb emas, bolalarimning o'zi ko'z oldimga keldi-da, bu yerdagi hayotimni sal xiralashtirdi. Yuragim ham achishgandek. Uyni sog'inibman. Er bag'irlab uchayotgan kumush po'stak Pahmoq – Ahmog'im taqqa to'xtab, ikki panjasini ko'targancha tilini osiltirib, «Qachon kelasiz?», deb so'rayotgandek ko'zimga ko'rindi.

Ana shunda g'uliyot falsafasi bo'yicha, nima boshlanmasin, oxirida yana shu boshiga qaytadi degan aqidani o'yladim-da, bu - hayot haqiqati, kelgan ekanmanmi, demak, ketaman ham degan najot mujdasiga chambarchas yopishib oldim. Shundan keyin, xoldor g'uliy bilan suhbatlarim tobora tahdidli tus olsa-da, «E-e, nari borsa, otib yuborarsan», deb ishonch bilan qo'l siltagan edim, o'pkam bosilib, kunlarim tinch, ravon o'ta boshladi.

Faqat maishatim bir oz tortilib qoldi. Chinni lagandagi sarxil olmalar og'rib to'kilganlariga almashti. Ichg'u kelmay qo'ydi, xoldor g'uliy bilan suhbatlarimiz tobora chuqurlashib, ma'nosi ravshanlashib borsa-da, quyg'u «to'qishtirmay» qo'ydik. Kunlar diqqinafas, ko'nglim ziq, kitobxonlik shashtim ham so'ngan. Jildlarga har qancha tikilmay, bitta jumla ham xotirimda qolmaydi. G'uliston hayotini har taraflama jiddiy o'rganmoqchi, hali adabiyoti, san'ati, kinosi, ayniqsa qo'shiqchiligi haqida sizga ko'p gapirib bermoqchi edim, bitta kitobimga shuncha vahimani ko'tarishgandan keyin, bularning nimasini gapiraman deb hafsalam tamom o'ldi. O'zlaridan ko'rsin, o'rgansam, shunaqa hayot, shunaqa san'atlar ham bor ekan, deb aytib yurar edim, endi eshitishga ham hushim yo'q. Lekin qoyil, bitta narsani ham kavlayversa, tagidan ko'p narsa chiqar ekan, zanjir

mavzuida, unga bag'ishlangan nasr, nazm, qo'shiq, musiqalari shuncha rang-barangki, muncha gapu hayajonni qaydan topadilar deb lol qolasiz. U yog'i ham, bu yog'i ham, uzunasiga ham, ko'ndalangiga ham - hamma-hammasi g'ul, zanjir, unga sallamno, madhiyalar. Erinmaganlarini! Shundoq zanjirga qarasalar bas, so'ragan narsangizni to'qib tashlaydilar, she'rmi, hikoyami, ashulami, farqi yo'q. Televizorda shoirlarini ko'rganman, she'r o'qiyotgan paytlarining o'zidayoq lablarining qimirlashidan miyalariga boshqa she'r quyilib kelayotgani bilinib turadi; mashshoqlarining qo'liga bir nima tutqazsangiz bo'ldi, chalib tashlayveradilar, hech narsa topilmasa, aytdim-ku, zanjirning o'zini ham shunaqa kuylarga soladilarki! Bizda bitta muhabbat mavzusi, o'ldim-kuydimdan nariga o'tilmaydi, to'yda pul yog'ilsa, etadi shu. Raqslari.... e-e, bitta do'mbira jo'rligida jingir-jingirga shunaqa o'ynaydilarki, qarab turgan odamning boshi aylanib ketadi.

Bir kuni xoldorga jiddiy aytdim, «Og'ayni, shuncha g'uliy bezovta, maxsus xizmat ovora, undan ko'ra, so'ranglar, yozuvchi bo'lsam ham, oddiy odam, topshiriq-mopshiriqqa aloqam yo'qligi ma'lum bo'ladi-qo'yadi», dedim. Xoldor astoydil hayron bo'lib: «Kimdan?», deb so'radi. «Kimdan emas, yurtimdan», deb unga qattiq tikildim. Bularning shu, odamning ko'ziga qaramagani yomon-da, ko'nglidagi gapni bilish qiyin. «Qanaqa yurtingiz?», deydi to'nka. Har qanday odamning ham yurti bo'ladi-da, axir. «Qanaqa deganingiz nimasi? Men kelgan joy, o'zimning yurtim, tug'ilgan, unib-o'sgan makonim, o'lan to'shagim ham deymiz. Biz bilan bog'lanib turadigan robitalaringiz bor shekilli. Shekilli emas, aniq», dedim e'tirozga o'rin bermay. Xoldor sarosimalanib, rostmi-yolg'onmi, «Robita-pobita yo'q. Sizlardan hech kim bilan aloqa qilmaymiz. O'zi qayerdan kelganingizni bilolmay yotibmiz-ku», deb tan oldi. «Bitta yo'l, kirgan joyimning boshi, ya'ni nari yog'i. Burilmay, to'g'ri kelaverdim-ku. Nimaga bilmaganlikka olasiz?», dedim. «Gap shundaki, shu yo'lni qarichma-qarich oxirigacha tekshirib chiqdik, lekin siz kelgan yurtmi, joymi, shuning uchi topilmadi, ha, aniq, yo'q», dedi xoldor g'uliy chaynalib. «Iy-e, unda men qayerdan kelgan bo'laman? Mana, borman-ku, oldingizda o'tiribman. Sizlardan emasman, zanjirim yo'q. Demak, aniq

boshqa yurtdan kelgan bo'laman-da, axir», dedim, o'zga olamdan desam, yana chalkashmasin deb. Xoldor uh tortdi, lekin aytganidan qaytmadi. «Rosa tekshirdik, biron xatoga yo'l qo'yib qo'ymaylik, deb juda chuqur qaradik, lekin yo'q, bari bir, yo'q ekan», deb qat'iy xulosa qildi. «Xo'p, o'sha oxirigacha tekshirgan yo'llaringning oxirida hech narsa yo'q ekan, unda o'rnida nima bor chiqdi? Yo'qning o'rnida ham bir yo'q narsa bo'lishi kerak, butun boshli mamlakat yo'qlikka yo'qolib ketmaydi-ku» deb men ham tixirlik qilib turib oldim. «Chegara», dedi xoldor. «Xo'p, chegara, nariyog'i-chi?», dedim. «Nariyog'i ham chegara, u chegaradan keyin ham chegara. Xullas, u yog'i ham faqat-faqat chegaralar», dedi xoldor.

Ana shundan keyin qo'rqdim. Yurtim emas, o'zim... yo'qolganman deb esim chiqib ketdi. G'ulistonda yurishim, xudo ko'rsatmasin, haligi, tilim bormayapti, e-e, xullas, o'sha yomon narsadan keyingi hayotga o'xshagan narsa bo'lib chiqsa-ya? Nahotki baland tog'lar ham past kelib a... u yoqda qiyomat qo'pgandir. Ha, osonmi, butun boshli, kap-katta bir odam, yana yangigina mashinasi bilan tag-tubsiz yo'qoladiyu tinchlik qoladimi! Bola-chaqamni olib kelaman deb, Toshkentdan Jizzaxga qarab yo'lga chiqqan-u, shu bilan yo'q! Jizzaxdagilari bir kun yo'l qaragan, ana, ikki kun ham deylik, o'zi bitta yo'l, ikki yuz chaqirim ham chiqmaydi, burilish-murilishi yo'q, Jizzaxga kelmay, qayoqqa ham ketadi, Samarqandga borsa ham tushib o'tardi, albatta, bir gap bo'lgan, deb Toshkentga sim qoqadilar, qachon chiqqan, kim ko'rgan, yomon odam ko'p, kira qilaman, demagan edimi, unda nimaga shuncha vaqtdan beri o'zi ham, mashinasi ham domdaraksiz, ha, oq «no'l to'qqiz», sal sut tovlanishi bor, birov unday degan, boshqa birov bunday, hammasi xuddi o'zi ko'rgandek, Yonimda o'tirib ketgandek taxmin qiladi, lekin hech biri anig'ini bilmaydi, eshitmagan ham, bari shunchaki yaqinlarimga bir narsa deyish uchun aytiladigan tusmol umidli gaplar, lekin, albatta, ko'nglida menga achinish, «Sal o'pkaroq, bema'niliklari ham bor edi, lekin kimning xatosi yo'q, bari bir, yaxshi yigit edi bechora», deb o'ylashadi, keyin o'z aqllaridan kelib chiqib: «Shu zamonda ham Jizzaxga yolg'iz, yana rulda bir o'zi

ketadimi, a?» deb kuyinadilar, xuddi boshqalar «no'l to'qqiz»ga sakkiztalashib tiqilib yuradigandek. Keyin, turgan gap, o'z boshlariga shunday kun tushmaganidan qoniqish. Buni ochiq aytmaydilar-u, lekin butun kuyinishlarining tubida shu mamnuniyat yotadi. Lekin yaqinlarimga og'ir, ha, chindan og'ir bo'lgan. Ming chaqir, baqirib yig'la, bari bir, men yo'qman. Yomonlik qilgan, ozor bergan kunlarim ham endi nihoyatda zavqli, sog'inchi yurakni entiktirib yuboradi. E xudo, yurgan edi-ku baqirib-chaqirib, dilozorligi ham o'zimizniki, ko'tarar edik, biz-ku yashayveramiz, bolalari ham bir kuni katta bo'ladi, xotini ham... ha, mayli, e-e, o'ziga jabr, juda yosh ketdi-da, deb o'ksinadilar. Balki, ko'p kun o'tib ketyapti, ma'raka-parakalarimni ham o'tkazib yuborishgandir. Lekin pul yo'q edi-ku, xarajatni ukam ko'tardimikan? Uning ham maishati o'ziga yarasha edi, kichkina odam bo'lganim bilan yig'inim katta o'tadi. Hammasi ham mayli, o'zimni aytmaysizmi, bu dunyoda nimani ko'ribman, nima ish qilib ulguribman, qirqdan ham oshib, nima karomat ko'rsatding desa, javobim yo'q. Joni uzilayotgan odamning ko'z oldiga oq ot kelar ekan, bilganlar: «Ha, mana, bizning ham tulpor keldi endi», der ekan. Endi ot ham oq «no'l to'qqiz»ga zamonaviylashgan bo'lsa-ya! Unda, deyman, o'zim bilan keldi-ku. Xullas, uh-h, yurak muzlab ketadi. «Ey, men tirikman, mana, faqat boshqa olamda yuribman. Sizlarga ko'rinmaganim bilan, borman. Muvoziy dunyolarni o'qigansizlar-ku, o'shanaqa joydaman-da», deb baqirgim keladi, lekin tovushim o'zimizga etib bormaydi-da. Xullas, dahshat-ey!

Shunaqa gaplarni ko'z oldimga keltirib, paqqos ishonaman, o'zimga achinganimdan o'krab yig'lab yuboray deyman-u, chuqur-chuqur nafas olib, o'pkamni bosaman. Hammasidan ham bari bir unutilishim botib ketadi. Shu ekan-da, a, odamning hayoti, yugurasan-yelasan, bola-chaqa deysan, qarindosh-urug', hamyurt-hamqishloq, bolasini o'qishga kiritsa, o'zi ham qo'shilib oylab yotib oladi uyingda, o'zing yemay yedirasan, hammasiga xizmating singadi, lekin senga bir narsa bo'lsa, boshida kuyib-pishadilar, e-e, boringki, yaxshi odam edi ham deyishsin, lekin keyin yashayveradilar-ey. Xuddi menga hech narsa qilmagandek,

ya'ni o'zim ham aslida bo'lmagandek. Agar ham bitta-yarim marosimimda eslab turishlarini aytmasa. He, unda ham og'riqsiz, taqdirga tan berib, el ko'zi uchun, mana, hali ham yig'lab turibmiz, deb; rostdan, o'lgunlaricha aza tutmaydilar-ku. Tiriklar yashashi kerak. Ketgan odam, bor edi, kechagina yurgandek edi, endi yo'q, xuddi qaytmas uzoq safarga chiqqan, o'zi asli ham bo'lmagandek tuyulib qoladi.

Shularni o'ylashga ham qo'rquyapman-u, lekin qo'yindimni qayerga qo'yishgan bo'lsa degan o'y kallamdan ketmaydi. Albatta, jasadim yo'q, e yo'g'-e, xudo saqlasin, borman, faqat bu yoqda, o'lmaganman, lekin ular aza ochgandan keyin biron belgini ham o'ylashgandir? Faqat menga emas, shu jonkash-jafokashlarimning o'ziga kerak-ku. Begona yurtda domu daraksiz yo'qolsang, ya'ni o'zingnikilar o'lgan deb o'ylasa-da, yurtingda senga hatto mozorda ham makon qilinmasa! Bunga chidab bo'ladimi! Men, axir, qirq besh yil yashadim zaminda, bu bor o'tmish, mening tarixim, uni o'chirib bo'lmaydi, shunday ekan, bironta izim ham turishi shart-da. Yaqinlarim shuni o'ylashgandir deb umid ham qilaman yana. Hech bo'lmasa, o'zlari uchun, yo'q esa hayitlarda ruhimni yo'qlab qayerga boradilar? G'alati-ya, o'tib ketasan-u, lekin yaqinlaring har zamon-har zamonda boshingga borib yig'lab turishlariga manzil tanlayman deb kuyinasan. Javobni u yoqda bersang, farqi nima senga? Bari bir, bu olamdan uzilging kelmaydi. Tamom o'chib ketmay, mendan biron belgi, yodgorlik tursin yurtimda der ekansan-da. Undan ham qizig'i – o'zing tirik bo'la turib, qabringga joy izlab o'tirsang. E-e, bas-e, farishta omin demasin!

U emas, bu emas, Toshkentdan Jizzaxga qarab ketayotganimda yo'lda bir narsa bo'lgan deb ishongan edim. Lekin shu qiynalib o'ylayman, biron belgi, asorat topolmayman. Hammayog'im bus-butun, biron qirilgan yo tirlangan joyim yo'q, yo'l ham ravon, faqat gursillashi bor, ammo ko'p qatnaganimga, u ham o'rganish... qarichma-qarich esimda, ayniqsa bu yoqqa o'tgandan keyin mayda qum, yo'q, gard to'shalgandek yumshoqqina edi, qulog'imda unaqa biron urilgan-purilgan tovush-povush qolmagan, demak, biron ishal chiqmagan, bo'lsa, hozir bunaqa, odamga

o'xshab o'ylanib o'tirmas edim. Boshim ham zarb emagan, xotira joyida. Qayerda, nima bo'lgan bo'laman?

Xullas, qancha o'ylamay, kallamga tuzukroq bir taxmin kelmaydi. Dunyomdan ayrilganim aniq, yagona-tanho, cheksiz-chegarasiz yolg'izlik ichida nigoron yuribman. Xoldorni hamsuhbat desangiz, bu ham endi dudmol gaplarga o'tib olgan, kavlashini qo'ymaydi. Xizmatchi g'uliya bilan gaplashmaymiz; chiroqqa ma'noli qarab qo'yib, indamay kiradi, yana shunday xuddi tiliga muhr urilgandek chiqib ketadi. Ilgari choyni alohida, ovqatlarni alohida tashib, kirish-chiqishini ataylab ko'paytirgan bo'lsa, endi hammasini bitta katta patnisga solib keladi, shu bilan yig'ishtirib ham ketadi. Oldinlari dasturxon yozgan yoki choy uzatgan bo'lib, albatta u yer-bu yerimga teginib qo'yar, shunda nafasi yuzimni siypalar edi, endi buni tushimda ko'ryapman. Sevgimiz ham yonib, endi kuli o'chib, uchib ketdi shekilli.

Shu kunlari yana qochishni o'ylaydim. Uncha qiyin emas, mana, bog'hovli, ana, daraxtlar panasida kichkina temir eshik, ochib chiqsang, sal olisda ot o'tlab yuribdi, pusib borib minib olasan, keyin hayyo-huyt, olam seniki! O'tirib olib ko'p xayol qilganman, erkinlikning gashtini ham surganman, lekin keyinidan qo'rquv bostirib keladi: ot qo'yib borib qayerdan chiqaman? Chegaraning u yog'i o'z yurtim emas, haligi aytganim, muvoziy olamning G'ulistonga qo'shni yana bir mamlakatiga tushsam, u yerdagi davlat bular bilan soz bo'lsa-ku, xo'bu xo'b, meni bu yoqqa qaytarib topshiradi, lekin orasi buzuq chiqsa, ana, unda ko'raman mashmashani. Bu yerda beozor kitobimga shuncha vahima, u yoqda bunaqa shubqalar holva bo'lib qolar! G'ulistonning shpioni degan aybni bo'ynimga qo'yib, bir umrga kesib yuborishi ham mumkin.

Shu uchun qochish fikrini faqat o'ylab qo'yaman, lekin, aytdim-ku, yana baloning boshqasiga uchrab qolmay deb, bog'hovlidan tashqariga bir qadam ham bosish yo'q.

Faqat qo'lim hech bir ishga bormaydi, kitob o'qish, kasseta ko'rishga, aytdim-ku, xushim yo'q, televizorga qarasam, nuqul yuragim toriqadi, bog'hovliga chiqaman, besh-o'n daqiqa kezib, sabrim chidamaydi, yana o'zimni ichkariga uraman. Nimanidir kutaman, tabiatga qarasam, u ham bir narsalarga intizordek. Olma tap-tup to'kiladi, barglari shalp-shulp tovush beradi, terak barglari shivirlab qoladi, yerda musicha pildirab, g'u-g'ulaydi, xizmatchi g'uliyaning shipillagan qadamlari eshitiladi, osmon ochiq bo'lsa-da, shamol guvillab bulut haydaydi, lekin razm solib qarasangiz, bari bir, hammasining zamirida tinchlik, huvillagan tubida sukunat, menga bularning bari «sabr-sabr» deyayotgandek tuyuladi.

Ey, qodir xudo, deyman-u, nima so'rashimni bilmay, ixtiyorimni shunday o'ziga topshiraman. Ha-a, endi boshingga mushkulot tushganda xudoni eslab, musulmon bo'lib olasanmi deb, o'zimni yanaman-u, yana egilikning ham, tavbaning ham kechi yo'q deb, xijilligimni ko'ngil ibodati bilan tarqatishga intilaman.

Vaziyat o'zgarayotgan ekan

Shunday kunlarning birida, oradan qancha vaqt o'tdi, esimda yo'q, xuddi yillar kechgandek, xizmatchi g'uliy choyini ko'tarib kirib, kutilmaganda ko'zimga tik boqdi. Kuppa-kunduz kuni, chiroq ham o'chmay, yop-yorug'da birinchi marta menga shunday qarashi. Yuragim shuv-v etdi. «Mana, hukm ham chiqarilibdi. Xo'sh, shu ekan-ku, bu ham qismat-da endi», deb taqdirimga tan berdim. Nigohlarimiz ma'noli to'qnashdi, so'nggi marta to'yib ko'rib olay deb, men ham termildim. U chiqib ketayotib ham oshkora o'girildi. Qarashida jasorat bilan birga muloyimlik, ochiq mehr ham bor. Doim qorong'ida o'pishganimiz uchun ko'zida faqat oyning derazadan tushib turgan g'ira-shira yog'dusi yo yulduz chaqnashi yilt etganini ko'rganman, xolos, hozirgi nigohlari shu'lasidan ko'nglimda boshqacha kechinmalar yallig'lanib ketdi.

Ko'k nimagadir to'niq, osmonda hali bulut yo'g'-u, lekin avzoyi buzilib kelayotgan, olmazorni chag'ir-chug'ur qarg'a bosib, talotum ko'targan edi. Juda irkit qush shu, endi bog'hovlida sayr ham yo'q, ikki odim yurmay yelka yo boshing bulg'anadi. Ko'rmaysizmi, shuncha daraxtning ichida joy topolmay, qo'nalg'aga shox talashib yotibdi yuviqsizlar.

Bir mahal xoldor g'uliy ham keldi. O'zi qarg'adan yuragim g'ash, bu endi battar siqadi, deb o'yladim. Lekin u horib-tolgan, maxsus xizmat xodimidan ko'ra, kun bo'yi ketmon chopib, yana ovqatsiz qolgan mardikordek ezilgan edi. Kirishi bilan, xuddi ikkalamiz hamshisha ulfatdek, shimining cho'ntagidan bir shisha ichg'u chiqarib, ikkita quyg'uni to'ldirdi. Bittasini menga manzirat qildi-da, o'zinikini gazak-pazakka qaramay ko'tarib yubordi. Keyin u ham menga to'g'ri qaradi, ko'zi bilan «Ichmaysizmi? Oling», deb quyg'uga imo qildi. Bunga ajablanmadim. Hukmni aytib, men bilan xayrlashadi, o'zi esa endi saboqqa uchrashidan xafa, deb o'yladim. Obro'ni tushirmaslik kerak, hayotimning so'nggi daqiqalarini arzigulik o'tkazish uchun kalamni ravshan, irodamni mustahkam tutish maqsadida ichg'uni og'zimga olmadim. He, ichg'ungning ham padariga la'nat, sayil o'tgandan keyin xinoni ketingga qo'y, dedim ichimda. «Iching, atay olib keldim», dedi. Bosh

chayqadim. «Yomon bo'ldi», dedi u. Bir boshga bir o'lim, deb mardlarcha turish berdim.

Qizig'-ey, nimagadir juda sobit, vazmin, ko'nglimni bosib kelayotgan vahmga xotirim jam peshvoz chiqyapman. Bo'lmasa, hali sababini bilmayman, gumonim esa yomon edi.

«Ko'rib o'tirgandirsiz?» dedi xoldor televizorga ishora qilib. Endi bunaqa hurmatini boshimga uramanmi, dedim-u, lekin o'yimni sirtimga chiqarmay: «Ko'rmasam ham bilaman», dedim. «Bir pasda-ya? – deb shalviradi u. – Kim o'ylabdi, kimning xayoliga kelibdi bunaqa bo'lishi! Mangu shundaymiz, deb yurardim-a». «Hech ajablanarli joyi yo'q. Bari bir majbur edingiz. Boshga tushganni ko'z ko'rar, men chidayman», dedim. «Shunday metin qoya, tosh qal'a bir hamla bilan kunfayakun bo'lsa-ya!», desa, irodamni aytyapti debman. «O'ylamang, men yaxshiman. Bundan og'ir narsalarni ham ko'rganman», deb qo'ydim, yana ham og'iri nima ekanligini bilmasam-da. Rost-da, yurakdan ham bor ekan deb achinishiga qo'yamanmi. Anglayapsiz, men buni hukm ijrosi oldidan ko'nglimga taskin bermoqchi deb o'ylabman. «Siz bilar edingizmi? Ha, balki o'zi erkin odamning fikri ham erkinlashib, ko'p narsani oldindan azmoyish olar», desa, menga qoyil qolyapti degan xayolga boribman.

Xoldor yana quyib ichdi, keyin yana. Oldin ham aytgan edim-ku, ichg'uning qanaqa kuchli ekanini. Bu ham birpasda g'uldirab, pishib qoldi. G'uliy qiz taom olib kirdi, patnisni qo'yayotib, xoldordan hayiqmay, menga to'g'ri qaradi, nimtabassum qilishidan haligi davlat dasturi yaxshi bajarilayotgani hamda bugun kechasi albatta chiroq o'chishini angladim. Gaplashmagan bo'lsak-da, muomalamiz ochiq, qarashlarimizda shu ma'no bor, o'zim ham qanaqadir erkin edim. Lekin sinimni buzmay o'tiraverdim. Kim biladi, bular yana nima o'yinlar ko'rsatadi, xoldor ham usti yumshoq, ichi zaharga to'la ilon, hammasiga tayyor turishim kerak, odamning boshi har kuyukka ko'nadi, dedim. Ammo hukmi qanaqa bo'lsa? Qayerda ijro etiladi, qancha tomoshabin to'planadi? Yo hech bir g'uliyga ko'rsatmay, kesib yuboraverishadimi? Unda chatoq. So'nggi so'z, mayli, kerak

emas, lekin boshingni kundaga mag'rur qo'ysang-u, tomoshabinlar ko'rib, qoyil qolmasa, odamning qadri ham, bergan jazosining narxi ham uch pulga tushib ketadi-da.

Hukmning obro'si anchayin ekanini xoldorning so'lg'inligidan ham bilsa bo'lardi. Xuddi otasi o'lgandek, bo'kib ichib oldi, og'zidan gapi tushib ketyapti. Vey, landovur, sen boshqa olamdan kelib, yurtingga dong qozongan odamning taqdirini hal qilyapsan, o'zingni sal dadil tutib, xatti-harakatingga tantanavor tus bermaysanmi, axir! G'uliston nomidan ish ko'ryapsan-a, qotil pandavaqi! Gaplarini xizmatiga meni yaxshilab yetkazganda, balki jazo o'rniga boshqa imtiyozlar ham tegib qolarmidi? Bu ablah to'g'risini aytavergan, mana, endi oqibati bu.

Ana shunaqa, ham xavotirdaman, ham achchig'im keladi. Xoldor esa ichaverib uchib qoldi, lekin gandraklab ikki marta yiqilsa- da, o'z oyog'i bilan chiqib ketdi. Bechoraga achindim-u, yordamga turmadim. O'lmaydimi menga desa! Yaxshi odam edi, g'uliyga mehribon deb eslab yurishini boshimga uramanmi!

Hali nima gapligidan xabarim yo'-o'q. Endi televizorga yopishaman desam, tashqarini birdan tap-tup, vang'-vung'-g' tovushlar bosib ketdi. Derazadan qarasam, osmonda qarg'alarning achavoti, bog' to'la baquvvat g'uliy, ikkitasining qo'lida benzinarra, qolganida bolta, olmaga qiron solishgan. Shu ikkitasi daraxtni chiyillatib qulatadi, boshqalari shox-shabbasini chopadi, o'tloqqa dupur-dupur olma dumalaydi. Ishqilib, g'ayrat ham, shovqin ham katta. Lekin haligidaqa qo'shiqlar, bir-biriga olma otishlar yo'q; xotinlar ham ko'rinmaydi-ku-ya. Erkak g'uliyalar ularning yo'qligi alamini daraxtdan olyaptilar.

Tumshug'i changak bir traktor kelib, kundakovlikka tushdi. Yerda chappa ag'nab yotgan to'nkalar xuddi uzun-uzun barmoqlarini ko'kka cho'zib unsiz faryod qilayotgandek odamning rahmi keladi deng. Ha, aniq nimadir bo'lgan! Shu nimaligini bilay deb televizorga tarmashdim, ko'p kunlardan beri ko'rmagan edim-da. Hali uning ekrani yorishmayoq, g'uliya sevgilim kelib oldi. Sevgilim

deyapman, chunki yuz yillik mahramimdek, kuppa-kunduzi biqinimdan joy olib, menga butun gavdasini tashlab suyandi. Nafasim qaytib ketayozdi, hayajondan emas, qiz bola intilib og'irligini tashlasa, juda vazminlashib ketar ekan, uni erkalatishni ham, televizorga qarashni ham bilmay, ikkilanib qoldim. U ekranga imo qildi. Bugun uzunchoq yangi sirg'a taqqan ekan, boshini qimirlatganda oppoq bo'ynida noz bilan sollanadi, erkalatgani qo'limni yuborishim bilan televizor to'satdan shovqin soldi: shaldir-shuldur aralash ancha baland vag'ir-vug'ur otilib chiqdi Keyin tutaqqan g'uliyga to'la maydon yorishdi. Hech kim hech kimni eshitmay, hamma birdan gapirayotgan, ya'ni zanjirini silkitayotgan, aftidan hali nimaga ko'chaga chiqqanini o'zi ham anglamagan talotum tumonat, og'izlarning katta-katta ochilib yopilishidan hayajon zo'ridan ko'kraklariga nafas yetmayotgani ko'rinib turar edi. Faqat maydon emas, unga tutash ko'chayu ko'chachalar ham namoyish shavqi-sururi bilan qaynaydi. Hammaning yuzida shoshqin esankirash, televizorning o'zida esa bir og'iz ham izoh yo'q, diktorlar ham joyida o'tirolmay, chiqib to'daga qo'shilgan shekilli, kameralar to'g'ridan to'g'ri maydonga ulab qo'yilgan edi.

Hech narsa tushunmadim. G'uliyam tirsagimdan qattiq siqib, boshini yelkamga xushhol qo'ydi-da, hikoya qilishga tushdi.

Anchadan beri o'zimga o'zim o'ralishib, bularning dunyosi bilan qiziqmay qo'ygan ekanman, g'uliyam aytaversa, angrayib qolibman. Shu keyingi kunlari, aniq qachonligi noma'lum, vaziyat birdan o'zgarib, izdan ham chiqib ketibdi. G'uliyotning tinchi yoppasiga buzilib, kalavaning uchini yo'qotib qo'yganidan kim o'zini ishga urib, kim olma chopgani qo'lga bolta olgan, kimdir o'pkasini qo'ltiqlab usiz ham hovliqqanga to'la maydonga yugurgan. Gap shundaki, olmani kilolab ham, pudlab ham yesa-da, bari bir temir moddasi g'uliy tanasida zanjirga aylanmasligi ochilib, ona qornidan tug'ma g'uliycha tug'dirishgani chippakka chiqib qolibdi. Bir olim qahramonlarimning ham olma yeyishi, lekin zanjirbandlikni xayoliga ham keltirmasligi misolida shunchaki bir taxmin aytgan ekan, taxmin ham pishib turgan ekanmi, birdan aniq haqiqatga aylanib, barq

sur'atida g'uliyotning qulog'iga yetibdi. Haqiqatning o'zi haligi g'uliycha halqa bo'yicha aylana rivojlanib, ya'ni gap juda tez tarqalibdi-da, g'uliy ona qornida zanjirsizmi, demak, shunday tug'ilishi ham haq, shundoq ekanmi, keyin uni har qancha kishanlamang, u bari bir erkin holiga qaytishi kerak degan juda jur'atli ilmiy farazlar o'rta tashlanib, bular ham birpasda haqiqat maqomiga chiqibdi. Bunga hatto gazetalari tugul, hukumatning o'zi ham e'tiroz qilolmay, ojiz qolibdi. G'uliyot endi nima ko'rsatma tushar ekan deb, daho g'uliyboshining og'ziga tikilsa, bu og'izdan sado yo'q. Hammasi shaxsan o'zidan yo'l ko'rsatishni so'raymiz deb maydonga yopirilibdi. Qarasalar, u ko'rsatadigan yo'lgina emas, uning o'zi ham yo'q, ustiga-ustak, yo'qligining o'zi ham shubhali, ya'ni g'oyibligiga juda ko'p bo'lgan ekan. Buni ham o'sha falsafiy tizim bo'yicha hisoblab, aniqlab ko'rsalar, kitobim G'ulistonga kirib kelgan paytlari yo undan ancha oldinlar vafot etib ketgan-u, uning o'rinbosarlari yo o'rniga bo'laman deb talashib yotganlari buni g'uliyotdan yashirib kelayotgan ekan. Yana shu falsafiy tizim bo'yicha mulohaza yuritib, daho g'uliyboshi rahbar asli o'zi bo'lganmi yo bo'lmaganmi degan masalani ham ko'tarib chiqqanlar topilib, jumboq aylana chalkashib, aldanganlarning sabr kosasi to'lib-toshib ketibdi. Alam qiladi-da shuncha yil o'zi yo'qning ko'rsatmalari bo'yicha yashash. O'-o', ilgari biz ishonar edik o'lgan bo'lsa-da, o'zi mangu barhayot degan gaplarga. G'uliyotning boshidan bunaqa tuzum alami o'tmagan-da. Yana bu yoqda barchani mahkam ushlab, bir tartibda tutib kelgan zanjir haqida quloq eshitmagan shovir-shuvur. Hozirdan uning shu o'lcham, shu og'irlikda bo'lishi nima uchun majburiy, sal boshqacha yondashilsa, ya'ni kim qanday kishan xohlasa, o'shanaqasiga chulg'anib yursa yaxshi emasmi, deganga o'xshagan mulohazalar chiqib, uni turli xil materialdan, hatto yengil plastmassadan yasash takliflari ham o'rta tashlanibdi. Bir olim suvdek tiniq rezinadan quyish usulini kashf etib ham ulguribdi. Bu nihoyatda arzon, xomashyosi ham havodan olinadi, eng asosiysi, o'zi uncha ko'zga tashlanmaydi, shaffof, lekin egasi sal nojo'ya harakat qilsa, tortib turishga nihoyatda qulay ekan. Vijdonning o'zi ko'rinmaydi, lekin bor-ku, g'uliyning

mayllarini bir chegarada ushlaydi, bu ham shunday, deb falsafiy tomondan ham asoslab beribdi zukko olim.

Xalqalarning shakli, ellipsmi, to'rtburchakmi yoki uchburchak degan eski bahslar yana qo'zg'alib, guruhlarining ichiga ichkarilab, kallalarda ham parokandalik tug'ilibdi. Chiqayotgan ixtiloflarni ko'rib, shu paytgacha taqib kelgan zanjirimiz yaxshi, mana, o'zgartirish qanaqa yomon oqibatlarga olib kelyapti deb, aqidalarga yopishib olgan eskichilar ham kuchayib ketibdi. Bu o'rtada, albatta, kitobimni o'qiganlar orasida, ana, hech qayeri kishanlanmagan, hatto oyog'ida ham zanjiri yo'qlar bemalol yashab yurar ekan, biz ham g'uldan tamomila voz kechsak-chi, deganlar ham haligindaqa miqdori oshib qolibdi.

Hozir hammaning boradigan, uchrashadigan, gaplashadigan joyi hu o'sha maydon bo'lib, shu maydondagi tortishuvlar hali ochiq to'qnashuvigacha yetib bormagan-u, lekin gapxona qizib, ovozlar balandlagan, ana-mana yo u yoqlik, yo bu yoqlik bo'lishi turgan gap ekan.

G'uliy qiz muhabbatini ilgari el ko'zidan pana qilib yurgan bo'lsa, endi oshkor etishdan ham qaytmaydigan shashtda, chunki maydonda kitobim bilan birga o'zimning ham nomim tez-tez tilga olinib, «Zanjirsiz odam ham oramizda yursin, unga ochiq qarashga haqqimiz bor», degan xitoblar ham yangrabdi. Boya xoldorni vidolashayotgani uchun dovdarayapti, deb o'ylasam, bechora, birdan obro'yim ko'tarilib ketganidan, oldimda nafsini tiya olmaganidan xijolatga tushib, noqulaylikdan chiqay deb yana otib, battar kayfi oshib qolgan ekan.

Bu gaplarning bari menga yoqmayotgan edi. Mayli, nomim dong taratsin, maosh qo'shib bermasa ham, bari bir, osh-non so'ramaydi, lekin ertangi kunim nima bo'ladi? G'uliston beega bo'lsa, taqdirim kimning qo'lida qoladi? Oldin, daho g'uliyboshi borligida yo aniq u yoqli, yo aniq bu yoqli bo'lar edim. Borligida, deyaipman, o'zi yo'q bo'lsa ham, bari bir, rahbarlik salobati bor, shu salobati g'uliyotni bosib turar edi-da. Endi taqdirlarga hukm beradigan u yo'q, hatto o'zi asli ham bo'lmagan, G'ulistonni kishanda ushlash uchun maxsus o'ylab topilib,

rasmi kompyutyerda tiriltirilgan to'qima obraz degan uzunquloq gaplar yuribdi. Yangi rasmi qachon chiqadi-yu, qachon kompyuterga tushib tiriladi, keyin unga g'uliyot salomga keladimi yo'qmi – hammasining dumi hali xurjunda. Ungacha ahvolim nima kechadi? Xoldorning kayfiyatiga qaraganda, xizmatidan ham hol so'ragulik.

Obro'ni ham vaqtida bersa ekan. Meniki doim shu, hech omadim yurmaydi. Boshqalarning kitobi tilga tushsa, maqtagan taqrizlar chiqadi, yaxshi sotiladi, bundan, albatta, o'zi ham tuzukkina qalam haqi oladi, shundan ro'zg'ori but, ko'chalarda hurmati joyida, tanigan yoshlarning salomiga salobat bilan bosh egib alik olishlar. Bu yerda esa... xullas, kitobimning kelmagani, bularning o'qimagani ming marta yaxshi, och qornim, tinch qulog'im edi. Bu ketishida, xudo ko'rsatmasin, g'uliyolarning haligi zanjirsiz yashaymiz deb chog'lanayotganlari bizga yetakchi bo'ling deb, meni tutiltirib qo'yishlari ham hech gap emas.

Bilib turibman, oldindan ko'nglim ham sezyapti, hozir daho g'uliyboshi yo'g'ida paytini poylagan bir rahbar, yo'l o'rgatadigan bir bosh kerak. G'uliyotni kitobim qo'zg'ab qo'ygandan keyin, yo'lni boshqa kim o'rnatadi. Albatta... lekin, yo'-o'q, bu iltimosga ko'nmayman! Bunga, turgan gap, yo'q deyman, daholik ham o'z yurtida yarashadi, alamini olmadan oladigan olomonga boshchi bo'lishga, nima desam... ishqilib, yelkamda kallam yo'q emas. Yana, qarang, ayni olma g'arq pishgan mavsumda. Xo'p, olmada temir moddasi ko'p, xo'p, u g'uliy tanasiga singib, g'uliy tug'ma zanjirband tug'olmas ekan, lekin tilsiz daraxtda nima ayb? Hamma gap o'zingda-ku, kim senga shuncha asr cho'pchakka ishonib yasha dedi? Olma temir zanjirga aylanmagani bilan, bari bir, foydali oziq-ku. Mayli, juda boshini yeb bitib, hosili omborlarga sig'mas, lekin to'g'rab, quritib qoq qilib, qishda choyga ivitib maza qilib emaydimi, a? Yo tuyib talqon qil. Ha, olmatalqon. Men Forishda, Osmonsoy degan bozorida ko'rganman. Bir odam bir to'rvasini sotib o'tirgan ekan. Yeb ko'rishga ko'nglim bormadi, tusi zanglaganga o'xshagan sarg'ish ekan. Qanday tuyilishi so'ramadim-u, lekin ertalab nahorga bir qoshiqqinasini choyga aralashtirib ursangiz, kun bo'yi to'yib olma yegandek to'q

tutadi, dedi shu talqonfurush. Telpagiga kuya tushgan bo'lsa ham, o'zi yaxshi odamga o'xshadi, o'ldimi, aldamasa kerak.

Bularga ham shu maslahatni beray dedim, lekin hafsalam o'ldi. Bolam zanjirband tug'iladi deb olma emas, sen ishongansan, shunday emas ekanmi, endi xursand bo'l, shunaqa chaqaloq dunyoga kelganda uni katta qilish tashvishi nimaligini bilmaysan-ku. Guldek nozik mitticha temir kishanchalarga chulg'anib yotsa-ya. Badanchasiga sovuq tegib, shamollashdan boshi chiqmaydi, zanjirchasini shiqirlatib ovutasanmi? Ko'kyo'taliga ko'kqarg'aning patining suvini ichiraman deb, uchar qushni uchmas qilish insofdanmi, keyin.

Rosti gap, g'uliyotning shu avom tabiatini o'ylaganim sayin chiroyli g'uliyasining suyib-erkalashlari ham uncha yoqmayroq qoldi. Shu vaqtgacha sevgilim, jonim-ponim deb shivirlagan bo'lsam, endi baralla hey-vey deb gapirishga o'tdim. Ha, darvoqe, endi chiroq o'chishi ham shart emas, xohlagan payti uchrashib, ochiq gaplashaveramiz. Uning, albatta, kayfiyati zo'r, mehri tovlangan, mashhurligim tilidan tushmaydi, maydonni gapirib, meni ham qiziqtiradi. Lekin o'zimni bosaman, avom ko'tarilganda qayoqqacha borishini bilaman: aqllashish uchun to'dalanadi-da, aql qolib, kekirdakka zo'r beradi, bir kun izdihom, ikki kun ayyuhannos, xo'p, ana hafta o'tsin, boring-e, oy ham deylik, keyin, qor tashlab qolishi, yomg'ir yog'ishi bor, yozda boshdan oftob uradi, oxiri, quloqlar ham batang bo'lib, mana, yomon zo'r gaplarni aytdik, bopladik lekin, deb hamma xotirjam uy-uyiga, tepa-to'yiga tarqaladi. Bu o'rtada hukumat o'zini tutib oladi, xoldorning patarot topgan xizmati ham qaddini tiklaydi, bag'avotda g'ayrat ko'rsatganlarga keyin aybini bo'yniga qo'yib, ketiga tepish niyatida tuzukroq ish beriladi, eng ko'p baqirganlariga tilini qisish uchun jinday-jinday amal ham tegib qoladi. Hayot yana asliga qaytib, izga tushadi.

Ko'p o'qigan, o'qimaganini hayotning o'zi o'qitib qo'ygan odamman, G'ulistonning buguni menga ayon, ertasiga ham taxminlarim bor, faqat o'zimning ahvolim noma'lumroq. Xoldordan azmoyish olay desam, ishi ko'payib, ko'rinish bermayapti. Bu yoqda dasturxon g'ariblashgan, qorin mayda masala bo'lsa ham,

ko'ndalang turib qolgani chatoq. Boshqa nima yeganim esimda yo'q, bir-ikki kun kesib, kundakov ham qilingan olmazorning o'ti orasida obiyati qochgan, lekin hali chirimaganlarini topib, artib-puflab, tamaddini amalladim. Bog'hovlining bir chekkasida pishib kelayotgan kechkiroq olxo'ri bor edi, nafs o'lsin, och qursoqqa nordongina deb urgan ekanman, padarla'nati, ahvolimni ancha tang qildi. Yaxshi ham sevgi doimo sevgi, najot ham shifo, xizmatchi g'uliyam qayerdandir yarim xaltacha qoq non topib kelib, jonimga ora kirdi.

Bu o'zgarishlar menga forom kelmadi, o'zgalarniki hatto inqilob bo'lsa ham, sen och o'tirsang, ayil botar ekan. Shuhrati ham bunaqa payti kir ko'ylakka – zar yamoq, keraksiz, zo'rlab tiqishtirishsa burningdan ham chiqadi. O'zim boshimdan o'tkazdim.

Bari bir ko'tar-ko'targa uchradim

G'uliyam maydonni tinmay gapiradi, ammo, xizmatchilik, meni tashlab ketolmaydi, har xil bahonai sabab bilan o'zimni o'sha yoqqa undaydi. Dovrug'imdani faxrlanib suzilaverganiga, g'uliylar meni ko'rishga shuncha mushtoq bo'lsa, bu yoqda bir qizi bilan bekinib yotsam, bor gap ochilib, maza-bemaza gap-so'z chiqib yurmasin, shuncha izzatimga yarasha ularga ham hurmat ko'rsatay deb, sodda odam, bir kuni maydonga o'tlanibman. Yo'lda o'sha yoqqa shoshayotganlari g'alati-g'alati tikilganlarini sezdim lekin. Ammo buni o'zimga, ya'ni kishansiz odamga qarash bemalol bo'lganiga yo'yib, yanada ko'nglim hovliqib, endi bu yog'iga ham obro'yimni saqlay deb, salobat bilan kamtarona odimladim. Haligi qassob ham do'konidan ketmagan edi, menga oshkora qaragan edi, hu o'sha kungi behurmatligi uchun ko'z qirimni bepisand tashlab qo'ydim.

Maydonda oldin ko'rganim halqa-halqa ziyorat yo'g'-u, lekin qo'lini olislarga cho'zgan haykal tagida g'uliylarning uymalashib, bolta-teshalarning oftob tig'ida taraq-turuq, yalt-yult qilib turganidan nima gapligini darrov angladim: uning ham boshiga olmaning kuni kelgan!

Yetishim bilan qaynash-ko'pirish birdan bosilib, tumonat yuzini menga burdi, shunda ancha-muncha g'uliyning boshi yorilib, yuzi qonga belanganini ko'rib, sababini bilsam-da, xavotirga tushdim. Haykal ham qasdimda: «Ana, shu qildi!» deb qo'li bilan meni ko'rsatib turgan edi.

Keyin hammasi bu yoqqa qarab qalqdi. Es-pesim chiqib ketib, turgan joyimda to'nkadek qotdim. Hozir bosib-yanchib tashlaydi, o'zimni ko'rsatishga shuncha joydan kelib, olomonning tagida qolib ketamanmi, deb hurram uchib turganda bular shartta tutib olib, osmonga otib yuborishsa! Jahldan emas, sharaflab. Ilgari hech bunaqa bo'lmaganim uchun yuragim yorilib ketayozdi. qorin chala qursoq, xom olxo'ri qo'shib darmonni ham surib ketgan, puflasa ham uchaman, yana bular ha-hulab tepaga otadi. qiyqiriq, chapak, olqishlar, tumonat zanjirning birdan shaldirashini eshitmagansiz-da; qulog'im chippa bitib, ichim to'kilib, suyaklarim

maydalanib ketayotgandek bo'lyapti-yu, lekin yoqimli. Juda balandga otishyapti, ishqilib, tushirib yubormasinlar, deb jonim halak.

Olomonga qahramon bo'lish nima ekanini bilar edim-u, lekin o'shanda buni o'z boshimdan o'tkazib, endi minba'd uzoq yuraman deb, ont ichganman. Ha, bunaqa mehru muhabbatdan xudoning o'zi asrasin ekan. Ko'tar-ko'tar qilaman deb, yerparchin urishi hech gap emas. Mana, mayib-mayriq bo'lishdan omon qoldim. Ha-ey, bunaqa obro'ning yuzini teskari qilsin. Eslasam, hozir ham mazam qochib, e-e, dovrug'ining ham padariga la'nat devorgim keladi, ba'zan deyman ham. Lekn u payti ancha xatarli bo'lsa ham, bari bir, shuhratning harosati bor edi-da.

Ko'tar-ko'tarning shavqi ayni avjida, qaramagan ekanman, yangi bir oqim kelib qo'shilib, g'ala-g'ovur ko'tarildi. Avval garangsib, hech bir narsani anglay olmadim, hamma baqirib, g'uliy g'uliyini eshitmay, bir-biriga aralashib, tag'in betartib shaldir-shuldur bo'lib ketdi. Menga taraf turganlari haykalning tagini bo'shatgan edi, u yerni yangi kelganlari halqa qilib o'rab oldi. Yonimdagilari - birovi dastro'moli, birovi yengi bilan yuzidagi qonini artaman deb battar suykab, ularga qarab qoldi. Kelganlarning ichida bir chorpahili bor ekan, shu o'rtaqa chiqib, meni hurmatlaganlarga qarata tap tortmay: «Hoy, beqadrlar! Kimni boshingizga ko'tarib, nimaga o'zingizni oyoqosti qilyapsiz? G'uliylik oriyatingiz qani! Uyat-e, uyat!» degan edi, bu yoqdagilar esankirab, meni asta yerga qo'yishdi. «Basharangizga bir qarang, bir umr sajda qilgan haykalning tagiga bugun cho'kich urasiz, jazosiga boshingiz yorilgan, yuzingiz yirtilgan», dedi u yana. Ha, bular buzamiz deb haykalga yopishgan, yomon metin tamal toshidan boltayu tesha, haligi temir cho'kichlar sakrab qaytib, urganlarning o'ziga zarar berib yotgan edi-da.

Yangi kelganlarning zanjiri yo'g'on-yo'g'on, televizorda ko'zim ko'rib o'rganganidan ikki-uch barobar salmoqli, yuki og'irligidan ba'zi qiltiriqlarining bo'yni bukchayib ham qolgan. Yana razm solsam, bariniki yangi quyilib, hali moyi ham yaxshi arilmagan, halqalari oftob tig'ida chaqnaydi. Shoshma, bu yerda bir gap bor degan shubhaga borgan edim, bu ham keyin to'g'ri chiqdi. Haligi

chorpahil yana: «Ha-a! Erkinlikni istab qoldingizmi? Chopqillab ketaversangiz-da a? Qoyil sizlarga! Tariximiz, an'analarimiz unutiladimi? Kim-qayoqdan kelganga ergashib, ota-bobolarimiz arvochini chirqillating, ha, oqpadar bo'ling, ko'rnamaklar!», deb baqirdi. Bu yoqdagilar uyalib qoldi shekilli, jim, endi ancha-munchasi quyonni surib qolmasa, deb turgan edim, lekin bittasi ovozi chiqardi, bu ham gapidan qaytmaydigan qaysar g'uliy ekan, «Ota-bobolar deysiz, ularning asrlar bo'yi kishanda qolgani yetmay, biz ham shunday yuraylikmi? O'rgildik bunaqa an'anadan! Biz ham, mana, erkin odam deganlari bor ekan, o'shalardek zanjirsiz bo'lamiz. O'qib chiqdik shu kitobni, zanjirsiz demasa, bizdan ortiq joyi yo'q. E-e, yashaylik-da bunday. Keyin, mana bu o'zi qayoqni ko'rsatyapti? Qo'lini cho'zgan tomonga qarang, nima bor ekan? Kelajak u yoqda yo'q!», dedi haykalga ishora qilib. Bu gap chorpahilning ta'nasidan dami pasayganlarni boshqattan ruhlantirib yubordi. Tarafdorlarim endi kamaymaydi, deb turgan edim, u yoqdan bo bittasi so'z olib qoldi, uning zanjiri vahimali, po'pisaga shiqirlataman degan edi, faqat og'ir qars-qurs chiqdi. Ataylab qararoqqa bo'yatganmi ham dedim. «Xo'sh, - dedi u. – Xo'sh, sizlar odamning qutqusiga uchyapsizlar. Kishandan chiqsangiz, bundan boshqa qutqularga ham uchasiz. Ha, uchib, shu bilan o'zingizni, o'zligingizni unutasiz. A. siz o'qiganni biz ham o'qidi-ik. Ularning dunyosi to'la odam ekan, ya'ni zanjir taqmaydigan. Odami tiqilib ketganidan ekologiyasi buzuv, o'zlariga toza nafas yetmaydi. Endi siz ham qo'shilasizmi ularga? Kerakmisiz ularga? Yo ular bizga kerakmi? Tinch hayotni buzmay, maza qilib yashash o'rniga bu nima nontepkilik? Qushning tushovi yo'q, yirtqich hayvon bunga noloyiq, tabiatning biron yovvoyi jonzotiga ravo emas - nima, shular qatoriga tushishmi orzuvingiz?» O'zi ham lappos g'uliy ekan, bo'yniga yana bir tonna zanjir ossa-da inq etmaydigan chog'i bor.

Shu bilan ketdi tortishuv. Birovi u deydi, birovi bu, goh u tomon zanjir shiqirlatadi, goh bu tomon jiringlatadi. Bir oqsoqolroq ko'sa chiqib: «Men soqol qo'ya olmayman, chunki mo'yimni bo'ynimdagi zanjir tishlayverib azobga qo'yadi», degan edi, uni katta g'ul taqqan bir yosh yigit: «Nima, shundoq tabarrukni

iyagingizdagi to'rtta juningizga almashasizmi?", deb oqsoqolga achchiqqina izo berdi. Bu orada o'zi o'g'il bola-yu, lekin sochini yashnoq zangoriga bo'yab, dakang xo'rozning tojidek tikka loklab qotirgan bitta mundayrog'i: «Kelinglar, shuni ingichka, chiroyli tilladan qilaylik. Ham tartib, ham bezak», deb qoldi, bir tamannoli ingichka tovushda. Unga po'rim kiyingan boshqasi: «E-e, jinsi betayin, ko'p likillama, tilladan quysak, narximiz oshib, turishimiz qimmat bo'lib ketadi-ku», deb og'zidan chiqqanini yoqasiga yopishtirdi.

Haligi chorpahil g'uliy rosa tayyorlangan ekan, yana minbarni egallab: «Munday aqlni peshlab, o'ylab oling: axir, siz g'uliysiz, shunday sharaflı nomingiz, shunga yarasha faxru g'ururingiz bor, zanjiri yo'q maxluq emassiz. Kimni ko'rsangiz taassubmi? Ko'kayingizdagi o't o'chdi shekilli», deb hammani o'ylantirib qo'ydi. Hatto bu tomondan menga yoqtirmayroq qaraganlar ham bo'ldi. Bir bezoribashara o'qrayib tikilib, odamning yuragini seskantirdi. «Mana, olti kilolik g'ulimni uch baravar og'iriga almashtirdim. Qani, sababini o'ylab toping-chi? Mendan o'rnak olib, birodarlarim ham og'irroqlarini quydirdilar, bu nima uchun? - deb zanjirini kuch bilan silkitdi yana chorpahil shayton. - Ha, shundoq, keyingi soatlarda shu kitobni o'qib, ko'kanimiz haqida bo'lar-bo'lmag'ur gaplarni eshitgandan keyin qarasam, o'zimiz ham uncha sezmay qo'yibmiz. Men endi uning salmog'ini uch barobar his qilay dedim. Mayli, bir kilo temir yetmay, o'n yetti kilo bo'lib qoldi. Hali yana qo'shdiraman. Buni sizning uvolingiz uchun, to o'zingizga kelmaguningizgacha, yurolmay qolib, yetti bukilib yerga kirgunimcha og'irlashtirib boraveraman». Buning qo'lidan yana boshqa narsalar ham keladigan; gapi orasida zanjiriga ko'nikib, qaysi ohangga solishni o'rganib olgan ekan, betinim shaldiratishga tushdi-ku. Hamma jimib qoldi, zanjirning shaldiri keskin, qat'iy, to'g'ri borib vijdonga tegardi, bu tomondagilar endi xijolatga tushdi. «To'g'ri-ey! Biz uchun azoblanishni bo'yniga olyaptimi, demak, bir balodan xabardor», «Nima qilamiz qiynalib? Zanjirimizda yuraversak-chi, bizdan osh-non so'rayaptimi? Osilib turibdi-da o'zicha», «Tinchgina hayotimizni o'zgartirib nima zaril? Bu yozuvchining boshqa qiladigan ishi yo'q ekanmi?», degan nolişlar ham

bo'ldi. Ko'p gaplar chiqib ketdi, ba'zilarini eshitdim, ba'zilarini yo'q, hammasi zanjirini shiqirlatadi, jangir-jungir bahs, gap bozori qizigan. Endi haykal hammaning esidan chiqqan. E'tibor bersam, bu tomondagilar, ya'ni menga tarafdorlarning ham g'uli o'zgarib qolgan, o'lchami turlicha, har xil ranglanib, chiroyli taqilgan.

Bir g'uliy turgan edi, xayoli joyida emas, o'zi ham xuddi bu yerda yo'qdek, gapirmaydi, faqat beparvo eshitadi. Kuzatuvchimi yo. Har zamonda menga «Ko'ryapsizmi?» deb imo bilan qarab qo'yadi. Shu birdan so'z olib qoldi. Ko'pchilikning e'tiborini tortishni bilar ekan, o'rtaga chiqdi-da, eshittirib so'lish oldi, «E-e, juda charchatib yubordingiz-ku», degandek zanjirini ta'sirli jiringlatib, hammaning ko'zini og'ziga qaratdi. «Menga qaranglar, - dedi u barcha g'uliy o'ziga qarab turgan bo'lsa ham. – Kitobning bir joyida: «Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagini oldirar», degan gapni o'qidim. Shuni g'uliy bo'lolmagan odam yozgan, lekin juda to'g'ri. Mana, biz, oltovlon emas, to'la maydon, butun g'uliyot, ichimizdan olani bolalatib turibmiz. Hozir og'zimizni yig'ishtirmasak, bilmadim, ertaga, yo'q, bir-ikki soatdan keyin nima bo'lamiz. Biz, axir, yagona va betakrormiz-ku. Bu olamda o'xshashimiz yo'q, bu ham faqat zanjir tufayli, u bor – biz ham bormiz. Endi o'zimizni yo'qotib qo'ymaylik, ming-ming yil g'ul bilan yashab, endi uni yechsak, demak, yo'qolamiz. Mana, kitobni yozgan odam shu yerda ekan, hali so'raymiz, aytib berar, ozodlikdagidan ko'ra kishanda yashash himoyali ekanini ko'rayotgandir, o'zi aytar. Ming yillik ishni bir-ikki kunda yo'qotsak, o'zimiz ham, oyog'imiz ostidagi yer ham omonat bo'lib qoladi. Ha, aziz g'uliy birodarlar, ozodlikni gapirish oson, lekin unda yashashga tajribasimiz mutloq yo'q. Keyin bu kitobdagi qahramonlarning juda ham baxtli bo'lib ketganini topmadim».

Rosa gapga chatoq g'uliy ekan, hammani o'ziga og'dirib, bozorni qaytadan qizdirdi. Menga gap tegmadi, tekkanda ham javob berishga boshim qotib qolgan edi. Endi ozodlik o'zi nima, bu ham mas'uliyat talab qilsa, qullikning bir turi bo'lib chiqmaydimi, zanjirdan chiqib, erkinlikka tutilib qolmaymizmi tag'in,

shunday yashab yuraversak-chi, degan g'alati gaplar chiqib ketdi. «Nima og'ir jinoyat qildikki, zanjirsiz qolsak?» degan hayronlik ham bo'ldi menga ko'rinmayotgan tomonda.

Bitta shum kal bor ekan, azbaroyi soddaligidan ko'prik tagida eshak hurkitadigan, shu nima deb so'radi deng: «Ey, shoshmanglar, ozodlik, ozodlik deysizlar, nima o'zi u? Men ham shu kitobni o'qib, odam deganlarini ko'rdim, lekin ozodligini ko'rmadim». «Iy-e!- dedi orqadan bir girdig'um. – Hali yo'q narsani bo'lisha olmay yotibmizmi?» «Ha-ey, o'zi nima shu? Yeyiladimi, ichiladimi?», deb qoldi bitta po'statabiat g'uliy, o'zining ham urug'-aymog'i maymunmi, bo'ynining junida bo'yintasmasi ko'rinmay ketgan.

Hu boshda men taraf qaysar deganim g'uliy ancha mulohazali ekan, «Sizlar g'uliy mi yo yemxo'r jonivormi? Gapingizda nuqul qorin g'ami. Ozodlik unaqa qursoqqa uradigan taom emas. To'g'ri... taomligi bor, lekin u - ko'ngil taomi, - dedi, o'xshatishiga men ham besh ketdim, xuddi o'zim o'qitib qo'ygandek, a. - Ozodlik – bu ozodlik! Mana, havodan nafas olamiz, o'zi ko'zimizga ko'rinmaydi, lekin usiz yashay olmaymiz. Ozodlik ham shunday». «Xo'p, shu ozodligidan nafas olish uchun nima qilishimiz kerak? - deb so'radi boyagi bezori bashara. – Birovdan tortib olib kelish bo'lsa, mana, biz tayyor». «Obkelmaymiz, - deb tushuntirdi chuqur bilimdon. - U o'zi keladi, faqat zanjirni tashlasak – bas», deb gapning po'stkallasini aytgan edi, bu nogahoniy haqiqatdan maydonning nafasi ichiga tushib ketdi. Ancha keyin haligi kaldan sekingina sado chiqdi: «E-e... o'zimizcha tashlab, bir baloga yo'liqmaylik tag'in. Tepadan ruxsat bo'lsin-da», dedi u. «O'tgan bulutdan yomg'ir kutma. Tepa hech qachon ruxsat bermaydi, bersa – tepaligi qolmaydi, - dedi qish g'amini yozda yeb, qalinroq burqinib olgan boshqa birov umidsizlik bilan. – Yechsak, o'z bilgimizcha yechishimiz kerak». Uning bu dono gapiga boyagi kalbosh: «Ho, shunchalik bilsangiz, boshlang siz, - dedi. – Keyin biz ergashamiz.» Maydonga yana jon kirdi. «Ha, boshlang siz, boshlang, biz izingizdan boramiz», «Ha, shunday bir mardlik ko'rsating», «Bizdan ham botir chiqadigan kun bor ekan-ku», degan xitoblar yangradi. Lekin burqingan g'uliy bir

odim ortga tisarilib, o'zini bir ho'ppa semizning panasiga oldi. O'sha yoqdan turib: «E-e... bir o'zim otilib chiqishga yuragim... yo'-o'q, bo'lmaydi, - dedi shashti pasayib. - Keyin sizlar tashlamay qo'ysangiz a? Ahmog'ingizni topibsiz! Tashlasak hammamiz birdan!»

Maydon guvilladi, orqada yaxshi eshitmayotganlari bu yoqqa surilib, men ham qisilib qoldim. Yonimdagilar salom bersa ham, bo'ynini cho'zib intilib, odamni ezib yuborayozdi.

Shu vaqti po'rim kiyingan bir g'uliy o'rta chiqdi, «Mendan ham gap so'ranglar, - dedi u. - qani so'ranglar-chi?» «Xo'p, ana, so'radik. Ayting, gapiring», degan xitob eshitildi. «Xo'sh, so'rasangiz – shu gap: o'sha ozodligini kim taqsimlaydi? Qani, bu gapinga kim javob beradi?», o'zi so'rang deb yana o'zi savol tashladi po'rim. «Har kimning o'zi olaveradi, - dedi mulohazalari qaysar g'uliy. «Yo'-o'q, bunaqasi ketmaydi. Men tartibsiz yashay olmayman, - dedi po'rim, lekin o'zi ham lekin g'irt tartib ekan. - Hukumatning o'zi zanjirni tashlashga buyruq chiqarsin-da, keyin, mayli, shu ozodlik deganini rasamadi bilan, hammamizga teng taqsimlab bersin. Bo'lmasa, yana o'ziga to'qlar katta qismini egallab, bundayroqlarning rizqi qiyiladi». Kalbosh: «Ha-ey, rost, menga o'xshagan kambag'allarga tegmasligi ham mumkin», deb, hammaning yuragiga g'ulu solib qo'ydi. «Hukumat taqsimlasa, yana amaldorlar o'zaro bo'lishib olar ekan-da», deb kinoya qildi yana bittasi.

Bir nuroniy, lekin hali ham miltiqning o'qidek chol bor ekan, shu: «Yoshim saksonga boryapti. Nima, endi shuncha yillik xizmatim bekor ketadimi?», deb baqirib qoldi. Uning gapini hech kim tushunmadi, «Yana qanaqa xizmat, otaxon, nafaqaga chiqib ketgansiz-ku», deb ajablandi chorpahil. «Nafaqada ham buni taqib yuribman-ku. Demak, uning xizmatidaman. Go'dakligimdan beri shu mehnat. Hukumat bir narsa bilan taqdirlamasa, yechadigan anoyi yo'q».

Cholning bu gapi hammani ta'sirlantirdi. Ha, darvoqe, hozir zanjirga tarafdorlar, qarshilar, betaraflar - hammasi ayqish-tuyqush edi.

Shu vaqti chorpahil yana otni qamchiladi: «Ana ko'rdingizmi, nimaga intilyapsiz? Ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan silab bo'lmasa. Yana o'zi bor yo yo'qligi bilinmaydigan havo deyapsizlar. Undan zanjirimiz yaxshi emasmi, mana, bor, ko'ryapmiz, qo'limiz bilan silaymiz. Ana, ushlab ko'ringlar, hech ham havo emas. Tag'in u boy yo kambag'al demay, teng taqsimlangan». Shunday desa hammasi zanjirini silashga tushib ketsa! Yana mehr bilan.

Shu kalbosh bir gap aytgan edi, ammo-lekin chaparosta jahlim chiqib ketdi. «Xay, shu ozodligiga zanjirimiz bilan chiqaversak-chi? Ozod yuraveramiz, bu ham turaveradi! Shunda jinoyatchilarga teng bo'lmaymiz», emish! He, o'rgildim kallangdan! Saviyani qarang, kishanband bo'lib ozod yuraverar emishlar! Shu ham kitobimni o'qigan-da endi!

Kalboshning bepisand iljayib kitob varaqlayotgani ko'z oldim keldi-yu, ko'nglim cho'kib ketdi: hali men shunaqa nodonlarning orasida shuhrat topib yuribmanmi! Shularning dunyosida dovuq taratdim deb taltayibman-a! Shunchalar past ketamanmi, a!

Chorpahil esa yana alamimni olti qildi. Nima dedi deng: bular g'uliy, men odam, bularga hasadim kelib, tinch hayotlariga ichim kuyib, ahilliklarini ko'rolmaganimdan yozgan emishman! Ha, yuzingda ko'zing bormi demay, shunday dedi, nomard! «G'uli tugul, chilvir tushovi ham yo'qligi o'tib ketgan, qarasa, biz bir tartibli yashaymiz, o'zining tizgin-pizgindan mahrumligi alamidan kitob yozgan-da. Yuragi toza bo'lsa, shunaqa qilar edimi?», dedi yana xonasallot. Uning gapiga maydon ham guvillab, zanjirlar betartib jarangladi.

Endi fe'lim buzildi. Bu, axir, g'irt tuhmat-da. «Vey, sizlarni oldin ko'rmagan bo'lsam, qanday qilib ko'rolmagan bo'laman? Kitobim, axir, bu yerga kelishimdan oldin chiqqan-ku. Ilgari yozilmagan bo'lsa, tayyor bosilgan hoida mashinamda nima qiladi? Xo'p, usta yozuvchi deyishdi – indamadim, o'zimdan so'ramay tutib olib, osmonga ot-a-ot qildingiz – bunga ham ko'ndim, lekin ko'rolmagan deganlaring bo'hton. G'uliylik ham evi bilan-da, axir», deb, hayotimiz haqidagi

bo'lar-bo'lmas gaplari o'tib ketgan ekan, ko'rgan ko'rguliklarim ham ko'z oldimga kelib, otashin nutq irod qilib yuboribman. Xitoblarimdan o'zim ham ta'sirlanib, hozir ham eslolmayman, o'rta chiqib gapirdimmi yo ichimda aytdimmi, ishqilib, qattiq-qattiq gaplarni aytdim. «Vey, avval o'zingga boq, keyin nog'ora qoq, deydilar. Kitobimga yopishib olyapsiz. Avvalambor, uni sizlar uchun yozmaganman, lekin o'zi kelib qolibdimi, o'qibsizmi, adabiyotingizda bunaqa asar yo'q ekanmi, ha, unda, marhamat, o'rganavering –zanjirsiz qanday yashashni ko'rsatib qo'yibman-ku. Xohlang – ozod bo'ling, xohlang - yana ming yil kishanda yuring, menga ta'siri yo'q, chunki boshqa olamdanman, tuzumingizga aralashmayman, sizlarga yo'l boshchi bo'lishga, aql berishga ko'zim uchib turgani yo'q. Ko'tar-ko'tarni o'zlaring qilyapsizlar. Bunga ham mayli, lekin tuhmat qilmanglar, men sizlarga ozodlik beraman deb kelganim yo'q», deb, to'lib ketgan ekanman, ayamay yuzlariga soldim. To'g'risi-da, o'zim ham ozodlikning qanday berilishini bilmayman, axir. «Koshki bunaqa namoyishlarni kim qilib, nima bilan tugashini bilmasam. Kitobimni mashinamdan topib olib, butun G'ulistonga tarqatgan ham o'shalar. Ko'rib turibman-ku, bu yerga kelganning yarmidan ko'pi shu xizmatdan, ikki-uch, to'rt-besh tarafga bo'linib olib, suvni loyqalatishyapti. Siz mening emas, xizmatning qutqusiga uchyapsiz. Mana, u maqsadiga ham erishdi. Bir kun kelib ozod bo'lish uchun yuz yil tortishasizlar», deb endi g'uliyotning ko'zini ochishga kirishgan edim, birdan oftob yuzini bulut to'sdi-da, momaqaldiraq qarsilladi, ha-hu degunimcha yomg'ir ham urib berdi. Lekin men to'xtamadim, hamma gapimni aytib, ularga kerakli maslahatni berishim kerak edi. Ayniqsa, haykal borasida. Rost-da, bir vaqtlar o'zlari shunday mustahkam qilib o'rnatgan yodgorlikni buzishning nima ham keragi bor? Keyin, bari bir, yangisini o'rnatadilar, ko'nikmalari shu bo'lsa. Shuning uchun yomg'ir tagida bo'lsa ham jo'yali gaplarni aytib ulgurdim. «Bu bilan olishib yurmanglar. Qarang, cho'kich urganda chizilibdi, xolos. Demak, buni mangulikni mo'ljallab qurgansizlar. Endi bundoq: yangi daho g'uliyboshi kelishini kutasiz, chunki bitta boshsiz bu yerda tortishishdan nariga o'tolmaysiz, ha, uni saylaysizlarmi, tayinlaysizlarmi, men aralashmayman, keyin, ya'ni uning yuzi ma'lum bo'lgandan so'ng kallasidan

nusxa olinib, tunchdan quyasislar-da, buning kallasini olib tashlab, o'rniga unisini qo'ndirasiz, vassalom! Butunicha qaytadan yasab yurmaysiz. Xolislik uchun, azbaroyi tinchliklaringni ko'zlab, kalamdan nusxa olishlaringga ham, mayli, roziman. Faqat kalamdan, boshqa joyimga teginmaysiz. Xo'sh, zanjiri masalasiga kelsak, keyin uni ham «bolgarka» bilan arralab tashlab, bo'yin, bel, bilak-oyoqlardagi o'rnini silliqlab qo'ysangiz bo'ladi. Albatta, bu keyinroq. Ho'-o', o'zingiz tashlagandan so'ng. Hozircha zanjiri sizlarga kerak. Shu vaqtgacha unga sajda qilib o'rgangan g'uliyot, keyin nimaga sig'inasiz? Endi buning qo'lini bir tomonga cho'zgani yoqmayotgan bo'lsa, unda bunday qiling: tagiga aylanadigan mexanizm o'rnatsangiz, qaysingizga qay yoq ma'qul tushsa, to'xtamay o'sha yoqni ko'rsataveradi. To'rt tomoningiz - qibla. Shoshmang-chi, o'zi sizlarda qibla bormi-yo'qmi?...»

Tilim burroligi o'zimga ham yoqib ketib rosa gapiribman, bir vaqti qarasam, men bilan imolashgan g'uliydan boshqa hamma qo'lini boshiga pana qilib, quyonni suryapti. Bari bir, so'zimni to'xtatmadim, bir o'zi bo'lsa ham qolganlarga yetkazadi-ku, deb yana ba'zi fikrlarimni aytib oldim. Hatto ularning yurtiga kelib, shu kunga tushib qolganimdan zorlandim ham shekilli. Bir vaqti u ham ko'lankaga aynib, turgan joyida havoga singib ketgandek yo'qoldi.

Bitta o'zimga bularning maydonida pishirib qo'yibdimi, dedim-da, haykal qo'lini cho'zgan tomonni mo'ljal olib, men ham bog'hovliga haydadim. Yo'lda kelayotib shu kelayotganimga ishonmaganim esimda lekin. Mana, oradan ko'p yillar o'tib ham maydonga borganim, u yerda ko'tar-ko'tar bo'lganim, keyin yana yerga tushib, g'uliylarga ko'p gaplarni gapirganimga o'zim ham shubhalanib yuraman: aytsam aytganimga ishonmayman, aytmagan bo'lsam, nimaga buncha kuyib-pishganman deb o'ylanaman.

Yana o'sha shubha-gumonlar

Kelishim bilan patnis ko'tarib, choy bahona, maydonda qanday obro' topganimdan g'ururlanishga kirgan g'uliyamga: «Qani, patnisingni qo'y-da, yech!» deb buyurdim. G'uliyam boshqacha tushungan ekan, shu harakatda «O'zingiz-chi?», degan edi, «Yo'q, zanjiringni!», deb to'xtatdim. «Qanday yechaman?» dedi u taajjublanib. «Yechasan! Chiroq o'chirishni boplaysan-u, buni bilmaysanmi?», deb qat'iy turib oldim. «Bari bir kiyim almashtirasiz-ku, shalabbo ivibsiz», dedi u umidini uzmay. «Ustimda quriyveradi. Xomtama bo'lma, har qancha yalinma, sizlarnikini kiymayman», deb maydonning alimini undan oldim. U shashtimdan cho'chib, ikki qo'llab zanjirini changalladi. «Tez bo'l! Ombir-pombir top, axir», deb qistadim. G'uliyam sarosimaga tushib, ko'zlarini katta-katta ochib turaverdi. Sal o'zimni bosib olib, yotig'i bilan tushuntirdim: «Muncha shunga yopishib olgansizlar? Axir, erkin yurganingni ham bir ko'ray. Mana, chiroyli qizsan, zanjiringni yechsang, yanada ochilib ketasan. Mening ham ko'nglimda g'uborlar tarqaladi». G'uliyam boshini yelkamga qo'yib, to'lib-toshib yig'lab yubordi. Men shodligidan, erkinlik shavqidan deb o'ylabman. «Axir, sizdan ayrilishni istamayman», dedi u. «Nimaga ayrilasan? – deb ajablandim. - Qaytangga, doim shiqirlab g'ashimga tegadi, xuddi robotni quchoqlagandek bo'laman». «Yo'-o'q, - dedi g'uliyam zorlanib, – uni yechsam, ko'nglim ham tamom erkinlikka chiqib ketadi. Sevgiga ham bo'y bermay, boshqasini tusab qoladi. Menga esa sizsiz hayot hayot emas».

Ana xolos! Ob-bo g'uliya! Ko'ngli ham g'uli bilan ekan-da! Uni yechsa, faqat muhabbatidan emas, hamma narsasidan voz kechishiga to'g'ri kelib, butun dunyosi ostin-ustun bo'lib ketar ekan.

Shunda chuqur angladim: asli taqdirimiz ayro tushgan, o'rtamizdagi muhabbat ham zanjirning omonati, usiz - yo'q, ikkalamizni bog'lab turgan narsa ham shu ekan. Ha, odam bilan g'uliyaning qo'shilishi ham qandaydir g'ayri, men faqat bu qizga emas, umuman g'uliyotga-da qaynatsa qoni qo'shilmaydigan yetti yot begonaman.

Qiz yonimda, boshini yelkamga qo'yib, bor vujudini menga topshirib o'tirgan bo'lsa-da, oramizdagi uzoqlikni chamalab ko'rib, yuragim orqaga tortib ketdi. Shunda maydonda ham xom ish qilib qo'yganimni angladim. Ha, xoldorning xizmati meni bu yoqqa keltirish rejasini juda puxta o'ylagan bo'lsa ham, qayerdadir xatoga yo'l qo'ygan. Bir-ikki kundan beri bosh qotirib, shu xatoni topolmay yurgan edim, endi birdan oydinlashdi. Xato mening o'zimda! Ya'ni ular o'ylagan, kutgan odam bo'lib chiqmadim. Bugun maydonda misim chiqdi. Faqat xoldorning xizmati oldida emas, butun g'uliyotning ko'z o'ngida, asli kimligimni ko'rsatib qo'ydim. Bular menga shuncha izzat-ikrom ko'rsatib, qo'llab-qo'ltiqlab kelsa-yu, men og'zinga umid bilan termulib turganlarga, erkinlikda yashashdan tajribasi bor odam sifatida, zanjirsiz hayot kechirish nima ekanligini yotig'i bilan tushuntirish o'rniga, kitobimda o'rnak qilib yozib qo'yibman, o'qib-o'rganavering, lekin ozodlikka til tegizmang, deb yozg'irib o'tirsam-a! Yana kallamdan nusxa olinglar, debman-a! He, ishlamagan kalla! A buning o'rniga firqalar tuzib, demokratiyaga asos solishni o'rgatmaymanmi? Bunga hali bular avom deb yuribman-a! Odam ham shunaqa xom bo'ladimi? Xoldor zo'r yozuvchi ekansiz, yozganlaringizning tagi to'la tagma'no, desa, taltayib o'tiribman. Axir, G'ulistondagi hayotning boshi berk ko'chaga kirib qolganini ne-ne yillardan beri ko'rib kelayotgan bu xizmat meni murg'akligimdan bekorga ko'z ostiga olmagan-ku. Keladi, ozodlikdan namuna ko'rsatadi, unga qarab o'zimiz ham o'zgaramiz deb umid qilsa, men, erk jarchisi, bog'hovlida qamalib olib, kutubxonada kitob o'qiyman, kasseta ko'raman deb, aslida suluv qiziga esim og'ib, hushimga kelgan noma'qulchiliklarni qilib yuribman. Ularning ham e-e, odam degani shumi, zanjiri yo'q demasa, o'zimizga o'xshagan g'irt bir g'uliy ekan-ku, deb rosa hafsalalari o'lmaganmi!

Ochig'i, o'zim ham bunaqa mo'rtman, bunaqa past ketaman, deb o'ylamagan edim. Yelkamga boshini qo'yib o'tirgan shu xushhol qizning ham shirin xayollariga arzimastigimni o'ylab, battar ezildim.

Ha, darvoqe, bir kuni eshitib qolgan gapimni aytmabman. Bog'hovlida to'yib sayr qilib, xonamga chiqsam, eshik qiya ochiq ichkarida xoldor bilan xizmatchi qiz g'o'ng'ir-g'o'ng'ir aytishyapti. To'xtab quloq soldim. «Senga dasturni bajarish topshirilgan. Unda chegaradan chiqasan degan ko'rsatma yo'q», dedi xoldor. «Doim birga bo'lish, yurish ko'rsatilganmi, axir? Hissiz bir mahluq emasman-ku», dedi xizmatchi qiz. «Mayli, senda ham yurak bor. Lekin uning kimligini o'zimiz ham bilmaymiz-ku», dedi xoldor tovushini pasaytirib. «Men bilaman, ko'nglim biladi: u - odam, zanjiri yo'q g'uliy», deb e'tiroz qildi qiz. «O'zing o'ylab ko'r, odam bo'lsa ham, o'zi bormi yo ko'zimizga xuddi bordek ko'rinyaptimi, hali tagiga yetmadik», deb ovozini balandlatdi xoldor. «Bor, bor odam, - deb turib oldi xizmatchi qiz. – Borligiga isbot, mana, bo'yimda! Har holda, bu sizdan emasdir. Yo havodanmi?» «Nimaga shama qilyapsan? Senga teginmaganman-ku. Behayo kinoyalar nimaga kerak? Dasturda unga yaqin aloqada bo'lib farzand orttirishing belgilangan, xolos. Lekin bu yo'l bilan bor-yo'qligini aniqlash sening ishing emas». «Xo'p, mana, bor ekan-ku, ko'nglim aynimasa ham, halitdan qimirlayapti. Yana nimasini aniqlaysiz?». «Dasturda senga shuncha topshiriq berilgan, lekin unda chindan yaxshi ko'rib qol, sev deb aytilmagan. Chegaradan chiqishning oqibati o'zingga ma'lum. Men ham yordam berolmay qolishim bor». «Endi qaytmayman, dasturni bajarish barobarida men ko'nglimdek ko'ngil topdim», dedi g'uliy qiz tushmagur.

Ana ko'rdingizmi, u meni deb nimalarni bo'yniga olgan. Uning aytganlari qat'iy, xoldorning gaplari esa rahbarning dashnomlaridan ko'ra, chorasiz qolgan odamning izillab yo'l izlashiga o'xshab ketardi.

Ular ancha tortishib, juda past gapirishga o'tganlaridan keyin, men ham eshitmay qolib, kelganimni bildirmay, yana xiyobonga qaytib tushdim. Xoldorning o'zi bormi yo ko'zimizga shunday ko'rinyaptimi, hali bilolmadik degan gapi uncha cho'chitmadi. Chunki G'ulistonda yuribmanmi, yurmayapmanmi degan savol o'zimga ham tinchlik bermayotgan edi. Lekin g'uliy qizning borligimni bo'yida borligi bilan isbotlashdagi shashti o'ylantirib qo'ydi. Bunchalar chuqur sevishini

kutmagan edim. Albatta, u ham meni ertaga bizga yetakchi, najotkor qahramon bo'ladi, o'zim esa esa shunday qahramonning ma'shuqasiga aylanaman, deb o'ylagan. Endi maydondagi, yo'q, hali zanjirda yashab turinglar, degan gapimni eshitsa, bechora qay ahvolga tushar ekan? Har holda o'rtamizdagi ishq muhabbatga putur yetishi aniq. Mana, zanjiri bo'lmasa, meni sevishi ham uch pul ekan-ku. Demak, qizning orzu-havasichalik emasman, bir oddiy g'uliyman, xolos. Faqat zanjirsiz.

Yelkamga bosh qo'ygan g'uliyamning sochini silab o'tirib juda rahmim kelib ketdi. Yo'-o'q, unga emas, u rahm-shafqatdan yuqori turar ekan, o'zimga. U yoqda ham, bu yoqda ham hech kim bo'lolmadim. Endi bularga-da kerak emasman.

Shu havoda yana yo'l

Kunlarim shunday diqqinafas o'taverdi. Havo shu ayniganidan qaytib o'nglanmadi, har kuni shamol, yomg'ir. Bir kuni sal ochilgan edi, ochiq osmonga yana bulut chiqib, kuppa-kunduzi zamin qorong'ilikka cho'mdi-da, hammayoqda bahaybat xarsanglarni to'qishtirayotgandek, birdan qarsillab berdi. Yashin chaqnab, olovli tili bilan borliqni yalay ketdi. Uncha achchiq emas-u, lekin kiyimdan tortib, hay-hay demasang, naq yechintirib ketaman deydigan shamol turdi. Bog'dagi kesilib yotgan olma bargi xazoni to'zon bo'lib ko'tarildi.

Tabiatning bu qadar bezovtaligidan hadiksirab, turgan gap, xonamga biqinib oldim. G'uliy qiz yana choy damlab kirdi. Quruq choyni o'zi ichimni sidirib yuborgan bo'lsa ham, bostirib-bostirib ichaverdim. Boshim terladi, shu odat ham o'shandan qolganmi deyman, keyin ham choy shunaqa ta'sir qiladigan bo'ldi.

Derazadan tashqaridagi to'polonni tomosha qilib o'tirgan edim, momaqalldiroq qasirg'asi ichidan gurillagan tovush ham kelib, bir oq narsa lipillab o'tgandek bo'ldi-da, yuragim gupillab urib ketdi.— «no'l to'qqiz»im! Qayoqdan kelib qoldi? Bilmadim, nimagadir qadrdon temir buyumimni ko'rib, bejizga emas deb, quvonib ketdim. Hoynahoy, bu xoldorvoyning ishi.

Bilganimdek, bir vaqti xoldor jo'ramning o'zi ham kirdi. Ey, maxsus xizmatda bo'lsa ham, bari bir, yaxshi g'uliy-ey, ko'nglimga ancha yaqin bo'lib qolgan ekan, ko'rib quvondim. U esa avjsiz, «Mendan rozi bo'ling. Na iloj, har qanday sharoitda ham burchimga sodiq qolaman», dedi. Darrov tushundim, tushundim-u, G'ulistondan ko'nglim tinchidi: ha, u endi yana ishonchli qo'llarda. Xoldorki o'zini tutib olibdimi, demak, xizmati ham yana vazifasiga qaytgan. Lekin uning xayoli uncha joyida emas edi. O'zini qancha o'ktam ko'rsatishga urinmasin, bari bir, tozalash sabog'idan cho'chiyotganini sezdim. Bo'lmasa, endi bu saboqning uncha jazoligi qolmadi hisob, lekin maxsus xizmat uchun xodimlarni imtihondan o'tkazib, har qanday sharoitda ham vazifani og'ishmay bajaraverishi shart ekan. Xoldor ham mendan ko'ra ko'proq o'zini ishontirish uchun «Hamma narsaga

tayyorman», deb qo'ydi. Bechoraga ham og'ir, mening jaddimga xo'rlik ko'ryapti. «Mashinangiz hali yaxshi, ishkali yo'q, faqat tezligini almashtirishga qo'lim kelishmay, haydashga qiynadim. O'zingiz sinab ko'rarsiz, kaliti joyida», dedi chuqur ma'noli qilib. Bu endi, albatta, xizmatning bo'ldi, izzating bitdi, ket, degani edi.

Xoldor qo'l berib xayrlashdi. U ketdiyu g'uliyam yig'lamsirab kirdi. Ey bechora, o'zingni ushlasang bo'lmasmidi, mana, endi ahvoling nima kechadi, yana bo'yingda ham bor, seni o'zim bilan olib ham, tashlab ham keta olmasam, shu azob yetmay turgan edi, deb dilim tashqaridagi qorong'udan ham xufton bo'ldi. Bola-chaqalik odam, kechirasizlar, sevgi-muhabbat ekan deb, buni zanjirini shaldiratib etaklab yurolmasam. Keyin, demokratiya, inson huquqlari deb, odam tugul, hukumatlarning ham yoqasidan oladigan tashkilotlar urchib ketgan. Birontasi G'ulistonda bo'lmagan, g'uliy nimaligidan butkul bexabar, bu ahvolda olib borsam, insonni kishanband qilibsang, deb kunimni ko'zimga ko'rsatarlar. Zanjirini yechdirsang, meni sevmay qo'yadi degan gapni ularga uqdirib bo'lmasa. Militsiyaga topshirarlar, yo'q, G'ulistondan, ya'ni chet eldan qiz olib borganim uchun Interpolga oshirib yuborarlar. Shu gaplarni g'uliyamga tushuntirdim, xudo ko'rsatmasin, birga ketsak, shunaqa muammolar chiqadi, dedim-u, o'zim ichimda, qani, ishqilib, ko'rsatsin-da deb umidlandim. U xizmatda chiniqqan yo dasturda bu qismati ham ko'zda tutilganmi, o'zini yaxshi tutib, mehr ko'rguzib o'tirdi.

Rosti gap, kech tushavergani sari qizga olib ketolmasligimni juda asoslayverganim uchun, vijdonim-da qiynamay qo'ydi. Bu orada kuchli bir shovur keldi-da, sharros jala quyib berdi. Yeru ko'kka qoramtir parda tortilgandek, osti-usti bilinmay qoldi. Chaqmoq har chaqqanda oq «no'l to'qqiz»im ohudek qaltirab, menga talpinayotgandek tuyulaverdi. G'uliyamga oxirgi marta to'yib tikilib, yuzidan xuddi yangi oshiqlardek entikib bo'sa oldim-da, pastga tushib, mashinamga o'tirdim. Motorni o't oldirsam, haqiqatan ham ishkali yo'q, tekis gurilladi. Haydadim! Hali bog'hovlidan chiqmasimdan ham ozodlik nash'asi ko'ksimga oshib toshdi.

Darvoza ochiq ekan. Atrof sim-siyoh, faralar yo'lga xira nur sepadi, asfaltning usti nihoyatda tekis, yumshoq, yo'lda ketyapsizmi yo ko'lda suzyapsizmi, farqlash qiyin. Bir-ikki joyda «no'l to'qqiz» naq beligacha botib o'tdi, suv atrofga shovillab otildi-yu, xayriyat, motorga tegib, o'chirib qo'ymadi. Hu, haligi ziyorat maydoni huvillab yotibdi. Lopillayotgan chaqmoq shu'lasida haykalning yolg'iz o'zi g'oz turib, endi uni ko'rmayotgan, eshitmayotgan g'uliy tabaalariga qo'lini cho'zib, yana o'sha buyruqlarini yalt-yult uqtiradi. Yondosh ko'chalarda ham jon asari yo'q. Menga ham shunisi tinch, yana ko'tar-ko'tar qilaman deb, mashinamni to'ntarib yuborishlari hech gap emas edi.

Chorrahalarda yashil chiroqlar qorong'uga lip-lip ilinib qolgan, hamma nima bo'lishini bilmay, in-iniga urib ketganmi, menikidan boshqa biron mashina ko'rinmadi.

Yeru ko'kka do'q urib, hukmini yurgizayotgan momaqaldiroq derazalarining ko'zi yumuq uylar ustiga ham suyuq chaqinni ayamay quyadi. Butun shaharda chiroq o'chgan, shunaqa paytlarni meni intiq-intizor kutadigan g'uliy qiz xayolimga keldi, lekin u endi uzoqda qolgani uchun vijdonim ham uzoq tuyuldi. Qayoqqa qarab ketayotganimni bilmayman, lekin orqaga ham qaytgim yo'q. Hamma yoq ko'llagan bu yomg'irda mashinani buraman deb, biron chuqur-puqurga tushib ketishim ham hech gap emas edi. Shuning uchun tavakkal, - yo ol, xudo, yo ber, xudo! – chambarakni mahkam changallab, oldinga nigohimni burgutdek qadab, gazni bosaverdim. Jonivor bag'rini battar yerga bosib, oviga tashlangan ola-bula yo'lbarsdek ilgari otiladi, ko'p qavatli uylar viz-viz orqada qoladi.

Bir vaqti motor tovushi ilkis pasaydi, uylarning shovqinni shuv-shuv qaytarmaganidan bildimki, shahardan ochiq dalaga chiqdim. Tepadagi osmon qora, pastdagi zamin sim-siyoh, fara nurlari yerga qapishib uchadi, mashina oynasidan suvning tepaga chizimcha-chizimcha ipdek yuqorilashi hali yomg'ir borligini bildiradi. Yengil guvillashdan boshqa hammasi allalaydigan sukunat, lekin kechalari rulda mulgib qoladigan odatim yo'q, xuddi bir narsalarni o'ylayotgandek

bo'lib, xayolim bo'm-bo'sh, ko'zimni kirtaytirib, qotib ketaveraman. Kechasilik yo'l, xuddi otam qurib bergandek, o'zimniki bo'lib qolgan.

Juda ko'p, juda ham ko'p yurdim, ko'zimning oldida bulutlar yer bag'irlab, o'zi yo'q sharpalar o'ynoqlay boshlaganidan katta yo'lni bosib qo'yganim aqlimga yetdi.

O'zimizning chuqur-choplar

Bir vaqti lop etib kun yorishdi. Mashinaning ichi o'zi iliqqina edi, endi meni birdan yengil ter bosdi, ya'ni tashqaridagi havo ham isib ketdi. Bir cho'nqir chiqib qoldi, «no'l to'qqiz»im o'ziyam chars echkiday sakrab ketdi, bir joylari qart-qart qildi, lekin yomon mustahkam mashina-da, hech narsa bo'lmagandek, uchib ketaverdi yana. Ko'nglimni bir tanish tuyg'ular egalladi: o'zimizning qadrdon cho'nqirlar! Shu barobarida yo'l ham gursillab berdi. Qadrdon palaxsa beton plitalar! Rosa hayajonlangim keldi, ey-hey deb, qichqirib ham ko'rdim, lekin, mana, hamma iztiroblarim nihoyasiga yetib, eson-omon Toshkent – Jizzax yo'liga chiqib olganimni anglasam-da, unaqa hayajonlanib ketmadim, bari bir shunday bo'lishini bilgandek, osongina quvondim. Yo'lning ikki chekkasida uzun ketgan botiq ko'lmaklarning zanglagan suvlarida oftob lipillashi, nariroqda keta-ketguncha cho'zilgan osma semon ariqlar, yakkam-dukkam bargi mayda daraxtlar, har ellik-yuz odimda osib qo'yilgan shiorlar, hozir «bilbord» deyiladi shekilli, xullas, hammasi o'sha-o'sha o'rganish narsalar. Juda uzoq, qiynalib kutilgan shodlik keyin birdan kelib qolsa, uncha ham tatimas, odamga xuddi shunday bo'lishi kerakdek tuyulib qolar ekan.

Bari bir, xudoga shukr qildim, tezroq endi Jizzaxga yetay, bolalarimni sog'inib ketdim deb, gazni qattiqroq bosgan edim, daraxt panasidanmi yo butaning orqasidanmi, ola tayog'ini o'qtalib bir «dan»chi chopib chiqdi. Hamishagidek bekinib turgan joyidan avval ola tayog'i, keyin o'zi ko'rinish berdi. Ana shunda vatanga qaytganimni batamom his etib, yuragim shuvillab ketdi: kambag'alchilik o'lsin, «dan»chiga beradigan pulim yo'q edi. Yana buning ikki chakka sochi oqargan, oftobning tagida qovrilib turibdi, tayog'ini pesh qilmasa ham, hurmatini joyiga qo'yish kerak.

O'zimizning jo'qchilardan ekan. «O'y-ba-yov, jov quvyaptimi? Bu yerda odam turibdi demay ushirib kelyapsan», dedi u mashinadan tushishim bilan kaftini tutib. Darrov ichim achidi, ha, bu akamga ham qiyin, o'g'il uylantirib, qiz chiqarayotgandir yo nevarasiga beshik qilib berishi kerak, hammasiga

yetkazishning o'zi bo'lmaydi. Lekin aytdim-ku, bor pulimga benzin olib qo'yganman. G'ulistonda birov chaqa ham bergani yo'q, bo'lganda ham g'uliy bularga o'tmaydi. Agar ham quruqdan ko'ra shu ham yaxshi, esdalikka demasa. Yana deng, kun tig'iga kelgan, atrofdan quloqqa xuddi bo'laqolsang-chi deyotgandek, besabr hasharot shovqini uriladi, «dan»chining oq sochlaridan milt-milt ter oqib, furajkasining jiyaklarigacha jiqqa ho'l. Ha, bu akam ham xudoning umidvor bandasi. O'zim ham darrov aslimga qaytib, tilim odatdagidek gapga keldi. «Mana bu yoqqa qarang», dedim kelayotgan yo'lim, ya'ni Toshkent tomonga qo'limni uzatib. U o'sha yoqqa qaradi-yu, lekin hech narsani tushunmay, yana menga o'girildi. «Yo'q, siz yaxshilab qarang-da», dedim. «Xo'p qaradim, ne bor ekan?», dedi u yana burilib. «Ana, ko'ryapsizmi, shu yo'ldan sizning rizqingiz oqib kelyapti. Bitta yozuvchi berganiga zor emasdirsiz?», dedim. U bir yo'lga, keyin yana menga qaradi-da: «O'y-ba-yov, yomon qattiq ekansan. E, ma dakumeting. Bir so'm uchun shuncha gap-a», dedi. O'lganimning kunidan tirjayib, rahmat aytdim, u ham boshqa tirg'almay qo'yib yubordi. Endi o'sha bir so'm bo'lmagandan keyin iloj qancha, sho'tqari emasman-u, lekin shaytonlik qilganimni tan olaman.

Odam har qanday sharoitda ham odam, hammasiga ko'nikar ekan, shuncha vaqtgacha G'ulistonda edim, mana, endi undan qutulib chiqib, o'zimizning yo'ldan bemalol boryapman, hech narsa bo'lmagandek, go'yo hech qayoqqa bormaganman, to'g'ri Toshkentdan kelyapman, hozir Jizzaxga yetaman, o'sha ketma-ket paxta dalalari, ora-sira bog'lar, yo'llarda kanistrda benzin sotayotgan bolalar, narxi ham so'm-kuponda, uncha o'zgarmagan, xullas, favqulodda narsa yo'q. Xuddi G'ulistonga boshqa odam borib kelyapti-yu, uning boshidan kechirganlari mening xotiramda qolgandek.

Kechasi bilan uxlamay haydaganimga yo'l ham sal toliqtirdi lekin. Jizzaxga yaqin qolganda, Paxtakorning burilishida ko'p qovun to'kilib, odamlar mashinasini to'xtatib tushib, olyapti ekan, sal oyog'imning chigilini yozay deb, men ham tushdim. Bir-ikkita qovunni chamaladim, to'rini ko'rib, dumcha berganiga

qarayatganda pulim yo'qligi esimga tushib qoldi. Qovunfurush ham juda hidlayotganimga biladigan xaridor kelib qoldi, hozir qancha dori yeganini so'raydi deb xavotirlanib turgan edi, «Tomosha qilyapman. Shu navni ekib yaxshi ish qilibsiz», deb ko'nglini tinchitdim. Keyin, hali ham qaytganimga ko'nikkanim yo'q-da, kezinib yonboshdagi xo'jalik mollari do'koniga o'tdim. Ko'p kirganman, bir marta uyda sira ishlatilmay yotgan kir ishqalaydigan qat-qat tunukani ham shu yerdan olganman. Do'konchi pashsha qo'rib o'tirgan ekan, xaridor kirganiga sal jonlandi. Tomosha qilayotib, bir burchakda nimani ko'rding deng? Bir uyum zanjir! Yap-yangi, moylangan, yaltillab yotibdi. Zanjir shunaqa do'konda bo'lmay, yana qayerda sotiladi, shuni bilib tursam ham, xuddi tag'in G'ulistonga kelib qolgandek, ko'nglimga g'ulg'ula tushdi. «A bu... zanjir qayerdan?» deb so'radim dovdirab. Do'konchi achchiq kulib, qo'lini siltadi. «E-e, pul almashish vahimasi bilan bazaga borsam, boshqalar supurib ketibdi. Qolgan narsa shu ekan. Hali oshib ketadi, foyda qilaman deb, besh tonnaning hammasini olibman. Endi o'tmay, hovlimda bekorga joy egallab yotibdi», dedi xunobi oshib. Nima deyishimni bilmay qarab qoldim. «Odamlar bunga novvos bog'lamay qo'ygan. Itlar ham ko'chada, to'g'ri kelganni talaydi, lekin hech kim zanjir solay demaydi. Hayronman, arqonga qaraganda o'lmas matoh-ku bu», deb dard qildi, keyin: «E-e, bitta siz so'radingiz, boshqa odam qarab ham qo'ygani yo'q. Mayli, oling endi», dedi yuzi sal yorishib. «Boshimga uramanmi, o'zi shundan qochib kelyapman», dedim. Albatta, nimaga bunday deganimni do'konchi tushunmadi. «Shunday beraman. Tekin, tekinga. Zora qo'lingiz yengil kelib, savdom ochilib ketsa», degan edi, noiloj bosh irg'adim. U xursand bo'ldi, bitta zanjirni shaldiratib tutqazdi. Uzun balo ekan. Xuddi sovuq ilonni ushlagandek, bir uchidan tutib turdim, u cho'ziltirib, kir latta bilan moyini artib berdi. Zanjirga zoriqqan joyim yo'g'-u, lekin zanjiristondan qutulib chiqqanimda buni ko'rganim ham bejizga emas, qarab, boshimdan o'tganlarni eslab o'tirarman deb, mashinamga tashlab qo'ydim.

Bu yog'i atigi yigirma chaqirim, Jizzaxga birpasda bordim. Qaynotamning darvozasiga yetganda, mana, nihoyat biz keldik deb, ustma-ust zang berdim.

Bolalarim hovlida o'ynab yurgan ekan, «no'l to'qqiz»ning tovushini tanib, chopqillab chiqishdi. O'g'lim katta odamlardek qo'l berib so'rashdi-da, indamay qaytib kirib ketdi. Qizim esa «Voy, Pushokning bir o'zi qoldimi? Qo'rqadi-ku bechora», dedi. Alomat-da shu qizim, kuchugini o'ylaydi, mendan esa shuncha vaqt qayda qolib ketdingiz, deb so'ramaydi. Keyin qo'lidagi xamir yuqini artib, kelingiz ko'rindi. «Yaxshi bo'ldi kelganingiz, manti qilayotgan edim», dedi, boshqa hech narsani so'ramadi. Shu vaqtgacha xiyonatimni undan qanday yashiraman, bolalarimni ko'rsam, ularning ko'ziga qanday qarayman, deb sal o'yga botib kelayotgan edim, yo'q, hech narsa bo'lmadi. Boyagidek, go'yo G'ulistonga boshqa odam borgan, g'uliy qiz bilan ham o'sha yurgan, menga aloqasi – uning xotiralarini men eslayapman, xolos. Kelingizga ham bemalol qarayapman, bolalarning oldida ham xijolat emasman, shunchaki, birov bir yoqlarda bema'ni ishlar qilgan bo'lsa, qilgan, yurgan bo'lsa, yurgandir, buni kelingizga aytib berishimning sira-sira keragi yo'q, qaytangga xotiramdan chiqarib tashlaganim yaxshi. Bor-yo'g'i shu ekan. Kallam chalkashib turgan bo'lsa ham, ancha yengil tortdim. Mana, qarang, odam nima uchun bemalol xiyonat qilaveradi. qilgulikni qiladi-da, xayolida, to'g'ri, shu ish bo'ldi, faqat u men emas edim, men bo'lganim taqdirda ham, bari bir, shuni qilganda boshqa odam edim-da, deb vijdonini tinchitib oladi, shar'iy zavjasiga ko'zini pirpiratib, begunoh boqaveradi. Men ham shunaqa, G'ulistonga bormaganman, yo'-o'q, hech qanaqa g'uliy qiz bilan yurmaganman, e-e, meni kim deb o'ylayapsan, zanjirini shaldiratgan oqsochga teng qo'yma meni, odamga ishon-da, yo'q esa, shungacha bordim deb, o'zimga ham tuhmat qilib yuboraman. Rostdan shunday tuyulib qoldi-ey, shu turishimda bir namunali ota, biram vafodor ermanki, hech u yoq-bu yog'i yo'q. Odam juda-juda tez o'zgarar ekan-da shunday.

Bularning ham xayolida unaqa gap yo'q, kelingizning o'yi mantisida, bolalarimni ko'rganimdan keyin shu uzun sarguzashtimga o'zimning ham hafsalam o'lib qoldi.

Bir vaqti keliningiz meni ul-bul olib kelgan bo'lsa, tushiray deb, mashinamga qarab zanjirni ko'rib qolib: «Iy-e, bunga o'zingizni solasizmi?», desa bo'ladimi. Ba'zan tili yomon achchiq-da. «Nima, tez-tez quturib turamanmi?», deb kinoya qildim. «Bo'lmasa... bu zanjirga soladigan kim bor?» deb hayron bo'ldi u. «Kim emas, nima, - dedim. – Pahmoq - Ahmoqqa solaman. Ko'chaga chiqib, odamlarga vakillamay, joyini bilib yotadi». «Mushtday narsaga-ya? Uvol-ku», deb uning astoydil rahmi keldi. «E-e, itning kattasi ham, kichigi ham, bari bir, it», dedimu keyin yo'lda do'konga kirganim, do'konchining tekinga shu zanjirni berganini aytib berdim. «Hurmat qilib turib olgandan keyin, yo'q demay, oldim. Umuman, zanjir doim kerak narsa», deb tushuntirdim. Shu asnoda G'ulistonga borib kelganimni, u yerda hamma zanjir taqishini, shuning uchun ham g'uliy ekanliklarini aytib beray dedim-u, tilimni tishladim. Chunki unda bo'lgan gapning hammasini ochishim kerak. Keliningiz bilan doim samimiy gaplashaman, mard odamman, uni aldab o'rganmaganman. Keyin o'zimning ham ko'nglimga shubha oralay boshlagan edi.

Shu vaqt spidometrغا qarash esimga kelib qoldi. Yo'lga chiqayotganda hamisha uning kichkina ko'rsatgichini «no'l»ga qo'yaman. Toshkentdan chiqib, yo'lning haligi orqa-oldi bir xil bo'lib qoladigan joyidan G'ulistongacha, undan bu yoqqa, Jizzaxgacha kechasi bilan mijja qoqmay haydab, yana kun tig'asigacha yurib, necha kilometr bosibman ekan? Ming chaqirim, balki undan ham ko'p yo'ldir deb qarasam, spidometr Toshkentdan qaynotamning uyigacha bo'lgan hamishagi masofa, ya'ni bir yuzu sakson yetti kilometrning o'zini ko'rsatib turibdi! Ana xolos! Shuncha yurgan yo'lim qayoqqa yo'qoldi? Voajab, qoyil, mo'jiza, ko'zboylog'ichlik va hokazolar dedim, lekin nima foyda?

Mashinani aylanib qarasam ham G'ulistonda kecha, bugun kechasi bilan quygan jaladan asar ham yo'q, old oynasiga, kapot ustiga rosa pashsha urilgan, uchta ari ham bor, raqamining tunukasi hasharotga chuykab ketgan, ikkita katta-katta chigirtka ham yopishib yotibdi. Egilib hidlasam, doimgidek baliq isi keldi. Holbuki, nafaqat yomg'irda, havoning avzoyi buzilsa ham pashsha uchmaydi,

«no'l to'qqiz» ham o'zini o'zi bulg'aydigan mashina, loyqa chuykalib ketgan bo'lishi kerak edi.

Kitobim ham doimgi joyida, orqa oynaning tagida turibdi. Yana qaytarib qo'yishibdi-da joyiga deb, ochib varaqlasam, hech bir joyi chizilmagan, biron yerida belgi-melgi yo'q. Yo chizganda ham haligi elektron bo'yoqni ishlatgan ekanlarmi?

Hayron bo'lib ichkari kirdim. Qaynotam uyda ekanlar. Salomlashib, so'rashish asnosida qachon chiqib, qanchada kelganimni surishtirdilar. Bilagimdagi soatinga qarab, «E-e, ko'p bo'ldi, ertalab edi», deb ko'ngillarini tinchitdim-u, lekin o'zim taajjubga tushdim: mashinaga o'tirganda soatni ko'rgan edim, o'shandan beri atigi ikki soatu o'n daqiqa o'tibdi; agar qovunga to'xtab, do'konga kirganimni chiqarib tashlasa, yo'limga bir soatu ellik daqiqalar ketgan. Qaynotam doim meni avaylaydilar, bu gal ham: «Qayoqqa buncha shoshasiz? Xudo ko'rsatmasin, yo'l-da bu, aytib bo'ladimi. Yarim soat oldin keldingiz - nima, keyin keldingiz - nima», deb xo'p beozor koyidilar. Har xil xayolga borib yurmasinlar deb, qayoqqa borib kelganimni aytmadim, albatta.

Ko'ryapsizmi, bizni tashvishga qo'yib, nimaga muncha qorangni ko'rsatmading, deb so'ramadilar. Bo'lmasa o'tirish-turishimga, qayoqlarda nima ish qilib yurishimga qiziqadigan odam. Keyin so'rashgan qarindosh-urug'lardan ham bu gap chiqmadi, bir-ikki og'iz salomlashishdan keyin bu yil issiq kelgan obu havoyu o'sib borayotgan narx-navo haqida hangoma davom etib ketaverdi. Rostdan ham men Toshkentdan chiqib, to'g'ri Jizzaxga kirib kelgandek. O'zimga ham shunday tuyulib, shuncha ko'rgan-kechirganlarimni aytishni, turgan gap, ep ko'rmadim. Yo'q bo'lib ketganimga yarasha, aqlimdan ham shubhaga borib yurishmasin deb o'yladim. Aytganlarimga birov ishonadigan emas edi, o'zim ham qanday aytishni bilmaganimdan, indamay qo'ya qolishni ma'qul topdim. Keyin ham gapirmadim, albatta, yozuvchi do'stimni istisno qilganda.

Mana, shunaqa qilib, G'ulistonga safarim ham qaridi, bolalarimni olib Toshkentga qaytdim, safar ham xuddi bo'lmagandek bo'lib qoldi.

Sal yurmay qizim hamishagi xarxashasini boshladi: «Dada, qanchada yetamiz?» O'g'lim ham doimgidek tanbeh berdi: «Endi yurdig-u, muncha shoshasan?» «E, siz aralashmang, dadamdan so'rayapman», dedi qizim. «Dada, bir narsa deng shuningizga», dedi o'g'lim xunob bo'lib. «Ikki soat, qizim, ikki soatdan keyin uyda bo'lamiz», dedim. Boshlandi, endi to uyga kirib borguncha shu konsert.

Yana o'sha joy ko'rindi. Hech bir burum-murumi yo'q, ikki tomoni chuqur-chuqur zovur, uzoqlarga cho'zilib ketgan osma semon ariq. «No'l to'qqiz»ning tumshug'i tag'in orqaga - Jizzaxga qaradi, yuragim shuvillab ketdi, bolalarimni o'ylab, rulni mahkam changalladim, ikki-uch soniyadan keyin yana Toshkentga o'nglandi. Xayriyat, hech qayoqqa o'tib ketmadim. «Sekinroq, sekinrog'-e, bolalar bor. Qarang, nechchiga chiqib ketdingiz?», dedi kelingiz. Spidometrni ko'rsam, tezlik bir yuzu yetmishga chiqibdi. Gursillash ham pirillashga aylanibdi. Lekin kelingizga vahimamni aytmadim. Darrov tezlikni tushirib orqaga qaradim: hech qanaqa o'zgarish yo'q. Bolalarim hamishagidek o'rindiqni o'rtasidan bo'lolmay, janjal qilyapti. U yog'i ham, u yog'i ham birdek yo'l ortda qoldi, shu asnoda ko'nglimning bir chekkasida endi G'uliston menga yopildi, degan bir o'y paydo bo'ldi. Adashmagan ekanman, o'shandan beri bu yerdan yuz martalar o'tgandirman, har gal xavotirga tushib, mashinaning tezligini oxirigacha chiqaraman. Lekin hech narsa bo'lmaydi, «no'l to'qqiz»ning tumshug'i yo u yoqqa, yo bu yoqqa qarab xayolimni chalg'itadi, keyin yana borayotgan manzilimga o'nglanib qoladi.

O'lan to'shagim

Ha, uyga kelganimdan Paxmoq – Ahmoq bir xursand bo'ldi, shunchalar quvondi-ey, hech u yoq-bu yog'i yo'q. Sakradi, hovli bo'ylab chopqilladi, kumush po'stak yer bag'irlab uchdi, hovliqqanidan bir-ikki marta dumalab ham turdi, keyin taqqa to'xtab, panjalarini ko'targancha ko'zimga tikilib oldi. Tilini osiltirib, hah-hah deydi, bir nimalarni so'ramoqchi bo'ladi, jonivorda zabon yo'q-da, bo'lmasa, qayoqlarda buncha qolib ketdingiz, demoqchi. G'ulistonga borib kelganimni bitta shu kumush po'stak bildi. Lekin unga aytganim bilan tushunmaydi, it-ku bu. Yana ham kim biladi, balki hayvonligi uchun ham zanjir taqqanlarni tushunar. Tilini bilganimda unga boshimdan o'tgan hamma sarguzashtlarni hikoya qilardim. Eshitganda, albatta, u yozuvchi do'stinga o'xshab, darrov yolg'on-yashiqni to'qib tashlamas, shunchaki eson-omon qaytib kelganimga xursand, hovlini gir aylanib chopib yuraverar edi. It aldashni bilmaydi.

Odam yuragidagi dardini birov bilan o'rtoqlashmasa, juda qiynalib ketar ekan. G'uliston dard bo'lmasa ham, ko'nglimga qamalib olib, doim tinchimni buzadi. Juda ko'p o'ylayman, lekin bironta fikr tutqich bermaydi. O'ylarim faqat asli o'zi nima bo'lgan edi, nimaga bordim-u, qanday qilib yana o'zimizga qaytib keldim, degan savol atrofida aylanaveradi. Har xil javoblarni to'g'ri qilaman:

a) Vaqt biz bilganimizdan ko'ra bepoyon, u ichkarisiga ham cheksiz. Jizzaxga yo'l tortib, haligi joyda uch-to'rt soniya orasida G'ulistonga o'tib, xizmatchi g'uliya bilan dildorlashib, g'uliylarning uyasiga o'zim bilmay cho'p suqib qo'yib, yana shu yo'lga qaytganman yo ularning o'zi keraksizligim uchun meni chiqarib yuborgan va yana shu, bemalol kelaverganman. Lekin unda spidometrning ko'rsatgichi nega bunday, bir-ikki soniya ichida qizning bo'yida bo'lib qolishi ham aqlga sig'maydi-ku?

b) Yo'lda rulni mahkam changallab, tezlikni tushirmay, ko'zim ochiq holida uxlab, tush ham ko'rganman, tushimda G'ulistonga borib, g'uliya qizni uchratganman.

Unda nimaga shu qizni eslaganda titrab ketaman, shivirlashlari hali ham qulog'imga, o'rtamizda yana aytib bo'lmaydigan ishlar bo'lgan?

v) O'zim G'ulistonga bormaganman, shunchaki o'sha g'uliya qiz meni tush ko'rgan, G'ulistondagi hayotim uning tushida kechgan, g'uliya meni bir xaloskor deb o'ylab, sevib qolgan, keyin u qattiq uxlab qolganda tushidan chiqib ketganman. Unda... bu yoqdagi hayotim kimning tushi bo'ladi, kimning uyqudagi xayolida yashayotgan bo'laman?

g) Hammasi o'zimning tushim, shundan o'ngimdagi vijdonim qiynoqda emas, tushimning ichida yana tush ko'rib G'ulistonga o'tib qolganman, g'uliya qizni sevganman, yana boshdagi tushimga qaytib, uning davomini ko'rib yashayapman. Butun umrim uzundan-uzoq tush, o'zim o'zimni tush ko'rib yuribman. Unda bu yoqda oilam, bola-chaqam, qarindosh-urug'... bular kimning tushi?

Xullas, har xil taxminlarni o'ylab, bironta o'yni tusmol qilolmayman. G'uliylarga ham yaxshi ekan, zanjirlari faqat tanani emas, fikrni ham bir tartibda ushlab turadi, juda chuqurlashib ketgani ham qo'ymaydi. Bu yoqda miya achib ketadi, lekin biron xulosaning tayini yo'q. G'ulistonga borganimga o'zimni ishontirishga ham qiynalaman. U yerdan biron belgi, biron mujda olmabman-da, a? Shuncha kitob, shuncha kassetadan to'rt-beshtasini mashinaga tashlab qo'ymaymanmi! Endi gapimga kim ham ishonadi?

Bir marta shunaqa holatga tushganman. Pul topib oldim. Nimagadir sekinroq: «Birovning puli tushib qolibdi-ku. Kimniki, ey?», deb uch marta qichqirdim. Ovoz beradigan kimsa ko'rinmadi. Yaxshi bo'ldi dedim, pulga qaradim: ikkita beli sinmagan yigirma beshtalik taxlam. Yo'q yerdan xudo berib qoldi, mendan boshqa ega chiqmadi, endi buni tushimdan albatta olib chiqib ketaman deb, mahkam siqimladim, taxlamning qirralari qo'limga qattiq botib, og'ritdi. Yana-da jonjahdim bilan changalladim. Qani, ha, bir-ikki uch, deb... ko'zimni ochsam, ya'ni uyg'onsam, kaftim bo'm-bo'sh. Shuncha pul baribir tushimda qolib ketibdi. Bo'lmasa, ushlaganim, changallaganim qanchalar aniq edi, kaftim haligacha og'rib

turibdi. Lekin besh ming pul yo'q! G'uliston haqidagi xotiralarimni ham shunday mahkam ushlayman. O'zi ushlamasam bermalol yashagani qo'ymaydi, ammo o'zi yo'q, bo'lmagandek.

Yozuvchi do'stinga ham aytmasligim kerak edi. Endi uning ro'monida otashin kurashchi qilib tasvirlanganim, bunga, o'zingiz ham guvoh bo'ldingiz, arzimasligimga o'zim ham xijolatdaman. Lekin hozir fikrim o'zgargan. U ham kitobini mashinasiga tashlab yuradi. «Dan»chilarga ko'p tushadi-da. Keyin Surxondaryosiga ko'p qatnaydi. Albatta, yo'lning haligi joyini ham bosib o'tadi. Shu G'ulistonga kirib qolsa-chi, deb umidlanaman. Ro'monini yomon ko'rar edim, yomonlab bo'lganimdan keyin o'ylasam, binoyidek, havoyi muhabbat sahnalari, o'zimizdan ko'chirilgan tabiat manzaralarini demasa, zanjirga qarshi kurashni qanday tashkil etish haqida avom g'uliyotga tuzukkina ko'rsatma. Ularda bunaqa mavzuda bironta asar ham yo'q. Meniki ham o'zim bilan qaytib kelgan, qolganda ham befoyda edi: ozodlikning nimaligini o'ylamay yozavergan ekanman. Agar yozuvchi do'stim u yoqqa ro'moni bilan o'tib qolsa, asari g'uliylarga bir dasturilamaldek ta'sir qilishi turgan gap. O'zi shu-da, siyosatga ham yengil-yelpi yozadiganlar aralashadi. Yozuvchi do'stim esa bunaqa shuhratga kalla tashlaydi.

Borib keldim, hammasi xayriyatchilik bilan tugadi, lekin g'uliya qiz bari bir hushimni o'g'irlagan ekan. Ayniqsa bo'yida bo'lib qolgani. Hozir oradan shuncha yillar o'tib ketganini hisobga olsak, bolamiz katta ham bo'lib qolgandir. Faqat bilolmayman, u ham zanjir taqqanmi, yo g'uliyot o'zgarib ketib, erkinlikka chiqqanmi ekan? Ishqilib, erkinlik bo'lgan bo'lsin-da, yo'q esa zanjirband bolamning ahvolini o'ylab, uncha ezilmayman-u, lekin ko'nglimning bir chekkasi har zamonda simillab qo'yadi. Hu supermarketda ko'rganim bolacha esimga keladi, bolamiz bu yoshdan allaqachon o'tib ketgan bo'lsa-da, hamon shu murg'ak holida menga ta'na bilan qarab turgandek tuyuladi ba'zan.

Faqat bir taskin: G'ulistondan hech bir asorat qolmagan, u hatto tushimga ham kirmaydi. O'shandan beri Toshkent – Jizzax yo'lida qanchalar qatnadim, lekin biron marta ham u yoqqa o'tib ketmadim, o'tganlarni ham eshitmadim, har gal

yozuvchi do'stim Surxondaryosiga borib qaytganda, og'ziga termulaman, undan ham sado chiqmaydi.

Demak, G'uliston faqat mening chekimga tushgan ekan, shunda ham bir marta. Lekin bari bir o'ylayman, ular meni nima uchun chiqarib yuborishdi deb. Hafsalalarini o'ldirganim uchunmi yo shu yo'l bilan g'uliylikni bu yoqda ham yoydirganimi? Xuddi bu yoqda ham ulardan kimlardir, albatta, zanjiri yechilgan g'uliyalar meni kuzatib yurgandek tuyuladi.

Avtobuslarda yursam, ba'zi odamlar sekin tikilib qoladi. «Sizni qayerdadir ko'rganman, juda qadrdonsiz-da», deydi, men: «Televizorda ko'p chiqish qilganman, shunga ko'zingiz o'rganib qolgan», deb chap beraman. «Sizday odam avtobusda yuribdimi? Ishdan bo'shadingizmi?», deydi yana boshqalari. «Ishdan bo'shashimning nima aloqasi bor?» desam, kiftini qisib: «Xizmat mashinasida yurishingiz kerak-ku», deydi. Sezyapsizmi, o'smoqchilayapti, kimligimni bilib qolgan-u, lekin bilganini meni bilib qolmasin deb, ehtiyotini qilyapti. Bunaqalarni ko'raverib pishib ketganman, hech sirimni boy bermayman. «Ha, shundoq, bo'shaganman, xizmat mashinam ham yo'q», deb qo'ya qolaman. Qiziq, xizmat mashinasida yurdim – nima, avtobusda qatnadim – nima, bularga nima farqi bor? Albatta, o'zlari bilmaydi, lekin men bilaman. Ammo buning endi foydasi yo'q, ular kimligini ochmaydi, ochganda ham menga kerak emas. G'uliston, g'uliyalar haqida o'ylashlarimning o'zi yetib ortadi menga. Jizzax – Toshkent yo'lida shuncha qatnab u yoqqa o'tib ketmaganimdek, o'tgan boshqalarni ham mutloq eshitmadim. Xullas, G'ulistonni ko'rish faqat menga nasib bo'lgan. Xotiralarimni avaylab saqlashim kerak edi, lekin sizdan yashira olmayman, gap yozuvchi do'stimning G'uliston mavzuida yana bir ro'mon yozmoqchi bo'lganida ham emas, mayli, yolg'onning umri qisqa, faqat bolalab ketishi bor. Bilganlarimni siz bilan o'rtoqlashishim kerak, lekin bu yoqda ham bir narsaga ketimni jiddiy qo'yib kirishmagan odam, u yoqda ham o'zgarmabman: G'uliston haqidagi bilganlarim undan-bundan cho'qilangan, yuzaki, chala, shundan bilimimga o'zim ham uncha ishonmayman. Ammo bitta gap aniq: men G'ulistonga borib, eson-omon qaytib

kelganman, shuni albatta aytishim, siz bilishingiz shart edi, qolgan hammasi bo'ladigan gaplar.

Ha, darvoqe, so'ngso'z deymizmi, oxirlamami, G'uliston xotiralari hech tugamaydigan, yozganlarim ham hali-beri itmomiga yetmaydigan ko'rinadi, shunga nima deb yakunlashga ham hayronman. Balki yana yozib qolarmanmi. Xotiralarim ham to'kilib boryapti lekin...

O'z yurtimda yashayapman,

Xudoga shukr!

\Annotasiya\

Ahmad A'zam – o'ziga xos yozuvchi, u dunyoga boshqalardan ayriqcha qaraydi, voqelikni tamsiliy, jozibali tilda tasvirlaydi.

Yozuvchi “Ro'yo yoxud G'ulistonga safar” degan yana bir g'aroyib roman yozdi. Nimalari g'aroyib ekani o'qib bilasiz. O'qing, chindan ham g'aroyib...

Fotosurat yoniga /tagiga/ ko'chirma

Xullas, G'ulistonni ko'rish faqat menga nasib bo'lgan. Xotiralarimni avaylab saqlashim kerak edi, lekin sizdan yashira olmayman... men G'ulistonga borib, eson-omon qaytib kelganman, shuni albatta aytishim, siz bilishingiz shart edi, qolgan hammasi bo'ladigan gaplar.